O‘ZBEKISTON SAVDO-SANOAT PALATASI

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
1932-yildan beri

INNOVATIVE ACADEMY

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



“ISHLAB CHIQARISH VA QAYTA ISHLASHNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANISHI SHAROITIDA ILM-FAN VA SOHA KORXONALARINING INTEGRATSIYASI”

Respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani
TO‘PLAMI

I-QISM

Toshkent-2026

Mazkur to‘plamda to‘qimachilik va paxta sanoati tarmoqlariga, yengil sanoat, matbaa mahsulotlarining yangi assortiment turlarini kengaytirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, charm-poyabzal va mo‘ynachilikda, kimyo sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga oid professor-o‘qituvchi, doktorant, tayanch doktorant, mustaqil izlanuvchilar, magistrlar, iqtidorli talabalarning olib borayotgan ilmiy tadqiqot ishlari yo‘nalishidagi materiallari keltirilgan.

Ushbu to‘plam mazkur yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan professor-o‘qituvchi, doktorant, tayanch doktorant, mustaqil tadqiqotchi va magistrlar hamda bakalavrlar uchun mo‘ljallangan.

Tahrir hay’ati:
Rais: t.f.d., prof. N.B.Mirzayev
A’zo: t.f.d., prof. K.R.Avazov

© Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, 2026 yil

1-sho‘ba: To‘qimachilik va paxta sanoati tarmoqlariga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish asosida rivojlantirish, ekologik muammolar

ЗАВИСИМОСТЬ ИСТИРАНИЕ ТКАНЕЙ «БЕКАСАМ» ОТ СТРУКТУРНЫХ ПАРАМЕТРОВ

Валиева З.Ф., Норбеков Н.
Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Аннотация. *В статье рассмотрены вопросы влияния волокнистого состава и структурных параметров тканей на истирание. Для получения регрессионной модели, определили влияние плотности нитей, коэффициенты переплетение и структуры на истирание тканей.*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada matolarning tola tarkibi va strukturaviy parametrlarining ishqalanishga qarshiligi ta'siri o'rganiladi. Regressiya modelini ishlab chiqish uchun biz ip zichligi, to'qish koeffitsientlari va tuzilishining mato ishqalanishga qarshiligi ta'sirini aniqlandi.*

Abstract. *This article examines the influence of fiber composition and structural parameters of fabrics on abrasion. To develop a regression model, we determined the influence of thread density, weave coefficients, and structure on fabric abrasion.*

В условиях стабильного спроса на национальные ткани, возникает необходимость расширения ассортимента тканей, выработанных из местного сырья на отечественных предприятиях, что будет способствовать экономии валютных средств и обеспечению занятости населения. В то же время слабая изученность технологических и потребительских свойств выпускаемых тканей, невозможность прогнозирования их поведения в процессе изготовления и эксплуатации одежды не позволяют выпускать качественные и надежные швейные изделия.

Для изучения влияние волокнистого состава тканей на их эксплуатационные свойства у отобранных образцов тканей «Бекасам» были определены структурные и физико-механические показатели. Основным воздействиям, которым подвергались образцы тканей «Бекасам» являются поверхностная плотность, разрывная нагрузка, стойкость к истиранию по плоскости, число нитей на 10 см, устойчивость окраски к изменению размеров после мокрой обработки, истирание, гигиенические свойства.

Перед проведением испытательных работ, образцы выдерживались в нормальных климатических условиях согласно ГОСТ ИСО 139-2014 [29]. Сравнительная характеристика результатов испытаний образцов тканей предоставлена в таблице 1.

таблица 1

Физико-механические показатели тканей

№	Наименование показателей	Единица измерения	Волокнистый состав			
			I	II	III	IV
1	Волокнистый состав	Основа	100% шёлк	100% хлопок	100% вискоза	100% хлопок
		Уток	100% хлопок	100% хлопок	100% хлопок	100% синтетика
2	Поверхностная плотность	g/m^2	166,5	161,5	162,7	160,6
3	Толщина	Mm	0,4	0,4	0,35	0,33
4	Число нитей По основе По утку	Шт	 430 366	 268 142	 464 162	 230 166
5	Воздухопроницаемость	dm^3/m^2*sec	128,5	314	149,5	109,6
6	Гигроскопичность	%	5,35	8,23	7,11	2,93
7	Несминаемость По основе По утку	%	 51,1 53,3	 66,6 72,2	 64,1 67,7	 72,2 77,7
8	Разрывная нагрузка полоски ткани по основе по утку	N	 651 456	 760 320	 562 439	 826 343
9	Истирание	Цикл	22000	16000	24000	26000
10	Электризуемость	V	648	292	432	963
11	Устойчивость окраски Сухое трение	Балл	4	4	4	4

Истирание ткани – это показатель, при помощи которого измеряют износостойкость ткани. Проверить её можно только одним способом, применяя Тест по Мартиндейлу (Martindale) и заключается в том, чтобы абразив (то есть трущий материал) выдерживал трение образца проверяемой ткани по стандарту.

Для изучения влияния волокнистого состава и структурных параметров тканей на истирание, значения которых приведены в таблице

таблица 2

№	Диаметр нитей, см		Плотность нитей, см		Коэффициент переплетения	($П_о П_у d_о d_у)*К_п$	Истирание, цикл
	Основа	Уток	Основа	Уток			
I	0,0167	0,0282	430	366	0,063	4,6693	22000
II	0,0239	0,0179	268	142	0,0625	1,0175	16000
III	0,0199	0,0162	464	162	0,25	6,0580	24000
IV	0, 0239	0,0206	230	166	0,25	4,6993	26000

Рис.1 Влияние волокнистого состава на истирание тканей «Бекасам»

При обработке результатов, приведённых в таблице Получаем эмпирические коэффициенты регрессии: b = 0.245, a = 4.2049 и математическую модель влияния структурных параметров ткани на истирание, выражающая формулой.

Уравнение регрессии:

$$y = 10^{4.2049}x^{0.245} = 16028.02x^{0.245}$$

Таким образом, изучена зависимость Y(истирания) от X (структурных параметров тканей). Оценены её параметры методом наименьших квадратов:

$y = 67.013*x^{0.245}$ Статистическая значимость уравнения проверена с помощью коэффициента детерминации и критерия Фишера. Установлено, что в исследуемой ситуации 88.15% общей вариабельности истирания объясняется изменением структурных параметров ткани. Возможна экономическая интерпретация параметров модели - увеличение X на 1% приводит к увеличению Y в среднем на 0.245%. Значение ошибки аппроксимации (0.52%) говорит о хорошем качестве найденной модели.

Выбирая ткань, для пошива одежды, необходимо уделять внимание материалу, из которого она сшита. Каждый вид ткани имеет свои достоинства и недостатки, от которых зависит красота и комфорт, продолжительность носки и требования по уходу.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Н. А. Савостицкий «Материаловедение швейного производства» Изд. «Мастерство», 2000
2. www.symbat.kz
3. Валиева З. Ф., Тохирова З. З. Зависимость качественных характеристик платьевых тканей от волокнистого состава //Models and methods in modern science. – 2022. – Т. 1. – №. 13. – С. 113-118.
4. Соловьев А. Н., Кирюхин С. М. «Оценка и прогнозирование качества текстильных материалов» М.: Легкая и пищевая промышленность,1984.

5. 5.Articles • Matéria (Rio J.) 20 (4) • Oct-Dec 2015 • https://doi.org/10.1590/S1517-707620150004.0097 A study on the functional properties of silk and polyester / lyocell mixed fabric Jeyakodi Moses JeyarajMariappan ArumugamVellingiri Kulandaiappan AB

PERFOSIRTLI KESIK KONUS SHAKLIDAGI TOZALASH USKUNASIDA TOLALARGA TA’SIR ETUVCHI TASHQI KUCHLAR TAHLILI

tayanch doktorant N.A.Sadikova
t.f.f.d.,dots. U.Y.Yusupaliyeva
t.f.f.d., dots. Sh.R.Aripova
t.f.f.d., dots. N.A.Xusanova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kesik konus shaklidagi perfo sirtli tozalash uskunasining tadqiqot jarayonida konstruktiv tuzilishi va ishlash prinsipi chuqur tahlil qilinib, tolalar hamda mayda iflosliklarning uskuna ichidagi harakat mexanikasi o‘rganildi. Shuningdek, tolalar oqimining kesik konusli ishchi yuzasidagi ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar natijasidagi harakat sxemasi tahlil qilindi.*

Аннотация. *В данной статье в процессе исследования очистительного оборудования с перфорированной поверхностью в форме усечённого конуса были подробно проанализированы его конструктивное устройство и принцип работы, а также изучена механика движения волокон и мелких примесей внутри оборудования. Кроме того, была проанализирована схема движения потока волокон под воздействием внешних сил на рабочей поверхности в форме усечённого конуса.*

Abstract. *In this article, during the research of a cleaning device with a perforated surface in the shape of a truncated cone, its structural design and operating principle were thoroughly analyzed, and the mechanics of the movement of fibers and small impurities inside the equipment were studied. Additionally, the motion pattern of the fiber flow under the influence of external forces on the truncated conical working surface was analyzed.*

Tolalarni dastlabki qayta ishlash jarayonlari yigirish texnologiyasining muhim bosqichi bo‘lib, aynan ushbu jarayonlarda tolalarning tozalanish darajasi, bir xil aralashganligi va fizik-mexanik holati shakllanadi. Sifatli ip olishda nafaqat tolalarning dastlabki sifat ko‘rsatkichlari, balki ularni qayta ishlashda qo‘llaniladigan texnologik jarayonlar, uskunalarning konstruktiv xususiyatlari va ish rejimlari ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Tolalarning yetarli darajada

tozalanmasligi yoki notekis aralashishi ipning mustahkamligi, bir xilligi va chiziqli zichligi kabi asosiy sifat ko‘rsatkichlarining pasayishiga sabab bo‘ladi.

Mazkur masalalarni hal etish maqsadida ushbu tadqiqotda perforatsiyalangan sirtli kesik konus shaklidagi yangi uskuna taklif etildi. Uskunada tolalar oqimining murakkab aylanuvchi harakati hisobiga tozalash va aralashtirish jarayonlarini birgalikda amalga oshirish imkoniyati o‘rganildi. Taklif etilayotgan yechim texnologik jarayonlarni soddalashtirish, energiya sarfini kamaytirish hamda tolalarning mexanik shikastlanishini minimallashtirish orqali yigirilgan ip sifatini oshirishga xizmat qiladi [1,2].



1-rasm. Tolalar oqimining kesik konusli ishchi yuzasidagi ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar natijasidagi xarakat sxemasi



2-rasm. Tolalarni vintli harakat trayektoriyasida vint qadamin gorizontal uzunligi bilan bog‘liqlik sxemasi

Bu yerda $b = 2 \cdot \pi \cdot (\frac{R_2 - R_1}{h} \cdot z + R_1)$-gorizontal uzunligi $h = 2 \cdot \pi \cdot a$-vint qadami a-vertikal siljishi α-vint chizig‘ining qiyalik burchagi.

Tolalar oqimini kesik konusli ishchi yuzasida urinma normal va binormal yo‘nalishlardagi harakat tenglamalarini aniqlaymiz

$$m \cdot \frac{d\vartheta}{dt} = m \cdot g \cdot \sin\alpha - k \cdot N$$
$$m \cdot \frac{\vartheta_\varphi^2}{r} = N \cdot \cos\beta \qquad (1)$$
$$m \cdot g \cdot \cos\alpha = N \cdot \sin\beta$$

Bu xarakat tenglamalardan tolalar oqimini tezligi $\vartheta_\varphi = \vartheta \cdot \cos\alpha$ ekanligidan va toalalr oqimi kesik konusli ishchi yuzasida xarakatini o‘zgarish qonuniyatidan $r = \frac{R_2 - R_1}{h} \cdot z + R_1$

$$\mathrm{tg}\beta = \frac{m \cdot g \cdot r \cdot \cos\alpha}{m \cdot \vartheta_\varphi^2} = \frac{(\frac{R_2 - R_1}{h} \cdot z + R_1) \cdot g \cdot \cos\alpha}{\vartheta_\varphi^2}$$
$$z = \left[\frac{\vartheta_\varphi^2 \cdot \mathrm{tg}\beta}{g \cdot \cos\alpha} - R_1 \right] \cdot \frac{h}{R_2 - R_1} \qquad (2)$$

(2) ifoda tolalar oqimining kesik konusli ishchi yuzasida xarakati tenglamasi bu tenglikdan foydalanib Maple dasturi orqali grafiklarda tahlillari keltirilgan



3-rasm. Tolalar oqimining kesik konusli ishchi yuzasidagi harakatini to‘rli setkaga urilishi bo‘ylab turli xil tezliklaridagi $v_1 = 16\frac{m}{s}$, $v_2 = 12\frac{m}{s}$ $v_3 = 8\frac{m}{s}$ qiymatlarida harakatlanish trayektoriyasi

Tolalar oqimi tarkibidan mayda iflosliklarni ajratishda kesik konusli to‘rli setkalarning o‘lchamlari tasiridagi A. G. Sevostyanov modeliga ko‘ra, mayda ifloslantiruvchi moddalar chiqishi natijasida massasining pasayishi ifodaga to‘g‘ri keladi.

$$\frac{dm}{m} = -\lambda \cdot \frac{dp}{\rho} \qquad (3)$$

integrallab boshlang‘ich shartidan foydalanib tolalar oqimining dastlabki

massalari hamda zichliklari bo‘yicha $m = m_0, \rho = \rho_0$, keyingilarini olamiz:

$$\frac{m_1}{m_0} = \left(\frac{\rho_0}{\rho_1}\right)^{\lambda}$$

Qamrash burchagi bo‘yicha ajralayotgan mayda iflosliklarning nisbiy massasini aniqlaymiz

$$\varepsilon(\varphi) = \frac{m_0 - m_1}{m_0} = 1 - \left[\frac{\vartheta_0(\varphi)}{\vartheta_1(\varphi)}\right]^{\lambda} \qquad (4)$$

$\varepsilon(\alpha)$ tolalar oqimining uzluksiz funksiya shartidan foydalaniladi.

Tolalar oqimidan ajralayotgan mayda iflos aralashmalarning umumiy sarfi quyidagicha aniqlanadi.

$$Q = Q_0 \int_{\varphi_0}^{\varphi_1} \varepsilon(\varphi) \cdot d\varphi, \qquad (5)$$

(5) ifoda tolalar oqimining kesik konusli to‘rli yuzaga kirishdagi sarfini chiqishdagi sarfiga bog‘liqligidan ajralayotgan mayda iflosliklarning nisbiy massasiga bog‘liqlik ifodasidan

$$\varepsilon = \frac{m_0 - m}{m_0} = 1 - \frac{m}{m_0} = 1 - e^{-\lambda \cdot (\vartheta_0 + \dot{\varphi}) \cdot} \qquad (6)$$

mayda iflosliklarni ajratishda qo‘llanilayotgan samaradorligiga ta’sirini tekshiramiz. Tozalash samaradorligi grafiklarda keltirilgan bo‘lib λ ni xar xil qimatlarida t vaqt bo‘yicha o‘zgarishi aniqlangan.

$$\lambda = 0.3$$



4-rasm. tolaladan iflosliklarni ajratish samaradorligi koeffitsiyentining turli xil tezliklari $v_1 = 16\frac{m}{s}$, $v_2 = 12\frac{m}{s}$ $v_3 = 8\frac{m}{s}$ qiymatlarida vaqt bo‘yicha o‘zgarish grafigi.

Xulosa: Tahlillar natijasida kesik konusli tozalash mashinasida tolalar oqimidan iflos aralashmalarni ajratishdagi tozalash samaradorligi grafiklari aniqlandi. Bu grafiklar asosida shuni takidlashimiz kerakki, tozalash samaradoriligi koeffitsiyentining turli qiymatlarida tolalar oqimidan iflos

aralashmalarni tozalashda tezligining v_2=12 m/s qiymatida samaradorlikka erishilganligini aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. U.N.Yusupaliyeva, N.A.Sadikova, N.N.Yuldashev “SCI ko‘rsatkichi asosida saralanma tuzish va yigirilgan ip sifatini tahlil qilish” Textile Journal of Uzbekistan №3/2025 ISSN 2010-6262
2. Yusupaliyeva U.N., Sadikova N. Paxta tolasining rang ko‘rsatkichlarini ip xossalariga ta’siri tadqiqoti. Academic Research in Educational Sciences. Volume 3/ Issue 9 / 2022.
3. Yusupaliyeva U.N., Yuldashev N.N. Color quality control in the production of cotton fiber. European chemical bulletin 2022, 11(4).
4. U.Yusupalieva, K.Jumaniyazov, F.Rakhmatullinov. Pryaji raznogo assortimenta. // J. Universum: технические науки - 2018 № 12 (57), - S. 51-55
5. Шоҳайдарова П., Шозиётов Ш., Зоиров Ж. Назарий механика.– Тошкент.: Ўқитувчи, 1991. –407 б.

TO‘QUV MASHINALARI KONSTRUKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA OLIB BORILGAN ILMIY IZLANISHLAR VA ULARNI TAXLILI

t.f.n., professor N.K.Dadaxanov
Namangan davlat texnika universiteti.
Phd J.D.Aizov,
Namangan davlat texnika universiteti.

Annotatsiya. *Mazkur maqolada to‘quv mashinalari konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlil qilingan. Unda to‘qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash hamda energiya tejamkorligini ta’minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy to‘quv mashinalarining asosiy turlari, jumladan, air-jet, water-jet va rapirli tizimlarning afzalliklari ko‘rib chiqilgan. Ilmiy tadqiqotlar natijasida mexanik tizimlarni optimallashtirish, avtomatlashtirish darajasini oshirish va raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etishning muhimligi asoslab berilgan. Xorijiy hamda mahalliy olimlarning ushbu sohadagi ishlari tahlil qilinib, ularning ilmiy ahamiyati ochib berilgan.*

Аннотация. *В данной статье проведён анализ научных исследований, направленных на совершенствование конструкции ткацких машин. Рассмотрены основные тенденции развития текстильной промышленности, вопросы повышения производительности, улучшения качества продукции и обеспечения энергоэффективности. Особое внимание уделено современным типам ткацких машин, таким как air-jet,*

water-jet и рапирные системы, а также их преимуществам. Обоснована важность оптимизации механических систем, повышения уровня автоматизации и внедрения цифровых технологий управления. Проанализированы научные работы зарубежных и отечественных исследователей в данной области и раскрыта их значимость. Результаты исследования показывают, что совершенствование конструкции ткацких машин способствует повышению эффективности производства и выпуску конкурентоспособной продукции.

Abstract. *This article presents an analysis of scientific research aimed at improving the design of weaving machines. It examines current development trends in the textile industry, including increasing production efficiency, improving product quality, and ensuring energy efficiency. Particular attention is given to modern types of weaving machines such as air-jet, water-jet, and rapier systems, along with their advantages. The study highlights the importance of optimizing mechanical systems, enhancing automation levels, and implementing digital control technologies. In addition, the works of both foreign and local researchers in this field are reviewed and their scientific contributions are discussed. The results indicate that improving the design of weaving machines plays a crucial role in increasing production efficiency and producing competitive textile products.*

To‘qimachilik sanoati jahonda eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri hisoblanadi. To‘quv mashinalari konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar to‘quv dastgohini samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va energiya tejamkorligini ta‘minlashga qaratilgan. Aholining kiyim-kechak va maishiy to‘qimachilik mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyoji ortib borayotganligi ushbu sohada ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, mahsulot sifatini oshirish hamda raqobatbardosh texnologiyalarni joriy etishni talab etmoqda. Ayniqsa, global bozor sharoitida sifatli va arzon mahsulot ishlab chiqarish uchun zamonaviy, yuqori unumdor va energiya tejamkor to‘quv mashinalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. [1, 2] To‘quv mashinalari to‘qimachilik ishlab chiqarishining asosiy texnologik bo‘g‘ini bo‘lib, ularning konstruksiyasi va ishlash prinsipi tayyor mahsulot sifati, ishlab chiqarish tezligi va iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababli, ushbu mashinalarni takomillashtirish masalasi ko‘plab ilmiy tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelmoqda. Ilmiy izlanishlar natijasida an‘anaviy mexanik tizimlar o‘rnini avtomatlashtirilgan va raqamli boshqaruvga ega bo‘lgan zamonaviy qurilmalar egallab bormoqda.

Hozirgi kunda to‘quv mashinalari konstruksiyasini rivojlantirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda. Mexanik tizimlarni optimallashtirish, yuqori tezlikda ishlash imkoniyatlarini kengaytirish, energiya sarfini kamaytirish, avtomatlashtirish darajasini oshirish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish. Ayniqsa, havo oqimi (air-jet), suv oqimi (water-jet) va rapirli to‘quv

mashinalarining yaratilishi ishlab chiqarish samaradorligini keskin oshirish imkonini berdi. Shuningdek, zamonaviy ilmiy tadqiqotlar ishlab chiqarish jarayonini intellektuallashtirishga, ya‘ni sensorlar va mikroprotsessorlar yordamida mashinalarni real vaqt rejimida boshqarishga qaratilgan. Bu esa inson omilini kamaytirib, mahsulot sifatini barqarorlashtirish va nosozliklarning oldini olish imkonini beradi. Mazkur ishning dolzarbligi shundaki, to‘quv mashinalari konstruksiyasini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga erishish mumkin. Shu bois, ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlarni o‘rganish va tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. [3, 4,5].

To‘quv dastgohini takomillashtirgan yetakchi horijiy tadqiqotchilar ular quyidagi ishlarni amalga oshirgan. Rudolf Rossmann – yuqori tezlikda ishlovchi to‘quv mashinalarining dinamikasini o‘rganib, vibratsiyani kamaytirish usullarini ishlab chiqqan. Talukdar M.K. – to‘qimachilik texnologiyalari, jumladan to‘quv mashinalarining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy ishlar olib borgan. Joseph Marie Jacquard – dasturlashtirilgan to‘quv mashinasini yaratib, murakkab naqshlarni avtomatik to‘qish imkonini bergan. Bu hozirgi raqamli boshqaruv tizimlariga asos bo‘lgan. To‘quv dastgohini konstruksiyasini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimiz hamda MDH olimlari tomonidan ham ko‘plab ishlar amalga oshirilgan va tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etmoqda. A.N. Solovyov – to‘quv mashinalari mexanikasi va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. V.A. Korchagin – to‘quv jarayonlarini optimallashtirish va mashina konstruksiyasini takomillashtirish ustida ishlagan [6,7,8]. O‘zbekistonlik olimlar (masalan, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti olimlari) to‘quv mashinalarini mahalliy sharoitga moslashtirish, energiya tejash va samaradorlikni oshirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Jumladan Namangan davlat texnika universiteti to‘qimachilik sanoati kafedrasi professorlari R.K.Karimov, A.Akramovlar to’quv dastgohlaridagi sochiqbom to’qima olish parametrlarini optimallash bo’yicha tadqiqot islarini olib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Adanur, S. *Handbook of Weaving*. CRC Press, 2001.
2.Talukdar, M.K., Sriramulu, P.K., Ajgaonkar, D.B. *Weaving Machines, Mechanisms, Management*. Mahajan Publishers, 1998.
3. Ormerod, A. *Modern Preparation and Weaving Machinery*. Woodhead Publishing, 2004.
4. Lord, P.R., Mohamed, M.H. *Weaving: Conversion of Yarn to Fabric*. Merrow Publishing, 1982.
5.Solovyov, A.N. *Механика ткацких машин*. Москва: Легкая промышленность, 1985.
6. Korchagin, V.A. *Технология ткачества*. Москва: Легпромиздат, 1990.

7. Sabit Adanur. “Air-Jet and Rapier Weaving Technologies.” Textile World Journal, 2005.
8. Rossmann, R. *Dynamics of High-Speed Weaving Machines*. Textile Research Journal, 2003.

O‘ZGARUVCHAN QIRRALI VA DIAMETRLI KOLKALI BARABANLARNING PAXTANI TOZALASH SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

D.A.Djurayev
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,
“Mashinasozlik” kafedrasi, t.f.d., professor anvardjurayev@gmail.com
K. K. Yuldashev
Andijon davlat texnik instituti,
texnika fanlari doktori, “Umumtexnika fanlari” kafedrasi dotsenti.
O.A.Qorachayeva
Andijon davlat texnika instituti,
tayanch doktaranti oltinoyismoilova@gmail.com

Annotatsiya. *Maqolada paxta tozalash sanoatining dolzarb muammolaridan biri — xomashyoni tozalash samaradorligini oshirish va uning tabiiy xususiyatlarini saqlab qolish masalalari yoritilib, kolkali barabanlarning takomillashtirilgan konstruksiyasi taklif etilgan. Ixtironing asosiy yangiligi ketma-ket joylashgan barabanlarda 5, 6, 7 va 8 qirrali hamda o‘zgaruvchan diametrli kolkalarning shaxmat tartibida qo‘llanilishidir.*

Аннотация. *В статье рассматривается одна из актуальных проблем хлопкоочистительной промышленности — повышение эффективности очистки сырья при сохранении его природных качественных показателей. Предложена усовершенствованная конструкция колковых барабанов. Основная новизна изобретения заключается в применении в последовательно расположенных барабанах 5, 6, 7 и 8-гранных колков переменного диаметра, установленных в шахматном порядке.*

Abstract. *The article examines one of the pressing issues in the cotton ginning industry — enhancing the cleaning efficiency of raw materials while preserving their natural properties. An improved design of pegged drums is proposed. The key novelty of the invention lies in the use of 5, 6, 7, and 8-sided pegs with variable diameters arranged in a staggered (checkerboard) pattern on sequentially positioned drums.*

Paxta tozalash sanoatining bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri — xomashyoni dastlabki ishlash jarayonida uning tabiiy xususiyatlarini (tola

pishiqligi, uzunligi va rangi) saqlab qolgan holda, tozalash samaradorligini oshirishdan iborat. Ayniqsa, paxta tarkibidagi mayda iflosliklar va ulyuk (yopishqoq aralashmalar) miqdorini kamaytirish texnologik jarayonning keyingi bosqichlari bo‘lgan jinlash va titish-savarash ishlarining sifatli o‘tishini ta’minlaydi.

Mavjud paxta tozalash qurilmalarida, xususan, keng tarqalgan 1XK rusumli tozalagichlarda kolkali-plastinkali barabanlar qo‘llaniladi. Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu konstruksiyalarda kolkalarning xom paxta bo‘laklarini yetarli darajada ushlab qololmasligi va to‘rli sirt bo‘ylab tortib o‘tish tezligining pastligi sababli tozalash samaradorligi yetarli darajada emas. Hozirda qo‘llanilayotgan texnologiyalarda ulyuk bo‘yicha tozalash koeffitsiyenti atigi 10–15% ni tashkil etmoqda [1, 2]. Bu esa o‘z navbatida, jinlash jarayonida chigitning shikastlanishi va tolada qiyin ajraladigan nuqsonlar — tolali qobiq bo‘laklarining ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish maqsadida, mazkur tadqiqotda paxtani mayda chiqindilardan tozalash qurilmasining takomillashtirilgan konstruksiyasi taklif etiladi. Taklif etilayotgan ixtironing asosiy yangiligi shundaki, tozalash zonalaridagi ketma-ket joylashgan barabanlarda turli qirrali hamda o‘zgaruvchan diametrli silindrsimon kolkalarning shaxmat tartibida qo‘llanilishidir. Ushbu maqolada kolkalar kontakt zonasini o‘zgartirish orqali paxtaning bo‘shashish darajasini oshirish va yuqori unumdorlikda tiqilib qolish (zaboy) holatlarining oldini olish masalalari ilmiy-texnik jihatdan asoslab beriladi.

Tolali materialni tozalash qurilmasining mohiyati shundan iboratki, u korpus ichida ketma-ket joylashtirilgan to‘rtta kolkali barabandan iborat bo‘lib, ularning ostida setkali (to‘rli) sirt mavjud. Kolkalar silindrsimon va ko‘p qirrali shaklda bo‘lib, qatorlar bo‘ylab shaxmat tartibida joylashtirilgan. Birinchi barabanda kolkalar 5 qirrali, ikkinchisida 6 qirrali, uchinchisida 7 qirrali va to‘rtinchisida 8 qirrali qilib bajarilgan. Silindrsimon kolkalar diametri esa mos barabanning ko‘p qirrali kolkalarining ichki aylana diametriga teng qilib tanlangan.

Silindrsimon va ko‘p qirrali kolkalarning almashib joylashishi tozalash jarayonidagi bir xillikni buzadi va paxtaning rezina qavat bilan samarali kontaktini ta’minlaydi. Kolkalar qirralari sonining ortib borishi paxtaning tozalash zonalari bo‘ylab asta-sekin bo‘shashishiga mos keladi. Bundan tashqari, keyingi barabanlarda silindrsimon kolkalar diametrining kattalashib borishi paxtaning tezroq harakatlanishini ta’minlaydi va tiqilib qolishni bartaraf etadi.

Konstruktsiya chizmalar bilan tushuntiriladi:

1-rasm— tolali material tozalagichining umumiy ko‘rinishi; 2-

rasm— birinchi baraban yuzasidagi kolkalar joylashuvi; 3-rasm— ikkinchi baraban; 4-rasm — uchinchi baraban; 5-rasm — to‘rtinchi baraban sxemasi.

Konstruktsiya quyidagilardan iborat: korpus ichida ketma-ket joylashgan 2, 3, 4 va 5-barabanlar hamda ularning ostida joylashgan setkali sirt 6 va chiqindi chiqarish kanali 7. Mos barabanlar yuzasida 5 qirrali kolkalar (8), 6 qirrali (10), 7 qirrali (13), 8 qirrali (15), shuningdek silindrsimon kolkalar (9, 11, 12, 14) o‘rnatilgan bo‘lib, ularning diametrlari $d_1 < d_2 < d_3 < d_4$ mos ravishda ko‘p qirrali kolkalar kesimining ichki aylana diametrlariga teng qilib olingan.

Qurilma quyidagicha ishlaydi: xom paxta 2-barabanning 8 va 9 kolkalari tomonidan ushlanadi, ular bilan o‘zaro ta’sirlashib, bo‘shashadi va setkali sirt 6 bo‘ylab tortib o‘tkaziladi. Ajralgan mayda chiqindilar 7-kanal orqali chiqib ketadi. Keyinchalik paxta 3, 4 va 5-barabanlar orqali ketma-ket o‘tkaziladi. Harakat davomida paxta tobora bo‘shashadi va undan chiqindilar ajralib chiqadi. Qirralari ortib boruvchi kolkalar (8, 10, 13, 15) hamda diametri kattalashib boruvchi silindrsimon kolkalar (9, 11, 12, 14), ya’ni $d_1 < d_2 < d_3 < d_4$ bo‘lishi, paxtaning yanada samarali bo‘shashishiga xizmat qiladi.Natijada paxtaning kolkalar bilan kontakt yuzasi ortadi va tiqilib qolish holatlari bartaraf etiladi.

Paxtani mayda iflosliklardan tozalash uskunasi



Rasm 1



Rasm 2



Rasm 3



Rasm 4



Rasm 5

Asosiy g‘oya: kontakt yuzasi ortishi, paxtaning bosqichma-bosqich bo‘shashishi, transport tezligining oshishi

Kontakt yuzasi orqali samaradorlik

Tozalash samaradorligi η kontakt yuzaga bog‘liq:

$$\eta \sim S_{contact}$$

Ko‘p qirrali kolkalar → sirt notekis → kontakt ortadi[3,4].

Ko‘p qirrali kolkaning perimetri: $P_n = \text{n}\cdot\text{a}$

Bu yerda: n – qirralar soni (5,6,7,8) a – qirra uzunligi

Silindr uchun $P_C = 2\pi R$

Agar ichki aylana teng bo‘lsa: $\alpha \approx 2\text{R}\tan(\pi \therefore n)$ $P_n > P_c$ $(n \uparrow \rightarrow P_n \uparrow)$

Paxtaga ta’sir etuvchi kuch: $F = m * a$

ko‘p qirrali kolkalar → zarba kuchi , silindrik kolkalar → yumshoq tortish

Shuning uchun umumiy ta’sir: $F_{eff} = F_{zarba} + F_{ishqalanish}$

$n = 5 \rightarrow 6 \rightarrow 7 \rightarrow 8$ bu degani $k_{bo'shashish} \sim n$ $k \sim n$ shunday qilib $k_1 < k_2 < k_3 < k_4$

Natija:

Paxta birdan emas, gradual (bosqichma-bosqich) ochiladi → bu optimal rejim

Transport tezligi va zaboy yo‘qolishi

Natija: paxta tezlashadi, yig‘ilib qolmaydi , zaboy yo‘qoladi

$$d_1 < d_2 < d_3 < d_4$$

Baraban chiziqli tezligi $v = \omega R$ demak $v_1 < v_2 < v_3 < v_4$

Natija: paxta tezlashadi, yig‘ilib qolmaydi , zaboy yo‘qoladi. Taklif etilgan konstruktsiyada kolkalar qirralari sonining ortib borishi va silindrik kolkalar diametrining bosqichma-bosqich kattalashuvi natijasida paxtaning bo‘shashish koeffitsienti oshadi, kontakt yuzasi kengayadi hamda transport tezligi ortadi. Bu esa tozalash samaradorligini oshirib, zaboy hosil bo‘lishining oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xom paxtani dastlabki qayta ishlash. O‘quv qo‘llanma. E.Z. Zikriyoyev umumiy tahriri ostida. — Toshkent: Mehnat, [84–86-betlar]

2. Miroshnichenko G.I. Paxtani dastlabki qayta ishlash mashinalarini loyihalash asoslari. — M.: Mashinasozlik, 1972. — [135-bet]

3. Xoliqov, Q. M., & To‘xtayeva, Z**.** (2024). Paxtani iflosliklardan tozalash uskunalarining ta’minlovchi valiklarini takomillashtirishning nazariy asoslari. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan,* 2(11), 1-8.DOI**:** 10.5281/zenodo.14161705

4. Usmonov, Kh. S., & Madumarov, I. D. (2024). Development of the feeding roller of cleaning equipment for cotton from fine

impurities. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(11), 314-318.DOI**:** 10.55640/eijmrms-04-11-54

KIYIM ISHLAB CHIQARISHDA TO‘QIMA VA TRIKOTAJ MATOLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

talaba G. Ermatova
dotsent Sh.E. To’lanov
laborant O.V. Prozorova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *maqolada kiyim ishlab chiqarishda to‘qima va trikotaj matolarining xususiyatlari va qo‘llanilish sohalari qiyosiy tahlil qilingan bo’lib, har ikki turdagi materiallarning afzallik va kamchiliklari, jumladan mustahkamlik, geometrik, havo o‘tkazuvchanlik hususiyatlari ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация: *в статье проведён сравнительный анализ свойств и областей применения тканых и трикотажных материалов в производстве одежды. Рассмотрены преимущества и недостатки обоих видов материалов, включая прочность, геометрические характеристики и воздухопроницаемость.*

Abstract: *the article presents a comparative analysis of the properties and application areas of woven and knitted materials in clothing production. It examines the advantages and disadvantages of both types of materials, including strength, geometric characteristics, and air permeability.*

Kiyim ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladigan materiallar orasida to‘qima va trikotaj matolar alohida ajralib turadi, ular tuzilishi, hosil bo‘lish usuli hamda xossalari majmuasi jihatidan sezilarli darajada farqlanadi [1]. To‘qima materiallar tanda va arqoq iplarining o‘zaro to‘qilishi (o’rilish) orqali hosil qilinadi, bu esa ularga yuqori mustahkamlik, shaklni saqlash qobiliyati va o‘lchamlarning barqarorligini ta’minlaydi. Shu bilan birga, trikotaj matolar halqa tizimi hosil bo‘lishi hisobiga shakllanadi, bu esa ularga yuqori elastiklik, yumshoqlik va inson tanasi shakliga moslashish xususiyatini beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi kiyimlarni loyihalashda to‘qima va trikotaj materiallarning xossalarini kompleks tahlil qilish zarurati bilan belgilanadi. Fizik-mexanik, gigiyenik va ekspluatatsion xususiyatlarning qiyosiy baholanishi har bir material turining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, shuningdek ularni optimal qo‘llash yo‘nalishlarini belgilash imkonini beradi. Ushbu ishning maqsadi kiyim ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan to‘qima va trikotaj materiallarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularning tayyor mahsulotlarning sifati va funksional xususiyatlariga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Sinov ishlarini o‘tkazishdan oldin namunalar GOST ISO 139-2014 ga muvofiq normal iqlim sharoitida saqlab turildi. Barcha sinovlar Yaponiya ishlab chiqarishiga mansub qurilmalarda amalga oshirildi, jumladan: GX-400 – tarozi, AG-1 – uzilish mashinasi va AP-360SM – havo o‘tkazuvchanlikni aniqlovchi qurilma va boshqalar [2].

Sinov o‘tkazish sharoitlari: xona harorati – 20 ± 2 °C, havoning nisbiy namligi – 65 ± 4 %.

Trikotajning muhim afzalliklaridan biri uning gigiyenik xususiyatlaridir. Tuzilishi materialning havo o‘tkazuvchanligi va gigroskopikligini oshirishga yordam beradi. Teshikchalar mavjudligi samarali havo almashinuvini ta’minlaydi, bu esa kiyim ostidagi makonda optimal mikroiqlimni saqlashga xizmat qiladi. Texnologik nuqtai nazardan trikotaj mato bir qator afzalliklarga ega bo’lib, ular ishlov berishda mehnat sig‘imining pastligi, berilgan shakldagi detallarni hosil qilish imkoniyati, choklar soni va material chiqindilarining kamayishi kabilar hisoblanadi [3].

Shunday qilib, tuzilish, gigiyenik va texnologik afzalliklar majmuasi uni zamonaviy kiyim ishlab chiqarishda ichki kiyimdan tortib kundalik kiyim, maxsus kiyimgacha keng qo‘llash imkonini beradi.

Misol sifatida quyidagi namunalarni ko‘rib chiqamiz (2-rasm):

- paxtadan tayyorlangan to‘qima mato, polotno o’rilishga ega, sirt zichligi 142 g/m²;
- paxtadan tayyorlangan trikotaj mato, kulir (yassi) to‘qilishdagi, sirt zichligi 141 g/m².

2-rasm. Namunalarning tashqi ko’rinishi.

Sinovdan o‘tkazilgan namunalar tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Namunalarining fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Polotno o‘rilishli oqartirilgan bo’z mato, 100 % paxta	Kulir silliq o’rilishli trikotaj mato, 100 % paxta (suprem)
1.	Sirt zichligi, g/m²	142,0	141,5
2.	Havo o‘tkazuvchanlik,	440	850

	$dm^3/m^2 \cdot sek$		
3.	Gigroskopiklik, %	10,1	12,5
4.	Cho‘ziluvchanlik, %	Bo‘ylama (asos) – 10 Ko‘ndalang (arqoq) – 18	Uzunlik bo‘yicha – 35 Eni bo‘yicha – 47
5.	Qalinlik, mm	0,35	0,35

Jadvaldagi natijalarni tahlil qiladigan bo’lsak, namunalarning tolali tarkibi, sirt zichligi va qalinligi bir hil qiymatni ko’rsatishiga qaramay trikotaj matosining gigiyenik hususiyatlari hisoblangan havo o’tkazuvchanligi va gigroskopikligi qiymatlari to’qima matoga nisbatan yuqoriligi aniqlandi va ular quyidagi 3-rasmda yaqqol ko’rinib turibdi.



3-rasm. Namunalarning havo o’tkazuvchanligi va gigroskopikligi, %.

Qiyosiy tahlil natijalari trikotaj matolar cho‘ziluvchanlik, havo o‘tkazuvchanlik va gigroskopiklik ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir qator afzalliklarga ega ekanini tasdiqlaydi.

Aynan trikotaj matolar kiyim qulayligiga qo‘yiladigan quyidagi asosiy talablarni qondiradi: elastiklik, tanaga yaxshi yopishish (moslashish), havo o‘tkazuvchanlik, gigroskopiklik.

Bu zamonaviy kiyim ishlab chiqarishda ularni qo‘llashni kengaytirish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tulanov S., Ahmedov J., Prozorova O. Causes and methods for determining the pilling ability of knitted fabrics depending on the fibrous composition //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – AIP Conf. Proc. 2969, 030023 (2024).

2. Tulanov S., Prozorova O., Ahmedov J., Tursunov T., Tolibaeva S. Evaluation of Insulation Materials for Winter Clothing: A Study on Warmth Retention Properties//AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2025. – Research article. July 21 2025. AIP Conf. Proc. 3304, 030003 (2025).

3. Туланов Ш., Прозорова О., Уролова С. и Эрматова Г. Влияние компонентного состава и вида отделки текстильных материалов на защитные и гигиенические характеристики спецодежды //European Journal

of Interdisciplinary Research and Development. Volume-49, march-2026. P 56-63.

SPORT KIYIMLARI ISHLAB CHIQARISHDA TRIKOTAJ MATOLARIDAN FOYDALANISHNING TEXNOLOGIK VA FUNKSIONAL JIHATLARI

talaba S. Urolova
dotsent Sh.E. To’lanov
laborant O.V. Prozorova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *maqola sport kiyimlarini ishlab chiqarishda trikotaj matolardan foydalanishni tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda trikotajning asosiy afzalliklari, jumladan elastikligi, anatomik moslashuvchanligi va ishlab chiqarishdagi texnologik qulayliklari ko‘rib chiqilgan.*

Аннотаци. *статья посвящена анализу использования трикотажных материалов в производстве спортивной одежды. В ней рассматриваются основные преимущества трикотажа, включая его эластичность и технологические удобства в производстве.*

Abstract. ***T****he article is devoted to the analysis of the use of knitted materials in the production of sportswear. It examines the main advantages of knitwear, including its elasticity, anatomical adaptability, and technological convenience in manufacturing.*

Trikotaj asosan kiyim-kechak ishlab chiqarishda qo‘llaniladi. Uning g‘ovak halqali tuzilishi boshqa matolardan asosiy farqi hisoblanadi. Aynan shu tuzilma tufayli trikotaj namlik va havoni yaxshi o‘tkazadi. Bundan tashqari, trikotaj buyumlar yuqori mustahkamligi bilan ham ajralib turadi [1]. Trikotajning xossalari xomashyo turi, tolali tarkibi, tuzilishi va pardozlash jarayonlariga bog‘liq bo‘lib, ular quyidagi xususiyatlarni shakllantiradi: geometrik, fizik, mexanik, kimyoviy va gigiyenik xususiyatlar.

Eksperiment uchun turli tolali tarkib va turli to‘qilish tuzilishiga ega bo‘lgan 5 ta namuna tanlab olindi (1-rasm). Matolarning geometrik xossalari trikotajning alohida xususiyatlarini tavsiflashda katta ahamiyatga ega. Bu ko‘rsatkichlar mahsulot sifatiga, loyihalash, ishlab chiqarish va foydalanish jarayonlariga bevosita ta’sir qiladi [2].

Sirt zichligi, ya’ni 1 kvadrat metr matoning massasi, mahsulotning material sarfiga ta’sir qiladi, turli buyumlar ishlab chiqarishda mato tanlashni belgilaydi va mahsulot sifatini aniqlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Sirt zichligi xomashyo tarkibi va iplarning chiziqli zichligiga bog‘liq. Tadqiqotlar uchun 185,5–195,5 g/m² oralig‘idagi matolar tanlab olindi.

Trikotajning qalinligi iplarning qalinligiga, to‘qilish (o’rilish) usuliga, zichligiga hamda pardozlash xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, uning qo‘llanish sohasini belgilaydi. Qalinligi 0,4–0,8 mm bo‘lgan matolar ichki kiyimlar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi (shu jumladan, tukli matolar 1–1,4 mm). Qalinroq matolar esa ustki kiyimlar tayyorlashda ishlatiladi.

№1 №2 №3 №4 №5

1-rasm. Namunalarning tashqi ko’rinishi.

Uzilish kuchi - bu trikotajning uzilishga qarshilik ko‘rsatish qobiliyatidir. U ipning mustahkamligiga, to‘qilish turiga, zichligiga va pardozlash jarayoniga bog‘liq. Uzilish mustahkamligi uzilish kuchi bilan ifodalanadi, ya’ni standart o‘lchamdagi to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi namunaga uzilish paytigacha ta’sir etuvchi maksimal kuch bilan tavsiflanadi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha eng yuqori natija futer matosida, eng past ko‘rsatkich esa kulir silliq to‘qimada kuzatiladi [3].

Cho‘ziluvchanlik - bu matoning cho‘zilishdagi deformatsiya darajasi bilan tavsiflanadi. Trikotaj matolarining funksional xossasi hisoblangan cho‘ziluvchanlik mahsulot sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. U ba’zi hollarda ijobiy xususiyat (masalan, paypoq, chulki va boshqalar uchun), boshqa hollarda esa salbiy xususiyat (kostyumlar, ko‘ylaklar va boshqa buyumlar uchun) bo‘lishi mumkin. Tajriba natijalaridan ko‘rinib turibdiki, kengligi bo‘yicha eng katta cho‘ziluvchanlik tarkibida elastan mavjud bo‘lgan namunada kuzatilgan [4].

Trikotajning ishqalanishga (yeyilish) chidamliligi mexanik, fizik-kimyoviy va biologik omillarning kompleks ta’siri bilan belgilanadi. Ba’zan u to‘qima matolarga nisbatan pastroq bo‘lishi mumkin, chunki trikotajda ishqalanish natijasida ip uzilishi halqaning yechilishiga olib keladi. Yeyilishning asosiy sababi - ishqalanishdir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, eng yuqori ishqalanishga chidamlilik futer matosida (eng qalin mato), eng past ko‘rsatkich esa kulir silliq matoda (eng yupqa va yengil mato) kuzatilgan [5].

Kirishish - bu tashqi omillar ta’sirida trikotajning chiziqli o‘lchamlarining o‘zgarishidir. Kirishishning sabablari to‘qima matolardagidek relaksatsion jarayonlar hamda tolalar va iplarning shishishi bilan bog‘liq.

Namlik ta’sirida trikotaj tuzilishi qayta shakllanadi:

- halqalar konfiguratsiyasi o‘zgaradi;
- iplar orasidagi kontakt nuqtalari siljiydi;
- halqa qadami va balandligi o‘rtasidagi nisbat o‘zgaradi.

Kirishishni kamaytirish uchun:

- ip tarkibiga sintetik tolalar qo‘shiladi;

- matolar kam kirishadigan maxsus pardozlashdan, ya’ni sintetik eritmalalar bilan ishlov berishdan o‘tkaziladi.

Aniqlangan ko‘rsatkichlarning qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Namunalarning gigiyenik va fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkich nomi	O‘lchov birligi	1-namuna	2-namuna	3-namuna	4-namuna	5-namuna
1.	To‘qilish (o’rilish) turi	-	Kulir silliq (suprem)	Kulir silliq (suprem)	Interlok	Lastik (ribana)	Futer
2.	Tolali tarkib	%	100% paxta	95% paxta + 5% elastan	80% paxta / 20% poliester	70% paxta / 30% poliester	100% paxta
3.	Sirt zichligi	g/m²	185,7	188,0	188,5	185,9	190,0
4.	Uzilish kuchi (bo’yi bo‘yicha)	N	217,0	265,0	447,0	418,0	483,0
5.	Eni bo‘yicha cho‘zilish (6 N kuch tasirida)	%	34	94	27	41	14
6.	Ishqalanishga chidamlilik	sikl	19600	21000	24500	21000	25000
7.	Qalinligi	mm	0,5	0,5	0,6	0,65	0,8
8.	Havo o‘tkazuvchanlik	dm³/m²·sek	655	354	477	409	421
9.	Nam ishlovdan keyin o‘lcham o‘zgarishi Bo’yi bo’yicha Eni bo’yicha	%	-5 -3,5	-5,5 -4,0	-3,0 -1,5	-2,0 -1,5	-1,5 -2,0
10.	Rangning chidamliligi (quruq ishqalanish)	ball	5	5	5	5	5
11.	Gigroskopiklik	%	11,8	9,5	10,3	10,6	11,4

Gigroskopiklik - bu trikotajning suv bug‘larini yutish va qaytarish qobiliyatidir. Bu ko‘rsatkich trikotajda to‘qima matolarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Maxsus pardozlash gigroskopiklikni kamaytiradi. Eng yuqori gigroskopiklik ko‘rsatkichi kulir silliq matoda kuzatildi.

Havo o‘tkazuvchanlik - bu materialning havoni o‘tkazish qobiliyati bo‘lib, quyidagilarga bog‘liq: g‘ovaklik darajasi, ochiq teshiklar soni va o‘lchami, ip turi, mato qalinligi, zichlik, to‘qilish turi, pardoz mavjudligi, namlik darajasi va boshqalar [6].

Sport kiyimlari uchun trikotaj matolar o‘z xossalari tufayli sport bilan shug‘ullanish uchun juda mos bo‘lgan materiallar hisoblanadi. Ular mustahkamligi, elastikligi va yuqori darajadagi havo almashinuvi bilan ajralib turadi. Trikotaj matodan tayyorlangan kiyim zarur holatda tanani o‘rab turadi va harakatni cheklamaydi.

Maqolada ko‘rib chiqilgan barcha trikotaj matolar sport kostyumlari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xossalarga ega. Ularni tanlash mahsulotning aniq vazifasiga va yil fasliga bog‘liq holda amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Anatomik moslik: trikotaj to‘qish texnologiyasi mushaklarni qo‘llab-quvvatlash uchun turli zichlikdagi zonalarni yaratish imkonini beradi.

Biroq ayrim kamchiliklar ham mavjud: matodan iplarning yengil ajralib ketishi va chetlarining o‘ralib qolishi sababli matoni kesishda murakkablik tug’diradi va bichish jarayonida yuqori aniqlik talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tulanov S., Ahmedov J., Prozorova O. Causes and methods for determining the pilling ability of knitted fabrics depending on the fibrous composition //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2024. – AIP Conf. Proc. 2969, 030023 (2024).

2. Tulanov S., Prozorova O., Ahmedov J., Tursunov T., Tolibaeva S. Evaluation of Insulation Materials for Winter Clothing: A Study on Warmth Retention Properties//AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2025. – Research article. July 21 2025. AIP Conf. Proc. 3304, 030003 (2025)..

3. Туланов Ш. Э., Прозорова О. В., Юнусова З. М. Влияние волокнистого состава на показатели льняных тканей //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 17. – С. 550-554.

4. Туланов Ш. и др. Особенности выбора костюмных тканей для сотрудников гостиниц //world of science. – 2024. – Т. 7. – №. 9. – С. 11-15.

5. Туланов Ш. и др. Обзор национальных узбекских тканей для пошива “чапана” //american journal of social science. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-57.

6. Туланов Ш., Прозорова О., Уролова С. и Эрматова Г. Влияние компонентного состава и вида отделки текстильных материалов на защитные и гигиенические характеристики спецодежды //European Journal

of Interdisciplinary Research and Development. Volume-49, march-2026. P 56-63.

TOLA AJRATISH MASHINASINING TA’MINLASH QURILMASINING TOZALASH SEKSIYASI

mustaqil izlanuvchi X.J.Nazarov,
t.f.f.d., dotsent E.A. Narmatov,
t.f.d., professor R.X. Rosulov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Paxta xomashyosini tolasini chigitdan ajratish jarayonida uni iflosliklardan tozalashning samarali konstruksiyasi qurilmasi ishlab chiqildi. Paxta xomashyosini to‘rli yuzada tashib o‘tish jarayonida tozalash yoyi bo‘yicha uning teshiklarining uzunligini oshirish uchun teshiklarni burchak ostida joylashtirish tavsiya etildi.*

Аннотация. *В процессе отделения волокна от семян хлопка-сырца разработано эффективное конструктивное устройство для его очистки от примесей. Для увеличения длины отверстий в очищающей дуге при транспортировке хлопка-сырца по поверхности сетки было рекомендовано размещать отверстия под углом.*

Abstrakt. *An effective design for cleaning impurities from seed cotton was developed during the process of separating the fiber from the seeds. To increase the length of the openings in the cleaning arc during the transport of seed cotton across the screen surface, it was recommended to position the openings at an angle.*

Chigitli paxta quritish-tozalash va tozalash sexlarida konditsion namlikkacha quritilib, iflosliklardan tozalangandan keyin zavodning bosh korpusiga jinlash uchun yuboriladi. Jinlash paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonining asosiy operatsiyasi hisoblanib, bunda paxta tolasi chigitidan ajratiladi. Jinlash jarayoni chigitli paxtaning tolasini chigitdan mexanik kuch bilan ajratishdan iborat.

Tolaning chigit bilan bog‘lanish kuchi yakka tolaning uzilish kuchiga qaraganda 2–3 marta kam bo‘lgani uchun jinlash jarayonida o‘zining tabiiy xususiyatlarini (uzunlik, ingichkalik, pishganlik darajasi, uzilish kuchlari va h.k.) saqlagan holda tubidan uzilib, chigitdan ajralib chiqadi.

Arrali jinlarda ish organi sifatida arrali disklardan terilgan silindr xizmat qiladi, bu jinda tolani chigitdan ajratish uchun arrali disklar bilan kolosnikli panjara birgalikda ishlaydi. Bularning paxtaga birgalikda ta’siri tola bilan

chigitning sifatiga salbiy ta’sir qilishi ham mumkin. Arrali jin kamerasida chigitli paxta valigi hosil bo‘ladi [1].

O‘rta tolali paxtaning barcha navlari arrali jinlarda jinlanadi. Arrali jinlar 4DP-130, 5DP-130, DPZ-180, 7DP-90, 8DP-90 rusumli jinlar, tola tozalagichlar va tashish uskunalari bilan jamlangan qatorlarga guruhlanadi.

4DP-130 rusumli jinda jinlangan tolada ajralayotgan ulyuk va iflosliklarni qirg‘ich yordamida ulyuk shnekiga uzatib beradi. 5DP-130 rusumli jinda paxtani jinlash jarayonida ishchi kameradagi kolosniklar pastki qismining tiqilishini bartaraf etish uchun kolosniklar konsol forma-da tayyorlangan.

DPZ-180 rusumli arrali jin konstruksiyasiga asosan ikkita 90 arradan iborat bo‘lib ular umumlashtirilgan. Jin ta’minlovchi sistemasi va ishchi kameralari alohida bo‘lib, har bir ishchi kamerada xom ashyo valigini harakatga keltirish uchun alohida 90 arradan iborat bo‘lgan arrali silindrlar ishlatiladi.

7DP-90 rusumli arrali jin 90 arradan iborat bo‘lib, ta’minlash tizimiga paxtani yirik iflosliklardan tozalash uchun qo‘shimcha qirg‘ichli arrali baraban bor. Bu baraban shunday qilinganki, uni kerak bo‘lsa ishlatish yoki aylanuvchi to‘siq orqali to‘xtatib qo‘yish mumkin.

Arrali jinlarning ustki qismiga ta’minlash qurilmasi o‘rnatilib, uning asosiy vazifasi unga uzatilayotgan paxta xomashyosini yaxshi titilgan holatda uzatib berish, tola ajratgichni bir tekisda paxta xomashyosi bilan ta’minlash va uni iflosliklardan ajratishdan iborat.

Uning ishlash jarayoni quyidagicha: chigitli paxta ta’minlagich ustiga o‘rnatilgan shaxtaga tushadi. Bir-biriga qarama-qarshi aylanadigan ta’minlash valiklari chigitli paxtani shaxtadan bir tekisda qoziqchali barabanga uzatadi, qoziqchali baraban paxtani titkilab to‘rli yuza ustidan sudrab o‘tib uni mayda iflosliklardan oxirgi marta tozalaydi.

Tozalangan chigitli paxta qoziqchali baraban yordamida novga uzatiladi va jinning ishchi kamerasiga tushadi. Ta’minlash valiklarining aylanish tezligi shu valikning o‘qiga o‘rnatilgan IVA markali impulsli variator orqali rostlanib, jinning ishchi kamerasiga uzatiladigan chigitli paxta hajmi ko‘p yoki kam bo‘lishini ta’minlaydi, ya’ni jin mashinasining ish unumdorligini nazorat qilish imkoniyatini yaratadi [2].

Mualliflar tomonidan tavsiya etilgan arrali tola ajratish mashinasining ta’minlash qurilmasiga qo‘shimcha shpagat ushlash barabanini o‘rnatish tavsiya qilindi [3]. Shuningdek, paxta xomashyosini tolasini ajratish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda paxta xomashyosini iflosliklardan tozalash taklif etilgan [4].

Tavsiya etilayotgan paxta xomashyosini tola ajratgichning ta’minlash qurilmasida iflosliklardan tozalash jarayonini takomillashtirish amalga oshirilgan. Ma’lumki, paxta xomashyosi me’yorida quritilgandan so‘ng, paxta separatorlari yordamida arrali tola ajratgichlarning PD rusumli ta’minlash qurilmasiga uzatib beriladi. Ta’minlash valiklari 1 yordamida uzatib berilgan paxta xomashyosi

qoziqli baraban 2 qoziqlari yordamida to‘rli yuza 3 bo‘ylab tashib o‘tish hisobiga iflosliklardan tozalanadi.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yigirilgan ip xossalarini baholashdagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan tengvaznlik ko‘rstkichlarini haqida ma’lumot keltirilgan. An’anaviy halqali yigirish mashinasida va ipga soxta buram berish qurilmasi yordamida yigirilgan iplarning tengvazinlilik ko‘rsatkichlari tajribavit tadqiqotlar asosida o‘rganilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о показателях равномерности, которые являются одними из важнейших индикаторов при оценке свойств пряжи. На основе экспериментальных исследований были изучены показатели равномерности пряжи, спряденной на традиционной кольцевой прядильной машине и с использованием устройства ложного кручения.*

Abstract. *This article presents information about evenness indicators, which are one of the most important indicators in evaluating the properties of spun yarn. The evenness indicators of yarns spun on a traditional ring spinning machine and using a false twist device were studied based on experimental studies.*

Yigirilgan ip xossalarini baholashdagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri, solishtirma uzish kuchi, ikkinchisi esa pishiqlik bo‘yicha notekisligidir. Shuni ta’kidlash kerakki, ipga soxta buram berish qurilmasi shakllanayotgan ipdagi tolalar migratsiyasini oshiradi va kam buramli ipning ko‘ndalang kesimida tolalar sonining ko‘p bo‘lishi bilan ipning pishiqligini oshiradi. Bu o‘z navbatida ipning sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Yigirilgan ipdagi buramlar sonining ko‘pligi uning tengvaznlik ko‘rstkichlarini yomonlashtiradi. Bunday iplardan trikotaj mashinalarida mato to‘qish uchun foydalanilganida ipning buralib qolish natijasida uning tez-tez uzilishiga, mashina ignalarining sinishiga va to‘qilgan matodagi halqalarning o‘z holatini yo‘qotishiga sabab bo‘ladi, shularni inobatga olib trikotaj matolari uchun ipga soxta buram berish qurilmasi yordamida ishlab chiqarilgan kam buramli ipning tengvaznlilik ko‘rsatkichlari o‘rganildi.

Bir qator hollarda, masalan, trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda tengvaznligi, ya’ni yechuvchi momenti yo‘q yoki juda kichik bo‘lgan ip olishga intiladi. Bunday iplar qayta ishlanganda chigallik hosil bo‘lmaydi va u kamroq uziladi.

Ip tengvaznliligi uning, ayniqsa, trikotaj ipning sifat ko‘rsatkichlaridan ustuvor hisoblanadi. Shuning uchun namunadagi iplarning tengvaznligi aniqlandi. Mazkur tadqiqot ishida an’anaviy halqali yigirish mashinasida yigirilgan iplar nazorat variantida va ipga soxta buram berish qurilmasi yordamida yigirilgan iplar tajriba variantlarda ipning tengvaznlik xossalari o‘rganildi. Ip buramini kamaytirib, ipning buram yechilishiga qarshiligini kamaytirish mumkin.

Tajribaviy tadqiqotlarda nazorat variantidagi ipning buramlari soni 830 bur/m, tajriba variantidagi ipniki esa 772 bur/m bo‘lganda, ya’ni buramlar farqi 7,5% ni tashkil etadi. Natijada ip tengvaznliligini yaxshilash hamda mashina ish unumdorligini oshirib, tegishli samaradorlikka erishish uchun ipning tengvaznligi o‘rganildi. Buning uchun uzunligi bir metrli ip kesmalari ikkiga buklanib, hosil bo‘luvchi buramlar soni aniqlandi.

1-jadval

Yigirilgan iplarning tengvaznlik ko‘rsatkichlari

T/r	**Variantlar**	**Tajribalar**										**O‘rtacha**
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	
1	Nazorat varianti	44	43	36	44	38	41	39	38	41	37	**40**
2	Tajriba varianti	33	31	27	32	28	31	29	30	32	28	**30**
	Farqi, %	25	28	18	27	26	24	26	21	22	24	**25**

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ipga soxta buram beruvchi qurilmada yigirilgan ipning tengvaznliligi an’anaviy halqali yigirish mashinasida yigirilgan ipnikidan 25 % ga yaxshiligi ma’lum bo‘ldi. Bu ipga soxta buram berish qurilmasida yigirilgan ipning tengvaznlilik xossa ko‘rsatkichlari yaxshilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Raximberdiyev M.R., Fayzullayev Sh.R. Modifikatsiyalangan ip ishlab chiqarish istiqbollari // O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali, 2022-yil 2-son 77-bet.

2. Raximberdiyev M.R., Mardonov B.M., Fayzullayev Sh.R., Maxkamova Sh.F. Исследование распространения волн кручения вдоль движущейся нити конечной длины // Universum: технические науки: № 10 (115). Часть 4. 2023 г. 5-ст.

3. Raximberdiyev M.R., Fayzullayev Sh.R. Analysis of the Impact of Vyurok's Various Speed Ratios on Thread Quality Indicators Used In Modified Assembly // Texas Journal of Engineering and Technology. Vol. 24 (2023): TJET. 3-p. ISSN: 2770-4491

5. Raximberdiyev M.R., Ahmedov K.I., Fayzullayev Sh.R. A theoretical study on the effect of a false twister on the spinning triangle in yarn formation on a ring frame // Eurasian Journal of Engineering and Technology. Volume 28. March 2024. 19-p. ISSN: 2795-7640.

6. K.Yang, X.M.Tao, B.G.Xu, K.C.Lam. Structure and properties of low twist short-staple singles ring spun yarns. Textile research journal. Vol. 77 (9). 2007-yil. 675-b.

YIGIRILGAN IPNING STRUKTURAVIY KO‘RINISHINI TAHLIL QILISH

t.f.n. prof., Sh.R.Fayzullayev,
t.f.f.d, dots., M.R.Raximberdiyev,
magistr M.R.Rajapboyeva
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yigirilgan ip sifatini baholashdagi eng muhim ko‘rsatkichlardan biri strukturaqviy tuzilishi bo‘lib uning tashqi tuzilishi ko‘ra tahlili haqida ma’lumot keltirilgan. Halqali yigirish mashinasida an’anaviy va ipga soxta buram berish qurilmasi yordamida yigirilgan iplarning tajribavit tadqiqotlar asosida aniqlangan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об анализе внешней структуры пряжи, одного из важнейших показателей оценки качества пряжи. Она была определена на основе экспериментальных исследований пряжи, спряденной на кольцевой прядильной машине с использованием обычного и искусственного кручения.*

Abstract. *This article presents information on the analysis of the external structure of yarn, one of the most important indicators in assessing the quality of spun yarn. It was determined based on experimental studies of yarns spun on a ring-spinning machine using a conventional and artificial twist device.*

Ipning tuzilishida ipdagi burovchi moment qoldig‘i sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ipdagi buramlar, uning radiusi, undagi tolalarning joylashishi va tola migratsiyasi ipning burovchi moment qoldig‘iga bog‘liq bo‘lgan asosiy ip strukturasi xususiyatlari hisoblanadi. Yigirilgan iplardagi buram tolalarni birga ushlab turish va shakillanishida strukturasi ma’lum darajada zichlik berish uchun zarurdir. Iplarga buram berilganda, tolalar ip bo‘ylab spiral yo‘nalishda bo‘ladi. Ipda tolaning ichki zuriqishi va tarangligi hosil bo‘ladi. Ipning burovchi moment qoldig‘ining nazariy tahlili va eksperimental tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, ma’lum sharoitlarda burovchi moment qoldig‘i ipning pishitilganligining ortishi bilan ko‘payadi. Ipdagi buramlar undagi burovchi moment qoldig‘ining ko‘payishini va ipning chigallanish tendentsiyasini boshqaruvchi eng muhim omillardan biridir. Ipdagi tolalarning joylashishi ipga berilgan buram va ipdagi tola zuriqishining taqsimlanishiga ta’sir qiladi, shuning uchun ipda hosil bo‘ladigan burovchi moment qoldig‘i darajasiga ta’sir katta. Tolalar zuriqishining taqsimlanishi, ipdagi joylashuv holati sifatida, asosan, tolalar ipning butun kesimi bo‘ylab migratsiya qilish imkoniyatiga bog‘liq. Tolaning migratsiyasi ip ichidagi tolalararo o‘ralishi ishqalanishga ta’sir qiladi va shu bilan ipdagi burovchi moment qoldig‘iga ta’sir qiladi.

Shuning uchun ipning burovchi moment qoldig‘ini kamaytirishning mumkin bo‘lgan usul quyidagi jihatlarga asoslanishi mumkin. Birinchidan, ipning pishitish darajasini kamaytirish ipni burash paytida hosil bo‘lgan tolaning egilishi, tolaning buralishi va tola tarangligining kattaligini kamaytirishga olib kelishi mumkin va shu bilan ipning burovchi moment qoldig‘ini va ipning chigallanish tendentsiyasini kamaytiradi. Ikkinchidan, ip ichidagi tolaning cho‘zilishdagi zuriqishining taqsimlanishini o‘zgartirish, uning radial egilishining oldini olish va ba’zi tolalar va tolalar bo‘limlarini ipning buralishiga teskari yo‘nalishda joylashtirish uchun, ipdagi tolaning joylashishini o‘zgartirish, ya’ni ip tuzilishini o‘zgartirish, ehtimol, ipning qoldiq momentini kamaytirishga yordam beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, halqali yigirish jarayoniga burovchi moment qoldig‘ini kamaytirish ya’ni ipga soxta buram beruvchi qurilmani joriy qilish orqali amalga oshirish lozim. Bu burovchi moment qoldig‘ini kamaytirish uchun maxsus qurilma halqali yigirish mashinasiga o‘rnatiladi va ipga soxta buram berish vazafasini bajaradi.

Ipga soxta buram berish qurilmasining ta’sirida pishitish uchburchadagi tola taranglik o‘zgarishi ular migratsiyasini kuchaytiradi. Qurilma yordamida doimiy buramning pishitish uchburchagiga yetib kelishi tolalarni ip markaziga yaqinlashtiradi, ipni holatini o‘zgartirib ip pishiqligi va tengvaznlilik xossasini yaxshilaydi.

Ipga soxta buram beruvchi qurilmaning ip sifatiga ta’sirini tahlil qilish uchun yigirilgan iplarning tashqi ko’rinishi o‘rganildi.



a b

1-rasm. Yigirilgan iplarning tashqi tuzilishi

Tadqiqotlarda an’anaviy halqali yigirish mashinasida olingan ip nazorat varianti ipi va ipga soxta buram beruvchi qurilma yordamida yigirilgan ip tajriba variantidagi ipi sifatida tadqiq qilindi. Yigirilgan iplarning tashqi tuzilishini baholash uchun O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi polimerlar kimyosi va fizikasi intututida sinov laboratoriyasida mavjud “Jeol JSM IT 210”

skanerlovchi elektron mikroskopida (SEM) tajriba ishlari olib borildi va yigirilgan iplarning tashqi tuzilishi o‘rganildi.

Bu yerda, 1a-rasmda nazorat ipining va 1b-rasmda ipga soxta buram beruvchi qurilma yordamida olingan ipning SEM da olingan tashqi ko‘rinishi tasvirlangan. 1a-rasmdagi nazorat ipining asosidan ko‘plab tuklar chiqib turibdi va ipni tashkil etuvchi tolalarning joylashishi tartibsiz holatda hamda zich emas. 1b-rasmdagi tajriba ipning tukdorligi kam, ipdagi tolalar zich va tartibli joylashgan. Bu ipdagi tolalarning bir-biriga ishqalanishini oshiradi. Natijada kam buramli kam buramli trikotaj ipning pishiqligini oshishiga xizmat qiladi. Bu tahlillar yigirish texnologiyasini takomillashtirish natijasida yangi assortimentdagi kam buramli, tengvaznli, burovchi moment qoldig‘i kam ip ishlab chiqarilhanligiga dalolat qiladi.

Qurilmaning ichki yuzasi giperbola shaklda bo‘lib, spiralsimon bo‘rtmalardan iborat. U yordamida pishitish uchburchagidan o‘tayotgan tolalarning migratsiyasi ikki marta sodir bo‘lish natijasida tolalar joylashish zichligi ortishiga erishiladi. Bu esa unga ipning buramlar sonini, tukdorligini kamaytirishga va uning pishiqligini oshishiga hamda tengvaznli ip olishga sabab bo‘ladi.

Taklif etilayotgan qurilma halqali yigirish mashinasi urchuqqa nisbatan parallel va cho‘zish asbobining chiqaruvchi juftligi va ip o‘tgich oralig‘ida o‘rnatilib ip yigiriladi. Cho‘zish asbobining chiqaruvchi juftligi tutamcha shaklidagi tolalar guruhi shakllanayotgan ip chiqadi va u modifikatsiyalash qurilmasi yordamida dastlabki soxta buramni oladi, qurilma tasmali uzatma bilan harakatlantirish orqali 8200 min-1 gacha aylantiriladi. Qurilmaning birinchi yarmida ip “S” buram, ikkinchi yarmida esa “Z” buram oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.R.Raximberdiyev, Sh.R.Fayzullayev. Modifikatsiyalangan ip ishlab chiqarish istiqbollari. O‘zbekiston to'qimachilik jurnali. 2022-yil, 1-son. 52-b.

2. M.Khan, H.Begum, M.Sheikh. An overview on the spinning triangle based modifications of ring frame to reduce the staple yarn hairiness // Journal of textile science and technology. Vol. 6. 2020-yil.

3. R. Yin. Spinning dynamics and performances of modified ring spun yarns. PhD dissertatsiya.The Hong Kong Polytechnic University. 2018-yil.

4. Ixtroga patent. UZ IAP № 7861 “Yigirilgan ipni soxta eshish qurilmasi” // Fayzullayev Sh.R. Djurayev A. Rasmiy axboratnoma-2024. Byu. № 11 (284).

5. Полезная модель № 11914. ‘https://gosreestr. kazpatent. kz/Utilitymodel/Details?docNumber=450385

6. Elmogahzy Y. Engineering textiles. In: Integrating the design and manufacture of textile products. 1st ed. UK: Woodhead Publishing; Elsevier; 2008.

7. R.M.Raximberdiyev. “Modifikatsiyalangan yigirilgan ip ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish” PhD dissertatsiya. TTYSI, 2025-yil. 10-b.

8. B.G.Xu, X.M.Tao. Techniques for torque modification of singles ring spun yarns // Textile research journal. Vol. 10. 2008-yil. 15-b.

ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЕ РЕШЕНИЯ TRUETZSCHLER ДЛЯ ПЕРЕРАБОТКИ ВТОРИЧНЫХ ВОЛОКОН

доц. Ш.Ф. Махкамова, базовый докторант Ш.Н.Муминова
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya. *Maqolada Truetzschler texnologiyalari asosida to‘qimachilik chiqindilarini qayta ishlash jarayonlari tahlil qilingan. Ikkilamchi tolalarni tayyorlash bosqichlari hamda texnologik tizimlarning ishlash xususiyatlari yoritilgan. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ip sifatini oshirish va xomashyo yo‘qotilishini kamaytirish imkoniyatlari ko‘rsatilgan*

Аннотация. *В статье рассмотрены технологические решения компании Truetzschler, применяемые при переработке текстильных отходов. Описаны основные этапы подготовки вторичных волокон и особенности работы технологических линий. Показано влияние современных технологий на повышение качества пряжи и снижение потерь сырья.*

Abstract. *The article considers technological solutions of Truetzschler used in textile waste recycling. The main stages of secondary fiber preparation and features of technological lines are described. The influence of modern technologies on improving yarn quality and reducing raw material losses is demonstrated.*

Использование материалов, полученных в результате вторичной переработки, становится всё более востребованным не только по экологическим причинам, но и в связи с постоянным ростом стоимости сырья. Применение вторичных волокон позволяет снижать себестоимость продукции и одновременно решать задачи рационального использования ресурсов. Экологичная пряжа из вторичного сырья способствует формированию устойчивых производственных моделей при условии обеспечения стабильного качества продукции. В условиях увеличения объёмов текстильных отходов особую роль приобретают современные технологические решения, обеспечивающие эффективную переработку волокнистых материалов и минимизацию потерь сырья. В этой связи широкое применение получили технологии компании Truetzschler, направленные на повышение эффективности переработки отходов и получение пряжи высокого качества.

Текстильные отходы, используемые для вторичной переработки, подразделяются на мягкие и жесткие. Мягкие отходы образуются в процессе приготовления волокна и включают отходы очистки, кардочесания и гребнечесания, а также остатки лент, ровницы и другие полуфабрикаты. Эти материалы характеризуются сравнительно низким содержанием загрязнений и могут возвращаться в производственный процесс для изготовления пряжи больших линейных плотностей, особенно при использовании пневмомеханического способа прядения. Жесткие отходы включают остатки тканей, трикотажных изделий, отходы швейного производства и бывшие в употреблении текстильные изделия. Их переработка более сложна, так как волокна в них прочно соединены и требуют операций сортировки, резки и разрыхления [1]. Кроме того, такие отходы содержат большое количество коротких волокон и посторонних включений, что требует применения специализированного оборудования.

Переработка вторичных материалов представляет собой многостадийный технологический процесс, включающий сортировку, резку, разрыхление или разрывание, предварительную очистку и дальнейший приготовительный процесс прядения. Наиболее сложной является переработка бывшей в употреблении одежды, поскольку она требует удаления посторонних элементов и тщательной сортировки по составу волокон. Наличие частиц ткани и повышенного содержания коротких волокон может ухудшать качество пряжи, поэтому важнейшее значение приобретает эффективная подготовка волокна и равномерное распределение его в смеси [2].

Современные технологические линии переработки вторичных материалов компании Truetzschler включают комплекс машин, обеспечивающих последовательную обработку волокнистой массы. На начальном этапе используются портальные кипоразрыхлитель типа BO-P, обеспечивающие равномерное разрыхление материала и формирование однородной смеси. Благодаря увеличенной рабочей ширине такие установки способны одновременно обрабатывать несколько кип, что повышает качество смешивания и стабильность последующих операций. При переработке вторичных материалов возрастает риск попадания посторонних включений, поэтому применяются многофункциональные сепараторы SP-MF, эффективно удаляющие тяжелые и металлические частицы и предотвращающие повреждение оборудования. Важным этапом подготовки волокна является его смешивание, обеспечивающее получение однородной массы. Для выполнения данной операции применяются универсальные смесители MX-U, работающие по принципу последовательного заполнения камер и их одновременного опорожнения. Такой принцип обеспечивает высокую однородность смеси и улучшает качество пряжи. Для удаления загрязнений применяются универсальные очистители CL-U, изготовленные

из высококачественной стали, что предотвращает налипание загрязнений и обеспечивает стабильную транспортировку волокон [3].

Ключевым элементом технологической линии является кардочесальная машина TC 30Ri, предназначенная для переработки вторичных волокон и формирования однородной волокнистой ленты. В процессе работы происходит интенсивное разрыхление материала, удаление загрязнений и частичное отделение коротких волокон, что обеспечивает получение качественного полуфабриката. Дополнительное применение системы WASTECONTROL повышает эффективность использования сырья. Данная система анализирует содержание кондиционных волокон в отделяемых отходах и позволяет корректировать параметры процесса. Даже снижение потерь волокна на 0,4 % может обеспечить значительную экономию сырья, достигающую сотен кип хлопка в год.

В процессе переработки вторичных материалов важное значение имеет рациональное сочетание различных видов сырья. Переработка материалов, полностью состоящих из восстановленных волокон, возможна, однако для повышения стабильности процесса рекомендуется добавлять 10–15 % первичных волокон длиной более 30 мм. Это способствует улучшению технологической проходимости материала и повышению прочности получаемой пряжи.

Применение современных технологий переработки вторичных материалов существенно влияет на экономические показатели текстильного производства. Повторное использование отходов снижает затраты на закупку первичного сырья и повышает рентабельность производства. Кроме того, уменьшается объём утилизируемых материалов и связанные с этим расходы. Наряду с экономическими преимуществами переработка вторичных материалов имеет важное экологическое значение. Повторное использование текстильных отходов позволяет снизить потребление природных ресурсов и уменьшить негативное воздействие производства на окружающую среду. Применение оборудования компании Truetzschler обеспечивает эффективное использование сырьевых ресурсов и способствует реализации принципов устойчивого производства.

Таким образом, анализ современных технологий переработки текстильных отходов показывает, что применение специализированного оборудования для переработки вторичных материалов обеспечивает получение качественного волокнистого полуфабриката и стабильность технологических процессов. Внедрение технологий переработки вторичных материалов способствует снижению себестоимости продукции и уменьшению экологической нагрузки на окружающую среду, что делает данное направление перспективным для дальнейшего развития текстильной промышленности.

Список использованной литературы:

1. Mishra, Prince & Ansari, Dilsad & Mahur, Bhupender & Ahuja, Arihant & RASTOGI, VIBHORE. (2022). A comprehensive review on textile waste valorization techniques and their applications. Environmental Science and Pollution Research. 29. 1-16. 10.1007/s11356-022-22222-6.

2. James H. Clark, Textile waste – an opportunity as well as a threat, Green Carbon, Volume 1, Issue 2, 2023, Pages 146-149, ISSN 2950-1555, https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2950155523000216)

3.https://www.truetzschler.com/pdfviewer/?file=fileadmin/user_upload/truetzschler_spinning/downloads/broschuere/Anwendungen/Recycling_EN.pdf

TO‘KILUVCHI MATERIALLARNI TASHUVCHI YANGI KONSTRUKSIYALI VINTLI KONVEYER TO‘RLI YUZASI TEBRANISHLARINING HISOB SXEMASI

t.f.d., prof, A.Djuraev, doktorant (DSc) O.A.Teshaboyev,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya. *Maqolada tavsiya etilgan samarali vintli konveyer to‘rli yuzasini tebranish ko‘rsatkichlari masalani analitik usulda yechish asosida keltirilgan. To‘rli yuzasi tebranishlarining hisob sxemasi qurilgan.*

Аннотация. *На основе аналитического метода решения задачи представлены эффективные показатели вибрации сетчатой поверхности шнекового конвеера, предложенные в стате. Построена схема расчета вибраций сетчатой поверхности.*

Abstract. *Using an analytical approach to solving the problem, effective vibration indicators for the mesh surface of a screw conveyor are presented. A calculation scheme for mesh surface vibrations is constructed.*

Mavjud vintli konveyerlarda, tolali materiallarni, ayniqsa paxtani tashishda, materialning ətarli darajada titilmaganligi sababli, iflosliklar ətarli darajada ajratilmayadi. Bundan tashqari, vint sirti va tolali material o‘rtasidagi ishqalanish ətarli əmasligi sababli, ular tashish paytida orqada qoladi, bu əsa tolali materialning (paxta va ularning chiqindilari) qo‘shimcha mexanik shikastlanishiga olib keladi. Tolali materialdagi vint sirtining o‘zaro ta’siri bir yo‘nalishda monoton holda, doimiy harakatlanuvchi kuch bilan sodir bo‘ladi, bu ularni tozalash samaradorligini ta’minlamaydi. Tarnovning pastki qismiga to‘rli yuza rezina tayanchlar (amortizatorlar) yordamida biriktirilgan. To‘rli yuzaning teshiklari əgri chiziqli qilingan, vintning yo‘nalishiga perpendikulyar o‘rnatilgan. Shu bilan birga, vint uzunligi bo‘ylab materialni tortib olish jarayonida teshiklarning əgrilik radiuslari ortib boradi.

Ma’lumki [3,4] tavsiya ətilgan vintli konveyerda to‘rli yuza qayishqoq tayanchlari o‘rnatilgan. Ta’kidlash kerakki tayanchlar bikrliklari xar uchchala qismda har hil olingan va materialni surilish yo‘nalishida tayanch bikrliklari ortib borish tartibida joylashtirilgan [5]. Shuning uchun to‘rli yuza ham vertikal, ham og‘ma tebranadi. Ushbu tebranishlar siljishi va tezliklari qamrovlari qiymatlariga qarab materialni siljishi va tozalash samarasi belgilanadi. Shuning uchun to‘rli yuzasi vertikal va og‘ma tebranishlarini tahlil qilish muxim hisoblanadi. 1-rasmda to‘rli yuzani tebranishlarini ifodalovchi hisob sxemasi keltirilgan.



1-rasm. To‘rli yuza tebranishlarini ifodalovchi hisob sxemasi.

To‘rli yuzani vertikal tebranishlari umumlashgan koordinata “y” va og‘ma tebranishlar og‘ish burchagi “α” orqali belgilaymiz. Quyida Lagranjning II-tartibli tenglamasiga asosan to‘rli yuzaning potesial va kinetik ənergiyalari:

$$P=\frac{1}{2}\ [c_1(y+\alpha l_1)+c_2(y-\alpha l_2)];$$

$$T=\frac{1}{2}\ (m_t\dot{y}^2+J_t\dot{\alpha}^2) \qquad (1)$$

bu ərda, s_1,s_2-qayishqoq tayanchlarning bikrlik koeffisentlari, m_t, J_t-to‘rli yuza massasi va og‘ishdagi inersiya momenti, l_1, l_2- tayanchlarni to‘rli yuza og‘irlik markazlarigacha bo‘lgan uzunliklari.

Mos ravishda to‘rli yuza tebranishidagi ta’sir qiluvchi dissapativ kuch [8].

$$F=\frac{1}{2}[b_1(\dot{y}+\dot{\alpha}l_1)+b_2(\dot{y}-\dot{\alpha}l_2)] \qquad (2)$$

bu ərda; b_1, b_2-qayishqoq əlementlarning dissipasiya koeffisientlari.

To‘rli yuzani tebranishlarini yuzaga keltiruvchi tashqi kuchlar:

$$F_T=F_1+F_0\text{Sin}\omega t$$

$$M_T=M_1+M_0\text{Sin}\omega t \qquad (3)$$

bu ərda; F_1, M_1-tashqi kuch va momentni o‘zgarmas tashkil ətuvchilari,

F_0, M_0-tashqi kuch va momentni o‘zgarmas amplitudalari.

Olingan (1), (2), (3) larni inobatga olib Lagranj tenglamalari qo‘shiluvchilarini aniqlab quyidagi differensial tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$m_T\ddot{y}+c_1(y+\alpha l_1)+c_2(y-\alpha l_2)+b_1(\dot{y}+\dot{\alpha}l_1)+b_2(\dot{y}-\dot{\alpha}l_2)=F_1+F_0\sin\omega t;$$

$$J_T\ddot{\alpha}+c_1l_1(y+\alpha l_1)+c_2l_2(y-\alpha l_2)+b_1l_1(\dot{y}+\dot{\alpha}l_1)+b_2l_2(\dot{y}-\dot{\alpha}l_2)=M_1+M_0\sin\omega t \qquad (4)$$

Ushbu aniqlangan (4) differensial tenglamalar sistemasi vintli konveyerning zonalar bo‘yicha to‘rli yuzalarini vertikal va og‘ma tebranishlarini ifodalaydi.

To‘rli yuzani xususiy tebranishlarini ko‘rish uchun (4) sistemani quyidagicha yozib olamiz [3]:

$$m_T\ddot{y}+c_1(y+\alpha l_1)+c_2(y-\alpha l_2)+b_1(\dot{y}+\alpha l_1)+b_2(\dot{y}-\dot{\alpha} l_2)=0;$$
$$J_T\ddot{\alpha}+c_1l_1(y+\alpha l_1)+c_2l_2(y-\alpha l_2)+b_1l_1(\dot{y}+\dot{\alpha} l_1)+b_2l_2(\dot{y}-\dot{\alpha} l_2)=0 \quad (5)$$

Ta’kidlash joizki, xususiy tebranish chastotasiga asosan massaviy va bikrlikni ifodalovchi parametrlar ta’sir qiladi [5].

Shuning uchun dissipativ kuchlarni tushirib qoldiramiz:

$$\ddot{y}+\alpha_{11}y+\alpha_{12}\alpha = 0;$$
$$\ddot{\alpha}+\alpha_{21}y+\alpha_{22}\alpha = 0 \quad (6)$$

bu ərda, $\alpha_{11}=\frac{c_1+c_2}{m_T}$; $\alpha_{12}=\frac{c_1l_1+c_2l_2}{m_T}$;

$\alpha_{21}=\frac{c_1l_1-c_2l_2}{J_T}$; $\alpha_{22}=\frac{c_1l_1^2+c_2l_2^2}{J_T}$;

Olingan tenglamalar sistemasi (6)ni əchimini quyidagi shaklda izlaymiz [6, 7]:

$$y=A\sin pt;\ \alpha=B\sin pt \quad (7)$$

Mavjud ifodadan foydalanib quyidagi ifodani hosil qilamiz:

$$P_{1,2}=\sqrt{\frac{a_{11}+a_{22}}{2}\pm\sqrt{\left(\frac{a_{11}-a_{22}}{2}\right)^2+a_{12}a_{21}}} \quad (8)$$

Xosil qilingan konveyer to‘rli yuzasini vertikal va og‘ma tebranishlarini ifodalovchi differensial tenglamalar sistemasi (4)ni sonli əchimini parametrlarning quyidagi qiymatlarida ƏHMda amalga oshirildi:

$m_T=(9{,}0\div13{,}5)$kg, $J_T=(0{,}34\div0{,}5)$kgm^2; $P_R=(180\div200)$kg/soat; $n_v=(40\div120)$ ayl/min; $l_1=l_2=(0{,}9\div1{,}1)$m; $F_1=(0{,}5\div1{,}8)\cdot10^2$N; $s_1=(5{,}5\div8{,}0)\cdot10^3$N/m; $s_2=(4{,}8\div5{,}5)\cdot10^3$N/m; $b_1=(1{,}8\div2{,}0)$Ns/m; $b_2=(1{,}6\div1{,}8)$Ns/m; $M_1=(14{,}5\div22{,}6)$Nm.

Masalani əchimini tahlili asosida parametrlarning bog‘lanish grafiklari qurildi. To‘rli yuzani og‘irlik markazini vertikal va og‘ma tebranishlarini tahlili amalga oshirildi. Ta’kidlash lozimki, to‘rli yuzani og‘ma tebranishlari $s_1=s_2$ va $l_1=l_2$ da amalga oshmaydi, ya’ni to‘rli yuza faqat vertikal yo‘nalishda tebranadi xolos. To‘rli yuza bo‘ylab materialni samarali siljishin amalga oshirish uchun $s_2<c_1$ va $l_2>l_1$ bo‘lishi maqsadga muvofiqdir. To‘rli yuzani vertikal tebranishi materialni “elashi”ga mos kelib undan chiqindilarni intensiv ajralishini ta’minlaydi. To‘rli yuzani og‘ma tebranishlari materialni intensiv siljishini amalga oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Спиваковский А.О. и Дьячков В.К. Транспортирующие машины. Изд. 2-э перераб. И доп. М., Машиностроение, 1968 г., с. 356.

2. A.Djurayev, K.Yuldashev, O.Teshaboyev. Results of experimental determination of torque moments and noise on fluff transporter and cleaner screw conveyor shafts. Technical science and innovation journal №3/2022. p 188
3. A.Djurayev, K.Yuldashev, O.Teshaboyev. Construction scheme and mathematical model of screw movement with a curvilinear working surface of a conveyor for fibrous materials. Innovative solutions to technical, engineering and technological problems of production International scientific and technical conference 2022.

VINTLI KONVEYER QAYISHQOQ TAYANCHLI TO‘RLI YUZASI TEBRANISHLARI TAHLILI.

doktorant (DSc) O.A.Teshaboyev
Andijon davlat texnika instituti

Annotatsiya. *Maqolada tavsiya etilgan vintli konveyerli tolali materiallarni tozalagichning to‘rli yuzasini tebranishlarini analitik usulda tahlil qilib, parametrlarini bog‘lanish grafiklari qurilgan.*

Аннотация. *На основе аналитического метода решения задачи представлены эффективные показатели вибрации сетчатой поверхности шнекового конвеера, предложенные в стате. Построена схема расчета вибраций сетчатой поверхности.*

Abstract. *Using an analytical approach to solving the problem, effective vibration indicators for the mesh surface of a screw conveyor are presented. A calculation scheme for mesh surface vibrations is constructed.*

Vintli konveyerlarda tashilayotgan tolali materialning yetarli titilishini va konveyerning butun uzunligi bo‘ylab tozalashning bir tekisda ta’minlash uchun, shuningdek, setkali yuzasi orqali chiqindilarni intensiv olib tashlash uchun vintli konveyerning konstruksiyasi ishchi zonasini ko‘paytirish orqali takomillashtirildi, ishqalanish kuchini oshirish, shuningdek, tebranuvchi setka yuzasi bo‘ylab vintli konveyerining butun uzunligi bo‘ylab tashiladigan material bilan vintning o‘zaro ta’sir kuchining yo‘nalishini o‘zgartiriladi.



1-rasm. To‘lqinsimon shakldagi vintli konveyer

Tavsiya etilgan vintli konveyerda lintni (tolali materialni) tashish va tozalash jarayonida to‘rli yuza 3 ta zonadan iborat, qayishqoq tayanchga ega. Ishlash jarayonida to‘rli yuza tebranishida, ajralgan chiqindilar egri shaklli tarnovdan tushib ketadi. Shuning uchun to‘rli yuzani tebranishlarini nazariy tomondan taxlil qilish, parametrlarini asoslash muhim hisoblanadi. 1-rasmda to‘rli yuza tebranishlari hisob sxemasi keltirilgan.



2-rasm. Vintli konveyer to‘rli yuzasi tebranishlari hisob sxemasi.

Keltirilgan hisob sxemasiga asosan to‘rli yuzani tebranishida quyidagi kuchlar ta’sir qiladi:

$m_c\frac{d^2z}{dt^2}$ -inersiya kuchi; $b\frac{dz}{dt}$ - qayishqoq tayanchning dissipitsiya kuchi; $c_1z+c_2z^3$- qayishqoq tayanchning bikrlik kuchi; $F_p+F_{p0}Sin\omega t$- paxta yoki lintning to‘rli yuzaga texnologik ta’sir kuchi.

Keltirilgan hisob sxemasi va to‘rli yuzaga ta’sir qiluvchi kuchlarni inobatga olib Lagranjning II-tartibli tenglamasidan foydalanib to‘rli yuzani tebranishini ifodalovchi differensial tenglamani hosil qilmiz:

$$m_c\frac{d^2z}{dt^2}+ c_1z+c_2z^3+ b\frac{dz}{dt} = F_p+F_{p0}Sin\omega t \qquad (1)$$

bu yerda, m_p -paxta bo‘lagini (lint) massasi, z-to‘rli yuzani vertikal tebranishlari, siljishi, s_1,s_2 – to‘rli yuza qayishqoq tayanchining chiziqli va nochiziqli bikrlik koeffitsientlari tashkil etuvchilari, v-dissipitsiya koeffitsienti, F_p, F_{p0} -paxta bo‘laklari yoki lintni to‘rli yuzaga ta’sir etuvchi kuchni o‘zgarmas va o‘zgaruvchan qismi amplitudasi, ωt- tashqi kuchni o‘zgarish chastotasi.

Ta’kidlash lozimki, to‘rli yuza tayanchi nochiziqli bikrlikka ega, ya’ni, ta’sir kuchi ortishi bilan uning deformatsiyalanish qiymati nochiziqli qonuniyatda ortadi, lekin intensivligi kamayadi.

Masalani analitik yechimini quyidagi bog‘lanishda ko‘rib chiqildi:

$$z= z_0Sin\omega t \qquad (2)$$

bu yerda, Z_0 – tebranish amplitudasi. Qayd etish kerakki, (1)tenglamadagi dissipitsiya koeffitsienti tebranishni so‘nishini, ya’ni energiyani yutilishini

ifodalaydi. Lekin to‘rli yuzani tebranishida amplitudasini maksimal qiymatlarini baholash maqsadida b=0, deb qaraldi. U holda:

$$\int_0^{2\pi/\omega} [m_c \frac{d^2z}{dt^2} + c_1 z + \frac{c_2}{\mu} z^3 - F_{p1} + F_{p0} Sin\omega t] \cdot z dt = 0 \qquad (3)$$

bu yerda, 2π/ω-tebranish davri.

Inegrallash natijasida:

$$\frac{3}{4}\frac{c_2}{\mu} z_0^3 + (c_1 - m_c\omega^2) z_0 F_{p0} = 0 \qquad (4)$$

Olingan (4) ifodani [10,11] da keltirilgan grafik usulda yechimini olish natijasida:

$$\omega = \frac{c_1}{m_c} + \frac{c_2 k}{4 m_c \mu} \left(\frac{2F_p}{3m_r}\right)^{2/3} \qquad (5)$$

Quyidagi bog‘lanishlarni [ ] inobatga olib ;

$$\eta = \frac{4(c_1 m_c \omega^2)}{c_1 k}; \qquad \eta^3 = -a^2 \neq 0; \qquad \alpha = -\frac{2}{3}\frac{F_p \mu}{C_2};$$

$$r = sin\,\alpha\sqrt{|\eta|}; \quad \varphi = \arccos\frac{\alpha}{r^3}$$

(2) ning ildizlarini olamiz [10,11]:

$$z_1 = -2\,cos\frac{4}{3}; \quad z_2 = 2r\cos\left(\frac{\pi+\varphi}{3}\right) \qquad (6)$$

Olingan yechim (4)ni tahlili asosan vintli konveyer qayishqoq tayanchli to‘rli yuzasini tebranishlarini sifat ko‘rsatkichlarini belgilaydi.



1-s_2=0,5s_1; 2-s_2=0,4s_1; 3-s_2=0,3s_1; 4-s_2=0,2s_1;

3-rasm. Vintli konveyer qayishqoq tayanchi to‘rli yuzasi tebranish amplitudasini paxta bo‘lagi (lint)ni ta’sir kuchiga bog‘liqlik grafiklari

Grafiklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, transportirovka qilinayotgan va tozalanayotgan paxta yoki lintni bir vaqtning o‘zida to‘rli yuzaga ta’sir qilayotgan $\sum_{i=1}^{n} m_{ni}$ qiymatlarini ta’sir kuchi F_{p0}ni ortishi bilan to‘rli yuzani tebranish amplitudasi maksimal qiymati A_{max} chegarasini har hil ish unumida s_1 ni s_2 nisbatan ulushiga mos ravishda amalga oshadi. Demak, to‘rli yuza qayishqoq tayanchi bikrligining o‘zgaruvchan tashkil etuvchisi qiymati o‘zgarmas ta’sir etuvchiga nisbatan ulushi ortib borganida, F_{p0} qiymati 1,5 barobar ortishi holatida A_{max} qiymatiga erishilar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А.Джураев и др. Винтовой конвеер. Патент UZ IAP 06472, Byull. №5, 2021.
2. A.Djurayev, K.Yuldashev, O.Teshaboyev. Results of experimental determination of torque moments and noise on fluff transporter and cleaner screw conveyor shafts. Technical science and innovation journal №3/2022. p 188.
3. Djuraev A. 1987 Dynamics of working mechanisms of cotton-processing machines (Tashkent: Fan) 168 p.

POPULARIZING THE USE OF UNMANNED AERIAL VEHICLES IN AGRICULTURE IN UZBEKISTAN

Rasulov Shermukhammad
Master Student of Kangwon National University, Korea

Abstract *The integration of Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) into agriculture represents a transformative opportunity for Uzbekistan, a nation where agriculture plays a critical role in the economy and rural livelihoods. This paper explores the potential of UAVs to address pressing agricultural challenges, such as optimizing water usage, improving crop monitoring, and enhancing yield productivity.*

Agriculture is a cornerstone of Uzbekistan's economy, accounting for a significant share of the country's GDP and employing a large portion of its workforce. However, the sector faces numerous challenges, including inefficient resource utilization, outdated farming techniques, and the impacts of climate change. In recent years, technological advancements have emerged as critical tools for addressing these challenges, with Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) offering a promising solution for modernizing agricultural practices.[1]

The Importance of Agriculture in Uzbekistan. Agriculture is a fundamental part of Uzbekistan's economy, contributing approximately 25% to

the national GDP and providing employment for nearly half of the workforce, particularly in rural areas. The sector plays a vital role in the nation's economic stability, food security, and social development.

Cotton, often referred to as “white gold,” has historically been a key export commodity for Uzbekistan, making it one of the world's largest producers and exporters of cotton. However, the country is shifting towards agricultural diversification, emphasizing the cultivation of grains, fruits, and vegetables to reduce dependence on cotton and enhance resilience in the face of global market fluctuations.[4]



Fig.1 Drone Agricultural Analysis

Additionally, drones can save time by delivering real-time insights into crop health and productivity. This enables farmers to make prompt decisions regarding irrigation, fertilization, and other agricultural activities. In summary, drones offer a cost-efficient solution for farmers aiming to enhance their operations and boost crop yields.

The precise application of pesticides, fertilizers, and water, guided by drone technology, contributes to increased agricultural productivity and improved crop quality. Drones can identify areas with pests and weeds with 95% accuracy, allowing farmers to treat only the targeted areas of their crops. Studies show that traditional methods (hand or tractor-driven) use 30% more pesticides and fertilizers than usual (Qodirov, S. X. 2024). Drones can analyze the condition of crops and soil, assess humidity levels and air temperature, and accurately calculate the amount of water needed for plants.

Some drones are equipped with pneumatic firing devices that can shoot seed pods directly into the soil. This eliminates the need for manual labor and speeds up the planting process. A report from Stanford University indicates that drone planting can be up to 5 times faster than traditional methods (Shawky, M. 2023).

Fig.2 Drone-Based Seed Planting

In an environment where water is gold, the ability to optimize its use is invaluable. Drones enable what's known as "precision irrigation," ensuring that each plant receives the exact amount of water it needs. In Qatar, for instance, this has led to a staggering 30% reduction in water usage for agricultural practices (Shawky, M. 2023).

Challenges and Opportunities in Integrating UAVs into Uzbekistan’s Agricultural Sector. Despite the clear potential benefits of Unmanned Aerial Vehicles (UAVs) in revolutionizing Uzbekistan’s agricultural practices, their widespread adoption remains limited. Several factors hinder the full integration of UAV technology into the country’s agricultural sector, but with the right approach, these challenges can be overcome. By examining these barriers and understanding global best practices, the sector can move towards the successful incorporation of UAVs, leading to a more efficient, modern, and sustainable agricultural industry.

One of the most significant barriers to the adoption of UAVs in Uzbekistan’s agricultural sector is the high initial investment required to purchase and maintain drone technology. Many farmers, particularly those in rural areas, may not have the financial resources to invest in advanced UAV systems. This is exacerbated by the costs associated with training personnel to operate the drones and manage the data they collect. For smallholder farmers, the return on investment might not seem immediate or guaranteed, which makes them hesitant to adopt these technologies.

Globally, countries such as the United States, China, and Japan have successfully integrated UAVs into their agricultural sectors. These countries have leveraged drones for precision agriculture, improving crop yield, reducing waste, and optimizing resources like water and fertilizer. Uzbekistan can learn from these global best practices by adapting them to its unique agricultural environment.

Despite the challenges, there are numerous opportunities for integrating UAVs into Uzbekistan’s agricultural sector. Drones can help farmers optimize irrigation practices by providing real-time data on soil moisture levels, allowing for more efficient water use in a country where water scarcity is a major issue. UAVs can

also help with the early detection of pests and diseases, which can reduce crop loss and minimize the use of harmful pesticides.

Furthermore, by enabling precision agriculture, UAVs can contribute to sustainable farming practices. Drones can help farmers apply fertilizers and pesticides more accurately, reducing environmental impact and lowering operational costs. The ability to monitor crops from the sky also provides farmers with valuable insights into crop health, helping them make informed decisions that improve yield and quality.

Conclusion.

In conclusion, while there are significant barriers to the widespread adoption of UAVs in Uzbekistan’s agricultural sector, there are also considerable opportunities to integrate this technology into the farming industry. Overcoming challenges related to cost, awareness, technical expertise, and regulation will require a concerted effort from the government, agricultural professionals, and the technology sector.

References

1. Puri, V., Nayyar, A., & Raja, L. (2017). Agriculture drones: A modern breakthrough in precision agriculture. *Journal of Statistics and Management Systems*, 20(4), 507-518. https://doi.org/10.1080/09720510.2017.1395171

2. (n.d.). Agriculture drones market size, share, growth, and trends. *Fortune Business Insights*. Retrieved January 18, 2025, from https://www.fortunebusinessinsights.com/agriculture-drones-market-102589

3. Qodirov, S. X. (2024). Qishloq xo'jaligida dronlardan foydalanish samaradorligi. *Conference on the Role and Importance of Science in the Modern World*, *01*(10), 24. Retrieved from https://universalconference.us

4. Lee, C. H. S., Phang, S. K., & Mun, H. K. (2021). Design and implementation of an agricultural UAV with optimized spraying mechanism. *MATEC Web of Conferences*, 335, 02002. https://doi.org/10.1051/matecconf/202133502002

O‘ZBEKISTONDA SUV TANQISLIGINING EKOLOGIK VA IQTISODIY XAVFLARI: TO‘QIMACHILIK SANOATINING TA’SIRI VA HUDUDIY KO‘CHIRISH SIYOSATI

Murodxodjayeva.K.B, Sodiqova N.R,M.S. Djalilova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institut

Annotatsiya. *Ushbu ishda Muammo to‘qimachilik sanoatining atrof-muhitga ta’siri, ayniqsa suv havzalarini ifloslantiruvchi chiqindi suvlar kontekstida ko‘rib chiqiladi. Maqolada to‘qimachilik korxonalarida lokal tozalash inshootlarining yo‘qligi, ularni o‘rnatishning yuqori narxi va*

kompensatsiya to‘lash amaliyoti o‘rtasidagi ziddiyat yoritilgan. Shuningdek, Toshkent shahridagi ekologik zarar keltiruvchi korxonalarni viloyatlarga ko‘chirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan davlat siyosati, uning ijobiy va salbiy jihatlari o‘rganilgan.

Abstract. *This study examines the problem in the context of the textile industry's environmental impact, particularly wastewater polluting water basins. The article highlights the lack of local treatment facilities at textile enterprises, the high cost of their installation, and the contradiction with the existing practice of paying compensation. Furthermore, the state policy of relocating environmentally harmful enterprises from Tashkent to the regions is analyzed, including its positive and negative aspects.*

Аннотация. *В данном исследовании проблема рассматривается в контексте воздействия текстильной промышленности на окружающую среду, особенно сточных вод, загрязняющих водные бассейны. В статье освещается отсутствие локальных очистных сооружений на текстильных предприятиях, высокая стоимость их установки и противоречие со сложившейся практикой выплаты компенсаций. Также анализируется государственная политика по переносу экологически вредных предприятий из Ташкента в регионы, включая её положительные и отрицательные стороны.*

O‘zbekiston 2030-yilga borib suv tanqis bo‘lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolishi mumkin. MHTI ekspertlari O‘zbekistonda suv tanqisligini qurg‘oqchil hududlarning qishloq xo‘jaligi tarmog‘iga qanday ta’sir ko‘rsatishini o‘rgandi. 2030-yilga borib mamlakatda 7 mlrd kub metr suv tanqisligi kuzatilishi mumkin. Natijada O‘zbekiston suv tanqis bo‘lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli bor.

Ta’kidlanishicha, hozirda Yer yuzida qariyb 1,1 milliard kishi turli darajadagi suv tanqisligidan aziyat chekmoqda. Ma’lum qilinishicha, 2030-yilga borib mamlakatda 7 milliard kub metr suv tanqisligi kuzatilishi hamda buning oqibatda O‘zbekiston dunyodagi suv tanqis bo‘lgan 33 ta davlat qatoriga tushib qolish ehtimoli mavjud.

To‘qimachilik sanoatining eng jiddiy ekologik muammolaridan biri – suv ifloslanishidir. Matolarni bo‘yash, oqartirish va qayta ishlash jarayonlarida katta miqdorda suv iste’mol qilinadi va bu suv tarkibida zararli kimyoviy moddalar bo‘lgan holda chiqariladi.

Toshkentda to‘qimachilik fabrikasi Bo‘zsuv kanaliga chiqindi suvlarni tashlagan holat qayd etilgan. Tadqiqotlar davomida suvning qora rangda ekanligi aniqlangan bo‘lib, bu to‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan rangli oqova suvlar bilan bog‘liq [9].

O‘zbekiston qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri Sherzod Hidoyatovning ta’kidlashicha, respublikadagi barcha oqova suv tozalash

inshootlari maishiy oqovalarni tozalashga moslashgan bo‘lib, ular sanoat korxonalaridan oqiziladigan kimyoviy tarkibga ega bo‘lgan suvlarni tozalash imkoniyatiga ega emas [2]. Bu holat sanoat korxonalari, jumladan to‘qimachilik korxonalari oqova suvlarining yetarli darajada tozalanmasdan suv havzalariga tashlanishiga olib keladi.

Vazirning qayd etishicha, kimyoviy moddalar oqova suvning biologik jarayonida asosiy o‘rin egallovchi “aktiv”larni nobud qilib, tozalash jarayonini samarasiz holatga keltirmoqda. Bu esa oqova suv tozalash inshootlaridan badbo‘y hid tarqalishining asosiy sababchisi bo‘lib qolmoqda [2].

1-jadval

Yigirish korxonasida hosil bo‘ladigan chiqindilar (2023)

Chiqindi turi	Hajm (tonna)	Qayta ishlanishi (%)
Yumshoq chiqindilar (tolalar)	250 000	25
Qattiq chiqindilar (ip qoldiqlari)	150 000	10
Kimyoviy chiqindilar	50 000	5
Jami	**450 000**	**18** (o‘rtacha)

To‘qimachilik korxonalarining yana bir muammosi – ularning aksariyatida lokal oqova suv tozalash inshootlari mavjud emas. Vazir Hidoyatovning so‘zlariga ko‘ra, terichilik korxonalari me’yordan ortiqcha ifloslangan suv oqizganligi uchun bir oyda o‘rtacha 1,3 million so‘m kompensatsiya to‘laydi. Lokal inshootni o‘rnatish esa 1 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ talab etadi. Natijada korxonalar lokal inshoot o‘rnatish o‘rniga kompensatsiya to‘lovlarini afzal ko‘radi [2].

Toshkent shahridagi ekologiyaga zarar yetkazayotgan to‘qimachilik va charm korxonalarini shahar tashqarisiga ko‘chirish masalasi uzoq vaqtdan beri muhokama qilinmoqda. 2025-yil sentyabr oyida Toshkent viloyati hokimi Zoyir Mirzayev birinchi navbatda poytaxt ekologiyasiga zarar yetkazayotgan to‘qimachilik va 50 dan ortiq charm korxonalari ko‘chirilishini ma’lum qildi [8].

Ohangaron tumanida charm klasteri uchun 15 gektar yer ajratilgan edi, ammo kommunikatsiyaga mablag‘ bo‘lmagani uchun ishga tushmagan. Prezidentning topshirig‘iga asosan yana 20 gektar yer qo‘shilib, 35 gektarga yetkazildi. Bu yerga Toshkent shahridagi 50 dan ziyod terini qayta ishlash korxonalarini ko‘chirish rejalashtirilgan [3].

2025-yil yanvar oyida e’lon qilingan Prezident qarori loyihasiga ko‘ra, 2025-yil 1-maydan boshlab Toshkent, Nukus va viloyat markazlari shaharlarida

yangi loyihalarni quyidagi sohalarda taqiqlash rejalashtirilgan: asbest va sement ishlab chiqarish, teri va oshlash, parrandachilik zavodlari, qora va rangli metallurgiya zavodlari, chiqindilarni qayta ishlash va yoqish korxonalari [1]. To‘qimachilik korxonalari ushbu ro‘yxatga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kiritilmagan bo‘lsa-da, ularning ifloslantiruvchi ta’siri hisobga olinib, ko‘chirish masalasi ko‘tarilgan.

Mavjud 168 ta sanoat korxonasini bosqichma-bosqich ko‘chirish ekologik barqarorlikni ta’minlashga yordam beradi [1]. Shu bilan birga, ko‘chirish jarayonida yangi ish o‘rinlari va infratuzilma obyektlari (yo‘llar, elektr, gaz va suv ta’minoti) yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ekologik iz” “yashil iqtisodiyot” orqali o‘chiriladi // Yangi O‘zbekiston. – URL: https://davlat.uz/en/eco/news/view/33452 (murojaat sanasi: 20.04.2026).
2. “Ularga filtr o‘rnatishdan ko‘ra kompensatsiya to‘lash osonroq”. Vazir — ifloslantirayotgan sanoat korxonalari haqida // Газета.uz. – 2025. – 10 oktabr. – URL: https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/10/violations/ (murojaat sanasi: 20.04.2026).
3. To‘qimachilikni 2030 yilga qadar rivojlantirish dasturi ishlab chiqiladi // Inson huquqlari.uz. – 2025. – 13 avgust. – URL: http://pravacheloveka.uz/oz/news/toqimachilikni-2030-yilga-qadar-rivojlantirish-dasturi-ishlab-chiqiladi (murojaat sanasi: 20.04.2026).

O‘ZBEKISTON TO‘QIMACHILIK SANOATINING IQTISODIY O‘SISHI VA EKOLOGIK YUKI: MONITORING NATIJALARI, ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLAR

Murodxodjayeva.K.B, Sodiqova N.R,M.S. Djalilova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institut

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatining iqtisodiyot uchun ahamiyati va uning atrof-muhitga keltirayotgan zarari o‘rganilgan. To‘qimachilik sohasi mamlakatda ko‘plab ish o‘rinlari yaratgan va eksport hajmini oshirgan bo‘lsa-da, suvni ko‘p iste’mol qilishi, chiqindi suvlarni ifloslantirishi va havoga zararli moddalar chiqarishi kabi muammolar mavjud.*

Аннотация. *В этой статье рассматривается значение текстильной промышленности Узбекистана для экономики и её вред для окружающей среды. Текстильная отрасль создала много рабочих мест и увеличила экспорт, но при этом она потребляет много воды, загрязняет сточные воды и выбрасывает вредные вещества в воздух.*

Abstract. *This article examines the importance of Uzbekistan's textile industry for the economy and its harm to the environment. The textile sector has created many jobs and increased exports, but it also consumes a lot of water, pollutes wastewater, and releases harmful substances into the air.*

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha yalpi ichki mahsulotning 3 foizini va sanoat ishlab chiqarishining 14 foizini tashkil etadi. Sohada 500 mingdan ortiq kishi mehnat qiladi [7].

So‘nggi besh yilda to‘qimachilik sohasida 3,5 milliard dollarlik 396 ta yangi korxona barpo etilib, ishlab chiqarish hajmi 10 milliard dollarga yetgan [7]. Bu ko‘rsatkichlar sohaning mamlakat iqtisodiyotidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.



2.1-rasm. To‘qimachilik eksporti tarkibi (2023)

O‘zbekiston Prezidenti raisligida to‘qimachilik sohasida eksport imkoniyatlari va zaxiralarni ishga solish masalalari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida tarmoqni 2030-yilgacha rivojlantirish dasturini ishlab chiqish vazifasi qo‘yilgan edi [2]. 2030-yilgacha mo‘ljallangan ushbu dastur to‘qimachilik, charm, ipak va gilamchilik sanoatini rivojlantirish bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga oladi [4].

Biroq, sohaning jadal rivojlanishi bilan birga ekologik muammolar ham ortib bormoqda. To‘qimachilik korxonalari suvni ko‘p miqdorda iste’mol qiladi, oqova suvlari kimyoviy moddalar bilan ifloslangan bo‘ladi, chiqindilari esa to‘g‘ri utilizatsiya qilinmasa, atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazadi.

To‘qimachilik sanoati atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatish darajasi bo‘yicha eng xavfli tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida ko‘plab kimyoviy moddalar (bo‘yoqlar, oqartirgichlar, yuvish vositalari va boshqalar) ishlatiladi, ularning bir qismi oqova suvlar bilan atrof-muhitga chiqariladi.

2.1-jadval

O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati (2023)

Ko‘rsatkich	Qiymat
YAIMdagi ulushi	3%
Sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi	14%
Ishlab chiqarish hajmi	$10 mlrd
Eksport hajmi	$3,5 mlrd
Bandlar soni	500 ming+
Korxonalar soni	396 (yangi)

O‘zbekistonda to‘qimachilik korxonalari faoliyatini ekologik monitoring qilish natijalariga ko‘ra, ushbu korxonalar havoning ifloslanishi, suv resurslarining ifloslanishi va tuproqning ifloslanishiga jiddiy hissa qo‘shmoqda. Ayniqsa, eski texnologiyalar asosida ishlaydigan, zamonaviy tozalash inshootlariga ega bo‘lmagan korxonalar eng katta zarar yetkazmoqda.

Davlat Ekologik Ekspertizasi Markazi tomonidan olib borilgan monitoringda “Zelal Tekstil” xorijiy korxonasi faoliyatida ishlab chiqarish jarayonida hosil bo‘ladigan ifloslantiruvchi moddalar zamonaviy filtrlash tizimlari yordamida samarali tozalanayotgani qayd etilgan [1]. Bu zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ekologik muammolarni kamaytirishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Biroq, barcha korxonalar bunday yuqori standartlarga javob beravermaydi. 2024-yilda o‘tkazilgan tekshiruvlar natijasida Toshkent shahridagi 140 ta sanoat korxonasining ro‘yxati shakllantirilib, ulardan 44 tasi me’yoridan ortiq ifloslangan moddalar chiqarayotgani aniqlangan [4].

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. In Tashkent, a textile factory dumped wastewater into the Bozsu canal — video // NOVA24.UZ. – 2025. – 28 sentyabr. – URL: https://nova24.uz/en/incidents-en/in-tashkent-a-textile-factory-dumped-wastewater-into-the-bozsu-canal-video/ (murojaat sanasi: 20.04.2026).
5. Me’yoridan ortiq ifloslangan moddalar chiqarayotgan korxonalarga choralar ko‘rilmoqda // O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi. – 2024. – 29 noyabr. – URL: https://gov.uz/oz/eco/news/view/28929 (murojaat sanasi: 20.04.2026).

6. President Sets Out the Country’s Environmental Development Priorities // National Committee on Ecology and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. – 2025. – 26 dekabr. – URL: https://gov.uz/en/eco/news/view/114516 (murojaat sanasi: 20.04.2026).
7. Shavkat Mirziyoyev yengil sanoatni rivojlantirish bo‘yicha katta dasturni tasdiqladi // Caravan-Info. – 2024. – 14 avgust. – URL: https://caravan-info.uz/uz/ekonomika/143586-shavkat-mirzieev-utverdil-masshtabnuyu-programmu-razvitiya-legkoy-promyshlennosti.html (murojaat sanasi: 20.04.2026).

ZAMONAVIY CHOYSHAHBOP TO‘QIMALAR ASSORTIMENTI VA ULARNING ILMIY-AMALIY KLASSIFIKATSIYASI

dots.(PhD) K.B.Murodxo‘jayeva, talaba Qalandarov Sh.B.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu tezisda choyshabbop to‘qimalar assortimentining tuzilishi, ularni klassifikatsiya qilishning ilmiy asoslari va amaliy ahamiyati tahlil qilingan. Tolaviy tarkib, o‘rilish turi, ip zichligi, pardozlash darajasi, funksional xususiyatlar va qo‘llanish sohasiga ko‘ra guruhlash keltirilgan. Kaliko, ranfors, poplin, satin va perkale matolarining strukturasi, fizik-mexanik va gigiyenik ko‘rsatkichlari solishtirilgan.*

Аннотация. *В данном тезисе проанализированы структура ассортимента постельных тканей, научные основы их классификации и практическое значение. Представлена группировка по волокнистому составу, виду переплетения, линейной плотности, степени отделки, функциональным свойствам и области применения. Сравнены структурные, физико-механические и гигиенические показатели таких тканей, как калико, ранфорс, поплин, сатин и перкаль*

Annotatsiya. *This thesis analyzes the structure of the bed linen fabric assortment, the scientific foundations of their classification, and their practical significance. Grouping by fiber composition, weave type, linear density, finishing degree, functional properties, and application area is presented. The structural, physical-mechanical, and hygienic indicators of fabrics such as calico, ranforce, poplin, satin, and percale are compared.*

Choyshabbop to‘qimalar zamonaviy to‘qimachilik sanoatining muhim segmentlaridan biri bo‘lib, ular aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish bilan birga gigiyenik, estetik va ekspluatatsion talablarni ham qamrab oladi. Ushbu turdagi matolarning assortimenti kengligi va xilma-xilligi ularni ilmiy asosda klassifikatsiya qilishni talab etadi. Klassifikatsiya esa mahsulotlarni

tizimlashtirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish hamda bozor talablariga moslashuvchan ishlab chiqarishni tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi.

Choyshabbop to‘qimalar assortimenti — bu turli xom ashyo, struktura va texnologik ishlov berish asosida ishlab chiqariladigan matolar majmuasidir. Assortimentning shakllanishiga quyidagi omillar ta’sir ko‘rsatadi:

- xom ashyo turi va sifati;
- ipning chiziqli zichligi va tuzilishi;
- to‘qima o‘rilish turi;
- pardozlash va bezak ishlovlari;
- funksional va ekspluatatsion xususiyatlar.

Assortimentning to‘g‘ri shakllantirilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va mahsulotning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

1. Tolaviy tarkibiga ko‘ra klassifikatsiya

Choyshabbop matolar eolaviy tarkibiga ko‘ra klassifikatsiya quyidagi guruhlarga ajratiladi:

Tabiiy tolali matolar. Bu guruhga 100% paxta, zig‘ir va bambuk tolali matolar kiradi. Ular yuqori gigiyenik xususiyatlarga ega bo‘lib, namlikni yaxshi singdiradi va havo o‘tkazuvchanligi bilan ajralib turadi. Biroq, ular g‘ijimlanishga moyil.

Aralash tolali matolar. Paxta va poliester yoki viskoza aralashmalaridan iborat bo‘lib, mexanik mustahkamligi yuqori va ekspluatatsiya muddati uzoqroq bo‘ladi.

2. To‘qima o‘rilish turiga ko‘ra klassifikatsiya

Polotno o‘rilishli matolar. Eng oddiy va keng tarqalgan bo‘lib, yuqori mustahkamlikka ega.

Satin o‘rilishli matolar. Silliq va yaltiroq yuzasi bilan ajralib turadi, estetik jihatdan yuqori baholanadi. O‘rilish turi matoning mexanik xossalari, sirt tuzilishi va foydalanish qulayligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

3. Ip zichligiga ko‘ra klassifikatsiya

Matolar iplar soniga qarab quyidagicha tasniflanadi:

- past zichlikli (100–150 g/m^2);
- o‘rtacha zichlikli (150–200 g/m^2);
- yuqori zichlikli (200 g/m^2 dan yuqori);

Ip zichligi oshgani sari matoning silliqligi va mustahkamligi ortadi, biroq havo o‘tkazuvchanligi kamayishi mumkin.

Choyshabbop matolar pardozlash darajasiga ko‘ra quyidagilarga ajratiladi:

- Oqartirilgan matolar;
- Bo‘yalgan matolar;
- Bosma naqshli matolar;
- Maxsus ishlov berilgan matolar (antibakterial, antistatik va boshqalar).

Pardozlash jarayoni matoning tashqi ko‘rinishi va gigiyenik xususiyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

4.Funktsional xususiyatlariga ko‘ra klassifikatsiya

Zamonaviy choyshabbop matolar quyidagi funksional guruhlarga ajratiladi:

- gigiyenik (nafas oluvchi va namlikni yutuvchi);
- gipoallergen;
- termoregulyatsion;
- dekorativ va estetik yo‘naltirilgan.

4. Qo‘llanish sohasiga ko‘ra klassifikatsiya

- maishiy foydalanish uchun matolar;
- mehmonxona xo‘jaligi uchun matolar;
- tibbiy muassasalar uchun maxsus matolar.

Har bir soha uchun matolarga qo‘yiladigan talablar turlicha bo‘lib, bu ularning texnologik parametrlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Choyshabbop to‘qimalarni klassifikatsiya qilish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish;
- yangi assortiment turlarini loyihalash;
- mahsulot sifatini boshqarish;
- bozor talablariga moslashuvchanlikni oshirish.

Choyshabbop to‘qimalarning assortimenti va ularning klassifikatsiyasi ko‘p omilli tizim bo‘lib, u xom ashyo, to‘qima struktura, texnologik ishlov berish va funksional xususiyatlarga asoslanadi. Zamonaviy sharoitda ushbu matolarni ishlab chiqarishda ekologik xavfsizlik, gigiyeniklik va yuqori sifat ko‘rsatkichlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa to‘qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanishini ta’minlaydi.

Choyshabbop to‘qimalar assortimenti ichida kaliko, ranforce, poplin, satin va percale matolari eng keng tarqalgan turlar hisoblanadi. Ushbu matolar o‘zining tolaviy tarkibi, struktura xususiyatlari, fizik-mexanik va gigiyenik ko‘rsatkichlari bilan farqlanadi. Ularning har biri ma’lum ekspluatatsion sharoit va iste’mol talablariga mos ravishda ishlab chiqariladi.

2.1-jadval

To’qima nomi	Strukturaviy xususiyatlari	Fizik-mexanik ko‘rsatkichlari	Afzalliklari	Kamchiliklari
Kaliko	o‘rilish turi: polotno (1/1) ip zichligi: 100–140 TC tolaviy tarkibi: asosan 100% paxta	o‘rtacha mustahkamlik; yuqori havo o‘tkazuvchanlik; past silliqlik darajasi.	arzonligi; gigiyenikligi; yaxshi namlik yutish xususiyati.	Tez g’ijimlanadi; uzoq muddatda yuzasi qo‘polashadi.

Ranfors	o‘rilish: polotno ip zichligi: 120–180 g/m^2 ip sifati: nozik va yaxshi taralgan (combed cotton)	yuqori mustahkamlik; yaxshi shakl saqlash xususiyati; yumshoqlik va silliqlikning optimal darajasi.	gigiyenik va qulay; uzoq xizmat muddati; rangni yaxshi saqlaydi.	kalikoga nisbatan qimmatroq.
Poplin	o‘rilish: polotno ip tuzilishi: arqoq iplari tanda iplariga nisbatan yo’g’on, sirt: mayda rel’yefli	yuqori mustahkamlik; past ajinlanish darajasi; yaxshi shakl barqarorligi.	silliq va estetik ko‘rinish; yuqori chidamlilik; qulay ekspluatatsiya.	havo o‘tkazuvchanligi kalikoga nisbatan pastroq.
Satin	o‘rilish: satin (odatda 4/1 yoki 5/1) ip zichligi: 200–400 TC va undan yuqori sirt: juda silliq va yaltiroq	yuqori mustahkamlik; past ishqalanish; yuqori sirt silliqligi.	yuqori estetik ko‘rinish; yumshoqlik va qulaylik; teri bilan kontakt uchun qulay.	sirpanish xususiyati yuqori; narxi yuqori.
Perkale	o‘rilish: polotno ip zichligi: 200 gr/m^2 va undan yuqori ip sifati: taralgan (combed) paxta	juda yuqori mustahkamlik; past deformatsiya; uzoq xizmat muddati	bardoshlilik; yuqori gigiyenik xususiyatlar; professional (mehmonxona) foydalanish uchun mos.	o‘rtacha–yuqori segmentda.

Ushbu matolar o‘zining strukturaviy va ekspluatatsion xususiyatlari bilan bir-biridan farqlanadi va turli bozor segmentlariga mo‘ljallangan. Choyshabbop to‘qimalar assortimenti xom ashyo tarkibi, o‘rilish turi, ip zichligi, pardozlash usuli va funksional xususiyatlar kabi bir nechta omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Olib borilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, har bir mato turi (kaliko, ranfors, poplin, satin va perkale) o‘zining strukturaviy va ekspluatatsion xususiyatlariga ko‘ra aniq bozor segmentlariga mo‘ljallangan. Kaliko arzonligi va gigiyenikligi bilan maishiy foydalanishda keng qo‘llanilsa, perkale va satin yuqori mustahkamlik va estetik xususiyatlari tufayli mehmonxona va premium segmentlar uchun tavsiya etiladi. Aralash tolali matolar esa uzoq muddatli ekspluatatsiya talab qilinadigan hollarda afzal hisoblanadi. Zamonaviy ishlab chiqarishda ekologik xavfsiz, gipoallergen va yuqori gigiyenik xususiyatlarga ega matolarni yaratish to‘qimachilik sanoatining innovatsion rivojlanishining asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Assortimentni ilmiy asosda klassifikatsiya qilish ishlab

chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, sifat nazoratini kuchaytirish va bozor talablariga moslashuvchanlikni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boymuratov B.X., Daminov A.D. To‘quvchilik texnologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2016. – 316 b.
2. Alimboyev E.Sh., Siddiqov P.S., Hasanov B.K., Rahimxo‘jayev S.S. To‘quvchilik maxsus texnologiyasi va jihozlari. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2007. – 264 b.
3. Thangamani K., Sundaresan S. Fabric Manufacturing Technology: Weaving and Knitting. – 1st ed. – Boca Raton: CRC Press, 2022. – 187 p.
4. O‘zbekiston Respublikasi standartlashtirish tizimi. GOST 29298-2005 – Paxta va aralash gazlamalar. Texnik shartlar. – Toshkent, 2005. (tezisingizda keltirilgan asosiy adabiyot)

BIR GILAMDA TARIX MUJASSAM

Dots. Sh.Umarova,
must.izl. M.Egamberdiyeva,
talaba Sh.Eshmurodov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotasiya. *Maqolada ko‘p asrlik tarixga ega Xiva ipak gilamlari, ularni to‘qish an’anasi, rivojlanishi haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek ushbu ipak gilamlarini to‘qish jarayonida foydalaniladigan naqsh ornamentlari, ularning turlari va tahlili keltirilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются Хивинские шелковые ковры, обладающие многовековой историей, а также развитие традиций их ткачества. Кроме того, приводится анализ узоров и орнаментов, используемых в процессе изготовления этих шелковых ковров, их виды и особенности.*

Annotation. *The article examines Khiva silk carpets, wich have a centuries-old history, as well as the development of their weaving traditions. In addition, an analysis of the patterns and ornaments used in the process of making these silk carpets, their types and features is provided.*

Gilamchilik san’atining ildizi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bugungi kunga qadar o‘zining tarixiga ega bo‘lgan “gilam” tushunchasi haqida so‘z boradi. Gilam uy jihozi sifatida qo‘llaniladi, barcha xalq va elatlar orasida o‘z to‘qimachilik madaniyati mavjud. O‘zbekiston xalq amaliy san’atining eng qadimiy va monumental turlaridan biri bo‘lgan gilamchilik, shunchaki ro‘zg‘or buyumi emas, balki xalqimizning o‘tmishi, e’tiqodi va badiiy tafakkuri aks etgan

moddiy madaniyat yodgorligidir. Ushbu san’at turining ildizlari uzoq antik davrlarga, aniqrog‘i, chorvachilik va dehqonchilik madaniyati tutashgan ilk sivilizatsiya o‘choqlariga borib taqaladi [1].

Hozirgi kunda ham mamlakatimizning barcha viloyatlarida gilam ishlab chiqarishni o‘ziga xos uslubini rivojlantirish, o‘zbek gilam hunarmandchiligini qayta tiklash ishlari ustida bir qancha tadqiqotlar davlatimiz miqyosida olib borilmoqda. Bunga respublikamiz prezidentining 20.05.2024 yildagi 181-son “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori yaqqol misol bo‘la oladi. Respublikamizdagi har bir viloyatning gilam ishlab chiqarish uslubi mavjud. Ayniqsa, Xorazm vohasi gilamlari haqida so‘z yuritilganda, o‘zgacha uslub ko‘z oldimizga namoyon bo‘ladi.

Xiva ipak gilamlari — bu oddiy uy jihozi emas, balki Xivaning ko‘p asrlik madaniyati, san’ati va tarixini o‘zida mujassam etgan noyob merosdir. Har bir tugun go‘yo o‘tmishdan kelayotgan hikoyani so‘zlab turadi. Ipak gilam to‘qish an’anasi Xivada qadimdan rivojlangan. Bu san’at avloddan-avlodga o‘tib, ustoz-shogird an’anasi orqali saqlanib kelmoqda. Har bir gilamdagi naqshlar bejiz emas - ular tabiat, hayot, himoya va baraka ramzlarini ifodalaydi. Geometrik naqshlar - tartib va muvozanatni bildiradi. Gul va o‘simlik tasvirlari - hayot va yangilanish ramzi. Ranglar - hissiyot va ma’noni ifodalaydi (qizil - kuch, yashil - hayot).

Ipakdan to‘qilgan gilamlar o‘zining: nafisligi yorqin ranglari, uzoq yillar davomida o‘z ko‘rinishini saqlashi bilan ajralib turadi. Ular yorug‘likda jilolanib, har qarashda turlicha ko‘rinadi. Ipak gilam nafaqat chiroyli va qimmatbaho buyum, balki salomatlik va foydalanish jihatidan ham juda ko‘p afzalliklarga ega. Ipak -tabiiy oqsildan iborat tolalar bo‘lib, unda chang kanalari, mog‘or va mikroblar ko‘paymaydi. Shuning uchun ipak gilamlar kichik yoshdagi bolalar uchun ham eng xavfsiz va foydali tanlovdir. Ipakning o‘ziga xoslihgi shundaki, u havo o‘tkazuvchanlik xususiyatiga ega, yozda salqinlik beradi, qishda esa issiqlikni saqlaydi. Bu esa ularning narxini yanada qimmatbaho qiladi. Bu gilam mahsulotlaridan foydalanish vaqtida - ustida o‘tirganda yoki yurganda tanaga noqulaylik tug‘dirmaydi. Bu kabi gilamlarini ishlab chiqarishda 100% tabiiy ipak iplaridan foydalanilganligi uchun sintetik gilamlardan farqli o‘laroq, gilamlar elektrstatik xususiyati bo‘lmaydi. Xorazm ipak gilamlarida ishlatiladigan tabiiy bo‘yoqlar (anor po‘sti, ro‘yan ildizi va h.k.) mutlaqo zararsizdir. Ular xonadagi havoni zaharlaydigan kimyoviy hidlarni chiqarmaydi

Xorazm (Xiva) ipak gilamlarining ornamentlari (naqshlari) nafaqat bezak, balki to‘qimachilik dizayni va san’atshunoslik nuqtai nazaridan chuqur semantik va geometrik tuzilishga ega (1-rasm). Xiva gilamlarining eng asosiy xususiyati - ularning naqshlaridir, quyida ularning turlarini ko‘rib chiqamiz.

Xiva koshini: Moviy va oq rangli geometrik shakllar.

Pahlavon Mahmud naqshi: Maqbara gumbazidagi murakkab o‘simliksimon (islimiy) naqshlarning gilamga ko‘chirilishi.

1. Islimiy (o‘simliksimon) naqshlar. Bu naqshlar cheksizlik va hayot aylanishini ifodalaydi.

Bodomgul - baxt va unumdorlik ramzi.

Anorgul - Xorazm vohasi uchun xos bo'lib, boylik va oilaviy farovonlikni anglatadi.

Afandi gul - Xiva ustalariga xos bo‘lgan o‘ta nozik va mayda gulli kompozitsiya.

2. Geometrik naqshlar. To‘qimachilik muhandisligi nuqtai nazaridan bu naqshlar simmetriya va takrorlanuvchanlik qonunlariga asoslangan.

Gulsatara (yulduzsimon) - sakkiz qirrali yulduz korinishidagi markaziy element.

Zanjira - gilam hoshiyalarida ishlatiladigan uzluksiz chiziqli naqshlar. Ular gilam strukturasini vizual ravishda chegaralab turadi.

3. Simvolik (ramziy) naqshlar

Tumor - himoya va duo ma'nosini beruvchi uchburchak shaklidagi element.

Chayon: Yomon ko'zdan asrash ramzi sifatida gilam chetlariga tushiriladi

Xiva ipak gilamlaridagi ornamentlar “rapport” (naqshning takrorlanuvchi qismi) asosida quriladi. Ipak iplar o‘ta ingichka - 20-22 denier bo‘lib, naqshlar chegarasini (konturini) juda aniq va tekis qilib chiqarish imkonini beradi. Bu esa gilam yuzasida yuqori “piksel zichligi”ni, ya’ni $1m^2$ da 1 mln ta tugun hosil qilib, gilamda hosil qilinayotgan naqsh ornamentining estetki qiymatini oshiradi.

Bugungi kunda Xiva ipak gilamlari nafaqat O‘zbekistonda, balki butun dunyoda qadrlanadi. Bu hunarmandchilik UNESCO tomonidan himoya qilinadigan nomoddiy madaniy merosga yaqin qadriyat sifatida baholanadi.

1-rasm. Xiva ipak gilamlari

Xiva ipak gilamlarining dunyoga tanilish sababi faqat ularning chiroyida emas - bu gilamlar ortida kuchli tarix, san’at va madaniyat turibdi. Xiva qadimdan Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan. Savdogarlar bu yerga kelib, gilamlarni

boshqa davlatlarga olib ketishgan. Shu orqali ular dunyoga tarqalgan. Har bir gilam qo‘lda to‘qiladi. Minglab tugunlar bilan yaratilgan bu mahsulotlar: juda mustahkam san’at darajasida nafis, har biri yagona betakrordir. Shu sababli ular oddiy mahsulot emas, balki san’at asari sifatida qadrlanadi. Xiva gilamlarida ishlatiladigan ipak tabiiy va sifatli bo‘lib, ranglari o‘chmaydi va yillar davomida o‘z jozibasini saqlaydi. Bu esa xorijiy xaridorlar uchun juda muhim.

Xorazm hududi Buyuk Ipak yo‘li orqali Sharq va G‘arbni bog‘lab turgan. Savdogarlar nafaqat mahsulot, balki san’at va tajribalarni ham olib kelishgan. Shu sababli gilam naqshlarida turli madaniyatlarning izlari ko‘rinadi. Gilam to‘qish asosan ayollar tomonidan bajarilgan, bu esa oilaviy an’ana sifatida avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Har bir naqsh: urug‘ va oilaning belgisi himoya ramzi tabiat va hayot ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Xivaning qadimiy ichki shahri Ichan-Qal’a bo‘lib, u yerda hunarmandchilik, jumladan gilamdo‘zlik yuqori darajada rivojlangan. Gilamdo‘z hunarmandlar har bir gilamga o‘z ruhini, tajribasini va tarixiy bilimini singdirib kelgan (2-rasm).

Xulosa. Xiva ipak gilamlari — bu nafaqat nafis hunarmandchilik mahsuloti, balki o‘zbek xalqining boy tarixi, chuqur ildiz otgan an’analari va yuksak estetik didining yorqin ifodasidir. Ular har bir tugunida sabr-matonat va mahoratni, har bir naqshida esa ma’no va ramzni mujassam etadi. Bugungi kunda bu san’at turi UNESCO darajasida e’tirof etilayotgan madaniy meros sifatida qadrlanmoqda. Demak, Xiva ipak gilamini xarid qilgan yoki unga nazar tashlagan inson aslida oddiy buyum emas, balki o‘zbek xalqining bir bo‘lagini - uning tarixini, ruhini va quyoshdek iliq qalbini his etadi. Shu bois, ushbu bebaho merosni asrash, rivojlantirish va kelajak avlodlarga yetkazish har birimizning muhim vazifamizdir.

2-rasm. Gilamni to‘qish jarayoni.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy hunarmandchilik va amaliy san’atni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
2. Yusupova N.B. “Gilam ishlab chiqarish va badiiy bezash”. Toshkent -2023
3. Bekkeldiyeva M., Raximqulova S. “ O‘zbekistonning qadimiy naqsh va gilam san’ati tarixiy xususiyati”. Eurasian Journal Of Academic Research. Vol 6, № 4, P.116-120
4. Mulkjanova N. “O‘zbek xalq amaliy san’ati ornamentikasi”. – Toshkent, 2012.
5. Bulatov S. O’zbek xalq amaliy bezak sa’nati. –T. Mehnat 1991 y. 384 б.
6. O‘zbekiston madaniy merosi: – mualliflik turkumi: “O‘zbekiston gilamdo‘zligi asrlarga tengdosh an’ana” Toshkent, 2020.

ARRALI JIN KOLOSNIGI ALMASHUVCHAN PLASTINASIGA KIMYOVIY-TERMIK ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASI

t.f.f.d., ass. A.B.Atajanov; t.f.n., prof. A.A.Safoev
Toshkent to‘qimachilik va engil sanoati instituti

Annotatsiya. *Ishda arrali jin kolosnigi almashuvchan plastinasiga kimyoviy-termik ishlov berish texnologiyasi tartiblarini ishchi qismi qattiqligiga ta’sirini tadqiq etish va muqobilini aniqlash natijalari keltirilgan.*

Аннотация. *В работе приведены результаты исследований технологии химико-термической обработки сменных пластин джинных колосников и их влияние на твердость рабочей части с определением оптимальных режимов.*

Abstract. *The paper presents the results of research on the technology of chemical-thermal treatment of replaceable plates of grate bars and their effect on the hardness of the working part, with the determination of optimal processing conditions.*

Ma’lumki, kolosnik diskli arra bilan birga arrali jinning asosiy ishchi qismlari hisoblanadi va ularni konstruksiyasi, texnik tasniflari jinlash jarayoniga kata ta’sir ko’rsatadi [1].

“Arra-kolosnik” tizimini ishonchliligini ta’minlash amaliyotda asosan ularni yeyilishiga chidamliligini oshirishga qaratilgan. Jumladan, arrali jin kolosnigini ishlash muddatini oshirish uchun uni jin arrasi o’tadigan ishchi qismida turli xil materiallardan tayyorlangan, turli konstruksiyalardagi almashuvchan plastinalar qo’llash imkoniyatlari o’rganilgan qator ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan [2,3].

Shu maqsadda [4] ishda almashuvchan plastinalarni oddiy materialdan yassi prizmatik shaklda tayyorlash va unga kimyoviy-termik ishlov berish afzalligi ko’rsatib o’tilgan edi.

Biz tomondan almashuvchan plastinani xromlash usuli tadqiq etildi va natijalari quyida keltirilmoqda.

Tadqiqotlar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Mexanika muhandisligi” kafedrasini laboratoriya sharoitlarida olib borildi.

Arrali jin kolosnigini almashuvchan plastinasi a·b·c=50·15·4 mm o‘lchamda tayyorlandi, yuza qatlami belgilangan tartibda tozalandi va xromlash jarayoni bajarildi.

Almashuvchan plastina materiali sifatida Ст3 markali oddiy po‘latdan foydalanilganligi sababli, uni yuza qatlamini diffuzion to‘yintirish ikki xil tuzilishdagi texnologiyalar bo‘yicha amalga oshirildi.

Birinchi texnologiyani boshlang‘ich bosqichida sementatsiya, ikkinchi bosqichida esa xrom bilan diffuzion to‘yintirish jarayonlari bajarildi. Texnologiya quyidagi tartibda bajarildi. Jarayon boshida Ст3 markali po‘latdan tayyorlangan almashuvchan plastinalar 50 donadan qilib qutiga joylashtirildi, bundan oldin esa, ko‘mir va kalsiy karbonatdan iborat maxsus tayyorlangan kukunda zuvalandi. So‘ngra quti germetik yopildi va 8 soat davomida, 900^0 C haroratda, pechda ushlab turildi. Jarayon tugagach, quti chiqarib olindi, havoda uy xaroratigacha sovutildi va plastinalar qutidan olinib, kukun qoldiqlaridan tozalandi.

Keyingi bosqichda plastinalar tarkibi 80 % FeCr, ammoniy xlarid NH_4Cl -1…3 %, qolgani Al_2O_3 bo‘lib maxsus tayyorlangan kukun bilan qoplangan plastinalar yana qutiga joylashtirildi. Quti germetik yopildi va pechga o‘rnatilib, 8-20 soat davomida 1100^0 C haroratda ushlab turildi. So‘ngra qutidan olingan plastinalar uy haroratigacha sovutildi, chastotasi 1000 Gs bo‘lgan YuCHT bilan yuzali toblashga duchor qilindi va NaCl bilan tuzlangan 10 % li eritmaga tushirildi hamda qoldiqlardan tuzli kislota eritmasiga 20 soniya davomida tushirish orqali tozalandi.

Ikkinchi texnologiya bo‘yicha biz plastina ishchi yuzasini xromlash va sementatsiyalashni bir vaqtda amalga oshirdik, bunda xromlash uchun tayyorlangan kukun tarkibiga sementatsiyalash komponentlari kiritildi. Kukun tarkibi-ko‘mir kukuni - 40 %, kalsiy karbonat CaCO3-10 %, ferroxrom FeCr -40 %, ammoniy xlorid NH_4Cl -1…3 %, qolgani alyumin oksidi-Al_2O_3. Bunda plastinalarni pechda 8-20 soat davomida 1100^0 C haroratda ushlab turildi. Bunday

texnologiya ishlov berish jarayonini davomiyligini ikki marta qisqartirish imkonini berdi va to‘yintirish natijasida yuzada dog‘li yuza hosil bo‘ladi.

Tajribalarda olingan natijalarni tahlili shuni ko‘rsatadiki, agarda jarayon karbiryuzatorli muhitda bajarilganda, ushlash vaqtiga bog‘liq holda, singish chuqurligi 0,1-0,21 mm. oralig‘ida bo‘lsa, karbyurizatorsiz muhitda, mos holda, singish chuqurligi 0,07-0,13 mm. ni tashkil etadi.

Qattiqlik ikkala muhitda deyarli bir hil qiymatga ega (HV 1280-1289) ya’ni, oddiy po‘lat Ст3 markali po‘lat qattiqligiga nisbatan 4-5 marta oshganligini kuzatishimiz mumkin va shu vaqtgacha kolosnik ishchi qismida almashuvchan plastina sifatida qo‘llanishga tavsiya etilgan boshqa yuqori sifatli, masalan yuqori sifatli Ст65Г po‘latga termik ishlov berishdagi qiymatga teng bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik. Voris. T. 2019 y.
2. Narmatov E.A. Arrali jin kolosniklarini resurstejamkor konstruksiyasini ishlab chiqish va parametrlarini hisoblash metodlari. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. T 2021.
3. Ergashev I.O. Ko‘p ishlatilishi mumkin bo‘lgan arrali jinkolosnigini yasashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. Namangan 2021
4. SafoevA.A., Butovsky P.M., Atajanov A.B., Abdugaffarov X.J. Study of the wear process of technological surfaces of saw gin grates. BIO Web of Conf., 65 (2023).

«ДЕРЕВО СВОЙСТВ» ДЛЯ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ

Докторант М.М.Абдурахимова
Соискатель О.С.Валиева
Профессор М.К.Кулметов
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya. *Kompression trikotajning “xususiyatlar daraxti” tibbiy mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish va kompleks baholash imkonini beruvchi iyerarxik model hisoblanadi. Ushbu modelda umumlashtirilgan sifat ko‘rsatkichi xususiyatlar guruhlariga bo‘linadi: funksional, mexanik, gigiyenik va ekspluatatsion.*

Аннотация. *Дерево свойств компрессионного трикотажа представляет собой иерархическую модель, позволяющую систематизировать и комплексно оценивать показатели качества изделий медицинского назначения. В данной модели обобщённый показатель*

качества декомпозируется на группы свойств: функциональные, механические, гигиенические и эксплуатационные.

Abstract. *The compression knitwear properties tree represents a hierarchical model that allows for the systematization and comprehensive evaluation of the quality indicators of medical products. In this model, the generalized quality indicator is decomposed into groups of properties: functional, mechanical, hygienic, and operational.*

Дерево свойств - графическое изображение иерархической структуры, состоящей из сложных свойств и связанных с ними групп свойств [1-2]. Полное дерево - дерево свойств, корень которого находится на 0-м уровне, а на m-м уровне находятся только простые или квазипростые свойства.

Дерево свойств для компрессионного трикотажа имеет свои особенности в зависимости от специальных функций данного вида изделий и показывает качество изделия [3-4].

Качество компрессионного изделия выражается в следующем: функциональные свойства - компрессионное давление, градиент давления; механические свойства: растяжимость, упругость, восстановление; гигиенические свойства: воздухопроницаемость, влагопоглощение; эксплуатационные свойства: износостойкость, стабильность формы; эргономические свойства: комфорт, прилеганию (рис.1).

Дерево свойств представляет собой иерархическую модель, отражающую структуру показателей качества продукции, позволяющую систематизировать и количественно оценивать взаимосвязанные свойства текстильных материалов и изделий.



Рис.1. Дерево свойств компрессионного трикотажа.

Весовые коэффициенты дерева свойств.

1. Верхний уровень (группы свойств

№	Группа свойств	Обозначение	Вес
1	Функциональные	W_1	0.4
2	Механические	W_2	0.3
3	Гигиенические	W_3	0.2
	Итого		1.0

2. Второй уровень

Функциональные свойства (0.40)

№	Показатель	Вес
1	Компрессионное давление	0.25
2	Градиент давления	0.15
3	Сумма	0.40

Механические свойства (0.35)

№	Показатель	Вес
1	Растяжимость	0.12
2	Упругость	0.13
3	Восстановление	0.10
	Сумма	0.35

Гигиенические свойства (0.25)

№	Показатель	Вес
1	Воздухопроницаемость	0.10
2	Влагопоглощение	0.08
3	Теплосопротивление	0.07
	Сумма	0.25

Формула комплексной оценки качества экспертным методом с учётом стандартов (RAL-GZ 387 — приоритет давления)

$$Q = \sum (W_i \cdot q_i)$$

где: -Q — интегральный показатель качества; -W_i — весовой коэффициент; -q_i — нормированное значение показателя.

Для количественной оценки качества компрессионного трикотажа используется метод взвешенной суммы, основанный на дереве свойств. Весовые коэффициенты определяются экспертным методом с учётом функциональной значимости показателей. Наибольший вес имеют функциональные свойства, обеспечивающие терапевтический эффект изделия.

Расчёта комплексного показателя качества ведется в определенной последовательности, который приводится ниже. Для расчета выбраны наиболее важные показатели свойств компрессионного трикотажа, (больные с варикозным расширением вен, которым предназначено носить профилактические компрессионные чулки). Значения q_i могут быть нормированы по стандартам (ISO, RAL) или получены экспериментально.

1. Исходные данные (нормированные значения q_i)

(значения от 0 до 1)

№	Показатель	Обозначение	Вес W_i	Значение q_i	$W_i \cdot q_i$
1	Компрессионное давление	q_1	0.25	0.90	0.225
2	Градиент давления	q_2	0.15	0.85	0.128
3	Растяжимость	q_3	0.12	0.80	0.096
4	Упругость	q_4	0.13	0.88	0.114
5	Восстановление	q_5	0.10	0.82	0.082
6	Воздухопроницаемость	q_6	0.10	0.75	0.075
7	Влагопоглощение	q_7	0.08	0.70	0.056
8	Теплосопротивление	q_8	0.07	0.78	0.055

2.Расчёт интегрального показателя

$$Q = \sum (W_i \cdot q_i)$$

Q=0.225+0.128+0.096+0.114+0.082+0.075+0.056+0.055; Q=0.831

Выводы

Интерпретация результата: 1) 0.8 – 1.0 - Высокое качество; 2) 0.6 – 0.8 – Среднее; 3) < 0.6 – Низкое. Q=0.831 → Высокое качество компрессионного изделия. В результате расчёта интегрального показателя качества компрессионного трикотажа получено значение Q = 0.831, что соответствует высокому уровню качества. Это свидетельствует о том, что разработанный материал обеспечивает требуемые функциональные, механические и гигиенические характеристики.

Литература

1.Граб В.П. Особенности применения экспертных методов при оценивании качества прикладных программных средств и систем автоматизации информационно-методического обеспечения образовательного процесса и управления образовательным учреждением // Научно-методический журнал «Информатизация образования и науки» №2 (6), Москва, ФГУИТТ «Информика», 2010 г., стр.167-176.

2. Технологии определения показателей качества [Электронный ресурс] / URL: https://studme.org/365572/sotsiologiya/tehnologii_opredeleniya_pokazateley_kachestva.

3. Номенклатура показателей качества – дерево свойств [Электронный ресурс] / URL: https://studwood.net/1832306/tovarovedenie/nomenklatura_pokazateley_kachestva_derevo_svoystv

4. Yermatov R., Mirzaxmedov A., Khankhadjaeva N. Research of physical-mechanical properties of compression stockings. 58-я Международная научно-техническая конференция преподавателей и студентов, посвященная 60-летию УО «ВГТУ» г. Витебск, «Витебский государственный технологический университет» 16-17 апреля 2025 года 55-60-р.

ИЗМЕРЕНИЕ ДАВЛЕНИЯ КОМПРЕССИОННЫХ ИЗДЕЛИЙ

Докторант Р.Б. Ерматов
Докторант Ф.Ф. Мамашоев
Профессор Н.Р.Ханхаджаева
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompression trikotaj mahsulotining fizik-mexanik xususiyatlari, xususan, cho‘ziluvchanligi tadqiq etilgan. Laboratoriya sharoitida namunalarning kompressiya darajasi ko‘rsatkichlari aniqlandi, variantlarning xususiyatlari aniqlandi.*

Аннотация. *В данной статье исследованы физико-механические свойства, в частности, растяжимость компрессионного трикотажного изделия. В лабораторных условиях определены показатели степени компрессии образцов, выявлены особенности вариантов.*

Abstract. *In this article the physical-mechanical properties, in particular, extensibility of compression hosiery product have been studied. In the laboratory conditions, parameters of compression degree of the samples were determined, and the features of the variants were identified.*

В мире ведутся научно-исследовательские работы по эффективному использованию сырья при производстве трикотажных изделий со специальными свойствами, разработке новых ассортиментов трикотажных изделий, совершенствованию новой техники и технологий. В этом направлении особое внимание уделяется совершенствованию технологии вязания нового ассортимента компрессионных чулочно-носочных изделий, разработке компрессионных трикотажных изделий, выбору альтернативных видов сырья, исследованию их влияния на технологические показатели и свойства, а также применению различных структур полотна в компрессионных трикотажных изделиях [1-3].

На основе анализа сырья, используемого при производстве компрессионных трикотажных изделий, и их свойств были выбраны виды сырья для производства компрессионных чулочно-носочных изделий, подходящих для различных климатических условий, в том числе для климатических условий Узбекистана. Приведены конструкция и технология получения вновь созданного компрессионного чулочного изделия, а также различные структуры переплетений, используемые в производстве.

Научная новизна данного исследования заключается в том, что впервые в условиях Узбекистана в лаборатории ТИТЛП разработано инновационное устройство, позволяющее измерять уровень давления медицинских компрессионных чулок с использованием доступных и недорогих запасных частей. Устройство способно измерять уровень давления в мм рт.ст. в режиме реального времени, отображать результаты на цифровом дисплее и затем передавать их на мобильное устройство. Данный подход отличается технологической простотой, удобством обслуживания и экономической эффективностью по сравнению с существующими зарубежными устройствами [4-6].

Устройство **KDO'U-III** предназначено для измерения уровня давления компрессионных трикотажных чулок и работает в полностью автономном режиме. Конструкция устройства основана на моделях искусственной ноги, оснащенных высокоточными датчиками. Модель искусственной ноги имеет 3 точки измерения, которые определяют давление, оказываемое изделием. Полученные результаты обрабатываются платами на базе Arduino и передаются на монитор. Тензодатчики, расположенные в 3 точках устройства, измеряют распределение уровней

давления в наиболее важных точках изделия, что делает процесс измерения более эффективным и быстрым.

Модель деревянной ноги имеет длину 70 см и состоит из самой модели, тензодатчиков, передатчиков и электронного дисплея. Устройство измеряет уровень давления в 3 точках. Диаметр окружности лодыжечной части модели ноги составляет 22 см, диаметр голени - 36-42 см. Размеры устройства соответствуют размерам, распространенным у 80% населения азиатских стран.

Полученные результаты в таблице 1 доказывают уровень точности и стабильность работы устройства KDO’U-III. Устройство позволяет измерять давление интерфейса в трех основных точках, что практически обеспечивает достаточную надежность при оценке распределения давления компрессионных изделий. Точность устройства составляет ±1 мм рт. ст., что соответствует зарубежным аналогам, при этом оно значительно дешевле и удобнее в использовании.

Кроме того, результаты высокоточных измерений давления, полученные в вариантах 5, 6 и 7, показывают, что разработанные компрессионные изделия на основе этой трикотажной структуры соответствуют требованиям 1-го компрессионного класса. Это расширяет возможности их эффективного использования в медицинских и профилактических целях. В рамках исследования были проанализированы технические возможности, уровень точности, стоимость и функциональные характеристики альтернативных устройств для измерения давления. Согласно сравнительным результатам, в отличие от широко распространенных на зарубежном рынке устройств, отечественное устройство KDO’U-III выделяется как практичное, недорогое и обеспечивающее технически достаточный уровень результатов.

На основе изучения научных источников было установлено, что спрос на компрессионный трикотаж на мировом рынке увеличивается из года в год. Рынок Узбекистана не освоил производство этого вида продукции в достаточном количестве.

Анализ показателей давления, измеренных на устройстве KDO’U-III

		Основа хлопок 30 текс, спандекс 75d40F, футер: латекс 98 текс					**Основа хлопок 18 текс, спандекс 75d40F, футер: латекс 98 текс**		
					хлопок 2 конца	спандекс 2 конца			
Варианты		1	2	3	4	5	6	7	8
		3/1 c=0	3/1 c=1	3/1 c=2	3/1 c=2	3/1 c=2	3/1 c=0	3/1 c=1	3/1 c=2
A	Грамм сила	167	137	123	151	135	152	136	144
B		130	118	122	101	120	135	119	125
C		66	50	30	44	50	48	50	66
A		3,33	2,75	2,45	3,03	2,7	3,05	2,7	2,8

B	Паскаль	2,6	2,3	2,4	2,02	2,4	2,7	2,3	2,5
C	(Pa)	1,3	1	0,6	0,8	1	0,9	1	1,3
мм рт.ст		25	20	18	22	20	22	20	21
Класс		2	1	1	2	1	2	1	1

Уровень давления, оказываемого на тело человека эластомерными текстильными изделиями, является основным параметром, определяющим их функциональную и терапевтическую эффективность. Исследования показали, что давление до 10 мм рт. ст. практически не влияет на организм, в то время как давление в диапазоне 15-25 мм рт. ст. вызывает значительные изменения в функциях венозного кровообращения и дыхания. Исходя из этого, при проектировании медицинских эластомерных изделий необходимо определить оптимальный диапазон давления с учетом анатомо-физиологических особенностей поверхности тела.

Литература

1. Компрессионный трикотаж [Электронный ресурс]/URL: https://baldinelli.ua/ua/articles/kompresijnyj-trykotazh-koryst-vydy-jak-vybraty
2.Daniel Rabe, Hugo Partsch, Gerhard Heidl, Mirko Hirschl, Michael Kundi, E berhard RabeFelizitas Pannier, Compression treatment in acute symptomatic proximal deep venous thrombosis – Results of a worldwide survey [Электронный ресурс]/URL: https://doi.org/10.1177/02683555211003 522-534-p.
3.Шустов Ю.С. Основы текстильного материаловедения. Москва. ООО «Совъяж Бево» 2007. - 210 с.
4.Yermatov R., Mirzaxmedov A., Khankhadjaeva N. Research of physical-mechanical properties of compression stockings 58-я Международная научно-техническая конференция преподавателей и студентов, посвященная 60-летию УО «ВГТУ» г. Витебск, «Витебский государственный технологический университет» 16-17 апреля 2025 года 55-60-р.
5.Spenser D. J., Knitting Technology: A Comprehensive Handbook and Practical Guide 3 rd. ed.; Woodhead Publishing Limited, England and Technomic, USA, 2001, 386 p.
6.Yermatov R., Komolidinova F., Mukhtarova N., Khankhadjaeva N. Technological capabilities of knitting machines and compression hosiery // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 10, October (2024) p.13-18 https://doi.org/10.5281/zenodo.13957891

KOMPRESSION MAHSULOT BOSIMINI O‘LCHASH

Докторант Р.Б. Ерматов
Докторант Ф.Ф. Мамашоев
Профессор Н.Р.Ханхаджаева
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompression trikotaj mahsulotining fizik-mexanik xususiyatlari, xususan, cho‘ziluvchanligi tadqiq etilgan. Laboratoriya sharoitida namunalarning kompressiya darajasi ko‘rsatkichlari aniqlandi, variantlarning xususiyatlari aniqlandi.*

Аннотация. *В данной статье исследованы физико-механические свойства, в частности, растяжимость компрессионного трикотажного изделия. В лабораторных условиях определены показатели степени компрессии образцов, выявлены особенности вариантов.*

Abstract. *In this article the physical-mechanical properties, in particular, extensibility of compression hosiery product have been studied. In the laboratory conditions, parameters of compression degree of the samples were determined, and the features of the variants were identified.*

Jahonda 2024-yilda global kompression mahsulotlar bozori 5.9 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2032-yil oxirigacha 8.4 milliard AQSh dollarigacha yetishi kutilmoqda. 2024-2032-yillar oralig'ida bozorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 5.3% ni tashkil qiladi. Ushbu kutilayotgan o'sish asosan tibbiyot sohasida (shifoxonalar, klinikalar, ambulator muassasalar va boshqalar) kompression mahsulotlardan foydalanishning kengayishi bilan bog'liq. Kompression mahsulotlar bozoriga tibbiyot, sport va estetik tendensiyalarning kombinatsiyasi ta'sir ko'rsatmoqda.

Kompressiya darajasini o’lchash qurilmalarni turlari, narxlari, ishlash prinsipi va imkoniyatlari o‘rganib chiqildi va kompression trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan xomashyolar va ularning xususiyatlari tahlili asosida turli iqlim sharoitiga, jumladan O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos keluvchi kompression paypoq mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun xomashyo turlari tanlab olindi. Yangi yaratilgan kompression paypoq mahsulotining konstruksiyasi va olish texnologiyasi, hamda ishlab chiqarishda qo‘llanilgan turli to‘qima tuzilishlari yaratildi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, birinchi bor O‘zbekiston sharoitida mavjud va arzon ehtiyot qismlardan foydalanilgan holda, tibbiy kompression paypoqlarning bosim darajasini o‘lchash imkonini beruvchi innovatsion qurilma TTYSI laboratoriyasida ishlab chiqildi. Qurilma real vaqt rejimida bosim darajasini mmHg birligida o‘lchash, natijalarni raqamli displeyda aks ettirish va keyinchalik mobil qurilmaga uzatish imkoniyatiga ega. Mazkur

yondashuv mavjud xorijiy qurilmalarga nisbatan texnologik soddalik, xizmat ko‘rsatish qulayligi va iqtisodiy samaradorlik bilan ajralib turadi.

KDO’U-III — qurilmasi kompression trikotaj paypoqlarining bosim darajasini o’lchashga mo’ljallangan va to’liq avtonom rejimida ishlaydi. Qurilmaning tuzilishi yuqori aniqlikdagi sensorlar bilan jihozlangan sun’iy oyoq modellari asosida tashkil etilgan. Sun’iy oyoq modelida 3 ta o‘lchov nuqtasi mavjud bo‘lib, ular mahsulot tomonidan berilayotgan bosimini aniqlab beradi.

Olingan natijalarni Arduino asosida yaratilgan platalar orqali ma’lumotni qayta ishlab monitorga uzatadi. Qurilmada 3 ta nuqtada joylashgan tenzo datchiklar mahsulotning eng kerakli bo’lgan nuqtalarida bosim darajalarini taqsimlanishini o’lchab beradi, bu esa o‘lchov jarayonini yanada samarali va tezkor qiladi.

Yog’och oyoq modelining uzunligi 70 sm ga teng bo’lib, yog’och oyoq model, tenzo datchiklar, uzatkichlar va elektron displeydan iborat, qurilma 3 ta tuqtada bosim darajasini o’lchaydi. Oyoq modelning to’piq qismining aylana diametdi 22 sm ni, boldir qismining diametri 36 sm 42 sm ni tashkil qiladi. Qurilmaning o’lchamlari Osiyo mamlakatlarida aholining 80% da keng tarqalgan o’lchamlarga mos ravishda yasalgan.

Kompression trikotaj mahsulotlari uchun muhim ko‘rsatkichlardan biri bu uning elastikligidir, ya’ni cho‘ziluvchanligi va qaytar deformatsiyasidir.

GOST 58236-2020 Tibbiy, qayishqoq, kompression mahsulotlar (Изделия медицинские эластичные компрессионные) standartiga ko‘ra uzilishdagi cho‘zilish 49 N kuch ta’siridagi cho‘zilishdan yuqori bo’lishi kerak. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, uzilishdagi cho‘zilishi bo‘yiga 150% dan 262 % gacha, eniga 106%-357% gacha o‘zgarishi kuzatiladi. Kompression futer trikotaj to‘qimasining cho‘ziluvchanligi bo‘yiga 57-170% oralig‘ida, eniga 111-230% oralig‘ida o‘zgaradi (6-rasm). Bundan ko‘rinib turibdiki, tahlil natijalari standart talablariga muvofiqdir.

Kompression futer trikotaj to‘qimasining qaytar va qaytmas deformatsiyasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, namunalar o‘zaro bir-biriga nisbatan solishtirilsa, bo‘yiga qaytar deformatsiya 90-95%, eniga qaytar deformatsiya 96-99% ni tashkil etadi (1-rasm).

Tadqiqot doirasida mahalliy ishlab chiqarilgan KDO’U-III qurilmasi yordamida sakkizta turli trikotaj strukturasiga ega kompression paypoq namunalarining interfeys bosimi o‘lchandi. Bosim qiymatlari dastlab gramm/sm² birlikda qayd etildi, so‘ngra xalqaro amaliyotga mos tarzda Paskal (Pa) va millimetr simob ustuni (mmHg) birliklariga konvertatsiya qilindi. O‘lchov natijalari shuni ko‘rsatdiki, "A" zonasida qayd etilgan bosim 21868,83 Pa dan (16,4 mmHg) 29714,15 Pa gacha (22,2 mmHg) oraliqda bo‘lib, eng yuqori qiymat 2-5 variantda, eng past bosim esa 2-7 variantda kuzatildi. "B" zonasidagi bosim qiymatlari 24810,82–29812,22 Pa (18,6–22,3 mmHg) diapazonida bo‘lib, ularning aksariyati 1-kompression klass (18–21 mmHg) chegarasiga to‘g‘ri

keladi. "C" zonada faqat ba’zi variantlarda o‘lchovlar mavjud bo‘lib, ular orasida 2-7 variantda 30204,48 Pa (22,6 mmHg) eng yuqori bosim qayd etildi.



1-rasm. Eni va bo’yi bo‘yicha qaytar deformatsiyaning o‘zgarish diagrammasi.

Olingan natijalar KDO’U-III qurilmasining aniqlik darajasi va barqaror ishlashini isbotladi. Qurilma uchta asosiy nuqtada interfeys bosimini o‘lchash imkonini berib, amaliy jihatdan kompression mahsulotlarning bosim taqsimotini baholashda yetarli ishonchlilikni ta’minlaydi. Qurilmaning ±1 mmHg aniqligi xorijiy analoglar bilan teng darajada bo‘lib, narx jihatdan ancha arzon va foydalanish uchun qulaydir.

Tadqiqot doirasida muqobil bosim darajasini o‘lchash qurilmalarining texnik imkoniyatlari, aniqlik darajasi, narxi va funksional xususiyatlari tahlil qilindi. Solishtirma natijalarga ko‘ra, xorijiy bozorda keng tarqalgan qurilmalardan farqli o‘laroq, mahalliy ishlab chiqilgan KDO’U-III qurilmasi amaliyotga mos, arzon va texnik jihatdan yetarli darajadagi natijalarni beruvchi moslama sifatida ajralib turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Компрессионный трикотаж [Электронный ресурс]/URL: https://baldinelli.ua/ua/articles/kompresijnyj-trykotazh-koryst-vydy-jak-vybraty
2.Daniel Rabe, Hugo Partsch, Gerhard Heidl, Mirko Hirschl, Michael Kundi, E berhard RabeFelizitas Pannier, Compression treatment in acute symptomatic proximal deep venous thrombosis – Results of a worldwide survey [Электронный ресурс]/URL: https://doi.org/10.1177/02683555211003 522-534-p.
3.Шустов Ю.С. Основы текстильного материаловедения. Москва. ООО «Совъяж Бево» 2007. - 210 с.
4.Yermatov R., Mirzaxmedov A., Khankhadjaeva N. Research of physical-mechanical properties of compression stockings 58-я Международная научно-техническая конференция преподавателей и студентов, посвященная 60-

летию УО «ВГТУ» г. Витебск, «Витебский государственный технологический университет» 16-17 апреля 2025 года 55-60-р.
5.Spenser D. J., Knitting Technology: A Comprehensive Handbook and Practical Guide 3 rd. ed.; Woodhead Publishing Limited, England and Technomic, USA, 2001, 386 p.
6.Yermatov R., Komolidinova F., Mukhtarova N., Khankhadjaeva N. Technological capabilities of knitting machines and compression hosiery // International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume. 7, Issue 10, October (2024) p.13-18 https://doi.org/10.5281/zenodo.13957891

МЕДИЦИНСКИЕ ТРИКОТАЖНЫЕ МАСКИ ДЛЯ КОСМЕТОЛОГИИ

Докторант Н.Ф.Мухтарова
Докторант А.С.Мирзахмедов
Профессор Н.Р.Ханхаджаева
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Annotatsiya.*Ushbu maqolada kosmetologiya uchun mo‘ljallangan trikotaj niqob turlari o‘rganilib, turli xil to’qima rapportlarini qo‘llagan holda mahsulot variantlari ishlab chiqilgan. TTESI ning laboratoriya sharoitida ko’tsatkichlari va xossalari, xususan, xomashyo sarfi va havo o‘tkazuvchanligi aniqlandi.*

Аннотация. *В данной статье изучены виды трикотажной маски для косметологии, разработаны варианты изделия с применением различного раппорта переплетения. Исследованы параметры и свойства в лабораторных условиях ТИТЛП, в частности, определены расход сырья и воздухопроницаемость.*

Abstract. *This article examines the types of knitted masks for cosmetology and develops product variants using different knitting patterns. The parameters and properties were investigated under laboratory conditions of the TITLI, in particular, raw material consumption and air permeability were determined.*

В мире в настоящее время косметологическая хирургия значительно растет в глобальном масштабе. Согласно данным Глобального обследования ISAPS 2025 года [1] количество эстетических и косметологических операций увеличилось на 11% по сравнению с предыдущими годами. В частности, специальные компрессионные повязки и маски широко используются в реабилитации пациентов после таких вмешательств, как пластика лица, липосакция и блефаропластика. Ожидается, что объем мирового рынка компрессионной одежды в 2023 году составит около 2,5 млрд долларов, а к 2030 году достигнет 4,1 млрд

долларов [2], что свидетельствует о быстром росте спроса на продукцию в медицинском и косметическом сегментах. Применение компрессионных средств способствует уменьшению отеков в процессе реабилитации с эффективностью 60-70%, а также сокращает продолжительность реабилитации в среднем на 3-5 дней. Однако компрессионные маски, изготовленные из синтетических нитей, которые широко используются на практике, сталкиваются с такими проблемами, как низкая дыхательная способность кожи, неравномерное распределение давления и риск высокой влажности. Исследования показали, что продукты с добавлением хлопчатобумажной пряжи поглощают влагу на 30-40% выше по сравнению с синтетическими нитями, улучшают здоровье и гигиенические свойства кожи.

В области пластической хирургии компрессионные изделия широко используются в послеоперационный период после таких вмешательств, как фейслифтинг (facelift), липосакция, блефаропластика и коррекция контура шеи, выступая в качестве средства послеоперационной профилактики. Указанные вмешательства сопровождаются значительными изменениями кожи и мягких тканей, что может приводить к накоплению жидкости, отёкам и болевым ощущениям [3].

Зарубежное клиническое исследование показывает наличие противоречивых научных результатов по эффективности компрессионных повязок и подтверждает, что клинические результаты компрессионных повязок зависят от их конструкции и технологических решений. Это указывает на необходимость внедрения современных, научно обоснованных технологий в производство компрессионных изделий. В научной статье, опубликованной Zhao M., Wu L., Wang Q., Wang T. и Wang J. [4], предложено новое конструктивное решение компрессионной повязки, применяемой после хирургического вмешательства, направленного на омоложение лица (rhytidectomy), - метод "X"-образной перекрестной компрессионной повязки. Данное конструктивное решение направлено на усиление локального компрессионного воздействия в скуло-сгубковой (зябко-щечной) зоне, обеспечение направленной вверх фиксации мягких тканей и предотвращение скольжения связки. На рисунках и схемах в статье показана технология поэтапного размещения связки, и эти визуальные материалы наглядно демонстрируют важность целенаправленного распределения компрессионного давления в различных зонах лица.

Анализ тканевого состава и технологических решений существующих изделий показывает, что большинство косметологических масок изготавливаются в сшитой конструкции, что снижает приспособляемость к контурам лица, в некоторых случаях приводит к появлению зон локального давления и препятствует длительному комфортному ношению изделия.

На кафедре «Технология текстильных полотен» ТИТЛП проводятся научные исследования по разработке медицинских текстильных изделий, выработанных на плосковязальных машинах регулярным способом, т.е. получаются бесшовные изделия заданной формы. Такие изделия рекомендуются для использования в косметологии, так как после хирургического вмешательства необходимо фиксация мягких тканей и предотвращение скольжения связки. На рис.1(а, б) приведен пример графической записи двух вариантов, на основе которых выработаны образцы бесшовных масок для лица. Проведен эксперимент по определению технологических параметров и физико-механических свойств с использованием различного сырья. Традиционные технологии раскроя и шитья не обеспечивают достаточной гибкости при адаптации конструкции изделия к индивидуальным анатомическим особенностям, а швы отрицательно влияют на долгосрочную стабильность изделия.



а б

Рис.1. Графическая запись переплетений для косметологической маски

Вышеуказанные недостатки обосновывают необходимость совершенствования существующих технологий, в частности, разработки технологии получения косметологических масок на плоскофанговых машинах на основе бесшовного вязания. Такой подход позволяет формировать целостную конструкцию изделия, регулировать компрессионное давление по зонам и точно настраивать технологические параметры в процессе производства.

В то же время, за счет использования эластичных нитей с добавлением хлопчатобумажной пряжи можно целенаправленно формировать структуру косметологических масок и добиться технологических преимуществ по сравнению с существующими практическими решениями. В этих условиях в качестве научной проблемы ставится задача обоснования технологических параметров процесса получения косметологических масок на основе технологии бесшовного вязания и определения закономерностей формирования структуры изделия.

Литература

1.International Society of Aesthetic Plastic Surgery (ISAPS). *2023 Global Survey on Aesthetic/Cosmetic Procedures*. https://www.isaps.org/discover/about-isaps/global-statistics/global-survey-2023-full-report-and-press-releases/?utm_source=chatgpt.com

2.Additive manufacturing and in-plane testing of plain weft knitting-based metastructures with ortotropic behavior [Электронный ресурс]/URL: https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/00405000.2026.2641889

3. Ormseth BH, Livermore NR, Schoenbrunner AR, Janis JE. The Use of Postoperative Compression Garments in Plastic Surgery—Necessary or Not? A Practical Review. Plast Reconstr Surg Glob Open. 2023; DOI:10.1097/GOX.0000000000005293

4.Design and clinical application of X-shaped cross-dressing method in rhytidectomy. Mingyu Zhao, Lehao Wu, Qianwen Wang, Tailing Wang, Jiaqi Wang. Advances in Oral and Maxillofacial Surgery [Электронный ресурс]/URL: www.sciencedirect.com/journal/advances-in-oral-and-maxillofacial-surgery

KOSMETOLOGIK XIRURGIYA NIQOBLARI

Doktorant N.F.Muxtorova
Professor N.R.Xanxadjaeva
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya.*Ushbu maqolada kosmetologiya uchun mo‘ljallangan trikotaj niqob turlari o‘rganilib, turli xil to’qima rapportlarini qo‘llagan holda mahsulot variantlari ishlab chiqilgan. TTESI ning laboratoriya sharoitida ko’tsatkichlari va xossalari, xususan, xomashyo sarfi va havo o‘tkazuvchanligi aniqlandi.*

Аннотация. *В данной статье изучены виды трикотажной маски для косметологии, разработаны варианты изделия с применением различного раппорта переплетения. Исследованы параметры и свойства в лабораторных условиях ТИТЛП, в частности, определены расход сырья и воздухопроницаемость.*

Abstract. *This article examines the types of knitted masks for cosmetology and develops product variants using different knitting patterns. The parameters and properties were investigated under laboratory conditions of the TITLI, in particular, raw material consumption and air permeability were determined.*

Kosmetologik xirurgiya sohasida jarrohlik aralashuvlaridan keyingi reabilitatsiya jarayoni bemorlarning holatini tez tiklash, asoratlarni kamaytirish va jarrohlik natijalarini barqarorlashtirishga qaratiladi. Bu jarayonning muhim

komponentlaridan biri kompression terapiya bo‘lib, u ham jarrohlik, ham estetika amaliyotlarida keng qo‘llanilmoqda. Kompression bandajlar yoki bosimli kiyimlar limfa va qon aylanishini yaxshilash, shishlarni kamaytirish va yuz terisini ravon ushlab turish kabi bir qator fiziologik ta’sirlarni amalga oshiradi, bu esa postoperatsion reabilitatsiyaga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kompression terapiya kontseptsiyasi asosan uzoq vaqt davomida to‘qimalarga nazoratli bosim berish orqali ishlaydi. Bunday bosim limfa drenajida ortiqcha suyuqlik to‘planishining oldini oladi va shishning kamayishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kompression bandajlar qon oqimini barqarorlashtiradi va jarrohlikdan so‘ng paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan gematoma va seroma kabi asoratlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi.

Kompression bandajlar jarrohlik amaliyotlarida, xususan, konservativ tibbiy terapiyada ham, kosmetologik va plastik jarrohlikda ham qo‘llaniladi. Plastik jarrohligi sohasida yuz ko‘tarish (facelift), liposaksiya, blefaroplastika va bo‘yin konturi o‘zgartirish kabi aralashuvlardan keyingi davrda kompression mahsulotlar bemorning postoperatsion profilaktikasi sifatida keng tarqalgan. Ushbu aralashuvlar teri va yumshoq to‘qimalarni keskin o‘zgartirish bilan kechadi, bu esa suyuqlikning to‘planishiga, shish va og‘riqqa olib kelishi mumkin. Kompression bandajlar bu noxush hodisalarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [1].

Kompression bandajlarning asosiy vazifalarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1)Shishlarni kamaytirish: Nazoratli bosim to‘qimalarda ortiqcha suyuqlik to‘planishini cheklaydi va limfa oqimini tezlashtiradi. Bu jarrohlikdan keyingi shishning kamayishiga yordam beradi, shuningdek bemorning vizual qulayligini oshiradi. 2)**Qon aylanishini yaxshilash:** Kompression bosim tromboflebit va boshqa qon aylanishi bilan bog‘liq asoratlarni oldini olishga xizmat qiladi hamda jarrohlikdan keyingi kontur barqarorligini ta’minlaydi. 3)**Shaklni ushlash:** Maxsus trikotaj konstruktsiyasi jarohat olingan sohani stabil ushlab turadi, to‘qimalarning noto‘g‘ri joylashishidan saqlaydi va konturning shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi. 4)**Og‘riqni kamaytirish:** Bandajlar zarur fizik bosimni ta’minlab, og‘riq retseptorlarini tinchlantiradi va bemorning umumiy qulayligini oshiradi. 5)**Asoratlarni kamaytirish:** Kompression terapiya seroma, gematoma va keloid izlar kabi noxush asoratlarni oldini olishda qo‘llaniladi.

Zamonaviy adabiyotlarda kompression bandajlarning samaradorligi haqida turli tadqiqotlar mavjud. Ormseth va hamkasblar olib borgan klinik sharhda postoperatsion kompression bandajlar suyuqlik to‘planishining kamayishini, limfaning yaxshilanishini va kontur barqarorligini oshirishini ko‘rsatgan. Ushbu tadqiqotda sug‘urta qilingan klinik ma’lumotlar asosida kompression bandajlar estetik jarrohlikdan keyingi 24–72 soat ichida shish miqdorini sezilarli darajada kamaytirganligi qayd etilgan. Shuningdek, Arkoubi va boshqalar olib borgan eksperimental tadqiqotda kompression bandajlar liposaksiya va yuz bilan bog‘liq

shishlarni kamaytirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi, og‘riq sezilarli kamayganligi va bemorlarning qoniqish darajasi oshganligi qayd etilgan [2]. Biroq, adabiy manbalarda kompression terapiya samaradorligiga oid izlanishlar hali ham mukammal tizimlashtirilmaganligi qayd etilgan. Ba’zi tadqiqotlar turli kompression konstruksiyalarining farqlari, ulardan foydalanish muddatlari, bosim darajalari va bemorlarning individual ehtiyojlari kabi omillar kompression mahsulotlarning natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan [3]. Shuning uchun kompression bandajlar ishlab chiqarish va qo‘llash texnologiyalarini yanada takomillashtirish, turli jarrohlik holatlari uchun mos konstruksiyalar va elastiklik darajalari bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Kosmetologik mahsulotlar bozorida yuz konturini shakllantirish va teri elastikligini yaxshilash maqsadida turli turlardagi kompression maska-bandajlar ishlab chiqarilmoqda. Dastlabki mahsulotlar tor konstruktsiyaga ega bo‘lib, faqat pastki jag‘ (iyak) sohasini qamrab oluvchi bir martalik maska-bandajlar shaklida taqdim etilgan. Bunday bandajlar terining osilib qolgan joylariga bosim tushurish orqali mikrotsirkulyatsiyani yaxshilashga xizmat qilishi mumkin [4].

Keyinchalik bozorda ko‘proq funksional va keng qamrovli yuz bandajlari paydo bo‘ldi. Bu turlar ichida bir necha asosiy guruhlarni ajratish mumkin. Kosmetologik xirurgiya uchun mo‘ljallangan kompression bandajlarning samaradorligi ularning to‘g‘ri tanlangan o‘lchamiga bevosita bog‘liq. O‘lcham mos kelmagan hollarda bandaj tomonidan hosil qilinadigan bosim noto‘g‘ri taqsimlanadi, bu esa mahsulotning funksional ta’sirini kamaytirishi yoki aksincha, haddan tashqari bosim natijasida noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin.

Yuz uchun kompression bandajlar turlari va ularning funksional xususiyatlari:

Bir martalik to‘qimalar asosidagi maska-bandajlar - ularda odatda maxsus kosmetik preparatlar bilan propitka mavjud bo‘lib, ular terini namlantirish, oziqlantirish, chiziqlarni yengillatish va konturini yaxshilash uchun mo‘ljallangan.

Ko‘p martalik to‘qimalar (yuviladigan) bandajlar — bu turdagi mahsulotlar elastik materialdan tayyorlanadi va foydalanish davomida elastiklikni

Keng qamrovli yuz bandajlari — yuzning pastki jag‘i bilan birga yana bo‘yin, yonoqlar va qimmatli kontur sohalarini qamrab oladi. Ular uch qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, har bir qatlamning o‘zi mikrotsirkulyatsiya, bosim taqsimoti va kontur modellash funksiyasiga xizmat qiladi

yo‘qotmaguncha yana-yana ishlatiladi.

Kompression bandajlarni olishda ishlatiladigan texnologik yechimlar orasida ko‘p qatlamli (laminatsiyalangan) tuzilmalar ham uchraydi. Bunday mahsulotlarda ichki qatlam teri bilan bevosita aloqada bo‘lib, qulaylikni ta’minlashga xizmat qiladi, tashqi qatlam esa asosiy kompression vazifani bajaradi. Ko‘p qatlamli tuzilmalar mahsulotning mexanik barqarorligini oshiradi, biroq ishlab chiqarish texnologiyasini murakkablashtiradi va tannarxni oshirishi mumkin.

Texnologiyalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy kompression bandajlar ishlab chiqarishda choksiz to‘qish texnologiyasi istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bu yondashuv mahsulot konstruksiyasini anatomik shakllarga moslashtirish, kompression bosimni zonalar bo‘yicha boshqarish hamda ishlab chiqarish jarayonida avtomatlashtirish darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday texnologiyani joriy etish maxsus uskunalar va to‘qish parametrlarini chuqur ilmiy asoslashni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Ormseth BH, Livermore NR, Schoenbrunner AR, Janis JE. The Use of Postoperative Compression Garments in Plastic Surgery—Necessary or Not? A Practical Review. Plast Reconstr Surg Glob Open. 2023; DOI:10.1097/GOX.0000000000005293

2.Arkoubi AY, Derder M, et al. Effect of Compression Garments on Post-Abdominoplasty Outcomes. Journal of Plastic, Reconstructive & Aesthetic Surgery. 2024. https://doi.org/10.1016/j.jpra.2024.05.014

3.Smith T., Jones R., *Compression Garments in Plastic and Reconstructive Surgery: A Review of Evidence and Practice.* Journal of Aesthetic Surgery. 2022. 22-33-p.

4.Маска-бандаж для лица: виды и особенности. Aumishop.ru. URL: https://aumishop.ru/bandazh-dlya-litsa/

ПАХТАНИ ИФЛОСЛИКЛАРДАН ТОЗАЛАГИЧНИНГ МАШИНА АГРЕГАТЛАРИ ДИНАМИК ТАҲЛИЛИ

Катта ўқитувчи Kasimov A.A. т.ф.д., проф. Джураев А.
Тошкент тўқимачилик ва енгил саноат институти

Аннотация. *Мақолада пахтани ифлосликлардан тозалагичда такомиллаштирилган юритиш механизмлари схемаси келтирилган. Ишчи органларни ўз ичига олган. Ишчи органларни ўз ичига олган машина агрегатлари динамик ва математик моделлари берилган. Сонли ечим асосида қозиқли барабанлар ҳаракат қонунлари, боғланиш графиклари аниқланган. Таҳлиллар асосида кинематик ва динамик параметрларни тавсия параметрлари асосланган.*

Аннотация. *В статье представлена схема усовершенствованных приводных механизмов в хлопкоочистительной машине. Включает рабочие тела. Приведены динамические и математические модели узлов машины, содержащих рабочие тела. На основе численного решения определены законы движения барабанов, схемы соединений. На основе анализа сформулированы рекомендуемые параметры кинематических и динамических параметров.*

Abstract. *This article presents a diagram of improved drive mechanisms in a cotton gin. It includes the working fluids. Dynamic and mathematical models of the machine components containing the working fluids are provided. Based on a numerical solution, the laws of drum motion and connection diagrams are determined. Based on the analysis, recommended kinematic and dynamic parameters are formulated.*

Технологик машиналарда машина агрегатлари ўз ичига электр юритманинг, узатиш механизми ва ишчи орган, ишчи механизмларини ўз ичига олади [1]. Бунда бир технологик машинада бир нечта машина агрегатлари бўлиши мумкин. Мавжуд УХК агрегатида ҳам ишчи органлар сони ва жойлашуви деярли бир ҳил, лекин тавсия вариантида электр юритгичлари ва узатиш механизмлари кетма кетлиги билаг фарқ қилади. Ушбу тозалагич машинасида 5 та электр юритгич ишлатилиб, умумий сарфи қуввати бир неча квт га камаяди.

Тозалагичда реверсив ҳаракат қилувчи чўткали барабанлар ҳаракатни олувчи тасмали узатмаларни икки вариантда ишлатилади; тўғри ва кесувчи. Шунингдек таъкидлаш лозимки шу вақтгача барча таъмиллаш машиналарида ҳаракат дастлаб бошланғич сўнгра кейинги ишчи органларига узатилади. Бунда ҳаракат тезлиги камайган сари буровчи момент ва сарф қуввати ошиб боради. Мавжуд пахтани тозалагич машинасида ҳам шундай. Бу ҳисоблашлар учун жуда қулайдир. Лекин пахтани титилиш жараёни бошида кам бўлиб, биринчи қозиқли

барабанларга технологик қаршилик катта бўлади. Бунда ҳаракат тезлиги максимал камаяди. Натижада пахтани тиқилиш ҳолатлари юз беради. Буни олдини олиш мақсадида тавсия этилган тозалагичда электр юритгич тескари, яъни охирги ишчи органлар-қозиқли барабанларга уланган бўлади. Чунки бу қозиқли барабанларда тозаланаётган пахта бўлакчалари етарли даражада титилган бўлади ва технологик қаршилик кучлари моментлари катта бўлмайди. Натижада ушбу қозиқли барабанлар айланиш частоталари олдинги қозиқли барабанлар айланиш частотаси катта бўлади. Шунинг учун пахтани тиқилиш ҳодисалари деярли бўлмайди.

Мавжуд тозалагични кинематик схемасини яна бир катта камчилиги шундан иборатки, тасмали узатмалар бир ҳил типда олинган, ҳамда бикрлик коэффициентлар бир ҳил бўлади. Бундан бошланғич қозиқли барабанлар бурчак тезликларини айланма тебраниш қамровлари пахта титкиланиши етарли бўлмаганлиги ҳисобига юқори бўлади. Натижада ушбу айланма тебранма ҳаракат кейинги барабанларга кучайган ҳолда узатилади. Натижада охирги қозиқли барабанларда бурчак тезликнинг нотекислик коэффициентлари юқори бўлиб, пахта толаси ва чигитни шкастланиши ортишига олиб келади [3].

Тозалагич ишчи органлари, узатиш механизмларини ўз ичига олган машина агрегатлари динамик ва математик моделлари.

Назарий тадқиқотларни амалга оширишдан мақсад, электр юритгичлар, ҳар бир ишчи органларни ҳаракат қонунларини, юкланишлариниуларнинг ишчи органлари инерция моментларини, тасмали узатмалар бикирли-диссипация хусусиятлари, технологик қаршиликлари боғлиқ равишда аниқлаш, тавсия қийматларини асослашдан иборат.



а) д)



б) в) г)

а-таъминловчи валиклар машина агрегати; б-қозиқли барабанлар ва реверсив барабанлар машина агрегати; в-аррали цилиндрлар машина агрегати;
г- чиқариб олувчи валикли машина агрегати; д-шнекли машина агрегати.

1-расм. Тавсия этилган пахтани тозалагич машина агрегатлари динамик моделлари (ҳисоб схемалари)

Умуман олганда, ҳисоб схемаларида системани барча динамик параметрлари кўрсатилган, унга денамик модел деб инобатга олинади. Машина агрегати массаларини ажратишда [2] га асосан уларнинг энг кичик бикрликка эга бўлган тасмали узатмаларни ажратиш орқали амалга оширилган. Бунда массалар орасидаги ҳаракат тасмали узатмалардаги боғланиш моментлари орқали бажарилган. 2-расмда тавсия этилган пахтани чиқиндилардан тозалагични ишчи органларини механизмларини ўз ичига олган машина агрегатларини динамик моделлари (ҳисоб схемалари) келтирилган.

Динамик моделлар таҳлилига кўра тозалагич 5 та электр юритгич ишчи органларини ҳаракатга келтиради. Бунда таъминловчи валиклар машина агрегати уч массали динамик модел бўлиб, чизиқли системалардан иборат. Қозиқчали ва реверсив барабанлар механизмларини ўз ичига олган машина агрегат етти массали бўлиб, иккита тармоқланувчи динамик моделдан иборат. Аррали цлиндрлар машина агрегатлари уч массали бўлиб, иккита тармоқланувчи, шнекли ва чиқариб ечувчи чўткали валиклар машина агрегатларини икки массали динамик моделлардан иборатдир.

2-расмда Пахтани ифлосликлардан тозалагичларнинг қозиқли ва аррачали барабанлари ва чўткали валлари бурчак тезликлари тебраниш қамровини иш унумига боғлиқлик графиклари келтирилган. Таҳлилларга асосан тозалагич иш унуми 2,0 т/с дан 6,0 т/с гача кўпайганида деярли барча ишчи органлар бурчак тезланишлари тебраниш қамровлари ночизиқли боғланишда камайиб боради. Жумладан, электр юритгичга энг яқин қозиқли барабанлар бурчак тезликлари тебраниш қамровлари $\Delta\dot{\phi}_5$ ва $\Delta\dot{\phi}_6$ ўзаро яқин бўлиб, (0,6÷0,85) $с^{-1}$ дан (1,9÷2,2) $с^{-1}$ оралиғида ортиб боради. Бунда $\Delta\dot{\phi}_5$ қийматлар $\Delta\dot{\phi}_6$ нисбатан сезиларли даражада каттароқ бўлади.

Чунки (14) га асосан технологик қаршилик бешинчи барабанда нисбатан кичикдир. Мос равишда тозалаш тизими бошидаги, яъни пахта бўлакчалари етарлича титилмаган ҳолатида, қаршилик катта бўлади ва қийматлари ҳам катта бўлади, иш унуми 6,0 т/с га етганда $\Delta\dot{\phi}_1 = 5{,}95\ с^{-1}$, $\Delta\dot{\phi}_2 = 5{,}48\ с^{-1}$ гача етади (2-расм, 1,2-графиклар).



$1-\Delta\dot{\varphi}_1=f(UY)$;$2-\Delta\dot{\varphi}_2=f(UY)$; $3-\Delta\dot{\varphi}_3=f(UY)$; $4-\Delta\dot{\varphi}_4=f(UY)$; $5-\Delta\dot{\varphi}_5=f(UY)$; $6-\Delta\dot{\varphi}_6=f(UY)$; $7-\Delta\dot{\varphi}_{a1}=f(UY)$; $8-\Delta\dot{\varphi}_{a2}=f(UY)$;

2-расм. Пахтани ифлосликлардан тозалагичларнинг қозиқли ва аррачали барабанлари ва чўткали валлари бурчак тезликлари тебраниш қамровини иш унумига боғлиқлик графиклари

Мос равишда $\Delta\dot{\varphi}_3$ ва $\Delta\dot{\varphi}_4$ қийматлари ўртача 1,1$с^{-1}$ дан 3,4 $с^{-1}$ гача ночизиқли боғланишда ортиб боради. Таъкидлаш лозимки, иш унуми, яъни пахтадан келаётган қаршиликларни ортиши билан деярли барча ишчи органлар бурчак тезликлари камаяди [4].

Бу ўз навбатида тозалаш самарасини камайишига олиб келиши мумкин. Шунингдек, аррачали барабанларда $\Delta\dot{\varphi}_{a1}$ ва $\Delta\dot{\varphi}_{a2}$ қийматлари ўртача (0,9÷1,1)$с^{-1}$ дан (3,1÷3,5)$с^{-1}$ оралиғида ночизиқли қонуниятда ўзгарди. Қайд қилиш керакки иш унумини 6,0 т/с дан ортиши ишчи органлар бурчак тезликлари тебраниш қамровлари кескин ортади, етарли даражада бурчак тебранишларини ҳосил қилади. Бу ўз навбатида импулс кучларини оширади, тозалаш самараси ортади, лекин тола ва чигитни шикастланишини ҳам кўпайтириши мумкин. Шунинг учун иш унуми 6,0 т/с ошмаслиги мақсадга мувофиқдир.

Бунда уларнинг фарқи асосан технологик қаршиликларининг камайиб бориш тартибига боғлиқдир. Мос равишда қозиқчали барабанчалар қозиқчалар қирралари сонини ортиши технологик қаршиликни камайтиради. Биринчи машина агрегати қозиқчали барабанлари валларидаги буровчи моментлари юқори бўлиб, 0.5 Нм дан 30.2 Нм гача ночизиқли боғланишда кўпайса, охирги барабанларда 2.3 Нм дан 20.9 Нм гача чизиқли бўлмаган боғланишда ортиб боради. Ушбу Ушбу боғлиқликлардаги бурчак тезликларни ортиб бориши, асосан пахтани тиқилишларини олдини олади. Шунинг учун $\dot{\varphi}_{к12} > \dot{\varphi}_{к11} > \cdots \dot{\varphi}_{к1}$ бўлишини таъминлаш учун $М_{к1} > М_{к2} > \cdots > М_{к12}$ бўлиши, ҳамда қозиқчалар қирралари сони ортиб бориши тартибида бўлиши тавсия этилади.



1,2,3,4,5,6-$\dot{\varphi} > f(M_{t\text{к}})$

1′,2′,3′,4′,5′,6′− $M = f(M_{t\text{к}})$

3-расм. Тавсия этилган тозалагич бурчак тезликлари ва буровчи моментларини технологик қаршиликка боғлиқлик графиклари

Фойдаланилган адабиётлар

1. Kasimov A.A. New string transmission for technological machine actuators // “XXI materials of the republican scientific-online conference on the development prospects of scientific development in the century and the role of innovations in them. Tashkent-2019. pp.-103-104.
2. Djurayev A.D., Kasimov A.A. Paxtani tozalash texnologik mashinalarining tasmali uzatmalarini tasma tarangligini uning tarmoqlari uzayishiga ta’siri// Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 01 | Jan - 2023 ISSN: 2181-2608. pp. 236-239.
3. Djurayev A.D., Kasimov A.A. Influence of Eccentric Pulleys on Increasing the Efficiency of Cleaning Cotton from Small Garbage // WEB OF SYNERGY: International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013 https://univerpubl.com/index.php/synergy.
4. Djurayev Anvar Djurayevich, Kasimov Abror Aliyorovich (2023). O'ZGARUVCHAN UZATISH NISBATLI TASMALI UZATMANING TARKIBLI ROLIKNI SILJISH QONUNINI ANIQLASH. ournal of AdvancedResearch and Stability Volume: 03Issue: 02| fab-2023ISSN: 2181-2608, www.sciencebox.uz 346-351.

SURXON VOHASI GILAMLARINING YARATILISHI

Talaba K.Ergashov, talaba N.Ne’matova, dots. Sh.Umarova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotasiya. *Ushbu maqolada O‘zbek gilamchiligi tarihi, hamda Surxon vohasi tuksiz-taqir gilamlarini ishlab chiqarish uslublari va texnologik jarayonlari ketma-ketligi batafsil yoritilgan. Shuningdek tuksiz-taqir gilam turlari, uni to‘qishda qo‘llaniladigan naqsh ornamentlari o‘rganilgan.*

Аннотация. *В данной статье подробно освещены история узбекского ковроткачества, а также методы производства и последовательность технологических процессов изготовления безворсовых (тақир) ковров Сурхандарьинского региона. Кроме того, изучены виды безворсовых ковров и орнаментальные узоры, используемые при их ткачестве.*

Annotation. *This article covers in detail the history of Uzbek carpet weaving, as well as production methods and sequence of technological processes for the manufacture of lint-free (taqir) carpets of the Surkhandarya region. In addition, the types of lint-free carpets and the ornamental patterns used in their weaving were studied.*

Mamlakatimizda milliy hunarmandchilikni, xalq amaliy san’atini, shu jumladan tarixiy an’analarimizni o‘zida mujassam etgan, ota-bobolarimizdan qadimiy meros bo‘lib avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan, ipak va jundan gilam ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish va noyob san’at asari hisoblanadigan ushbu gilamlarni bozor talablariga moslashtirish an’anaga aylanib bormoqda.

20.05.2024 yildagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 181-son “Charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlarini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatilganidek, mahalliy mahsulotlarni assortimentlik darajasini ko‘paytirish orqali valyuta tejalishiga erishiladi [1]. Chunki, sifatli mahsulotlar mahalliy bozorimizni egallasa chetdan mahsulotning kirib kelishi kamayadi.

Gilamchilik insoniyat tarixidagi eng qadimiy hunarmandchilik turlaridan biridir. Arxeologik topilmalarga ko‘ra, eng qadimiy saqlanib qolgan gilamlardan biri miloddan avvalgi V–IV asrlarga oid bo‘lib, bu davrda gilam to‘qish san’ati yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston hududi gilamchilikning qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Buxoro, Xiva va Samarqand kabi hududlarda qo‘lda to‘qilgan gilamlar nafaqat maishiy buyum, balki san’at asari sifatida ham qadrlangan. Shuningdek Qashqadaryo va Surxondaryo gilamchiligi o‘zining madaniyatini taqir (tuksiz) gilamlar bilan namoyon qilgan. Ushbu viloyatlarda arabi, qoxma, terma, g‘ajari, taqir gilam, qiz-gilam va oq-enli kabi gilamlar

an’anaviy ravishda to‘qilgan. Oxirgi tur aralash texnikada bajarilgan: g‘ajari chiziqlari kashta bilan bezatilgan chiziqlarga mos kelgan. Bunday paloslar kelin sepining zaruriy qismi hisoblangan.

Gilamchilik sanoatida gilamning yangi assortimentlarini yaratish, gilam mahsulotlarini ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston hududida qo‘l mehnati yordamida hunarmandlarning gilam ishlab chiqarish tarmog‘ini rivojlantirish keng yo‘lga qo‘yilmoqda, jumladan surxon vohasining taqir gilamlarini zamonaviy uslubda ishlab chiqarish urfga kirmoqda. Ayniqsa hozirgi kunda urfga kirgan ranglardan, ya’ni indigo, oq, marvarid, “tinch dengiz moviy rang”laridan foydalanib, tuksiz-taqir gilamlari ishlab chiqarilmoqda.

Taqir gilamlar – qadimiy an’analar davomchisi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, gilamlar dastlab tuksiz (taqir) holatda paydo bo‘lgan. Taqir gilamlar (kilim, palos, gajdari) ko‘chmanchi xalqlarning turmush tarziga moslashgan bo‘lib, ular yengilligi, chidamliligi va ikki tomonlama ishlatilishi bilan ajralib turgan [2]. O‘rta asrlarga kelib, xususan, Amir Temur va Temuriylar davrida gilamdo‘zlik san’ati o‘zining cho‘qqisiga chiqdi. Samarqand va Shaxrisabz saroylarini bezagan hashamatli ipak va jun gilamlar nafaqat bezak, balki davlatning qudrati va madaniy yuksakligini ko‘rsatuvchi ramzga aylangan. Bu davrda gilamlardagi naqshlar murakkablashib, "islimiy" (o‘simliksimon) va "girih" (geometrik) kompozitsiyalar uyg‘unlashgan

O‘zbek gilamchiligida matoning sifati va naqshning aniqligi ko‘p jihatdan qo‘llaniladigan dastgoh turiga bog‘liq. Tuksiz-taqir gilamlar asosan ikki xil texnikada tayyorlanadi:

O‘rmek usuli: Bu eng qadimgi gorizontal to‘quv dastgohi bo‘lib, asosan chorvador aholi orasida keng tarqalgan O‘rmekning qulayligi shundaki, uni osongina yig‘ishtirib, boshqa joyga ko‘chirish mumkin. Unda to‘qilgan gilamlar (ayniqsa, Surxondaryo va Qashqadaryo vohasida) "enli" va "ensiz" turlarga bo‘linadi.

Do‘kon usuli(vertikal dastgoh): Bu usulda asosan shahar markazlarida (Buxoro, Xiva) murakkab naqshli, tukli gilamlar to‘qiladi. Bu dastgohda to‘quvchi gilamning har bir arqoq ipi qatorini qo‘lda o‘tkazib chiqadi, bu esa ishning o‘ta nozik bo‘lishini ta’minlaydi.

Taqir gilamlarning gadjari, terma, to‘zi turlari va ularning badiiy farqlari mavjud bo‘lib, har biri o‘ziga xos vizual ko‘rinishga ega:

1. Gadjari: Bu turdagi gilamlar sodda yo‘l-yo‘l naqshlari bilan ajralib turadi. Iplar turli ranglarda bo‘yalib, navbat bilan o‘tkaziladi.

2. Terma: Nomidan ko‘rinib turibdiki, bu usulda naqshlar iplarni "terib" olish orqali hosil qilinadi. Terma gilamlar qalin va yuzasi bir oz relyefli bo‘ladi.

3. To‘zi: Murakkabroq texnika bo‘lib, unda gilamning ustki qismi turli rangli iplar bilan qoplanadi, bu esa unga kashtachilikka o‘xshash nafislik beradi [3].

1-rasm. Terma usulida ishlab chiqarilgan taqir gilam.

Maqolada surxon vohasining terma usulida tuksiz-taqir gilamlarini ishlab chiqarish texnologiyasi batafsil yoritilgan, ushbu gilam noyob uslubdagi texnologik ketma-ketlikdan iborat.

Eng avvalo qo‘yning juni maxsus qaychida kesib olinib, qo‘l yordamida titib yerga mato-yozuv to‘shalib ustiga yoyiladi va o‘ram qilib o‘raladi va cho‘zish orqali qo‘lning belak qismiga o‘raladi, urchuq yordamida yigiriladi, ikki qavat qilib kalavaga o‘ralib keyin ikkita kichik ustuncha qismida sakkiz raqami shaklida o‘raladi va chigal bo‘lmaslik uchun ikki chetidan to‘rt qatlam ip bilan bog‘lanadi, urchuq yordamida ip yigirib olinadi (2-rasm).

2-rasm

3-rasm

Bo‘yash jarayoni. Tabiatan qo‘ylarning turi har xil bo‘lganidek, ularning junining rangi ham turlichadir. Shuning uchun qo‘y junini bo‘yashda, avvalo ularning ranglari saralab olinadi: sarg‘ish, qo‘ng‘ir, to‘q jigarrang, qora, kul rang va x.k. Qo‘y juni ranglari saralab olingach, yigirilgan iplarni yuqorida aytilganidek ikki cheti bog‘lab chiqiladi. Bir necha xil rangdagi jun iplar tanlab olinib, bir-biriga mosroqlari bo‘yaladi, ya’ni och ranglardagi jun iplari och

ranglarga – sariq, pushti, ko‘k, oq, yashil, qizil. To‘q rangdagi jun iplari to‘q ranglarga - qora, to‘q qizil, jigarrang, kul ranglarga bo‘yaladi.

Katta qozonga suv solinib qaynatilib keyin tayyorlangan ip solinib ustidan o‘ziga mos rang solinadi olov yoqib qaynatiladi, cho‘p orqali ag‘darilib turiladi, tayyor bo‘lgandan so‘ng quritish uchun osib qo‘yiladi. Qurigan iplar kalava qilib o‘rab olinadi. Gilam to‘qish uchun kichik shakllarda pachaklar tayyorlab olinadi (3-rasm).

Gilam to‘qish jarayoni. Har bir viloyatning o‘ziga xos urfi-odatlari bo‘lgani kabi surxon vohasi xalqining ham gilam to‘qish uslubi o‘zgacha. Ular o‘zlarining an’analariga ko‘ra ushbu tuksiz-taqir gilamni o‘zgacha uslubda to‘qiydilar. Gilam to‘qishdan avval qo‘l to‘quv dastgohi tayyorlab olinadi. Tuksiz-taqir gilamni eskizi chizilib, rapportlari aniqlab olinadi, naqsh ornamentlariga qarab to‘quvchi og‘zaki formula ishlab chiqadi. To‘quv dastgohiga zamin tanda iplari taxtlanadi. zamin tanda iplari sifatida jun, kanop, paxta iplaridan foydalanish mumkin. Zamin tanda iplari gilamning zichligi va xomashyo turiga qarab tanlanadi. Ilmiy izlanish olib borilgan gilam - jun iplaridan to‘qilgan bo‘lib, uning zamin tandasi uchun kanop iplaridan foydalanilgan. Naqsh ornamentlari bo‘yicha rangli arqoq iplar tanlab olinadi va tayyorlab olingan eskiz rapport bo‘yicha kanva kataklari belgilab chiqiladi. Tanlab olingan rangli arqoq iplar yordamida to‘qish boshlanadi va naqsh ornamentlari bo‘yicha – bitta naqsh guli ikkinchi naqsh guligacha to‘qib boriladi, ikkinchi gulni oldida birinchi naqshning ipi mahkamlanadi, keyin ikkinchi naqsh guli boshqa tanlanagan rangli arqoq ipi bilan to‘qish boshlanadi, bunda ham keyingi naqsh guligacha to‘qib boriladi va keyingi naqsh yonidan o‘tkazilgan rangli arqoq mahkamlanadi. Shu tartibda gilamni o‘lchami bo‘yicha naqsh dizayni belgilanga rapport asosida to‘qib chiqiladi. Gilamni o‘lchamiga qarab qo‘l to‘quv dastgohida ikkita yoki uchtagacha to‘quvchi ishlashi mumkin. Tayyor bo‘lgan gilamni qo‘l to‘quv dastgohidan taxtlangan zamin tanda iplarini qirqish yo‘li bilan bo‘shatilib olinadi.Tuksiz-taqir gilam mahsuloti foydalanishga tayyor.

Xulosa. Tuksiz-taqir gilamlar – nafaqat Surxondaryo viloyatining, balki O‘zbekistonning boy madaniy an’analarini aks ettiruvchi noyob san’at turidir. Ushbu gilamlarni yaratadigan mohir hunarmand ayollar qadimiy texnikalar va ramzlardan foydalanishadi, bu har bir mahsulotni nafaqat go‘zal, balki chuqur ma’noda boy qiladi. Hozirgi kunda ushbu gilamlarni to‘qish hunari yo‘qolib bormoqda, ushbu madaniy merosni saqlab qolish va avlodga qoldirish maqsadida tuksiz-taqir gilamlarni to‘qish texnologiyasi o‘rganildi va taqdim etildi, zero bu harakatimizdan kelajak avlod bahramand bo‘lsa, oldimizga qo‘ygan maqsadga erishgan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Milliy hunarmandchilik va amaliy san’atni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi qarori.
2. Yusupova N.B. “Gilam ishlab chiqarish va badiiy bezash”. Toshkent - 2023
3. Bekkeldiyeva M., Raximqulova S. “ O‘zbekistonning qadimiy naqsh va gilam san’ati tarixiy xususiyati”. Eurasian Journal Of Academic Research. Vol 6, № 4, P.116-120
4. Mulkjanova N. “O‘zbek xalq amaliy san’ati ornamentikasi”. – Toshkent, 2012.
5. Bulatov S. O’zbek xalq amaliy bezak sa’nati. –T. Mehnat 1991 y. 384 б.
6. O‘zbekiston madaniy merosi: – mualliflik turkumi: “O‘zbekiston gilamdo‘zligi asrlarga tengdosh an’ana” Toshkent, 2020.

PAXTANI G‘ARAMDA SAQLASH JARAYONIDA TOLA SIFAT KO‘RSATKICHLARINI O‘ZGARISHINI TAXLILI.

Professor Salimov Alisher Mashrabovich,
magistr Ostonov Abbos Farhod
o‘g‘li, 1-23 guruh talabasi O‘razboyeva Nasiba
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paxtani g‘aramda saqlash jarayonida tola sifat ko‘rsatkichilarini o‘zgarishini taxlili bo‘yicha izlanishlar olib borilgan va malumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлены результаты исследований и данные анализа изменений параметров качества волокна в процессе хранения хлопка.*

Annotation. *This article presents the results of research and analysis of changes in fiber quality parameters during cotton storage.*

Kirish. Paxta tozalash sanoatida xom paxtani qabul qilish hamda uni qayta ishlashga qaratilgan tizimli va samarali chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda [1].

Paxtani g‘aram usulida saqlash jarayonida tola sifat ko‘rsatkichlari ma’lum darajada o‘zgarishi mumkin. Bugungi kunda dunyoning deyarli barcha hududlarida paxta tolasining sifati zamonaviy HVI 1000 tizimi orqali baholanadi.

Ushbu tizim tolaning asosiy xususiyatlarini aniq va tezkor tarzda o‘lchash imkonini beradi.

Paxta tolasi odatda rangi, tashqi ko‘rinishi hamda pishib yetilganlik darajasiga qarab turli navlarga ajratiladi. Saqlash jarayonida namlik, harorat va boshqa tashqi omillar ta’sirida ushbu ko‘rsatkichlarda o‘zgarishlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun paxtani to‘g‘ri sharoitda saqlash uning sifatini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi [2,3].

Xalqaro meyorlar talablariga muvofiq paxta tolasining sifati O‘zDSt 604-2016 standarti asosida hamda klassyor va HVI 1000 kabi zamonaviy o‘lchash tizimlari orqali baholanadi (1-rasm).

1-rasm. HVI 1000 o‘lchov tizimi.

Ushbu yondashuvlar tolaning turli fizik va texnologik xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Klassyor usulida baholash jarayonida tolaning rangi, ifloslanish darajasi, jinlash sifati, shtapel uzunligi (1/32 dyuym o‘lchov birligida) hamda mikroneyr ko‘rsatkichlari hisobga olinadi. Chiziqiy zichlik ko‘rsatkichi esa respublika va Yevropa standartlarida teks yoki milliteksda ifodalanib, tolaning uzunligi va tipiga qarab aniqlanadi [4].

Hozirgi standartlarga ko‘ra, uzun tolali paxta I–III tiplarga, o‘rta tolali paxta esa IV–VII tiplarga ajratiladi. Bu yerda tip oshgan sari tolaning chiziqiy zichligi ortadi, ammo uzunligi esa aksincha kamayib boradi. Agar tola belgilangan meyorlardan chiqib ketsa, u pastroq tipga tushiriladi. Bu esa ip yigirish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatib, tayyor mahsulot sifatining pasayishiga olib keladi.

Amerika standartlariga muvofiq paxta tolasining rangi Rd (%) — yorug‘lik darajasi va +b — sarg‘ishlik ko‘rsatkichlari orqali tavsiflanadi. Tola rangi doimo eng muhim sifat mezonlaridan biri sifatida qaraladi. Shuning uchun ham paxta qabul qilish jarayoni, odatda, kunduzgi yorug‘likda amalga oshirilib, mutaxassislar tomonidan rang klassyor usulida, maxsus etalon namunalar bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

Paxta tozalash korxonalarida yuqori sifatli xom ashyo olish maqsadida ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida paxtani g‘aramda saqlash hamda turli texnologik jarayonlar ta’sirida shakllangan tola sifat ko‘rsatkichlari zamonaviy HVI 1000 tizimi yordamida aniqlandi. Olingan tajriba natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tolalarning sifat ko‘rsatkichlariga g‘aram qatlamlarining ta’siri

т/р	Кўpcatkichlar	G‘aramdagi tunneldan olingan paxta	G‘aram qatlamlari		
			Yuqori	O‘rta	Pastki
1.	Mic-mikroneyr	4,69	4,87	4,72	4,66
2.	Str-solishtirma uzilish kuchi, gk/teks	32,23	30,9	30,1	27,1
3.	Len-yuqori o‘rtacha uzunlik	1,1	1,1	1,1	1,1
4.	Unf-uzunlik bo‘yicha birxillik indeksi, %	83,0	82,9	82,9	83,1
5.	SFI-kalta tolalar indeksi	7,6	7,4	7,5	7,4
6.	Elg-uzilishdagi uzayish, %	5,7	5,7	5,6	5,6
7.	Cnt-iflos aralashmalar soni	70	34	38	94
8.	Rd-nur qaytarish koeffitsiyenti	77,4	80,6	79,5	70,1
9.	+b-sarg‘ishlik darajasi	8,1	8,4	8,6	7,3

Sinov natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, g‘aramning turli qatlamlaridan olingan paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlarida ma’lum farqlar kuzatiladi. Jumladan, tunnel qismidagi paxtadan ajratilgan tolada mikroneyr qiymati 4,69, solishtirma uzilish kuchi 32,23 gk/teks, yuqori o‘rtacha uzunlik 1,1, kalta tolalar indeksi 7,6, uzilishdagi uzayish 5,7, nur qaytarish koeffitsiyenti 77,4 va sarg‘ishlik darajasi 8,1 ni tashkil etdi.

G‘aramning yuqori qatlamidan olingan tolada esa mikroneyr 4,87 gacha oshgan bo‘lsa, solishtirma uzilish kuchi 30,9 gk/teks ni tashkil qildi. Boshqa ko‘rsatkichlardan yuqori o‘rtacha uzunlik 1,1, kalta tolalar indeksi 7,4, uzilishdagi uzayish 5,7, nur qaytarish koeffitsiyenti 80,6 va sarg‘ishlik darajasi 8,4 qayd etildi.

O‘rta qatlamdagi paxtadan olingan tolada mikroneyr 4,72, solishtirma uzilish kuchi 30,1 gk/teks, yuqori o‘rtacha uzunlik 1,1, kalta tolalar indeksi 7,5, uzilishdagi uzayish 5,0, nur qaytarish koeffitsiyenti 79,5 hamda sarg‘ishlik darajasi 8,6 ni tashkil etdi.

Pastki qatlamdagi paxta tolasida esa mikroneyr ko‘rsatkichi 4,66 gacha kamaygan bo‘lib, solishtirma uzilish kuchi 27,1 gk/teks ni tashkil qildi. Shu bilan birga, yuqori o‘rtacha uzunlik 1,1 darajasida saqlanib qolgan, kalta tolalar indeksi 7,4,

uzilishdagi uzayish 5,6, nur qaytarish koeffitsiyenti 70,1 va sarg‘ishlik darajasi 7,3 etib aniqlandi.

Umuman olganda, g‘aram bo‘ylab joylashuvga qarab tola sifat ko‘rsatkichlarida muayyan o‘zgarishlar mavjud aniqlandi.G‘aramning pastki qatlamda mexanik va fizik ko‘rsatkichlarning pasayishi kuzatildi.

Xulosa. Paxta tozalash korxonalarida xom ashyoni g‘aramlash jarayoni har doim ham bir xil zichlik va shaklda amalga oshmaydi. Shuning natijasida g‘aramning turli qismlari va qatlamlarida tola hamda chigit sifat ko‘rsatkichlari farq qilib turadi. Ayniqsa, zichlik yuqori bo‘lgan joylarda salbiy o‘zgarishlar tezroq kuzatiladi. Bunday sharoitda mikroorganizmlar va zamburg‘lar faol rivojlanib, o‘z faoliyati davomida namlik va turli gazlar ajratadi. Bu esa g‘aram ichidagi muhitning o‘zgarishiga, namlikning oshishiga hamda tolaning rangi sarg‘ayib ketishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. «Paxtani qabul qilish va saqlash bo‘yicha yo‘riqnoma» Toshkent 2017
2. A.Salimov, Wang Hua, T.Tuychiyev «Technology and equipment for primari cotton processing» China, Shanhay, 2019 – p. 174.
3.Salimov A., Khusanova Sh., Salimov O., Toshtemirov Q., Yakubov N., Rakhimjanov A. Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. //Journal of optoelectronics laser ISSN: 1005-0086, Volume 41 ISSUE 7 2022. DOI : 10050086. pp:612-618. (05.00.00; IF 0.154).
4. A.M.Salimov “Mahsulotlar sifatini aniqlash va sertifikatlash”. Darslik. – T.:-2018. -215 bet.b.

YASHIL IQTISODIYOT IQTISODIYOTGA QANDAY TA’SIR KO'RSATMOQDA

Assistent Allayarova Nilufar Sherali qizi
Talaba Normaxmatova Sevinch Urol qizi
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "yashil" iqtisodiyotning zamonaviy iqtisodiy tizimlarga ta’siri, uning resurs samaradorligini oshirish va ekologik xatarlarni kamaytirishdagi roli tahlil qilingan. Maqolada yashil texnologiyalarni joriy etish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish, investitsiya jozibadorligini oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikka erishish masalalari yoritilgan. Shuningdek, an’anaviy iqtisodiyotdan barqaror rivojlanish modeliga o‘tishning iqtisodiy foydalari va iqlim o‘zgarishi sharoitida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlari ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация. *В данном материале анализируется влияние «зеленой» экономики на современные экономические системы, её роль в повышении эффективности использования ресурсов и снижении экологических рисков. В статье освещаются вопросы создания новых рабочих мест за счет внедрения экологически чистых технологий, повышения инвестиционной привлекательности и достижения конкурентоспособности на международном рынке. Также рассматриваются экономические выгоды перехода от традиционной модели к устойчивому развитию и механизмы обеспечения экономической стабильности в условиях изменения климата.*

Abstract. *This text analyzes the impact of the "green" economy on modern economic systems and its role in increasing resource efficiency and reducing environmental risks. The article highlights issues of creating new jobs through the introduction of green technologies, increasing investment attractiveness and achieving competitiveness in the global market. Furthermore, it examines the economic benefits of transitioning from a traditional economy to a sustainable development model and mechanisms for ensuring economic stability in the face of climate change.*

"Yashil" iqtisodiyot nafaqat tabiatni asrash, balki an'anaviy iqtisodiy modelni butunlay yangilash va samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Uning bugungi kundagi ta'sirini bir nechta asosiy yo'nalishlarda ko'rish mumkin:

1. Resurslar samaradorligi va xarajatlarni kamaytirish. Yashil texnologiyalar (masalan, energiya tejovchi uskunalar yoki quyosh panellari) dastlabki bosqichda sarmoya talab qilsada, uzoq muddatda **energiya va xomashyo sarfini** keskin kamaytiradi. Bu esa mahsulot tannarxi pasayishiga va korxonalar foydasining ortishiga olib keladi.

2. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi. "Yashil" iqtisodiyotga o'tish global miqyosda millionlab yangi ish o'rinlarini yaratmoqda. **Qayta tiklanuvchi energiya**, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik qurilish va "yashil" transport sohalarida mutaxassislarga bo'lgan talab ortib bormoqda.

3. Investitsiya jozibadorligi (ESG mezonlari). Hozirgi vaqtda yirik xalqaro investorlar va banklar mablag' ajratishda **ESG (Ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv)** standartlariga e'tibor berishmoqda. Ekologik toza texnologiyalarni qo'llaydigan davlatlar va kompaniyalar arzonroq va ko'proq investitsiya jalb qilish imkoniga ega bo'lmoqda.

4. Raqobatbardoshlik va yangi bozorlar. Xalqaro savdoda, ayniqsa Yevropa Ittifoqida, **"Uglerod solig'i"** kabi mexanizmlar joriy etilmoqda. "Yashil" standartlarga javob bermaydigan mahsulotlar uchun jahon bozoriga chiqish qiyinlashib bormoqda. Demak, yashil iqtisodiyot — bu eksport salohiyatini oshirishning asosiy omilidir.

5. Iqtisodiy barqarorlik (Xavflarni kamaytirish). Tabiiy resurslarning kamayishi va iqlim o'zgarishi an'anaviy iqtisodiyot uchun katta xavf tug'diradi.

Yashil iqtisodiyot bu xavflarni (masalan, qurg'oqchilik yoki energiya tanqisligi) minimallashtirish orqali **uzoq muddatli barqaror o'sishni** ta'minlaydi.

"Yashil" iqtisodiyot ham global miqyosda, ham O‘zbekiston misolida an’anaviy iqtisodiy o‘sish modellarini tubdan o‘zgartirmoqda. Quyida ushbu jarayonlarning asosiy ta’siri va hozirgi holati keltirilgan:

1. Global miqyosda "yashil" iqtisodiyot ta’siri. Dunyo miqyosida yashil iqtisodiyot endi shunchaki ekologik harakat emas, balki eng tez o‘sayotgan iqtisodiy tarmoqdir:

Investitsiyalar oqimi: 2024-yilga kelib global yashil investitsiyalar hajmi 1.95 trillion dollarga yetdi. Yashil mahsulot va xizmatlardan tushadigan daromadlar ilk bor 5 trillion dollardan oshdi.

Energetika inqilobi: Quyosh energiyasining tannarxi so‘nggi 10 yilda qariyb 80% ga arzonlashib, an’anaviy yoqilg‘iga qaraganda raqobatbardosh bo‘lib qoldi.

Yangi mezonlar: Global kompaniyalar uchun ESG (Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) standartlari majburiy talabga aylanmoqda. Bu esa yashil iqtisodiyot tamoyillariga amal qiluvchi kompaniyalar uchun arzon kapital va yuqori aksiya narxlarini ta’minlaydi. [1, 2, 3]

2. O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan. **YaIMdagi ulush:** 2018-yildan 2024-yilgacha yashil sektorning YaIMdagi ulushi 1,2% dan 3,6% gacha o‘sib, uch barobar kengaydi.

Energiya samaradorligi: O‘zbekiston 2030-yilgacha iqtisodiyotning energiya sig‘imini 2 barobar kamaytirishni maqsad qilgan. Sanoat tarmoqlarida energiya sarfini 20% ga qisqartirish bo‘yicha maqsadli dasturlar amalga oshirilmoqda.

Qayta tiklanuvchi energiya: 2019–2024-yillar oralig‘ida qayta tiklanuvchi energiya quvvatlari 573% ga oshdi. Bu iqtisodiyotning tabiiy gazga qaramligini kamaytirishga yordam bermoqda.

Xalqaro raqobatbardoshlik: O‘zbekiston korxonalari I-REC (xalqaro yashil energiya sertifikati) tizimiga ulanmoqda, bu esa ularning mahsulotlarini Yevropa bozorlariga (uglerod solig‘isiz) eksport qilish imkonini beradi. [1, 2]

3. Ijtimoiy va ekologik barqarorlik. Yashil ish o'rinlari: Quyosh panellarini o‘rnatish, "yashil" qurilish va chiqindilarni qayta ishlash sohalarida yangi yuqori texnologiyali ish o‘rinlari yaratilmoqda.

Resurslarni tejash: Suv tanqisligi sharoitida qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarning joriy etilishi hosildorlik pasayishi xavfini (taxminan 40% gacha) kamaytirishning yagona yo‘li bo‘lib qolmoqda. [1, 2]

O‘zbekiston o‘zining energetika tizimini tubdan isloh qilib, 2030-yilga borib qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini 40% ga (avvalgi reja 25% edi) yetkazishni maqsad qilgan. 2026-yil boshidagi ma'lumotlarga ko'ra,

mamlakatda allaqachon 15 ta quyosh va 5 ta shamol elektr stansiyasi ishlamoqda. [1, 4]

Quyida sohadagi eng muhim loyihalar va so‘nggi yangiliklar keltirilgan:

1. Masdar (BAA) Loyihalari. Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar kompaniyasi O‘zbekistonning yashil energetika sohasidagi asosiy hamkoridir:

-Zarafshon shamol elektr stansiyasi (500 MVt): Markaziy Osiyodagi eng yirik shamol fermasi hisoblanadi.

-Nur Buxoro loyihasi: O‘zbekistondagi ilk yirik quyosh va akkumulyator tizimi (BESS) uyg‘unlashgan stansiya.

Yangi kelishuv (2026-yil): Jizzax, Navoiy va Buxoro viloyatlarida umumiy-quvvati **2 GVt** ga teng yangi shamol va quyosh loyihalari bo‘yicha kelishuvlar imzolandi. Shuningdek, 2026-yil yanvarida **1 GVt** quvvatli "to‘xtovsiz energiya" (round-the-clock) loyihasi bo‘yicha shartnoma tuzildi. **G‘uzor loyihasi (300 MVt):** Qashqadaryo viloyatida quyosh panellari va energiya saqlash tizimi qurilmoqda, ishga tushirilishi 2027-yilga rejalashtirilgan. [3] **2. ACWA Power (Saudiya Arabistoni) Loyihalari**. Yashil vodorod: Kompaniya Chirchiq shahrida Markaziy Osiyoda birinchi bo‘lib yashil vodorod ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqda. [1]

3. Energetika tizimidagi o‘zgarishlar (2025–2026)

Ishlab chiqarish hajmi: 2025-yil yakunlariga ko'ra, quyosh va shamol energiyasi ishlab chiqarish ikki barobarga oshib, 10,5 mlrd kVt/soatga yetdi.

2026-yil natijalari: Faqatgina 2026-yilning fevral oyida yashil energiya ishlab chiqarish o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 203% ga o‘sgan.

Yashil tariflar: Aholi va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash uchun "Quyoshli xonadon" dasturi ishga tushgan. 2025-yilda 45 mingdan ortiq fuqaro tarmoqqa sotgan energiyasi uchun davlatdan subsidiya olgan. [5]

Xulosa: Yashil iqtisodiyot — bu nafaqat tabiatni asrash, balki O‘zbekiston uchun iqtisodiy diversifikatsiya, yangi sarmoyalar va global bozorda o‘z o‘rnini topish strategiyasidir. "Yashil" energetika orqali O‘zbekiston nafaqat ichki ehtiyojni qoplashni, balki 2025-yildan boshlab elektr energiyasining sof eksportchisiga aylanishni maqsad qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni:** "2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida" (2022-yil 2-dekabr, PQ-444-son).
2. **O‘zbekiston Respublikasining Qonuni:** "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to‘g‘risida".

3. **Farmon:** 2025-yilni O‘zbekistonda **"Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili"** deb e’lon qilinishi munosabati bilan qabul qilingan davlat dasturi.
4. **World Bank (Jahon Banki):** "Uzbekistan: Country Climate and Development Report (CCDR)" – O‘zbekistonning iqlim va rivojlanish bo‘yicha hisoboti.
5. **IRENA (International Renewable Energy Agency):** Global qayta tiklanuvchi energiya statistikasi va O‘zbekiston bo‘yicha sharhlar.
6. **BCI (Better Cotton Initiative):** Paxta sanoatida barqaror rivojlanish va ekologik standartlar bo‘yicha yillik hisobotlar.
7. **Stat.uz** – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining sanoat va investitsiyalar bo‘yicha ma’lumotlari.
8. **Energo.uz / Minenergy.uz** – O‘zbekiston Energetika vazirligining rasmiy sayti (yirik quyosh va shamol loyihalari, ACWA Power va Masdar bilan shartnomalar).
9. **Uztextile.uz** – "O‘zto‘qimachiliksanoat" uyushmasining to‘qimachilik sanoatidagi innovatsiyalar va eksport ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlari.
10. **X.P. Abulqosimov:** "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash" (Darslik).
11. **Yashil iqtisodiyot: asosiy tushunchalar va tamoyillar.** (O‘quv qo‘llanma, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti nashrlari).
12. **Masdar (UAE)** va **ACWA Power (Saudi Arabia)** rasmiy saytlaridagi O‘zbekiston uchun mo‘ljallangan loyihalar (G‘uzor, Zarafshon, Qoraqalpog‘iston loyihalari) portfeli.

TURLI XOMASHYODAN ISHLAB CHIQILGAN IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING SIFAT KO‘RATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH.

S.M.Agzamova, G.X. Gulyayeva, M.M.Mukimov, S.N.Yuldasheva
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Olib borilgan ilmiy ishda xomashyo turi va to‘qima tuzilishining o‘zgarishi, ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining fizik-mexanik xususiyatlariga ta’siri kompleks diagramma orqali aniqlandi. Trikotaj to‘qimalari bir-biridan to‘qima tuzilishining o‘zgarishi bilan farq qiladi. Taklif*

etilayotgan ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini bolalar va kattalar ustki kiyimlarini tayyorlashda muvaffaqiyatli foydalanish mumkin.

Аннотация: *В проведённой научной работе с использованием комплексных диаграмм определено влияние изменения вида сырья и структуры переплетения на физико-механические свойства двухслойных трикотажных полотен. Установлено, что трикотажные полотна отличаются друг от друга изменением структуры переплетения. Предлагаемое двухслойное трикотажное полотно может быть успешно использовано при изготовлении верхней одежды для детей и взрослых.*

Annotation: *In the conducted scientific research, the influence of changes in raw material type and fabric structure on the physical and mechanical properties of double-layer knitted fabrics was determined using complex diagrams. It was found that the knitted fabrics differ from each other due to changes in the fabric structure. The proposed double-layer knitted fabric can be successfully used in the production of outerwear for children and adults.*

Kirish: O‘zbekiston to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati iqtisodiyotining real sektorida yuqori ulushga ega bo‘lgan va ishlab chiqarish zanjirini to‘liq qamrab olgan yagona sanoat sohasi hisoblanadi. Tarmoq korxonalarida yigirilgan ip kalava, xom va tayyor matolar, trikotaj va tikuvchilik korxonalarida - kiyim-kechak va maishiy buyumlar ishlab chiqarishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Aralash tarkibli iplardan foydalangan holda trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarish, mahsulotlar assortimentini kengayishiga zamin yaratadi. Trikotaj mato ishlab chiqarish va bo‘yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali ip-kalavani qayta ishlash darajasi 2027 yil yakunigacha bosqichma-bosqich 100 foizga olib chiqish rejalashtirilgan. Respublikani “to‘qimachilik xabi”ga aylantirish va kamida xalqaro darajada tan olingan 10 ta mahalliy brendlarni yaratish ustidagi ishlar manzilli tashkil etiladi[1]. Trikotaj yangi tuzilishdagi assortimentini ishlab chiqishda birinchi navbatda O‘zbekiston iqlim sharoiti va xalq ehtiyojini o‘rganib chiqish talab etiladi. Shu bilan bir qatorda trikotaj matolarining shakl saqlash xususiyatlarini oshirish usullarini takomillashtirish masalasi dolzarb muammolardan biridir.

Nazariy tadqiqotlar: Hozirgi kunda jahonda trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish, ikki qatlamli trikotaj to'qimalarini tuzilishi, deformatsion xususiyatlarini tadqiq qilish bo'yicha bir qator xorijiy olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan. A.S. Dalidovich, I.I. Shalov, L.A. Kudryavin, V.M. Lazarenko, V.A. Zinoveva, Ye.P. Pospelov, A.N. Kosigin, L.V. Shkunova, N.A. Grechuxina, L.P. Rovinskaya, I.G. Sitovich, V.A. Zavaruev, L.V. Shengeliya, Z.N. Shlyaxova, G.A. Boruxov va boshqalar. Trikotaj to'qimalari va mahsulotlari assortimentini kengaytirish, naqsh samarasini oshirish hamda ularning texnologik parametrlarini va fizik-mexanik hususiyatlarini tadqiq etish

bo‘yicha, O'zbekistonning taniqli olimlari ilmiy ishlar olib borishmoqda. Jumladan M.M. Muqimov, X.A. Alimova, N.R. Xanxadjayeva, A.Y. Rahimov, B. Mirusmanov, Q.M. Xoliqov, K.Z. Yunusov, X.A.Xazratqulov, M.M. Musayeva, G.X.Gulyayeva, T.K. Allamuratova, N.M. Musayev, E.B. Xolboyev, J.Z. Borotovlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan [2].

Trikotaj ishlab chiqarish sanoatida ikki qatlamli trikotaj to‘qimalari ishlab chiqarish tendensiyasi keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy trikotaj to‘quv mashinalarininig texnologik imkoniyatlarini tadqiqotlash yangi tuzilishdagi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining yangi turlarini yaratish va ularni ishlab chiqarish imkonini beradi. Bu borada bir qator olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan [3-5]

[3] ishda pressli biriktirish usulida qo‘shimcha ip yordamida ikki qatlamli trikotaj to‘qimasini olish texnologiyasi yaratilgan.

Ustki trikotaj mahsulotlarining shakl saqlash xususiyatlarini oshirish maqsadida olib borilgan ilmiy tadqiqot [4] ishida hosilali lastik to‘qimasi asosida ustki trikotaj to‘qimasini olish usuli keltirilgan. Olingan to‘qimaning ikkala tomoni uzaytirilgan protyajkali old tomon halqalariga ega bo‘lib, ikkitadan kam bo‘lmagan ip yordamida bog‘langan.

Ustki trikotaj mahsulotlarini xom ashyo sarfini kamaytirish, trikotaj to‘qimasining issiqlik saqlash xususiyatini va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash maqsadida tahlil qilinayotgan [5] ishlarda arqoqli trikotaj to‘qimasining tuzilishi va ishlab chiqarish usuli ishlab chiqilgan.

Yuqori o'rganilgan ilmiy tadqiqot ishlari va izlanishlardan ma'lum bo'ldiki, bugungi kunda ustki trikotaj to'qimalarini olish usullari, yangi tuzilishlari va ularni hom ashyo sarfini kamaytirish bo'yicha ilmiy ishlar bajarib kelinmoqda.

Tajribaviy izlanishlar. Trikotaj to‘qimalari assortimentini kengaytirish va homashyo turining o‘zgarishini trikotajning shakl saqlash, mustahkamlik oshishi va boshqa sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini tadqiq etish maqsadida tuzilishi bilan bir-biridan farq qiladigan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining 6 ta varianti ishlab chiqildi. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasi namunalari LONG XING 252SC rusumli yassi ignadonli mashinada ishlab chiqarildi. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining ikkita mustaqil qatlamini shakllantirish uchun xom ashyo sifatida old qatlam chiziqiy zichligi 60 teks PAN ipidan va 20 teks x 4 chiziqiy zichlikka ega bo‘lgan yigirilgan paxta ipidan foydalanilgan. Ishlab chiqarilgan ikki qatlamli trikotaj to‘qima namunalarining fizik-mexanik xususiyatlari “KOR-UZ” texnoparki sinov laboratoriyasida standart uslubda sinovdan o‘tkazildi va olingan natijalar jadvalda keltirildi. Trikotaj to‘qimalardan maqsadli foydalanish sharoiti va vazifasiga ko‘ra, trikotaj to‘qimalarining tuzilishi, fizik-mexanik xusuyatlarini tavsiflash orqali amalga oshiriladi 1-jadval.

Ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining fizik mexanik ko‘rsatkichlari

1-jadval

Ko‘rsatkichlar		Variantlar						
Iplarning turi, chiziqiy zichligi, teks	Old qatlam PAN 60 teks	0	I	II	III	IV	V	VI
	Orqa qatlam paxta 20 teks x 4							
Xavo o‘tkazuvchanlik, Vr sm3/sm2 sek		96,5	86	72	76	73	78	82
Trikotajning yuza zichligi,Ms,g/m		513	401.5	472.3	492	474.2	428.4	431.4
Trikotajning qalinligi, T mm		1,5	1.5	1.85	1.85	1.8	1.65	1.6
Ishqalanishga chidamlilik, ming. sikl		22000	26000	30500	30000	30500	30000	29000
Uzilish kuchi, Rr, N	Bo‘yi bo‘yicha	409,5	510,4	527,9	525,6	597,3	535,3	518,4
	Eni bo‘yicha	301,5	408,8	482,2	454,7	360,7	430,7	411,8
Uzilishdagi uzayishi, L, %	Bo‘yi bo‘yicha	96,5	92,8	89,0	90,0	81,0	83,0	91,0
	Eni bo‘yicha	136,5	121,0	96,2	106,6	84,0	88,0	102,3
Qaytmas deformatsiya,εn,%	Bo‘yi bo‘yicha	13%	11%	8%	10%	8%	9,5 %	10%
	Eni bo‘yicha	22%	18%	13%	18%	15%	13%	15%
Qaytar deformatsi, εo, %	Bo‘yi bo‘yicha	87%	89%	92%	90%	92%	91,5 %	90%
	Eni bo‘yicha	78%	82%	87%	88%	85%	87%	85%
Kirishish , U %	Bo‘yi bo‘yicha	10,1 %	7%	2%	6%	6%	5%	4%
	Eni bo‘yicha	-5,1 %	4%	-2%	-4%	3%	3%	2%

Sifatni belgilovchi xususiyatlar, iste’molchilar talablaridan kelib chiqqan holda, standartlarda belgilangan. Eng sifatli variantlarni aniqlash maqsadida trikotaj matolarini tuzilishi va xususiyatlarini shakllantiruvchi ko‘pgina omillar hisobga olingan. Shuning uchun, statistik ma’lumotlarga ishlov berish uchun, sifat

ko‘rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasini qurish usuli qo‘llanilgan. Bu usul orqali qurilgan ko‘p burchaklarni umumiy yuzalarini taqqoslash eng sifatli variantni aniqlash imkonini berdi [6-7].

Natijalar tahlili. O‘tkazilgan sinov tajribalaridan shular ma’lum bo‘ldiki, ishlab chiqarilgan namunalarning sifat ko‘rsatkichlari turli variantlarda ustuvorlikka ega bo‘ldi. Shu bois statistik ma’lumotlar hamda olingan tajriba natijalarini o‘zaro taqqoslash maqsadida ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash usulidan foydalanildi. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimasining ikkita mustaqil qatlamini shakllantirish uchun xom ashyo sifatida old qatlam chiziqiy zichligi 60 teks PAN ipidan va 20 teks x 4 chiziqiy zichlikka ega bo‘lgan yigirilgan paxta ipidan foydalanib to‘qilgan trikotaj to‘qimalari ichida eng yaxshi variantlarini aniqlash maqsadida trikotaj sifatini kompleks baholash diagrammasi (1-rasm) va gistogrammasi (2-rasm) qurildi.



1-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi.



2-rasm. Ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholashning qiyosiy gistogrammasi.

Eng sifatli variantlarni aniqlash uchun ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining tuzilishi va xossalarini shakllantiruvchi ko‘pgina omillarni hisobga olish zarur. Shu sababli, sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasini qurish usuli qo‘llanilgan. Bu usul eng sifatli variantni aniqlash imkonini beradi. Kompleks diagrammaning har bir o‘qida ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlaridagi natijalarining son ko‘rsatkichlari joylashtirilgan. Diagrammada trikotaj to‘qimalarining sifatini tahlil natijalari grafik ko‘rinishida keltirilgan.

Tadqiqot davomida yengil ustki trikotaj mahsulotlari uchun zarur bo‘lgan eng kerakli xususiyatlar jamlandi. Olingan namunalarning yuza zichliklari, qalinligi, hajm zichligi, havo o‘tkazuvchanligi, uzilish kuchi, uzilishdagi uzayish, qaytar va qaytmas deformatsiya miqdori va kirishuvchanlik kabi ko‘rsatkichlari asos namuna bilan o‘zaro taqqoslandi.

Taqqoslangan ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarining sifat ko‘rsatkichlarini kompleks baholash diagrammasi va gistagrammasini tahlili shuni ko‘rsatadiki, eng rasional, o‘zida maqbul sifat ko‘rsatkichlarini jam etgan press va hosilali glad to‘qimasidan ishlab chiqarilgan II, III va IV variantlar eng yaxshi variant ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Xulosa: Ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini ishlab chiqarishda trikotaj mashinasining konstruksiyasiga o‘zgartirishlar kiritmasdan faqatgina uning texnologik imkoniyatlaridan keng foydalangan holda, to‘qima tuzilishini o‘zgartirish hisobiga, sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilanishiga erishildi.

Baholash natijalari asosida hom ashyo sarfi kam va sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan optimal variantlar aniqlandi. Yangi olingan ikki qatlamli trikotaj namunalarining fizik-mexanik xususiyatlarini tahlili va kompleks baholash natijasida II, III va IV variantlarning sifat ko‘rsatkichlari asos variantga nisbatan yuqoriligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2025 y 16-yanvar PF-6. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.

2. S. Primov, B. Mirusmanov, R. Qurbonov. Ikki qavatli 2+2 interlokli trikotaj to'qimalarini olish usuli.. // To‘qimachilik va moda sanoatida ilm-fan va innovatsiyalar scientific-technical journal www.ntsi.uz scientific-technical journal 1-tom. № 2. 2023. 39

3. Sh.K.Usmonkulov “ To‘quv mashinalarida yangi ikki qatlamli trikotaj to‘qimalarini olish hisobiga trikotaj mahsulotlari sifatini yaxshilash va issiqlik saqlash xususiyatini oshirish ”avtoreferat… Toshkent 2017.

4. M.M.Musaeva “ Trikotaj to‘qimalarining yangi tuzilishlarini olish hisobiga uning sifatini yaxshilash va xomashyo sarfini kamaytirish” avtoreferat. Toshkent TTESI -2020. 10-13 b

5. Prokazova M. A. Razrabotka assortimenta trikotaja kombinirovannых perepleteniy na baze dvuxsloynogo proizvodnogo lastika. Dis… kand. texn. nauk. - Moskva.- 2010. -132s.

6. Musayev N.M., Gulyayeva G.X., Mirusmanov B.F. Yigirilgan paxta va ipak iplaridan olingan naqshli trikotaj to'qima ko‘rsatkichlarini kompleks baholash. // Farg'ona politexnika instituti ilmiy-texnika jurnali. - Farg'ona. Tom-24, №2, 2020. – 30-34 b.

7. Musayev N.M., Gulyayeva G.X., Mukimov M.M. Kompleksnaya osenka risunchatogo trikotajnogo polotna, virabotannogo iz xlopchatobumajnoy i

PAXTA TO‘QIMACHILIK KLASSTER KORXONALARIGA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH TAJRIBALARI

Professor Salimov Alisher Mashrabovich,
Talabalar: Irisbayeva Dilnoza, Xolmatova Zarina.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paxta-to‘qimachilik klasster korxonalariga innovatsion texnologiyalarni qo‘llash tajribalari bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об опыте применения инновационных технологий на предприятиях хлопко-текстильного кластера.*

Abstract. *This article presents information on the experience of applying innovative technologies at cotton textile cluster enterprises.*

Mamlakatimizda “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarish klaster” tizimini joriy etish bilan bog‘liq integratsion, innovatsion, iqtisodiy hamda nazariy-amaliy ishlar amalga oshirilmoqda [1].

Ushbu tizimining pirovard maqsadi - yuqori qo‘shilgan qiymatli raqobatbardosh va sifatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish, aholining keng qatlamini ijtimoiy himoya qilish - ularning bandligini ta’minlash va munosib mehnat sharoiti yaratish kabi muhim ijtimoiy masalalar yechimi ekanligi o‘z ifodasini topgan.

Respublikamiz paxta tozalash korxonalariga xorijiy texnologiyalarni o‘rnatilishi, ulardagi yutuq va kamchiliklarini o‘rganish imkoniyati berdi. Mahalliy texnika va texnologiyalarning ishonchli va barqaror uzoq vaqt ishlashi hamda respublikamizda ekiladigan paxta seleksiya navlariga mos ekanligi

ularning avfzalliklariga kiradi. Klaster tizimidagi korxonalar tizim tashkil etilishida dastlab xorijiy texnika va texnologiyalarni o‘rnatishni avfzal ko‘rishdi. Lekin ishlab chiqarish jarayonida xorijiy texnika va texnologiyalarning ekspluatatsiyasida yaqqol ko‘rilgan kamchiliklar xorijiy paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyalarini sotib olinishining susayishiga, aksincha mahalliy ishlab chiqaruvlar tomonidan taqdim etilayotgan texnika va texnologiyalarni sotib olinishi ko‘payishiga olib keldi. Bazi korxonalarda ayrim uskunalarni xorijdan ayrimlarini maxalliy ishlab chiqaruvchilardan sotib olindi. Bu korxonaning bosh muhandisi va klaster tizimi boshqaruviga bog‘liq holda qanday texnologiya barpo etilishiga bog‘liqdir. Ko‘plab klasterlarda tajribali muhandislar faoliyat yuritishmoqda, ular o‘zlarining ko‘p yillar davomida to‘plagan tajribalari asosida texnologik jarayonlarni tanlashi va modernizatsiya qilish, ratsionalizatorlik ishlarini joriy etish kabi vazifalarni bajarmoqda. Shuningdek, paxta tozalash korxonalarida ratsionalizatorlik ishlariga katta e’tibor qaratilib, rag‘batlantirilmoqda. Bu o‘z navbatida ishchi hodimlarning izlanishlarini kuchaytirib, mehnat samaradorligini oshirishga turtki bo‘ladi [2,3].

Klaster tizimidagi paxta tozalash korxonalariga paxtani dastlabki ishlash texnika va texnologiyalarini mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ta’minlanmoqda. Ushbu ishlab chiqaruvchi korxonalar soha olimlari, ilmiy tadqiqot markazlari, toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti va namangan muhandislik-texnologiya institutlari olimlari bilan xamkorlikda ishlab, yangi innovatsion texnika va texnologiyalarni klaster tizimida paxta tozalash korxonalariga yetkazib berishmoqda.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, respublikamizning barcha tumanlarida tashkil etilgan paxta-to‘qimachilik klasterlari yangi texnologiyalarda innovatsion texnologiyalarni qo‘llanilmoqda. Paxta terimiga traktor zavodi hamda AQShning “John Deere”, “CNH” kabi kompaniyalarida ishlab chiqarilgan yangi paxta terish mashinalari foydalanilmoqda. 2026 yilda 4,5 million tonna paxta yetishtirish va uni turish uchun 800 ta yangi paxta terish mashinalarini sotib olish va foydalanish belgilangan.

Suvni tejovchi tomchilatib sug‘orish texnologiyasi paxta ekin maydonlari sug‘orildi ishlatilmoqda.

Bundan tashqari, klasterlar tomonidan organik paxta yetishtirilishi bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Bunda “Textile Technologies Group” korxonasi va O‘zbekiston Fanlar akademiyasi olimlari hamkorligida hech qanday kimyoviy yoki boshqa usullardan foydalanmagan holda organik paxta yetishtiriladi.

Sohani yanada rivojlantirish bo‘yicha Turkiya, Koreya, Xitoy, Singapur, Hindiston investorlari va mahalliy tashabbuskorlar ishtirokida zamonaviy energiya tejamkor uskuna va dastgohlar o‘rnatish hisobiga respublikaning barcha hududlarida to‘qimachilik loyihalari amalga oshirilmoqda.

Investitsiya dasturlarini amalga oshirish natijasida import o‘rnini bosuvchi yangi turdagi to‘qimachilik mahsulotlari – jinsi matolari, aralash ip kalava va undan trikotaj mato, ip gazlamalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

Yillar davomida dunyo bozoriga paxta xomashyosini yetkazib beruvchi davlat sifatida tavsiflangan O‘zbekiston bugun dunyoning yetakchi to‘qimachilik markazi sifatida baholanmoqda.

Sohada amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida to‘qimachilik sanoatida paxta-to‘qimachilik klasterlarni tashkil etish va paxta tolasini chuqur qayta ishlash evaziga yuqori qiymatli mahsulotlar hajmini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Dunyoning taniqli kiyim brendlari va savdo markazlari, jumladan, “Hugo Boss”, “Oodji”, “DeFacto” va boshqalar “Uztextile” yorlig‘i ostida mahsulotlarni ishlab chiqarilmoqda.

Milliy brendlarni yaratish va xalqaro miqyosga olib chiqish to‘qimachilik sanoatida muhim vazifalardan hisoblanadi. Hozirda, “ Buka”, “Samo”, “Ideal”, “Bonito kids”, “TMT”, “Fadolli Ricci”, “Feru” kabi nomdor o‘zbek brendlari shakllandi va dunyo bozorida yetakchilikni egalladi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, hozirgi kunda to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida eng muhim strategik sanoat sohasiga aylandi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. A.M.Salimov “Tovarshunoslik”. Darslik. – T.: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. -217 bet.

2.A.Salimov, Wang Hua, T.Tuychiyev «Technology and equipment for primari cotton processing» China, Shanhay, 2019 - p. 174.

3. Salimov A., Khusanova Sh., Salimov O., Toshtemirov Q., Yakubov N., Rakhimjanov A. Research of The Process of Preparation and Storage of Raw Cotton. //Journal of optoelectronics laser ISSN: 1005-0086, Volume 41 ISSUE 7 2022. DOI : 10050086. pp:612-618. (05.00.00; IF 0.154).

TO‘QIMACHILIK SANOATIDA IKKILAMCHI TOLALI RESURSLARDAN FOYDALANISH ASOSIDA YIGIRILGAN IP ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TEXNOLOGIK JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH

Magistrant M.Z.Turg‘unov
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Assistant A.I.Gofurov
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ikkilamchi tolalardan foydalangan holda ip ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, tannarxni kamaytirish va jarayonlarni optimallashtirish masalalari tahlil qilinadi. Qayta ishlangan tolalar iqtisodiy foyda bilan birga ekologik barqarorlikni ham ta’minlaydi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются вопросы повышения эффективности, снижения затрат и оптимизации процессов производства пряжи с использованием вторичных волокон. Переработанные волокна обеспечивают как экономическую выгоду, так и экологическую устойчивость.*

Abstract: *This article analyzes the issues of increasing the efficiency, reducing costs and optimizing processes in yarn production using secondary fibers. Recycled fibers provide economic benefits as well as environmental sustainability.*

To‘qimachilik sanoatida ikkilamchi tolali resurslardan foydalanish bugungi kunda ishlab chiqarish tizimining eng muhim innovatsion yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik barqarorlikni ta’minlashda ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi [2]. Chunki an’anaviy ishlab chiqarish jarayonlarida katta hajmdagi tolali chiqindilar hosil bo‘ladi va ularni qayta ishlash orqali yangi xomashyo sifatida foydalanish imkoniyati paydo bo‘ladi [7]. Bu jarayon “yashil iqtisodiyot” tamoyillariga mos keladi va sanoatning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi [9].

Ikkilamchi tolalar deganda ishlab chiqarish jarayonida ortib qolgan tolalar, mato qoldiqlari, eskirgan kiyim-kechaklar hamda sintetik materiallarning qayta ishlangan shakllari tushuniladi [6]. Ushbu tolalar tarkibi jihatidan juda xilma-xil bo‘lib, ular tabiiy (paxta, jun), sun’iy (viskoza) va sintetik (polyester, neylon) guruhlarga bo‘linadi [5]. Har bir turdagi tolalar o‘ziga xos fizik-mexanik xususiyatlarga ega bo‘lgani uchun ularni qayta ishlash texnologiyasi ham turlicha bo‘ladi.

Yigirilgan ip ishlab chiqarish jarayoni murakkab texnologik tizim bo‘lib, u bir necha asosiy bosqichlardan iborat: xomashyoni qabul qilish va saralash, tozalash, aralashtirish, kardlash, cho‘zish va yakuniy yigirish jarayonlari [4].

Ikkilamchi tolalar bilan ishlashda ushbu bosqichlarning har biri yanada muhim ahamiyat kasb etadi, chunki qayta ishlangan tolalar tarkibida qisqa tolalar, chang va mexanik iflosliklar ko‘proq uchraydi [1].

Birinchi bosqich – saralash va tozalash jarayonlari bo‘lib, bunda tolalar tarkibidagi begona aralashmalar ajratib olinadi. Zamonaviy ishlab chiqarishda bu jarayonlar avtomatlashtirilgan separatorlar va aerodinamik tozalash tizimlari yordamida amalga oshiriladi [11]. Bu esa xomashyo sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi va keyingi bosqichlar samaradorligini oshiradi.

Aralashtirish bosqichi ikkilamchi tolalardan sifatli ip olishda juda muhim hisoblanadi, chunki turli xil tolalarni optimal nisbatda aralashtirish orqali yakuniy mahsulotning mexanik mustahkamligi, elastikligi va bir tekisligi ta’minlanadi. Bu jarayonda texnologik parametrlarni aniq boshqarish muhim rol o‘ynaydi [6].

Kardlash jarayoni tolalarni parallel holatga keltirish va ularni mayda aralashmalardan tozalash vazifasini bajaradi. Ikkilamchi tolalarda bu jarayon yanada murakkab bo‘lib, yuqori aniqlikdagi kardlash mashinalari talab etiladi [4]. Ushbu bosqich ip sifatining asosiy ko‘rsatkichlarini belgilaydi.

Quyidagi jadvalda birlamchi va ikkilamchi tolalarning asosiy iqtisodiy va texnologik ko‘rsatkichlari solishtirilgan:

Tolalar taqqoslanishi

1-jadval.

№	Ko‘rsatkich	Birlamchi tolalar	Ikkilamchi tolalar
1	Narx darajasi	Yuqori	Past
2	Ekologik ta’sir	Salbiy	Ijobiy
3	Qayta ishlash darajasi	Past	Yuqori
4	Ko‘rsatkich	Birlamchi tolalar	Ikkilamchi tolalar
5	Narx darajasi	Yuqori	Past

Texnologik jarayonlarni optimallashtirishda avtomatlashtirish muhim o‘rin tutadi, chunki inson omilining kamayishi natijasida xatoliklar kamayadi va ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi oshadi, shu bilan birga raqamli monitoring tizimlari yordamida uskunalarning ishlash holati doimiy nazorat ostida bo‘ladi va nosozliklar oldindan aniqlanadi, bu esa ishlab chiqarish uzluksizligini ta’minlaydi.

Ekologik jihatdan esa ikkilamchi tolalardan foydalanish atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi, chiqindilar hajmini qisqartiradi va tabiiy resurslarni tejashga xizmat qiladi [9]. Bu esa barqaror rivojlanish konsepsiyasining asosiy tamoyillariga mos keladi.

Shu bilan birga, avtomatlashtirish va raqamli monitoring tizimlari ishlab chiqarish jarayonini yanada samarali boshqarishga imkon beradi. Ushbu tizimlar uskunalarning ishlash holatini doimiy kuzatib boradi va nosozliklarni oldindan aniqlash imkonini beradi [12]. Natijada ishlab chiqarish uzluksizligi ta’minlanadi.

Xulosa

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik sanoatida ikkilamchi tolali resurslardan foydalanish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki ekologik muammolarni hal etishning ham muhim vositalaridan biri hisoblanadi, chunki ushbu yondashuv orqali chiqindilarni qayta ishlash, xomashyo xarajatlarini kamaytirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, xususan, avtomatlashtirish va raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin, bu esa mahsulot sifatini yaxshilash va uning raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi, ayniqsa sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) asosida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish tizimlarini yaratish orqali yanada yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Umuman olganda, ikkilamchi tolalardan foydalanish to‘qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Smith J. *Textile Recycling Technologies*. – Cambridge, UK: Woodhead Publishing, 2020.
2. Karimov A. *To‘qimachilik texnologiyasi*. – Toshkent, O‘zbekiston: Fan nashriyoti, 2019.
3. Ahmed S. *Sustainable Textile Production*. – Cham, Shveytsariya: Springer.
4. Rahmonov B. *Yigirish jarayonlari nazariyasi*. – Toshkent, O‘zbekiston: Oliy ta’lim nashriyoti, 2018.
5. International Organization for Standardization. *ISO 14001: Environmental Management Systems*. – Geneva, Shveytsariya, 2015.
6. Jones M. *Fiber Processing Engineering*. – New York, AQSh: CRC Press.
7. Abduvaliyev S. *To‘qimachilik chiqindilarini qayta ishlash*. – Toshkent, O‘zbekiston: Innovatsiya nashriyoti, 2022.
8. *Textile World Journal*. – Atlanta, AQSh: Textile Industries Media Group.
9. United Nations Environment Programme. *Textile Industry Environmental Report*. – Nairobi, Keniya, 2021.
10. Wang L. *Recycling Fibers in Industry*. – Beijing, Xitoy: China Textile Press, 2020.
11. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. *Sanoat statistikasi hisobotlari*. – Toshkent, O‘zbekiston, 2022–2024.
12. International Textile Manufacturers Federation. *Annual Textile Industry Reports*. – Zurich, Shveytsariya, 2023.

ВЛИЯНИЕ РАДИУСА СКРУГЛЕНИЯ РЕЖУЩЕЙ КРОМКИ ЧАСТИЦЫ ИЗ КУПЕРШЛАКА НА ПЛАСТИЧЕСКУЮ ДЕФОРМАЦИЮ ПРИ АБРАЗИВОСТРУЙНОЙ ОБРАБОТКЕ ЗУБЬЕВ ПИЛЬНЫХ ДИСКОВ

PhD., доц. Н.К.Искандарова
д.т.н., профессор Шин И.Г.
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннатоция. *В статье приведены сведения о роли радиуса скругления режущих кромок абразивной частицы купершлака в процессе микрорезания на формирование параметров качества поверхностного слоя при струйной обработке зубьев пильных дисков.*

Annotatsiya. *Maqolada kupershlak abraziv zarralarining kesuvchi qirralarini egrilik radiusi parametrlarining ro'li ko'rib chiqilgan bo‘lib, bu radius arra disklari tishlarini oqim usulida ishlov berish jarayonida mikroqirqish paytida sirt qatlamining sifat ko‘rsatkichlari shakillanishiga ta’sir etishi o‘rganilgan.*

Annotation. *The article presents information on the role of the cutting edge rounding radius of copper slag abrasive particles in the microcutting process on the formation of surface layer quality parameters during jet treatment of saw blade teeth.*

В настоящее время в качестве абразивного материала находит все большее применение в различных отраслях промышленности новый материал - купершлак [1]. Данный абразивный материал, являясь отходом производства меди, обладает высокой абразивной способностью и может быть использован в металлообработке взамен традиционных и дорогостоящих абразивных материалов, например, карбида кремния (карборунд). Специальное производство этого абразивного материала заключается в силицировании частиц углерода парами кремниевой кислоты. Основные физико-механические и химический состав свойства купершлака даны в техническом условии ТУ-3989-82101794-2008 (Россия).

В условиях современного машиностроительного производства основное влияние на качество поверхности и эксплуатационные характеристики ответственных деталей рабочих органов машин оказывают финишные операции механической обработки, среди которых ведущее место занимают методы обработки в абразивной среде [2-4]. Абразивная обработка позволяет обеспечить требуемые точность и качество поверхности деталей при высокой производительности, а также высокую надежность и долговечность деталей машин в процессе эксплуатации.

Цель механической обработки зубьев пильных дисков – удаление или

максимальное скругление острых заусенцев, формирующихся на переходных участках боковых поверхностей после их шлифовки. Заусенцы образуется после вырубки зубьев и представляют собой острые микровыступы как следствие пластического течения металла в направлении вертикального движения пуансона на пилонасекательном станке. Поэтому заусенцы формируются перпендикулярно боковой поверхности зубьев.

Любой режущий инструмент никогда не является абсолютно острым, т.е. его передняя и задняя поверхности режущего клина фактически сопрягаются не по линии, а по некоторой цилиндрической поверхности, которую приближенно можно представить как образованную дугой окружности радиуса ρ – радиус округления режущих кромок инструмента.

По классическим представлениям теории резания металлов влияние радиуса округления режущих кромок на деформационное упрочнение поверхностного слоя проявляется следующим образом. В момент первоначального врезания режущего клина инструмента *A* в обрабатываемую деталь *B* соприкосновение вершины инструмента с деталью происходит в точке *C*, лежащей на горизонтальной прямой *OC* (рис.1, а). В процессе движения и врезания инструмента в деталь точка наибольших напряжений понижается и при установившемся процессе резания переходит в точку соприкосновения линии сдвига с дугой окружности ρ (рис.1, б).

Поэтому срезаемый слой переходит в стружку в той его части, которая лежит выше линии *CE*. Другая же часть металла, находящаяся ниже линии *CE*, сдавливается инструментом и, естественно, подвергаясь деформации сжатия, пластически деформируется, т.е. претерпевает деформационное упрочнение (наклеп).



а) б)

Рис. 1. Процесс резания инструментом с радиусом округления ρ режущих кромок: а) в момент первоначального врезания; б) в момент установившегося процесса

Существенное влияние радиуса скругления режущих кромок резца на параметры качества поверхностного слоя (остаточные напряжения) выявлено в исследовании [5] при точении стали 45 (*НВ 175-180*) на режиме резания *V=105 м/мин, S=0,15-0,5 мм/об, t=0,5 мм* инструментом из твердого сплава *ВК15* со следующей геометрией режущей части: передний угол $\gamma=0$; задний угол $\alpha=8^0$; главный угол в плане $\varphi=48^0$, вспомогательный угол в плане $\varphi_1=42^0$; угол наклона главной режущей кромки $\lambda=0$; радиус при

вершине $r = 0{,}3$ *мм*; радиус скругления режущих кромок $\rho = 7...100$ *мкм.* По мере увеличения радиуса ρ от *0* до *25-50 мкм* происходит пропорциональное возрастание пластически деформируемой части припуска, попадающей на заднюю поверхность резца и формирующей поверхностный слой обработанной поверхности. Это определяет относительное усиление влияния механического деформирования, способствующего появлению остаточных напряжений сжатия. Дальнейшее увеличение радиуса ρ приводит к значительному повышению температуры в зоне контакта и преобладанию влияния тепловых факторов, что способствует росту остаточных напряжений растяжения.

Таким образом, даже в условиях микрорезания абразивными частицами можно предположить о значительной роли радиуса скругления режущих кромок абразива в деформационным процессе при абразивоструйной обработке. В пользу такого вывода свидетельствует соизмеримость радиусов скругления ρ и толщины снимаемого слоя в процессе микрорезания при отделочно-упрочняющей обработке металлических изделий потоком свободных абразивных частиц, направляемым под давлением воздуха (жидкости) под некоторым углом α к обрабатываемой поверхности.

Литература

1. Сертификат соответствия. № РОСС RU.С.04ФАЛ.ПР.0032 Федеральное Агентство по Техническому Регулированию и Метрологии. Продукция сертифицирована 17.01.2018.

2. Искандарова Н.К., Шодмонкулов З.А., Шин И.Г. Технологическое обеспечение высокой работоспособности хлопкоперерабатывающих машин абразивоструйной обработкой зубьев пильных дисков // “Universum” Технич. науки – Москва, 2021. - № 6(87). – С. 45-51.

3. Тамаркин М.А., Тишенко Э.Э., Друппов В.В. Формирование параметров качества поверхности при центробежно-ротационной обработке в среде абразива // Упрочняющие технологии и покрытия.– Москва, 2007. - №10. - С.19-23.

4. Искандарова Н.К., Шин И.Г. Анализ режущей способности нового абразивного материала купершлака для снятия заусенцев пильного диска в процессе абразивоструйной обработки // Научно-технический журнал Машиностроение. – Андижан, 2022. - №1.- С.28-36.

5. Чижов В.Н. Влияние скругления режущих кромок резцов на качество обработанной поверхности // Вестник машиностроения, 1977, №3. – С. 29-30.

PAXTA TOZALAGICHNING SAMARALI KONSTRUKSIYASI

assistent A.A.Tureniyazov
Qoraqalpoq davlat universiteti,
t.f.d., professor R.X.Rosulov,
3b-22 guruh talabasi S.Baymaxanova
Toshkent to‘qimachilik va engil sanoat instituti

Annotatsiya. *Tavsiya etilayotgan paxta tozalagichning samarali konstruksiyasi uning ishchi organlarini takomillashtirish asosida ishlab chiqilgan. Qoziqli baraban qoziqlarining qatorlaridagi joylashishining tozalagich samaradorligini oshirilishiga olib kelishi aniqlangan.*

Аннотация.*Предложенная эффективная конструкция хлопкоочистительной машины была разработана на основе усовершенствования ее рабочих элементов. Было установлено, что расположение колков барабана в ряды приводит к повышению эффективности очистки.*

Abstract. *The proposed efficient cotton gin design was developed by improving its operating elements. It was found that arranging the drum pins in rows leads to increased cleaning efficiency.*

Paxta tozalash korxonalarida jinlarning optimal ravishda ishlashi va tola tarkibida ifloslarning miqdorini kamaytirish uchun paxta bir qator ifloslikdan, jumladan, toshlar, metall buyumlar, organik iflos aralashmalar va o‘likdan tozalanadi.

O‘rta tolali paxta navlarini mayda iflos aralashmalardan tozalash uchun IXK tozalagichidan va UXK paxta tozalash agregatlari yoki qoziqli barabanlar soni ko‘paytirilgan yoki kamaytirilgan, to‘rt barabanli 1XK tozalagichlarini yig‘ishda foydalaniladigan YEN.178 qoziqli bloklar ishlatiladi [1].

Paxta takibidagi mayda iflos aralashmalardan, o‘likdan tozalash uchun qoziqchali barabanlar, to‘rli yuzalar, chigitli paxtani barcha ko‘rinishdagi ifloslar va o‘likdan tozalash uchun esa arrachali barabanlar, jipslashtiruvchi cho‘tka, kolosnikli panjaralar va cho‘tkali ajratuvchi barabanlar bilan jihozlangan paxta tozalash mashinalari qo‘llaniladi [2] (1-rasm).

Paxta tarkibidagi og‘ir aralashmalar toshlar, metall buyumlar, paxtaning ochilmagan va yarim ochilgan ko‘saklarini ushlab qolish uchun pnevmota’minlagich tizimlarida separatorlar oldidan o‘rnatiladigan ushlagichlar qo‘llanadi.

Paxta tozalash obyekti sifatida normal va qiyin tozalanadigan turlarga bo‘linadi. Qiyin tozalanuvchi turlarga, asosan, tola tarkibidagi, ustida qusurlarning nisbatan qiyin ajralishi bilan normal tozalanuvchi paxta turidan farq qiladi.



1-YEN-178- qoziqli bloklar; 2-ustunlar; 3-bunkerlar.
1-rasm. 1XK rusumli paxta tozalagichi

Paxtaning qiyin tozalanuvchanligi, uning namunasi LKM asbobda tozalangandan so‘ng aniqlanadi.

Shu bilan birgalikda, qiyin tozalanuvchi paxtaning ayrim seleksiyalari jinlanayotgan paytda yuqori namlikka ega bo‘lsa, bu hol tolada maydalangan chigit va chigit qobig‘li tola ko‘payishiga olib keladi.

Xozirda qiyin tozalanuvchi paxta ulushi pi jami tayyorlanadigan paxtaning 40-50 foizdan ortiqrog‘ini tashkil etadi.

Rayonlashtirilgan paxtaning qiyin tozalanuvchi seleksiyali navlariga quyidagilar kiradi: "An-Boyovut-2", "Namangan-77", "Omad", "Toshkent-6", "Termiz-31" va "Oqqo‘rg‘on-2" va boshqalar.

Paxta tozalash mashinasi mayda va yirik chiqindilardan tozalash bo'limlari birlashtiriladi. Cho'tkali barabanlar ostiga ikkita arra tishli baraban o'rnatiladi va ularning ostidagi panjaralar paxtani yirik chiqindilardan tozalash bo'limlarini hosil qiladi. Mayda tozalash bo'limida qoziqli barabanlar va to'rli yuzalar ketma-ket o'rnatiladi.

Paxta tozalash bo'limining barabanga nisbatan (paxta harakati yo'nalishi bo'yicha) 10-15% kichikroq bo'lgan qoziqlar, shtangalar va rezina halqasimon vtulkalar va ketma-ket o'rnatilgan to'rtta kompozit barabanni o'z ichiga oladi. To'rli yuzalar qoziqli barabanlar ostiga o'rnatiladi va ajratilgan mayda aralashmalarni olib tashlash uchun ostiga pnevmatik ifloslik yig'uvchi o'rnatiladi. Har bir keyingi qoziqlar silindr yuqori chastotali va kichikroq amplitudali qo'shimcha burama tebranishlarni amalga oshiradi, bu esa aralashmalarni samarali ajratishga olib keladi [3].

Tavsiya etilayotgan tozalagichning mohiyati shundaki, paxta tozalash qurilmasining tozalash qismida ta’minlovchi valiklar, korpusda ketma-ket joylashgan to‘rtta qoziqli baraban mavjud, har bir qoziqli baraban sakkiz qator qoziqlardan iborat, juft qatorning qoziqlari barabanlarning o‘q yo‘nalishi bo‘yicha o‘ng tomonga, toq qatorlar esa chap tomonga qiyalikda joylashgan, ularning ostida to‘rsimon yuzalar va shnekli bunker mavjud, barabanlarning qoziqlari esa barabanlarning o‘qiga burchak ostida qiyalikda joylashgan va birinchi barabanning juft va toq qatorlaridagi qoziqlarning maksimal qiyalik burchagi 22^0, ikkinchi baraban 19^0, uchinchi baraban 16^0, to‘rtinchi baraban paxta tozalash yo‘nalishi bo‘yicha 13^0 ga teng.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxtani birlamchi qayta ishlash. O'quv qo'llanma. E.Z. Zikriyoev, T. Mehnat tomonidan tahrirlangan, 1999. 84-86-betlar.

2.Paxtani birlamchi qayta ishlash bo'yicha qo'llanma, "O'zpaxtasanoat" AJ, Toshkent, 2019, 141-150 betlar.

3. Erdonov A.M., Rasulov R.K., Axmedov K.A. Separation of Impurities from Raw Cotton Russian Engineering ResearchI SSN: 1068798 X Volume: 44 Issue: 7Pages: 924 – 927 Article 2024 EID: 2-s 2.0-85204181496 DOI: 10.3103/S1068798X24701594.

TOZALAGICH ARRACHALI BARABANI KONSTRUKSIYASINING TADQIQI

t.f.f.d., U.T.Berdimuratov,
Termez davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
t.f.d., professor A.Djurayev,
t.f.d., professor R.X.Rosulov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instiuti

Annotatsiya. *Paxtani yirik iflosliklardan tozalagichning arra tishlari o‘zgaruvchan qadamli arrachali baraban burchak siljishi tebranish qamrovini o‘zgarishini paxtani qarshiligiga va tasmali uzatma aylanma bikrligiga bog‘liqlik grafiklari qurilgan.*

Аннотация. *Построены графики зависимости работы очистителя хлопка от крупных сорных примесей, углового смещения барабана с переменным шагом, изменения зоны вибрации, сопротивления хлопка и частоты вращения ременной передачи.*

Abstract. *Graphs are constructed showing the dependence of cotton cleaner performance on large impurities, angular displacement of the variable-pitch drum, changes in the vibration zone, cotton resistance, and belt drive speed.*

Калит сўзлар: тозалагич, йирик ифлослик, аррачали барабан, технолоигк қаршилик, ўзгариш чегараси, тавсия қийматлари, тозалаш самараси.

Ключевые слова: очиститель, крупный сор, пильчатый барабан, технологическое сопротивление, предел изменения, рекомендуемые значения, эффективность очистки.

Keywords: gin, coarse debris, saw-tooth drum, process resistance, variation limit, recommended values, gin efficiency.

Mavjud tozalagichlarda arrachali barabanlar harakat qonunlari yetarlicha o‘rganilmagan [1, 2]. Umuman, texnologik mashinalar ishchi organlarining burchak tezliklarini o‘zgarishi texnologik jarayonlarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Paxtani yirik iflosliklardan tozalovchi arrachali baraban aylanishida burchak siljishi tebranish qamrovi ortishi bilan paxta bo‘lakchalarini o‘zaro titkilanishi ortadi, natijada undan ajralib chiqadigan iflosliklar samarali ko‘payadi. Shuning uchun arrachali barabanni aylanma siljish burchagi tebranish qamrovini hisoblash, tavsiya qiymatlarini aniqlash muhim hisoblanadi [3, 4].

Tavsiya etilgan arrachali barabanni o‘z ichiga olgan tozalagich kinematik sxemasi va mashina agregati (ikki massali) sxemalari 1-rasmda keltirilgan.



а) б)

1-yuritgich; 2-tasmali uzatma; 3-arrachali baraban.
a-arrachali barabani yuritgichi sxemasi; b-arrachali barabanni o‘z ichiga olgan mashina agregati hisobi sxemasi.
1-rasm. Paxtani yirik iflosliklardan tozalagichning yuritma sxemasi va mashina agregatining dinamik modeli.

Keltirilgan mashina agregati massalarining harakat qonunlarini ifodalovchi tenlamalar sistemasi quyidagicha olingan [5, 6, 7]

$$\mathrm{M_{ю}} = f(\dot{\varphi}_{\mathrm{ю}})$$

$$J_2\ddot{\varphi}_2 = \mathrm{M_{ю}} - \mathrm{C_т}(\varphi_1 - U_{12}\varphi_2) - \mathrm{в_т}(\dot{\varphi}_1 - U_{12}\dot{\varphi}_2) \qquad (1)$$

$$J_2\ddot{\varphi}_2 = U_{12}\mathrm{C_т}(\varphi_1 - U_{12}\varphi_2) - U_{12}\mathrm{в_т}(\dot{\varphi}_1 - U_{12}\dot{\varphi}_2) - \mathrm{M_{ўр}} \pm \delta\mathrm{M_{тқ}}$$

bu yerda $\mathrm{M_{ю}}$, $\dot{\varphi}_{\mathrm{ю}}$ -elektr yuritgich burovchi momenti va rotorning burchak tezligi; $\dot{\varphi}_1 = \dot{\varphi}_{\mathrm{ю}}$, $\dot{\varphi}_2$ – massalar burchak tezliklari; $\mathrm{C_т}$, $\mathrm{в_т}$, $\mathrm{U_{12}}$ -tasmali uzatma aylanma bikrlik va dissipativ koeffitsiyentlari, uzatish nisbati; $\mathrm{J_1}$, $\mathrm{J_2}$- massalarning

keltirilgan inersiya momenilari; $M_{ўр}$, $\delta M_{тқ}$ – paxtadan kelayotgan o‘rtacha texnologik qarshilik va uning tasodifiy tashkil etuvchisi.



2-rasm. Tozalagich arrachali barabani aylanma siljish burchagi qamrovni tasmali uzatma aylanma bikrlik koeffitsiyentlariga bog‘liqlik grafiklari

Taxlillarga ko‘ra, tozalash jarayonida arrachali barabanga paxtadan kelayotgan texnologik qarshilik kuchlari momenti yetarli darajada baraban uzunligi bo‘ylab tekis taqsimlangan. Buning asosiy sababi arra tishlari orasidagi masofa (tirqish) tegishli tarzda tanlangan.

Ishlash jarayonida texnologik qarshilik tasmani aylanma yo‘nalishida deformatsiyalanishiga, o‘zgarishiga olib keladi. Buning asosiy sababi shundan iboratki, arrachali baraban keltirilgan massasi yoki inersiya momenti qanchalik katta bo‘lsa arrachali baraban aylanma burchak tebranishi qamrovi shunchalik pasayib boradi, texnologik qarshilik ta’siri kamayadi.

Demak, tozalash samarasini ta’minlaydigan $\Delta\varphi_2$=(0,08÷0,1) rad oralig‘ida bo‘lishi uchun tozalagich arrachali barabaniga ta’sir qiluvchi paxtani texnologik qarshilik o‘rtacha qiymatlari (32÷35) Nm dan oshmasligi, barabanning keltirilgan inersiya momenti $J_2\leq$(1,0÷1,2) kgm^2 bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosalar. Paxtani yirik ifloslikdardan tozalash arrachali barabani o‘zgaruvchan tishlararo qadamli konstruktiv sxemasi ishlab chiqilgan-arrachali baraban aylanma burchak tebranishlari qamrovini aniqlash formulasi olingan. Parametrlarning bog‘lanish grafiklari taxlili asosida tozalash samarasini ta’minlaydigan arrachali barabanning siljishi tebranishlari qamrovi qiymatlari xamda bikrlik, inersion parametrlari tavsiya etilgan.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Джураев А. Динамика рабочих механизмов хлопкоперерабатывающих машин // Ташкент. Фан. 1987. С. 187.

2. Мирошниченко Г.И. Основы проектирование машин первичной обработки хлопка. М.: Машиностроение. 1972. 472 с.

3. Джураев А., Росулов Р.Х., Абдусаматов А.А., Имомоназаров М.А., Исмаилова Н., Касимов А. Пардаев Б.Ч. Очиститель хлопка от мелкого сора. Заявка на изобретение IAP 20250689.

4. Djuraev A., Rosulov R., Kholmirzaev J., Diyorov H., Berdimurodov U. Development of effective construction and justification of parameters of the cleaner of fibrous material // E3S Web of Conferences 304, 03031 (2021) ICECAE 2021. 1-9 pp.

PAXTANI YIRIK IFLOSLIKLARDAN TOZALAGICH ARRACHALI BARABANI MATEMTIK MODELI

t.f.f.d., U.T.Berdimuratov,
Termez davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti,
t.f.d., professor A.Djurayev,
t.f.d., professor R.X.Rosulov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instiuti

Annotatsiya. *Paxtani yirik iflosliklardan tozalagich arrachali barabanini o‘z ichiga olgan mashina agregati diamik va matematik modellari ishlab chiqish asosida baraban burchak tezligi qamrovini aniqlash ifodasi tozalash samarasini ta’minlaydigan baraban burchak tezligi qamrovi qiymatlariga mos kelgan parametrlarining qiymatlari aniqlangan.*

Аннотация. *На основе разработки динамических и математических моделей узла машины, включающего пильный барабан хлопкоочистительной машины, определены значения параметров, соответствующих значениям угловой скорости вращения барабана, обеспечивающие эффективность очистки.*

Abstract. *Based on the development of dynamic and mathematical models of a machine unit including a cotton gin saw drum, parameter values corresponding to the drum's angular velocity, ensuring cleaning efficiency, were determined.*

Mavjud konstruksiyadagi tozalagichlarning kamchiligi – paxtani yirik iflosliklardan tozalashda uning murakkabligi va tozalash samaradorligining pastligidir. Arrachali baraban bilan paxta bo‘lakchalarini kolosnikli panjara yuzasidan tashib o‘tish zonasida yetarli darajada ippulsli kuchlarning ta’sir etmasligidir [1, 2].

Paxtani yirik iflosliklardan tozalashda arrachali barabanning butun uzunligi bo‘yicha tozalash samaradorligini oshirish uchun arrachali baraban tishlari bilan paxta bo‘lakchalari bilan bir tekisda ilashtirishni ta’minlashdir.

Tolali material tozalagichning arrachali barabanining konstruksiyasi arrachali baraban yuzasiga U - simon arrachali segmentlar o‘rnatilgan bo‘lib, bunda arrachali sement (lenta) tishlarining qadami turlicha, ya’ni arrachali

barabanning o‘rtasida joylashgan tishli segmentlarning qadami chetki tishli segmentlarning tishlariga nisbatan kamayib boradi [3].

Bunda quyidagi nisbatda bo‘ladi:

$$t_c=2t_k \quad (1)$$

bu yerda t_c, t_k – mos ravishda baraban o‘rta va chekka tishli segmentlarining tishlarining qadami.

Barabanda o‘rta va chekka segmentlarning kamayuvchi qadamlar ko‘rinishda bajarilishi baraban uzunligi bo‘yicha paxta bo‘lakchalarini bir tekis tozalash va tashib o‘tishni ta’minlaydi.

Baraban konstruksiyasi qobiqdan iborat bo‘lib, uning yuzasiga vintlar bilan mahkamlangan U shaklidagi tishli segmentlar va yurituvchi val mavjud. Tishli segmentlarning qadami baraban markazidan uning chetlarigacha quyidagicha kamayadi:

$$t_c=2t_k \quad (2)$$

bu yerda t_c, t_k –baraban 1 chetida va o‘rtasida o‘rnatilgan tishli segmentlarning qadami.

Konstruksiya quyidagicha ishlaydi. Ishchi zonada uzatilayotgan paxta segmentlarning tishlari bilan ushlanadi va kolosnikli panjaralari bo‘ylab tashib o‘tadi (rasmda ko‘rsatilmagan). Paxta kolosnikli panjarasi bilan urilganda, ajralib chiqadigan aralashmalar panjaralararo tirqishlar orqali ifloslik shnekiga tushadi. Shuni ta’kidlash kerakki, paxtaning asosiy qismi barabanning markazidan o‘tadi, barabanning tashqi zonalarida esa paxta harakatda orqada qoladi. Shuning uchun, barabanning ekstremal pozitsiyalarida segmentlarning tishlari sonining ko‘payishi (ikki baravar) paxta bo‘lakchalarini zarur darajada ushlashni ta’minlaydi. Ya’ni, barabanning tashqi zonalarida segmentlarning tishlarini ushlash qobiliyati ikki baravar ortadi. Bu arra tishli barabanning butun uzunligi bo‘ylab paxtani ushlash va tashib o‘tish, tozalashning zarur bir xilligini ta’minlaydi.

Arrachali barabanda $\Delta\varphi_2=(0{,}08\div0{,}1)$ rad oralig‘ida bo‘lishi uchun tozalagich arrachali barabaniga ta’sir qiluvchi paxtani texnologik qarshilik o‘rtacha qiymatlari (32÷35) Nm dan oshmasligi, barabanning keltirilgan inersiya momenti $J_2\leq(1{,}0\div1{,}2)$ kgm^2 bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Джураев А. Динамика рабочих механизмов хлопкоперерабатывающих машин // Ташкент. Фан. 1987. С. 187.
Shu bilan birga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishda korxonaning mavjud uskunalari, ip assortimenti, ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy imkoniyatlari hisobga olinishi zarur. Kichik va o‘rta korxonalarda barcha uskunalarni to‘liq almashtirish katta xarajat talab qilishi mumkin. Shuning uchun dastlab mavjud tandalash romlarini takomillashtirish, taranglovchi moslamalarni modernizatsiya qilish, elektron ip uzilishini nazorat qilish qurilmalarini o‘rnatish hamda operatorlar uchun texnologik monitoring tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tandalash jarayonida ip tarangligini barqarorlashtirish to‘quvchilik ishlab chiqarishining asosiy sifat zanjirida muhim o‘rin egallaydi. Tanda ipi qanchalik bir xil taranglikda tayyorlansa, oxorlash, o‘tkazish, ulash va to‘quv jarayonlari shunchalik barqaror kechadi. Natijada ip uzilishlari kamayadi, dastgoh unumdorligi ortadi, to‘qima yuzasidagi nuqsonlar kamayadi va mahsulotning raqobatbardoshligi oshadi. Bu esa ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi sharoitida to‘qimachilik sanoatini innovatsion rivojlantirishning amaliy yo‘nalishlaridan biridir.

Xulosa. Tandalash jarayonida tanda iplarining tarangligini bir xil va barqaror saqlash to‘qima sifati, ishlab chiqarish unumdorligi va resurs tejamkorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Tandalash romlari, taranglovchi moslamalar, tezlik rejimi, o‘rama zichligi va avtomatik nazorat tizimlari o‘zaro uyg‘un ishlaganda yuqori sifatli tanda o‘ramasi olinadi. Innovatsion sensorli nazorat, masofadan boshqariladigan taranglovchi moslamalar va raqamli monitoring tizimlarini joriy etish ip uzilishlarini kamaytiradi, chiqindilarni qisqartiradi va keyingi texnologik bosqichlarda barqarorlikni ta’minlaydi. Shu jihatdan tandalash jarayonini takomillashtirish to‘qimachilik va paxta sanoatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik muammolarni yumshatish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Valiyev G.N., Xasanov B.K. To‘qima hosil qilish jarayonlari nazariy asoslari fanidan ma’ruzalar kursi. Farg‘ona politexnika instituti, Farg‘ona, 2024.
[2] Dorgham M.E. Warping Parameters Influence on Warp Yarns Properties: Part 1: Warping Speed and Warp Yarn Tension. Journal of Textile Science & Engineering, 2013, Vol. 3, Article 132. DOI: 10.4172/2165-8064.1000132.

[3] Neaz A., Lee E.H., Jin T.H., Cho K.C., Nam K. Optimizing Yarn Tension in Textile Production with Tension-Position Cascade Control Method Using Kalman Filter. Sensors, 2023, Vol. 23, Article 5494. DOI: 10.3390/s23125494. (Scopus, Web of Science)
[4] Tu L., Guo M., Wang J., Gao W. Dynamic tension control for warp beams on sizing machine based on unwinding length monitoring. Textile Research Journal, 2024, Vol. 94, Issue 9-10. DOI: 10.1177/00405175231222933. (Scopus, Web of Science)
[5] Turhan Y., Tokat S., Eren R. Statistical and computational intelligence tools for the analyses of warp tensions in different back-rest oscillations. Information Sciences, 2007, Vol. 177, Issue 23, pp. 5237-5252. DOI: 10.1016/j.ins.2007.06.029. (ScienceDirect, Scopus, Web of Science)
[6] Ali M., et al. Yarn tension control technique for improving polyester soft winding process and package dyeing performance. PLoS ONE, 2021. DOI: 10.1371/journal.pone.0245524. (Scopus, Web of Science)

PAXTANI IFLOSLIKLARDAN TOZALASH TEXNOLOGIYALARI TAHLILI

A.A.Abdusamatov, A.P.Mavlyanov, R.X.Rosulov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada paxta xomashyosini mayda ifloslikdardan tozalash jarayonida qo‘llaniladigan zamonaviy uskunalar, xususan EN.178 rusumli tozalash bo‘linmasi va qoziqli-parrakli barabanlarning konstruktiv xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda tozalash samaradorligini oshirish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация. *В статье анализирован конструктивные особенности современного оборудования, используемого в процессе очистки хлопка-сырца от мелких сорных примесей, в частности, очистительного агрегата марки* ***EN.178*** *и колково-лопастных барабанов. В исследовании рассматриваются вопросы повышения эффективности очистки и внедрения энергосберегающих технологий.*

Abstract. *In the article is analyzed the structural features of modern equipment used in the process of cleaning raw cotton from fine impurities, specifically the* ***EN.178*** *cleaning unit and spiked-paddle drums. The study examines issues related to increasing cleaning efficiency and the implementation of energy-saving technologies.*

Kirish. Paxtani qayta ishlash sanoatida xomashyoni ifloslikdardan sifatli tozalash yakuniy mahsulot - tolaning sifat darajasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ma'lumki, paxta tarkibidagi mayda ifloslikdar o‘z vaqtida ajratilmasa, keyingi jarayonlarda "passiv" holatdan "aktiv" holatga o‘tib, tola

tarkibida qolib ketadi va uni ajratish qiyinlashadi. Shu sababli, mayda iflosliklarni tozalash modullarini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda paxtani mayda iflosliklardan tozalashda qoziqli barabanli mashinalar keng qo‘llaniladi. Bu jarayonning asosiy prinsipi paxtaning qoziqli barabanlarda titkilanishi va to‘rli yuzalar orqali iflosliklarning ajralishiga asoslangan.

Tozalash tizimlarini yig‘ishni osonlashtirish va samaradorlikni oshirish maqsadida tarkibida bir juft qoziqli-parrakli baraban bo‘lgan EN.178 rusumli bo‘linma ishlab chiqilgan (1-rasm). Bo‘linma asosan mustahkam rama (1), ikkita qoziqli-parrakli baraban (2) va ularning ostida joylashgan to‘rli yuzadan (3) tashkil topgan. Paxta xomashyosi ushbu bo‘linmaga kirganda, barabanlar yordamida jadallik bilan titkilanishi natijasida mayda iflosliklar to‘rli yuza teshiklaridan o‘tib, chiqindiga ajratiladi. Ushbu modulli tuzilish 1XK rusumidagi sakkiz barabanli yirik tozalagichlarni yig‘ishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tozalash samaradorligi bevosita asosiy ishchi organ bo‘lgan barabanning tuzilishiga bog‘liq (2-rasm). Qoziqli-parrakli baraban markaziy val (1), unga mahkamlangan disklar (2) va qobiqdan (3) iborat. Qobiq yuzasi qobirg‘asimon shaklda bo‘lib, bu qobirg‘alar o‘rtasiga ma’lum tartibda (masalan, 150 mm qadam bilan 75 dona) qoziqlar payvandlanadi. Bunday tuzilish paxta bo‘lakchalariga faol ta’sir ko‘rsatib, ularni yaxshi titkilanishini ta’minlaydi.

UXK agregati tarkibida ushbu modullarning qo‘llanilishi natijasida ish unumdorligi soatiga 7 tonnagacha yetishi kuzatilgan. Tozalash samaradorligi esa xomashyoning namligi va boshlang‘ich iflosligiga qarab 75-80% ni tashkil etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, tozalash samaradorligini yanada oshirish uchun:

- Barabanlar aylanishlar sonini maqbullashtirish;
- To‘rli yuzalar ostida qo‘shimcha titkilovchi elementlarni (masalan, bikr plastinkalar) qo‘llash;
- Kolosniklar (panjaralar) orasidagi masofani o‘zgaruvchan tarzda qo‘llash tavsiya etiladi.



1-rama; 2- qoziqli-parrakli baraban; 3- to‘rli yuza.
1-rasm. EN.178 rusumli tozalagich bo‘linmasi



1-val; 2-disk; 3-qobiq; 4-qoziq; 5- bolt; 6 – bolt, gayka, shayba.
2-rasm. Qoziqli-parrakli baraban

Xulosa. Paxtani mayda iflosliklardan tozalashda EN.178 rusumli modullardan foydalanish texnologik jarayonni soddalashtirish va yuqori unumdorlikka erishish imkonini beradi. Qoziqli-parrakli barabanlarning takomillashtirilgan konstruksiyasi paxtani sifatli titkilash va tola shikastlanishini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu modul paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun mo‘ljallangan bo‘lib, uning ishlashida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin tozalash samaradorligining bog‘liqligi: Mayda iflosliklarning "aktiv" holatga o‘tishi, Struktura o‘zgarishi. Baraban konstruktsiyasi uzoq yillardan buyon deyarli o‘zgarmay kelayotgani sababli unda bir qator texnik kamchiliklar saqlanib qolgan: Konstruksiyaning bir xilligi: Mexanik zo‘riqish va shikastlanish: Paxta bo‘laklarining chiqindiga chiqishi: Tez yedirilish: Umumiy texnologik muammo - EH.178 modullari asosida yig‘ilgan UXK agregatlarida: tozalash samaradorligi paxtaning boshlang‘ich namligiga juda sezgir (75-80% oralig‘ida o‘zgaradi). Tizimda tola tarkibida "yumshoq" nuqsonlarning (neplar, tugunchalar) paydo bo‘lishi tozalash rejalari va barabanlar ketma-ketligiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Пахта хомашёсини қайта ишлашнинг мувофиқлаштирилган технологияси, ПДИ-30-2017, Тошкент, “Мехнат”, 2017 й.

2. Зикриёев Э.З. Пахта хомашёсини дастлабки ишлаш. // Тошкент, “Меҳнат”, 2002 й., 408б.

3. D.Mukhammadiev, R.Rosulov, T.Mukhammadiev. Monitoring and Managing Processes of Cotton Drying and Ginning. International Journal of Mechanical Engineering and Automation. Volume 3, Number 2, 2016, pp.76-80.

TAKOMILLASHTIRILGAN UXK TOZALAGICHDA OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR NATIJALARI

Dots. E.X.Berdanov[1] katta o‘qituvchi I.B.Yangiboyev[2]
magistrant J.S.Sadullayev[1]
[1]Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
[2]Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. *Ta’minlagichlardan so‘ng issiq havo uzatish quvuri bilan ta’minlangan, paxta dastlab qoziqchali barabanlarning yuqori qismida titish imkoniyati mavjud takomillashtirilgan UXK oqim liniyasida olib borilgan tajriba natijalari keltirilgan.*

Аннотация. *Представлены результаты эксперимента, проведенного на усовершенствованной линии подачи UXK, оснащенной трубой для подачи горячего воздуха после питателей, с возможностью первоначального обдува хлопка в верхней части барабанов для складирования.*

Annotation. *The results of an experiment conducted on an improved UXK feeding line equipped with a hot air pipe after the feeders, with the possibility of initially blowing the cotton at the top of the storage drums, are presented.*

Tayanch so‘zlar: paxta, tozalash uskunasi, ta’minlagich, mayda va yirik iflosliklar.

Kirish. Paxtani mayda va yirik iflosliklardan tozalash uskunalarini takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Lekin bugungi kunda paxta tozalash korxonalarini paxta-to‘qimachilik klaster tizimiga o‘tishi bilan texnika va texnologiyalarga bo‘lgan talab o‘zgarmoqda. Yuqori ish unumdorlikda, raqobatbardosh sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish, xomashyoni dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlab qoluvchi resursotejamkor, boshqariluvchan texnika va texnologiyalarni yaratishni taqazo etmoqda. Paxta tarkibidagi iflos aralashmalarning tola bilan bog‘lanish kuchlari turlicha bo‘lib, unga asosan tolaning pishib yetilganligi, tola va iflos aralashmalarning namliklari, paxta bo‘lakchalarining tuzilmaviy tarkibi ta’sir etadi.

Amaliy tadqiqotlar. Paxtani issiqlik-namlik holatlarini quritish va tozalash jarayonlariga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha bir qator olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Tadqiqotlar natijasida tozalash jarayonida paxtaning optimal namlik darajasi va tolaning optimal haroratlari aniqlangan. Ayrim tadqiqotlarda paxtani quritish-tozalash uskunalari tadqiq etilgan. Lekin konstruktiv va boshqa kamchiliklari sabab ishlab chiqarishga tadbiq etilmagan.

Tajribalar “Tabiiy tolalarni dastlabki ishlash texnologiyasi” kafedrasini o‘quv-ilmiy laboratoriyasida joylashgan UXK oqim liniyasining 4 ta qoziqchali baraban (1XK/2), yirik iflosliklardan tozalash seksiyasi (UXK), 4 ta qoziqchali baraban (1XK/2) va yirik iflosliklardan tozalash seksiyalarida (UXK) qo‘lda va

mashinada terilgan namlik darajalari 8,2%, umumiy iflosligi 8,4%, mayda iflosligi 6,41%, yirik iflosligi 1,99% bo‘lgan paxta xomashyosida olib borildi. Har bir o‘tkazilgan tajriba sekinlashtirilgan video sur’atga olindi.Tajriba o‘tkazishda UXK oqim liniyasining ish unumdorligi 3; 4,5 va 6 tonna/soat, ta’minlovchi valiklar o‘qlar oralig‘i 300 mm, havo harorati 150 0S qilib o‘rnatildi. Har bir tajriba uch marotaba o‘tkazildi. Tajriba natijalari quyidagi 1 jadvalda keltirilgan.

1-jadval

UXK oqim liniyasida o‘tkazilgan tajriba natijalari

№	Ko‘rsatkichlar	1-marta tozalash liniyasidan o‘tgan			2-marta tozalash liniyasidan o‘tgan		
		Tajribalarning takrorlanishi					
		1	2	3	1	2	3
1.	Paxtaning dastlabki namligi, %	8,2					
2.	Paxtaning dastlabki iflosligi, %	8,4			3,73/ 2,58	3,23/ 2,29	3,15/ 2,25
	- mayda ifloslik	6,41			2,91/ 2,12	2,52/ 1,97	2,54/ 1,96
	- yirik ifloslik	1,99			0,82/ 0,46	0,71/ 0,32	0,61/ 0,29
Tozalash oqim liniyasining ish unumdorligi Pr=3,0 tonna/soat							
3.	Tozalash oqim liniyasining tozalash samaradorligi, %	55,6	61,5	62,5	51,6	42,9	38,2
	- umumiy tozalash samaradorligi	78,5	78,0	76,8			
	- mayda iflosliklar bo‘yicha	54,6	60,4	60,4	52,3	41,8	40,8
	- yirik iflosliklar bo‘yicha	58,7	64,4	69,4	48,9	46,8	27,1
Tozalash oqim liniyasining ish unumdorligi Pr=4,5 tonna/soat							
4.	Tozalash oqim liniyasining tozalash samaradorligi, %	62,5	67,1	67,8	53,8	46,5	42,1
	- umumiy tozalash samaradorligi	82,5	82,2	81,2			
	- mayda iflosliklar bo‘yicha	60,7	64,8	64,9	55,25	63,8	45,4
	- yirik iflosliklar bo‘yicha	67,8	74,2	77,3	47,4	35,7	23.2
Tozalash oqim liniyasining ish unumdorligi Pr=6,0 tonna/soat							
5.	Tozalash oqim liniyasining tozalash samaradorligi, %	69,3	72,7	73,2	56,0	50,1	46,1
	- umumiy tozalash samaradorligi	86,5	86,4	85,6			
	- mayda iflosliklar bo‘yicha	66,9	69,2	69,5	58,2	85,9	50,1
	- yirik iflosliklar bo‘yicha	76,9	84,0	85,3	46,0	24,6	19,4

Izoh: sur’atda 6 tonna/soat ish unumdorlikda, maxrajda 3 tonna/soat ish unumdorlikda.



*Birinchi tozalash oqim liniyasida
**Ikkinchi tozalash oqim liniyasida
1-tozalash oqim liniyasining tozalash samaradorligi, %
2-mayda iflosliklar bo‘yicha tozalash samaradorligi, %
3-yirik iflosliklar bo‘yicha tozalash samaradorligi, %
2-rasm. Tozalash oqim liniyalarida tozalash samaradorliklari

Xulosa. keltirilgan grafiklarni tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchi tozalash oqim liniyasining umumiy tozalash samaradorlik 3 tonna/soat ish unumdorlikda 71,73% ni, 4,5 tonna/soat ish unumdorlikda 65,20% ni va 6 tonna/soat ish unumdorlikda esa 59,86% ni tashkil etmoqda. Ikkinchi tozalash oqim liniyasining umumiy tozalash samaradorlik 3 tonna/soat ish unumdorlikda 50,73% ni, 4,5 tonna/soat ish unumdorlikda 47,50% ni va 6 tonna/soat ish unumdorlikda esa 44,23% ni tashkil etmoqda. Ikkala tozalash oqim liniyalarining umumiy tozalash samaradorligi 3 tonna/soat ish unumdorlikda 86,16% ni, 4,5 tonna/soat ish unumdorlikda 82,4% ni va 6 tonna/soat ish unumdorlikda esa 77,7% ni tashkil etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Parpiyev va boshqalar. Paxta xomashyosini quritish. Darslik. CHo‘lpon nashriyoti, 2009 y.

2.I.D.Madumarov. Paxtani issiqlik-namlik holatini muqobillashtirish va bir tekis ta’minlash asosida tozalash jarayonining samaradorligini oshirish. Texnika fanlari doktorlik dissertatsiyasi, TTESI, 2019 yil. 200 b.

MAHALLIY VA XORIJIY JUN TARASH MASHINALARII TAHLILI

Magstratura talabasi Hamidova D.B., PhD, dotsent Tuychiyev T.O.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Mazkur tezisda jun tarash mashinalarining ishlash prinsipi, jun tolalarining xususiyatlari hamda O‘zbekistonda qo‘llanilayotgan jun tarash mashinalari bilan chet eldagi zamonaviy uskunalar o‘zaro taqqoslangan. Tahlil natijasida xorijiy texnologiyalarda avtomatlashtirish, energiya tejamkorlik va raqamli boshqaruv tizimlari yuqori darajada ekanligi, O‘zbekistonda esa ushbu yo‘nalishda modernizatsiya ishlari jadallashayotgani aniqlandi. Shuningdek, mahalliy sanoatni rivojlantirish bo‘yicha takliflar keltirilgan.*

Annotation: *This thesis compares the working principle of wool carding machines, the properties of wool fibers, and the wool carding machines used in Uzbekistan with modern equipment from abroad. The analysis revealed that foreign technologies have a high level of automation, energy efficiency, and digital control systems, and modernization work in this area is accelerating in Uzbekistan. Proposals for the development of local industry are also presented.*

Аннотация: *В данной работе сравниваются принцип работы чесальных машин для шерсти, свойства шерстяных волокон и используемые в Узбекистане чесальные машины для шерсти с современным оборудованием из-за рубежа. Анализ показал, что зарубежные технологии обладают высоким уровнем автоматизации, энергоэффективности и цифровыми системами управления, а работы по модернизации в этой области в Узбекистане ускоряются. Также представлены предложения по развитию местной промышленности.*

Kirish. Bugungi kunda tekstil sanoati jahon iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi [1]. Ayniqsa, tabiiy tolalardan olinadigan mahsulotlarga talab ortib bormoqda. Shular qatorida jun mahsulotlari issiqlikni saqlashi, mustahkamligi va ekologik tozaligi bilan ajralib turadi. Junni qayta ishlash jarayonida asosiy texnologik bosqichlardan biri bu jun tarash jarayonidir. Ushbu bosqichda tolalar tozalanadi, tekislanadi va ip yigirishga tayyorlanadi [2].

O‘zbekistonda chorvachilik va qo‘ychilik rivojlanganligi sababli jun xomashyosi mavjud bo‘lib, uni chuqur qayta ishlash imkoniyatlari kengaymoqda. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda Belarus bilan jun mato va ip ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik loyihalari yo‘lga qo‘yilmoqda [3].

Jun — bu qo‘y, echki, tuya va boshqa ayrim hayvonlardan olinadigan tabiiy tolali xomashyo hisoblanadi. Jun tolasi yuqori elastiklikka ega bo‘lib, issiqlikni yaxshi ushlab turadi, namlikni shimadi va tabiiy havodorlik xususiyatiga ega. Shu

sababli jun kiyim-kechak, gilam, adyol, mato va texnik mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llaniladi [4].

Junni qayta ishlashda tolalar avval yuviladi, saralanadi, so‘ng tarash mashinalarida qayta ishlanadi. Tarash jarayonida jun tolalari ajratiladi, chiqindilardan tozalanadi va parallel holatga keltiriladi [6].

Nazariy tadqiqotlar. O‘zbekistonda aksariyat korxonalarda eski rusumdagi yoki import qilingan uskunalar asosida ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ayrim korxonalarda Xitoy, Turkiya va MDH davlatlaridan keltirilgan mashinalar qo‘llaniladi. Buxoro viloyatida yiliga 3000 tonna qo‘y junini qayta ishlash quvvatiga ega korxona tashkil etilgani ma’lum qilingan.

Mahalliy korxonalarda mavjud asosiy muammolar:

- uskuna qismlarining eskirishi;
- avtomatlashtirish darajasining pastligi;
- energiya sarfining yuqoriligi;
- sifat nazoratining qo‘lda olib borilishi;
- ehtiyot qismlar ta’minotidagi qiyinchiliklar.

Rivojlangan davlatlarda, xususan Germaniya, Shveysariya va Italiyada ishlab chiqarilgan mashinalar yuqori texnologik darajaga ega. Masalan, Rieter va Trützschler kompaniyalari ishlab chiqarayotgan mashinalarda:

- sensorli boshqaruv tizimi;
- avtomatik tolani tekislash;
- changni filtrlash tizimi;
- energiya tejamkor motorlar;
- raqamli monitoring va nosozlikni oldindan aniqlash tizimi mavjud.

Ko‘rsatkich	O‘zbekiston korxonalari	Chet ell korxonalari
Texnologiya darajasi	O‘rta	Yuqori
Avtomatlashtirish	Qisman	To`liq
Energiya sarfi	Yuqori	Kam
Mahsulot sifati	Barqaror emas	Yuqori va bir xil
Xizmat muddati	O‘rtacha	Uzoq
Texnik servis	Cheklangan	Rivojlangan

Tahlildan ko‘rinadiki, xorijiy mashinalar mahsuldorlik va sifat bo‘yicha ustunlikka ega. Ammo ularning narxi yuqori bo‘lgani sababli O‘zbekiston korxonalari ko‘proq modernizatsiya va bosqichma-bosqich yangilanish yo‘lidan bormoqda.

Dunyo bo‘yicha quyidagi innovatsiyalar keng qo‘llanilmoqda:

1. Avtomatlashtirilgan tarash mashinalari.

Zamonaviy carding mashinalari: metall tishli (needle) yuzalar; ko‘p barabanli tizimlar; avtomatik aralashma tizimlari bilan jihozlangan.

2. Raqamlashtirish va AI (sun’iy intellekt).

Ishlab chiqarishda: ishlab chiqarish rejalashtirish; sifat nazorati; optimal yuklama taqsimoti uchun AI va algoritmlar qo‘llanmoqda.

3. Kichik va mobil uskunalar.

Hindiston va boshqa davlatlarda: kichik quvvatli (2 kg/soat); arzon; qo‘lda ishlatiladigan; tarash mashinalari ishlab chiqilmoqda.

Junni tarash jarayoni to‘qimachilik sanoatida tolalarni tozalash, ajratish va parallel holatga keltirish uchun muhim bosqich hisoblanadi. Biroq ushbu jarayonni amalga oshirish davomida bir qator texnologik va mexanik kamchiliklar yuzaga keladi, bu esa yakuniy mahsulot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Avvalo, tarash jarayonining asosiy kamchiliklaridan biri tolalarning mexanik shikastlanishidir. Tarash mashinasidagi metall tishlar (ignalar) yuqori tezlikda harakatlanib, tolalarga zarba va ishqalanish ta’sirini ko‘rsatadi. Natijada tolalar uzilishi yoki qisqarishi mumkin. Bu esa qisqa tolalar ulushining ortishiga olib keladi va ipning mustahkamligi hamda sifat ko‘rsatkichlarini pasaytiradi.

Shuningdek, jarayonda tolalarning eshilishi, ya’ni bir-biriga o‘ralib qolishi ham muhim muammo hisoblanadi. Ayniqsa, xom ashyo mashinaga notekis berilganda yoki tolalar zichligi yuqori bo‘lganda, tolalar orasida tugunchalar (neps) hosil bo‘ladi. Bu tugunchalar keyingi yigirish bosqichida ipning bir xil chiqmasligiga sabab bo‘ladi.

Junni tarash jarayonidagi asosiy kamchiliklar tolalarning shikastlanishi, eshilishi, tozalash samaradorligining yetarli emasligi, texnologik parametrlarning murakkab boshqarilishi, energiya sarfining yuqoriligi va foydali tolalarning yo‘qotilishi bilan bog‘liq. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun tarash mashinalarining konstruksiyasini takomillashtirish, optimal ish rejimlarini ilmiy asosda aniqlash va yangi texnologik yechimlarni joriy etish zarur hisoblanadi.

Xulosa. Jun tarash mashinalari to‘qimachilik sanoatining muhim texnologik bo‘g‘ini hisoblanadi. O‘zbekistonda jun xomashyosi bazasi mavjud bo‘lsa-da, uni samarali qayta ishlash uchun zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarur. Chet el tajribasi shuni ko‘rsatadiki, avtomatlashtirilgan, energiya tejamkor va raqamli boshqaruvga ega mashinalar yuqori samaradorlik beradi. Shu sababli O‘zbekistonda mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, mahalliy mashinasozlikni rivojlantirish va ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Li Q. et al. Ultrasonic scouring of wool and its effects on fibre breakage during carding //Journal of The Textile Institute. – 2011. – T. 102. – №. 12. – C. 1059-1064.
2. Kanon T. A. et al. Double air suctioned carding process: A method for achieving improved quality ring-spun carded yarn//Heliyon. –2023. –T. 9. –№. 1.

3. Wood E. Principles of Wool Carding. – Tech. Rep, 2009.
4. Bianco I., Picerno G., Blengini G. A. Life Cycle Assessment (LCA) of Worsted and Woollen processing in wool production: ReviWool® noils and other wool co-products //Journal of Cleaner Production. – 2023. – T. 415. – C. 137877.

YO‘NALTIRGICH TA’SIRIDA PAXTA OQIMIDAN IFLOSLIKLARNI AJRATISHDAGI NAZARIY TAHLILI

PhD, dotsent Tuychiyev T.O., talaba Islamova S.S.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Tadqiqotda paxta bo‘lakchalarining harakatiga ta’sir etuvchi tashqi kuchlar, yo‘naltirgichning qiyalik burchagi va ular orasidagi masofa parametrlarining regeneratsiya samaradorligiga ta’siri differensial tenglamalar asosida tahlil qilingan hamda grafik natijalar keltirilgan.*

Аннотация. *Исследовано влияние внешних сил, угла наклона направляющих и расстояния между ними на движение хлопковых частиц. На основе дифференциальных уравнений выполнен анализ процесса регенерации и приведены графические зависимости.*

Annotation. *The study investigates the effect of external forces, inclination angle, and spacing of the guides on the motion of cotton particles. Differential equations are used to model the process, and graphical results illustrating regeneration efficiency are provided.*

Kirish. Tavsiya etilayotgan konstruksiyadagi regeneratorning yo‘naltirgichidagi iflosliklar aralashgan paxta bo‘lakchalarini harakati nazariy tadqiq etamiz. Ta’minlovchi valiklardan arrachali barabanga tushgan ifloslik aralashgan paxta bo‘lakchalari kolosnikli panjarada tozalanib o‘tiladi va markazdan qochma kuch hisobiga cho‘tkali baraban tomon uzatiladi [1]. Cho‘tkali baraban o‘z navbatida regeneratorning yuqori qismidagi yoysimon devorda joylashgan yo‘naltirgichga ifloslik aralashgan paxtani otib beradi [2]. Ushbu jarayonda yo‘naltirgichning og‘ish burchagi va ularning oraliq masofasini paxtani siljishiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

Nazariy tadqiqotlar. Cho‘tkali barabandan otib berilgan ifloslik aralashgan paxta bo‘lakchalarini yo‘naltirgich ta’siri natijasida harakatlanish jarayondagi tashqi kuchlar ta’sirida yo‘naltirgichning oraliq masofasi va og‘ish burchaklariga bog‘liqlik ifodasini aniqlaymiz. Buning uchun dastavval paxta oqimini yo‘naltirgich ta’sirini o‘rganib chiqamiz.



1-rasm. Yo‘naltirgich sirtidagi paxta bo‘lakchasining harakat sxemasi

Paxta oqimini iflosliklardan tozalashda yo‘naltirgich sirtidagi harakatini va paxta oqimini ajralishini ta’minlashdagi tashqi kuchlarni ta’sirini nazariy tahlili keltiramiz.

$$m \cdot \ddot{x} = F_0 \cdot F_{uu} + P_0$$

$$m \cdot \ddot{x} = F_{uu} - P_0 - mg \cdot cos\beta \qquad (1)$$

Yo‘naltirgich ta’sirida paxta oqimini regeneratsiyalashda yo‘naltirgich orasidagi masofalarni $h = 150 \div 250$ mm o‘zgartirish orqali paxta oqimiga ta’sir qiluvchi tashqi kuchlar ta’siridagi differensial tenglamasini ifodalaymiz.

$$F_{uu} = f \cdot mg \cdot \sin\beta$$

$$m \cdot \ddot{x} = f \cdot m \cdot g \cdot sin\beta - c \cdot \vartheta^2 - m \cdot g \cdot cos\beta \qquad (2)$$

Bu yerda $F_0 = F_{uu}$-$P_0 \cdot \cos\beta = f \cdot c \cdot \vartheta^2 \cdot \sin\beta - c \cdot \vartheta^2 \cdot \cos\beta$; qiymatlarni (2) differensial tenglamaga qo‘yib soddalashtiramiz va differensial tenglamani integrallaymiz.

$$m \cdot \ddot{x} + c\vartheta^2 = m \cdot g \cdot (f \cdot \sin\beta - cos\,\beta)$$

$\vartheta^2 = \dot{x}^2$ teng bo‘lganligini e’tiborga olib,

$$m \cdot \ddot{x} + c \cdot \dot{x}^2 = m \cdot g \cdot (f \cdot \sin\beta - cos\,\beta) \qquad (3)$$

Bu ifodani soddalashtirib ikkinchi tartibli bir jinsli bo‘lmagan differensial tenglama ko‘rinishga keladi

$$\vartheta = \dot{x}; \quad \dot{\vartheta} = \ddot{x}; \qquad m \cdot \dot{\vartheta} + c \cdot \vartheta^2 = F_0 \qquad (4)$$

$$F_0 = mg \cdot (f \cdot \sin\beta - cos\,\beta)$$

(4) differensial tenglamada $\vartheta^2 = \dot{x}^2$ ekanligidan

$$m \cdot \dot{\vartheta} = F_0 - c \cdot \vartheta^2 \qquad (5)$$

(5) differensial tenglamaga quyidagi belgilash kiritamiz

$$\frac{md\vartheta}{F_0 - c \cdot \vartheta^2} = dt; \qquad \frac{md\vartheta}{F_0\left(1 - \frac{c}{F_0} \cdot \vartheta^2\right)} = dt \qquad (6)$$

(6) differensial tenglamani $\int \frac{dn}{a^2 - n^2} = \frac{1}{a} arctg \frac{n}{a}$ ekanligidan

$$\frac{m}{\sqrt{c \cdot F_0}} arctg\left(\vartheta \cdot \sqrt{\frac{c}{F_0}}\right) = t + C_1$$

C_1 integral doimiysini boshlang‘ich shartdan $\vartheta(0) = \vartheta_0$ foydalanib aniqlaymiz

$$C_1 = \frac{m}{\sqrt{c \cdot F_0}} arctg\left(\vartheta_0 \sqrt{\frac{c}{F_0}}\right) \qquad (7)$$

(7) tenglamani yuqoridagi tenglikka qo’yib paxta oqimini regeneratsiyalashdagi OX o‘qi bo‘yicha harakat tenglamasini aniqlaymiz. $x = \int \vartheta dt$ ekanligidan

$$x = \frac{m}{c} \ln\left(cos\sqrt{\frac{c \cdot F_0}{m^2}}(t + C_1)\right) + C_2 \qquad (8)$$

(8) tenglamadagi C_2 integral doimiysini boshlang‘ich shartlardan foydalanib aniqlaymiz. $t = 0;\quad x = 0 \Rightarrow C_2 = 0$ boshlang‘ich shartlardan foydalanib aniqlamiz.

$$x = \frac{m}{c} \ln\left(cos\sqrt{\frac{c \cdot F_0}{m^2}}\left(t + \frac{m}{\sqrt{c \cdot F_0}} arctg\left(\vartheta_0 \sqrt{\frac{c}{F_0}}\right)\right)\right) \qquad (9)$$

(9) harakat tenglamasini Maple dasturidan foydalanib yo‘naltirgich sirtidagi iflosliklarga aralashgan paxta oqimini trayektoriyalarini $\beta -$ yo‘naltirgichning qiyalik burchagiga, yo‘naltirgich orasidagi masofalarni $h = 200 \div 300\ mm$ o‘zgartirishiga bog‘liqlik grafiklari qurildi.



2-rasm. Yo‘naltirgich sirtida iflosliklarga aralashgan paxta oqimi harakatini qiyalik burchagining turli xil $\beta_1 = 55^0$; $\beta_2 = 65^0$; $\beta_3 = 75^0$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi



3-rasm. Yo‘naltirgich sirtida iflosliklarga aralashgan paxta oqimi harakatini yo‘naltirgich orasidagi masofasini turli xil $h_1 = 250\ mm$; $h_2 = 200\ mm$ va $h_3 = 150\ mm$ qiymatlarida vaqtga bog‘liq grafigi

Xulosa. Paxta oqimini iflosliklardan regeneratsiyalashda yo‘naltirgichning o‘rnatish burchagi $\beta_3 = 75^0$ bo‘lganda va yo‘naltirgichlar orasidagi masofasini $h_2 = 150\ mm$ oraliqdagi qiymatlarida regeneratsiyalash samaradorligi oshishini

ko‘rishimiz mumkin. Bunda paxta bo‘lakchalarini massasidan kelib chiqqan holda iflosliklarni regeneratsiyalashda yo‘naltirgich sirtidagi paxta bo‘lakchalarini grafikdagi trayektoriyalaridan ko‘rishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tuychiev T., Gafurov A., Jumamuratova V. Experimental results of the improved cotton regenerator under production conditions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 497. – C. 03039.

2. Parpiyev A. et al. Study of the Influence of Main Parameters of the Regenerator Ginning Machine on the Qualitative Indicators of the Fibers and Seeds //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 304. – C. 03001.

TURLI KOMBINATSIYADA JOYLASHGAN QOZIQCHALI PLANKALI BARABANLARNING TOZALASH SAMARADORLIGIGA TA’SIRI

Hamroyeva M.F.
Buxoro Davlat texnika universiteti
t.f.d., dotsent Ro‘metov R.I.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Tadqiqotlarda barabanlarning geometrik o‘lchamlari, balandligi va diametri o‘zgarishi sharoitida paxta bo‘lakchalarining titilishi, iflosliklardan ajralishi va chigitning shikastlanish darajasi tahlil qilingan.*

Аннотация. *В ходе экспериментов анализировались параметры барабанов, включая их диаметр и высоту, а также их влияние на процесс разрыхления хлопка, отделение примесей и степень повреждения семян.*

Annotation. *The study analyzes the influence of drum parameters such as diameter and height on fiber loosening, impurity separation, and seed damage.*

Kirish. Paxta quritish uskunasidan so‘ng havo yoki tasmali tarnsportyorlar yordamida tozalash texnologiyasiga uzatiladi. Ma’lumki, g‘aramdagi paxtani zichligi yuqori bo‘lganligi uchun paxta bo‘lakchalari bir biri bilan mustaxkam bog‘langan bo‘ladi va quritish jarayonida to‘liq titilmagan holda tozalashga yuboriladi[1]. Bu o‘z navbatida ta’minlovchi valiklardan so‘ng dastlabki qoziqchali plankali barabanlarda paxtani titilishiga olib kelib, tozalash samaradorlikni pasaytiradi. Shuningdek, katta bo‘laklardan iborat xomashyoni qoziqchali plankali baraban va to‘rli yuza orasiga tushgan mexanik shikastlanishni oshishiga olib kelib, keyingi bosqichlarda jarayonlarda tola tarkibida nuqsonlar hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Pirovardda tolaning sinfini

pasayishiga olib kelib, tolaning xarid narxi kamayadi [2].

Amaliy tadqiqotlar. Tadqiqotlarda 1XK tozalagichiga qoziqchali plankali barabanlar quyidagi ketma ketlikda o‘rnatildi: ta’minlovchi valiklardan so‘ng mavjud variantdagi qoziqchali-plankali baraban, undan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban, undan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban hamda qoziqcha va plankaning balandligi 95 mm va qoplamaning diametri 210 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanlar.

Tozalash jarayoni quyidagi amalga oshiriladi: paxta ta’minlovchi valiklar yordamida ularning ostida joylashgan mavjud variantdagi va qoziqcha va plankaning balandligi 65 mm va qoplamaning diametri 270 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanlar orasiga uzatib beradi. Paxta xomashyosi dastlab qoziqchali plankali barabanlarning yuqori qismida titkilanib alohida bo‘lakchalarga ajratish va mustaxkam bog‘langan iflosliklarni passivlashtiriladi. Shundan so‘ng qoziqcha va plankaning balandligi 95 mm va qoplamaning diametri 210 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali baraban va to‘rli yuza orasida tozalanadi. Ikkinchi navbatda turgan qoziqcha va plankaning balandligi 80 mm va qoplamaning diametri 240 mm bo‘lgan qoziqchali-plankali barabanda tozalanadi. Shu tarzda barcha qoziqchali barabanlar va to‘rli yuzalarda paxta xomashyosi tozalandi [59; 247-253-b.].

Olib borilgan tadqiqot natijalari 3.3.1÷3.3.2-jadvallar va 3.3.1÷3.3.2-rasmlarda keltirilgan. Tadqiqotlarda Nam-77 va S65-24 seleksiya navidagi paxtani tozalashdan oldingi namligi o‘z navbatida 8,05; 8,50 % va 8,11; 8,6 %lar va iflosligi 8,2; 11,5 % va 7,5; 10,3 %lardagi paxta xom ashyosidan foydalanildi.

Mavjud qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichda olib borilgan tadqiqot natijalari.

t/r	Ko‘rsatkichlar	Nam-77 seleksiya navi		S65-24 seleksiya navi	
		I nav	III nav	I nav	III nav
1.	Paxtani namligi, %	8,05	8,50	8,11	8,6
2.	Paxtani iflosligi, %	8,2	11,5	7,5	10,3
ish unumdorlik 3 tonna/soat					
3.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,59	5,98	4,22	5,53
4.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	26,9	32,06	28,43	34,5
5.	Uskunaning tozalash samaradorligi, %	44,06	47,96	43,8	46,28
6.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,30	0,33	0,28	0,22

ish unumdorlik 5 tonna/soat					
7.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,81	6,37	4,42	5,87
8.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	33,65	39,25	35,10	41,35
9.	Uskunaning tozalash samaradorligi, %	41,35	44,57	41,12	43,04
10.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,55	0,62	0,60	0,59
ish unumdorlik 7 tonna/soat					
11.	Tozalagichdan so‘ng iflosligi, %	4,98	6,69	4,58	6,12
12.	Tozalagichdan so‘ng paxtadagi passiv iflosliklar miqdori, %	38,50	45,4	39,45	46,83
13.	Uskunaning tozalash samaradorligi, %	39,25	41,84	38,97	40,56
14.	Tozalagichdan so‘ng chigit shikastlanishini oshishi, %	0,68	0,78	0,80	0,86

Mavjud qoziqchali-plankali barabanlar o‘rnatilgan tozalagichning ish unumdorligi 3 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,59 %ni, passiv iflosliklar miqdori 26,9 %ni, tozalash samaradorlik 44,06 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,30% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,98 %ni, passiv iflosliklar miqdori 32,06 %ni, tozalash samaradorlik 47,96 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,33% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,22 %ni, passiv iflosliklar miqdori 28,43 %ni, tozalash samaradorlik 43,80 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,28% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 5,53 %ni, passiv iflosliklar miqdori 34,50 %ni, tozalash samaradorlik 46,28 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,22% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 5 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,81 %ni, passiv iflosliklar miqdori 33,65 %ni, tozalash samaradorlik 41,35 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,55% ni tashkil etdi. Paxta xomashyosining III sanoat navi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 6,37 %ni, passiv iflosliklar miqdori 39,25 %ni, tozalash samaradorlik 44,57 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,62% ni tashkil etdi.

Paxta xomashyosining S65-24 seleksiyasidagi I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,42 %ni, passiv iflosliklar miqdori 35,10 %ni, tozalash samaradorlik 41,12 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,60% ni tashkil etdi.

Tozalagichning ish unumdorligi 7 tonna/soatni tashkil etganda Namangan-77 seleksiyasidagi paxta xomashyosining I sanoat navi tadqiqot variantidagi tozalagichda qayta ishlangandan so‘ng paxtaning iflosligi 4,98 %ni, passiv iflosliklar miqdori 38,50 %ni, tozalash samaradorlik 39,25 %ni, chigitning mexanik shikastlanishini oshishi 0,68% ni tashkil etdi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida qoziqchali-plankali barabanlarning kombinatsiyasi paxtani tozalash samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi. Xususan, barabanlarning balandligi va diametri bosqichma-bosqich kamayib boradigan ketma-ketlikda joylashtirilganda paxta bo‘lakchalari samarali titiladi va iflosliklar yaxshi ajraladi. Shu bilan birga, uskunaning ish unumdorligi ortishi bilan tozalash samaradorligi biroz kamayishi, ammo chigitning mexanik shikastlanishi ortishi kuzatildi. Optimal texnologik rejim sifatida o‘rtacha unumdorlikda ishlash tavsiya etilib, bu holatda tozalash samaradorligi va mahsulot sifati o‘rtasida muvozanat ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Tuychiev T. et al. Influence of the Direction of Movement of Cotton to Pile Drums on the Cleaning Efficiency //International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash"”. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – С. 2084-2091.

2. Tuychiev T. et al. Research on an improved and set spiked cylinder 6A-12M1 //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 139. – С. 03002.

BAZALT TOLALI CHODIR MATOLARINING ULTRABINAFSHA NURLANISH TA‘SIRIDA O‘ZGARISHI

tayanch doktorant M.S.Raximberdiyev
t.f.d.,prof.D.N.Kadirova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada bazalt mineral tolalaridan tayyorlangan chodir matolarining ultrabinafsha (UV) nurlanish ta’sirida mexanik, strukturaviy va issiqlik xususiyatlarining o‘zgarishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Bazalt tolali matolar o‘zining yuqori olovbardoshligi (750–850°C), kimyoviy barqarorligi va ekologik xavfsizligi tufayli favqulodda va harbiy chodirlar uchun istiqbolli material hisoblanadi.*

Аннотация. *Данная статья посвящена изучению изменения механических, структурных и тепловых свойств палаточных тканей, изготовленных из базальтовых минеральных волокон, под воздействием ультрафиолетового (УФ) излучения. Ткани из базальтового волокна являются перспективным материалом для чрезвычайных и военных палаток благодаря своей высокой огнестойкости (750-850°C), химической стойкости и экологической безопасности.*

Abstract. *This article is dedicated to studying the changes in the mechanical, structural, and thermal properties of tent fabrics made from basalt mineral fibers under the influence of ultraviolet (UV) radiation. Basalt fiber fabrics are a promising material for emergency and military tents due to their high fire resistance (750-850°C), chemical stability, and environmental safety.*

Tabiiy ofatlar, harbiy mojarolar va texnogen favqulodda holatlar dunyoning turli mintaqalarida millionlab odamlarni boshpanasiz qoldirmoqda. Bunday holatlarda favqulodda chodirlar vaqtinchalik, lekin muhim himoya vositasi sifatida xizmat qiladi. Chodirlarning ishlash samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularning mexanik mustahkamligi, olovbardoshligi va atrof-muhit ta‘sirlariga chidamliligi bilan belgilanadi.

An‘anaviy chodir matolari asosan polimer (PVX) yoki shisha tolasi asosida ishlab chiqariladi. Biroq bu materiallar yuqori harorat, olov va kimyoviy ta'sirlarga nisbatan cheklangan chidamlilikka ega. So‘nggi yillarda bazalt mineral tolalaridan tayyorlangan matolar an'anaviy materiallarga munosib alternativa sifatida e‘tiborni jalb qilmoqda. Bazalt tola 750–850°C gacha olovbardoshlik, kimyoviy inertlik va yuqori mexanik xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Ultrabinafsha (UV) nurlanishi barcha tashqi muhit materiallari uchun asosiy yemirilish omili hisoblanadi. UV fotonlari polimer va mineral tolalarning molekulyar zanjirlarini parchalab, ularning mexanik xususiyatlarini vaqt o‘tishi bilan pasaytiradi. Shuning uchun yangi material sifatida bazalt tolali chodir matolarining UV chidamliligini kompleks o‘rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega va bazalt tolali chodir matolarining mexanik, strukturaviy va issiqlik xususiyatlari tadqiq etilgan hamda mavjud an'anaviy materiallar bilan qiyosiy tahlil o‘tkazilgan.

1-rasmda.Harbiy va favqulodda chodirlar keltirilgan.

Tadqiqotda to‘rt xil turdagi chodir matolari o‘rganildi: (1) PVX qoplangan avtotransport tent chodirlar (yuzaki zichligi 900-1000 g/m²); (2) favqulodda holatlar karkasli chodirlar (950 g/m²); (3) bazalt tolali matolar (150-500 g/m²); (4) shisha tolali matolar (200-800 g/m²). Bazalt tolali namunalar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida tayyorlangan bo'lib, chiziqli zichligi 75×2 tex, to'quv zichligi 90 ip/dm va burilish zichligi 95 ip/dm ga teng.

Namunalar UV sinov kabinasida 35 Vt/m² yorug‘lik intensivligida 250, 500 va 750 soat davomida qarishtirildi va nazorat namunasi bilan qiyosiy tahlil o‘tkazildi. Har bir sinovdan so'ng mexanik xususiyatlar qayta o‘lchandi.Quyidagi jadvalda turli turdagi chodir matolari va bazalt tolali matoning asosiy texnik ko‘rsatkichlari keltirilgan. Jadval ma‘lumotlari shuni ko‘rsatadiki, bazalt tolali mato eng past yuzaki zichligi (150-500 g/m²) bilan eng yuqori olovbardoshlik (250-850°C) ko‘rsatkichiga ega - bu an‘anaviy PVX tent va shisha tolasiga nisbatan sezilarli ustunlikdir.

Jadval natijalariga ko‘ra, bazalt tolali matoning uzulish kuchi 150-250 N va 120-200 N oralig‘ida bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar an'anaviy shisha tolasiga (120-180 N va 90-150 N) nisbatan ustun. Elastiklik moduli 79–93 GPa bilan shisha tolasi (83-90 GPa) bilan taqqoslanarli, biroq bazalt tolasi sezilarli darajada kam og‘irlik (25-50 kg) ko‘rsatdi. Bu xususiyat safarbar qilish va tashish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega.Uzilishdagi uzayish ko‘rsatkichi bazalt uchun 2-4% bilan shisha tolasiga (2-5%) o‘xshash, lekin PVX tent (10-40%) ga nisbatan ancha past. Bu bazalt tolasining qattiqroq, ammo mo'rtroq ekanligini bildiradi. Shuning uchun bazalt tolali chodirlarni loyihalashda bu xususiyatni hisobga olgan holda to‘qima strukturasi optimallashtirilishi zarur.

Bazalt tolali matoning eng muhim ustunligi - olovbardoshlik harorati 250-850°C oralig‘ida bo‘lishi. Bunda PVX tent chodirlar faqat 70°C gacha chidaydi, shisha tolasi 80-120°C ko‘rsatadi. Bu farq favqulodda va harbiy sharoitlarda - ayniqsa yong'in xavfi mavjud vaziyatlarda - bazalt tolali chodirning hayotiy ahamiyatini belgilaydi.UV nurlanishiga chidamlilik bo‘yicha mineral asosli bazalt tolasi polimer tolalarga nisbatan yuqori kimyoviy barqarorlik ko'rsatadi. FTIR tahlili shuni tasdiqlaydi: UV ta’sir muddati 750 soatga yetganda bazalt tolali namunalarda glikozidik bog‘lanish cho‘qqilari (1130-1160 sm^{-1}) sezilarli o‘zgarishlarsiz qolgan, bu esa strukturaviy butunlikni saqlash qobiliyatini ifodalaydi.Havo o‘tkazuvchanligi sinovlari shuni ko‘rsatdiki, UV qarish jarayonida bazalt tolali matoning havo o‘tkazuvchanlik xususiyatlari sezilarli o‘zgarishlarsiz qoldi. Bu natija bazalt tolali matolarning chodir tizimlarida nafas olish balansini saqlab turish qobiliyatiga ega ekanligini tasdiqlaydi.

Mazkur tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bazalt tolali chodir matolarining an’anaviy PVX va shisha tolali materiallarga nisbatan bir qator muhim ustunliklarini eksperimental asosda tasdiqladi.Birinchidan, bazalt tolali matolar 250-850°C olovbardoshlik harorati bilan mavjud chodir materiallaridan keskin farqlanadi va yong‘in xavfi mavjud sharoitlarda ishlatish uchun istiqbolli material hisoblanadi.Ikkinchidan, bazalt tolali matolar UV nurlanishiga nisbatan kimyoviy va strukturaviy barqarorlikni saqlaydi. Uchinchidan, elastiklik moduli (79-93 GPa), uzulish kuchi (150-250 N) va og‘rlik tamondan kamligi (25-50 kg) ko‘rsatkichlari bazalt tolali matolarni safarbar qilish qulay bo‘lgan favqulodda boshpana tizimlarida qo'llash uchun texnik jihatdan maqbul qiladi.To'rtinchidan, havo o‘tkazuvchanligi xususiyatlarining UV ta’sirida barqarorligi qoplama materialining funktsional samaradorligini tasdiqlaydi.Kelajakdagi tadqiqotlarda bazalt tolali matolarning namlik, sovuq va mexanik abraziya ta’siridagi ishlash xususiyatlarini o‘rganish hamda amaliy chodir prototiplarini sinash rejalashtirilyapti. Shuningdek, bazalt tolali matolarni standartlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish rejalashtirilyapti.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.M.S.Raximberdiyev, S.B.Hamrayeva, D.N.Kadirova. Исследование свойств функциональных тканей для комплексной защиты зданий / O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2026. – 02 (03). – S. 194–197.

2.Hamrayeva S.B., Raximberdiyev M.S., Kadirova D.N., Rasulov H.Yu. Исследование свойств функциональных базальтовых тканей для комплексной защиты зданий // Universum: texnicheskie nauki. – 2025. – T. 11. – №. 11 (140). – S. 51–55.

3.Sun R., Wang S., Wang C., Qi X., Zhang X., Lu H. Temperature field simulation analysis of oil furnace heating in net tent in cold regions. Med. J. Natl. Defending Forces Northwest China. – 2020. – 41. – P. 405–409.

4.Liu J., Jiang Y., Gong Z., Yang H. Experiment Research on Shading to Improve the Thermal Environment of Tents. MATEC Web Conf. – 2016.

5.Manfield P. A comparative study of temporary shelters used in cold climates. Martin Centre for Architectural and Urban Studies, Department of Architecture, Cambridge University. – 1999.

6.Shi H.W., Mei Q.T., Deng A.Z. Experimental study of radiative heating for a specific tent. J. Logistics Engineering University. – 2004. – 04. – P. 64–66.

7.Mayrambekova S.K., Raximberdiyev M.S., Kadirova D.N. Bazalt mineral toshlaridan to‘qimachilik mahsulotlari olish texnologiyasi // FDTU xalqaro ilmiy-texnikaviy amaliy anjumani, 1-tom, 27–28 noyabr 2025 yil. – B. 497–501.

8. Raximberdiyev M.S., Hamrayeva S.B., Kadirova D.N. Bazalt tolali tent matolarning iste‘mol xususiyatlarini tadqiq etish // TTYS “Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining ekologik muhofazasi va mehnat xavfsizligini ta’minlash: tajriba,muammolar va istiqbollar” respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani. 24-25 mart 2026 yil.167-172 bet.

9. Raximberdiyev M.S., Mayrambekova S.K., Kadirova D.N. Bazalt toladan to‘qilgan matolarning havo o‘tkazuvchanligi tadqiqi // TTYS “Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining ekologik muhofazasi va mehnat xavfsizligini ta’minlash: tajriba,muammolar va istiqbollar” respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani. 24-25 mart 2026 yil.172-175 bet.

PAXTANI SAQLASHDA O‘Z-O‘ZIDAN QIZISH JARAYONINI O‘RGANISH

Professor : Salimov Alisher Mashrabovich
Talabalar: Ostonov Abbos, Qurbonaliyev Jamshidbek,
Ne’matova Nozima
Toshken to‘qimachilik va yengil sanoat insituti

Annotatsiya. *Paxta tayyorlov maskanlari paxtani qabul qilish, joylash va saqlash bilan shug‘ullanadi. G‘aramda saqlanayogan I va III nav paxta namunalarni qizishi o‘rganildi. Bunda III nav paxtaning o‘z-o‘zidan qizishi kuzatildi. Shunday qilib, paxtani saqlash davrida, uning namligi va iflosligi sezilarli ta’sir qilishi aniqlandi.*

Аннотация. *Хлопкозаготовительные пункты производить приемку, складирование и хранение хлопка. Изменение температуры образцов I и III сортов хлопка при хранения показывает, что они существенно различаются. Это характеризуется происходящим процессом самосогревания в III сорте хлопка. Таким образом, влажность и засоренность хлопка-сырца во время хранения имеет заметное значение.*

Annotation. *Cotton harvesting stations accept, store and store cotton. A change in the temperature of samples of varieties I and III of cotton during storage shows that they differ significantly. This is characterized by the ongoing process of self-heating in grade III cotton. Thus, the moisture and weediness of the raw cotton during storage is significant.*

Kirish. Paxta tayyorlash punktlarida xom paxtani qabul qilish, omborlash va saqlash ishlari amalga oshiriladi. Paxtani tayyorlash va saqlash texnologiyasi masalalarini hal etishda, uning tarkibiy qismlarining tuzilishi, shuningdek ularning mexanik, fizik va boshqa xususiyatlarini belgilab beruvchi omillar haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lmasdan turib, bu vazifalarni to‘liq hal etib bo‘lmaydi [1].

Paxta ko‘p komponentli, bir xil emas (nohomogen) tizim bo‘lib, kuchli gidrofil xususiyatlarga ega. Paxta alohida «letuchka»lar yig‘indisidan tashkil topgan bo‘lib, ular tolalar va lint bilan qoplangan urug‘dan iborat [2].

Paxta tolasining tarkibiga sellyuloza (97,0–98,5%), pektinlar (0,8–1,0%), yog‘ va mum (0,3–1,0%), azot va oqsillar (0,2–0,3%) hamda boshqa moddalar kiradi.

Paxta urug‘i po‘stloq va mag‘izdan tashkil topgan bo‘lib, ular biologik vazifasi, tuzilishi va kimyoviy tarkibi jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Urug‘ning uzunligi 5–14 mm, kengligi 4–6 mm, massasi 0,05–0,15 g ni tashkil etadi. Po‘stloq tarkibida sellyuloza (40–45%), lignin (20–25%), pentozalar (20–30%), shuningdek oqsil va mineral moddalar mavjud. Mag‘iz tarkibiga esa oqsillar, yog‘lar, uglevodlar va organik kislotalar kiradi. Mag‘iz hujayralari ko‘p miqdorda yog‘ bilan to‘lgan mikrokapillyarlarni saqlaydi [3].

Paxta tolasi organik hujayra hisoblanib, uning tarkibiy qismlari hujayra devori, yadro, sitoplazma, turli organellalar va boshqalardan iborat. Hujayra uzunligi 30–40 mm gacha, diametri esa 15–25 mkm ni tashkil etadi. Tolaning rivojlanish jarayonida hujayra devori o‘lchamlari asta-sekin ortib boradi va hujayra deyarli to‘liq sellyuloza bilan to‘lib boradi [4].

Paxtani saqlash jarayonida sifatining yomonlashuviga sabablar qatoriga zamonaviy saqlash usullarining mukammal emasligi, shuningdek buntlar va omborxonalarning katta hajmda bo‘lishi, saqlanayotgan paxta miqdorining ko‘pligi tufayli uning holatini nazorat qilish qiyinligi kiradi.

Ma’lum tadqiqotlar asosida model ishlab chiqishda quyidagi omillar hisobga olingan: paxta massasining zichligi o‘zgarishi, namligi, ifloslanganlik darajasi, sorti va atrof-muhit ta’siri.

Saqlash davrida buntlardagi paxta holatini o‘rganishda, unda kechayotgan jarayonlarni imitatsiya qilish orqali bunt modeli yaratish alohida ahamiyatga ega. Bunday model yaratish paxtani saqlash davrida uning fizik-mexanik xususiyatlariga ta’sir etuvchi omillarni, shuningdek paxtada mikrofloraning rivojlanishi va ta’sirini o‘rganish imkonini beradi [5].

Termostatlar asosida paxtani saqlash texnologiyasi modeli yaratildi va paxta massasida haroratning o‘sish tezligi uning hajmiy zichligi, o‘rtacha namligi, ifloslanganligi, mikroorganizmlar bilan zararlanganligi, paxta sorti va boshqa omillarga bog‘liq holda nazorat qilindi. Tajriba davomida urug‘lar faolligining o‘zgarishi, shuningdek paxta tolasidagi mikroorganizmlar tur tarkibining o‘zgarishi ham kuzatildi.

Ishlatilgan xom paxta birliklari (letuchkalar) soni ommaviy tadqiqotlar uchun yetarli emas. Bir letuchkaning o‘rtacha massasi taxminan 0,2 g va undagi tolalar soni 12–15 mingta ekanligidan kelib chiqib, har bir modelda ishtirok etayotgan letuchka va tolalar sonini taxmin qilish mumkin.

Tajribalar o‘tkazish uchun S-6524 naviga mansub, qo‘l bilan terilgan I/1 va III/1 sortli, ifloslanganligi 3% va 11%, namligi esa 9% va 16% bo‘lgan xom paxta ishlatildi.

G‘aramdagi paxta namunasining boshlang‘ich harorati tashqi havo haroratiga teng bo‘lib, 21–22°S atrofida bo‘lgan.

Ikki oy saqlash davomida I va III sort paxta namunalarida harorat o‘zgarishlarini taqqoslash ular o‘rtasida sezilarli farq borligini ko‘rsatadi.

Bu holat III sort paxtada o‘z-o‘zidan qizib ketish jarayoni sodir bo‘layotgani bilan izohlanadi. Yuqori darajadagi ifloslanganlik va namlik paxtaning o‘z-o‘zidan qizishiga asosiy sabablar hisoblanadi.

Shunday qilib, tajriba natijalarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, paxtani saqlash jarayonida uning namligi va ifloslanganlik darajasi juda muhim ahamiyatga ega.

Natijada urug‘larning nafas olish jarayoni kuchayishi va mikroorganizmlarning rivojlanishi tufayli paxta ichida issiqlik to‘planadi. Ana shu jarayon paxtaning o‘z-o‘zidan qizib ketishi deb ataladi.

Paxtaning o‘z-o‘zidan qizib ketishi biokimyoviy va biologik jarayon hisoblanadi.

Aniqlanganki, paxta sorti qanchalik past bo‘lsa, unda erkin qandlar shunchalik ko‘p bo‘ladi. Bu esa uning mikroorganizmlar tomonidan zararlanishi va parchalanishi ehtimolini oshiradi, natijada o‘z-o‘zidan qizib ketish ta’siri ayniqsa yaxshi pishmagan (yetilmagan) paxtada kuchliroq namoyon bo‘ladi (1-rasm).

1-rasm. Paxtaning o‘z-o‘zidan qizish jarayonida sifatining o‘zgarishi.

Shuning uchun paxta o‘z-o‘zidan qizib ketganda, tolaning urug‘ bilan bog‘lanishi buzilishi hisobiga tola chiqimi kamayadi. Bunday paxta qayta ishlanganda, uni quritish va tozalash jarayonlarida erkin tolalarning chiqindilarga ketishi ortadi.

Shunday qilib, paxta xomashyosini yaxshiroq saqlash chigit va tola sifat ko‘rsatkichlarini minimal yo‘qotish bilan ta’minlash uchun unga erkin havo kirishi ta’minlanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Salimov A., Wang Hua, Tuychiyev T. «Technology and equipment for primari cotton processing» China, Shanhay, 2019 – p. 174.
2.A.Salimov. Osnovi protsessa zagotovki i xraneniya xlopka-sirsa. Monografiya. Tashkent-2020.
3. Sodikov. “Xlopchatnik-chudo-rasteniye”. Moskva.: “Nauka”,1985-143 str
4. A.M.Salimov, O.A.Salimov. Study of methods for improving the physical and mechanical properties of cotton fiber. Philadelphia, USA. Published: 30.10.2019 http://T-Science.org. *Soi:* http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-78-5 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS ***Scopus*** *ASCC: 2604.*
5. A.M.Salimov. Modelling of technological conditions of storage of cotton-raw . Philadelphia, USA. Published: 30.10.2019 http://T-Science.org. *Soi:* http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-78-5 Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS ***Scopus*** *ASCC: 2604*

QURITISH USKUNASINI ISHCHI KAMERALARIGA PLASTINKA YUZASI BO’YLAB BIR MA’ROMDA HARAKATLANAYOTGAN PAXTANI TAQSIMLASH JARAYONINI TADQIQ ETISH

prof. M.Axmatov, dost. N.Axmatov, talaba Z.Xolmatova, D.Irisbayeva.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada, paxta quritish uskunasini ishchi kameralarini paxta bilan bir tekisda ta’minlash uchun SS-15M seperatorini vakuum-klapandan keyingi plastinka yuzasi bo’ylab paxtani bir meksda harakatlanish jarayonida olingan nazariy ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье приведены результаты теоретических научных исследований процесса равномерного движения хлопка по поверхности пластины, расположенной после вакуум-клапана сепаратора СС-15М, с целью равномерного обеспечения рабочих камер хлопкосушильной установки хлопком.*

Annotation. *This article presents the results of theoretical scientific research on the process of uniform movement of cotton along the surface of a plate located after the vacuum valve of the SS-15M separator, with the aim of uniformly supplying cotton to the working chambers of the cotton-drying unit.*

Kirish: Respublikamizdagi paxta tozalash korxonalarida paxtani quritish uchun 2SB-10 va SBO rusumli quritish barabanlari, tozalash uchun esa 1XK va UXK nufuzli tozalagichlaridan tashkil topgan quritish va tozalash oqimi ishlatilmoqda [1,2].

Ma’lumki, paxtani quritish jarayonida namlikni ajiratish bilan paxta tarkibidagi mayda iflosliklardan samarali tozalashning yangi texnologiyasi oldingilardan konstruktiv afzalliklari bilan farq qiladi[3,4,5].

Xorijiy paxta quritish uskunalarining namlik bo‘yicha ish unumdorligi o‘rnatilgan texnologik jarayonlaridan ikki karra o‘tkazilganda 3-4%ni, mayda iflosliklardan tozalash samaradorligi 10-15%dan oshmaydi[6].

Paxtani samarali quritishda keramika asosida quritish jarayonini amalga oshirilganda, quriishga sarf etilayotgan elektro energiyani tejash, paxtani sifatli quritish mumkinligi aniqlangan, lekin quritish jarayonida mayda iflosliklardan tozalanmaydi[7].

Quritish uskunasini paxta bilan ta'minlash jarayonini tadqiq etish bo’yich bajarilgan ilmiy ishda [8], olingan natijalarda yani seperatorning vakuum-klapnidan so‘ng, paxtani xarakatlanishini nazariy va tajriboviy tadqiqotlar to‘kazilib, paxtani ishchi kameralarga bir teksda ta’minlash uchun kurakli ajratgich va uni ilgarilma-qaytma xarakati natijasida oqimdagi paxta ikki qismga ajratilib, burchak γ_1 va γ_2, $\gamma_1 = \gamma_2 \leq 45^0$, aylanma burchagi γ_1 va $\gamma_2 \leq 90^0$ bo'lishi kerakligi aniqlandi. Natinada shaxtadan xarakatlanib tushayotgan paxta qurilmaning ish kamerasi bo’ylab bir tekis taqsimlanishini ta’minlaydigan kurakli ajratgichni parametrlari hisoblash yo’li bilan aniqlandi. Lekin seperatorning vakuum-klapnidan so‘ng, paxtani xarakatlanish yo’lanish o’zgarishi bo’yicnini nazariy tadqiqotlar asasida o’rganilmagan.

Yqori navli paxtani quritish va mayda iflosliklardan tozalash uchun yoki namligi yuqori bo’lgan past navli paxtalarni quritish jarayoniga oldindan tayyorlash uskunasi ishining o‘ziga xos xususiyati, ko‘p jihatdan materialni qurilmaning ishchi kameralariga bir tekisda taqsimlab berish bilan belgilanadi. Yuqorida aytib o‘tilganidek, qurilmada ikkita ish kamerasi mavjud bo‘lib, shu sababli paxta massani seperatorning vakuum-klapnidan so‘ng ikki bir xil oqimga bo‘lishga tayyorlab beradigon plastinka ustida paxta xarakatini o’rganib chiqamiz.

Paxtani berish jarayoni, agar plastinkaning sirtidagi $d\tau$ tushayotgan paxtaning massasi o’sha $d\tau$ vaqtda plastinkaning sirtidan to’kilayotgan paxtaning massasiga teng bo’lsa, turg’un-bir tekis bo’ladi.

$$\rho_n \cdot V_n = \rho_в V_в$$

YA’ni ρ_n plastinkasi sirtiga tushadigan paxta xomashyosi miqdori bir vaqtning o’zida $\rho_в$ paxta sirtidan to’kilib ketadigan paxta miqdoriga teng bo’lishi kerak.

Aks holda, jarayon davriy bo’ladi (paxta xomashyosi dastlab ma’lum hajmgacha to’planadi, keyin katta oqimlar bilan to’kiladi va bu jarayon vaqti-vaqti bilan takrorlanadi) va zichlikni taqsimlash qonunini aniqlash mumkin bo’lmaydi.

Shu munosabat bilan, plastinka yuzasidagi qonunni vaqtga bog’liq holda aniqlash vazifasini ko’rib chiqamiz. Buning uchun tenglamani ko’rib chiqamiz

$$-\Phi+G\cos\beta=0 \qquad (1)$$

Φ kuchining harakat chizig’i bo’ylab yo’naltirilgan o’qdagi proyeksiyalarda kuchlar muvozanati shartini ifodalovchi. Keyinchalik hajm zichligi o’rniga

$\rho=\rho(X_1;У_1;Z_1;\tau)$ chiziqli zichlikni ko’rib chiqamiz. $\rho(S,\tau)$ - kesimlarning o’rtacha zichligi, S holatida X_1 $У_1$ koordinatalarining boshidan joylashgan.

Φ, G kuchlari o’rtasidagi aloqa va ρ zichligi quyidagi chiziqli qonun yordamida o’zaro bog’langan[9,10].

$$\Phi(S,\tau)=\frac{\rho(s,\tau)-\rho_0}{K} \qquad (2)$$

Bunda: ρ_0 -tashqi kuchlar mavjud bo’lmagan taqdirda paxta xomashyosining zichligi (to‘liq zichligi).

K-siqiluvchanlik koeffitsiyenti [$\frac{C^2}{M}$] (0,95 ≤ K ≤1,05) [26,47].

(1) va (2) tengligini hisobga olib, muvozanatning dinamik holatini quyidagi shaklda yozamiz:

$$\frac{B}{K}d\rho=\rho\cdot g\cdot\cos\beta\cdot ds \qquad (3)$$

(3) tenglamani quyidagi shaklda yozamiz:

$$\frac{B}{K}\cdot\frac{d\rho}{d\tau}=\rho\cdot g\cdot\cos\beta\frac{ds}{d\tau} \qquad (4)$$

ds=$\frac{dx}{\cos\beta}$ ni hisobga olsak, oxirgi tenglama

$$\frac{B}{K}\cdot\frac{d\rho}{d\tau}=\rho\cdot g\cdot\cos\beta\frac{dX_1}{d\tau} \qquad (5)$$

Chunki

$$\frac{dX_1}{d\tau}=q\cos\beta(f-\sin\beta)\cdot\tau$$

u holda (5) tenglama

$$\frac{d\rho}{d\tau}=\frac{K\rho g^2}{B}\cos\beta(f-\sin\beta)\tau$$

Bu tenglamani integratsiya qilsak,

$$Ln\rho = \frac{Kg^2}{2B}\cos\beta(f - \sin\beta)\tau^2 + C_5$$

B nuqtasida paxta - xom ashyo zichligi $\rho_в$ ga teng bo’lsin. Keyin quyidagi boshlang’ich shartga ega bo’lamiz $\rho=\rho_в$, $\tau=0$. Ushbu boshlang’ich shartdan foydalanib, oxirgi tenglamani ko’rinishda yozamiz.

$$Ln\rho = \frac{Kg^2}{2B}\cos\beta(f - \sin\beta)\tau^2 + Ln\rho_B$$

bu yerdan

$$\rho = \rho_b \ell xp\left[\frac{Kg^2}{2B}\cos\beta(f - \sin\beta)\tau^2\right] \qquad (6)$$

Bu yechim zichlik va K, B, β, f va τ parametrlari o’rtasida tahliliy bog’liqlikni o’rnatadi.

1-rasm. Paxta xomashyosining ρ turli β burchaklardagi vaqtga (τ) bog’liqligi.



1-rasmda, har xil β bo’lgan vaqt τ ga qarab paxta zichligi o’zgarishi taqdim etilgan.

Bundan ko’rinib turibdiki, agar $\beta=90^0$ bo’lsa, paxta zichligi doimiyligicha qolaveradi, $\beta>90^0$ bo’lsa, plastinka yuzasida paxta b’lakchlarining sekinlashishi hisobiga oshadi.

Xulosa: Plastinkaning yuzasidagi tiqilishlarni bartaraf etish va paxtani uskunaning ishchi kamerasi bo’ylab kichik porsiyalarda taqsimlash uchun paxta bir xil bo’lmaganda, bo’lakcha ajratgichning bir aylanish sikli uchun qiymati $\beta=90^0$ ga teng bo’ladi;

Olingan ilmiy natijani, quritish uskunasini ishchi kameralariga paxtani bir meksda harakatlanishini ta’minlash uchun plastinka o’rnatilishi maqsadga muvoffiqligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Paxtani dastlabki ishlashning muvofiqlashtirilgan texnologiyasi (PDI 70 –2017). “Paxtasanoat ilmiy markazi” AJ. Toshkent, 2019.- 90 b.
2. M.Axmatov, X.Usmanov. Paxta tozalash korxonasida tozalash uskunalarining texnologik parametrlari taxlili. Tadqiqot uz. ISSN 2181-9696 DoiJournal 10.26739/2181-9606 Texnika fanlari 2021 yil 4 jild, 4 son, 16-20 b.
3. Parpiev A., Akhmatov N., Akhmatov M. Experimental analysis of cotton distribution in a drying drum //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – T. 434. – S. 03039.
4. Parpiev A. et al. Law of cotton mass movement in drying drum sections //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2023. – T. 2700. – №. 1. – S.020063.
5. M.Axmatov, N.A.Navruzov, X.D.Madumarov, N.M.Axmatov. Yuqori navli paxta xom ashyosini quritish uskunasi. To‘qimachilik muammolari №2/2009, 104-106 betlar.
6. www.Samjackson. com., Lummus.sales@ lummus. com.
7. M.G.Dobb and M.Z.Satain. The effect of the rmal tuatmenton the crusceruzed cotton // S. of the textile institute. V.67. №718.1976 P. 229-234.
8. M.Axmatov, N.Axmatov, O Ravshanov. Quritish uskunasini paxta bilan ta'minlash jarayonini tadqiq etish. “Barqaror rivojlanish sharoitida sanoat korxonalarining ekologik muhofazasi va mehnat xavfsizligini ta’minlash: tajriba, muammolar va istiqbollar” respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani // TO‘PLAMI I-QISM, TTYSI, Toshkent 2026
9. Мирошниченко Г.И. основы проектирования машин первичной переработки хлопка. М.: Машиностроение, 1972г.

JUN, PAXTA, TABIIY IPAK CHIQINDISI VA POLIEFIR TOLALARI ARALASHMASIDAN POLIKOMPONENT KALAVA IPLARI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.

M.X.Xoshimova
Farg‘ona davlat texnika universiteti doktoranti
Sh.X.Muxamadrasulov
Farg‘ona davlat texnika universiteti dotsenti

Annotatsiya: ***J****un, paxta, tabiiy ipak chiqindilari hamda poliester tolalarining aralashmasidan polikomponent kalava iplarini ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – turli tarkibli tolalar kombinatsiyasidan foydalangan holda*

yuqori mustahkamlik, bir tekislik va ekspluatatsion xossalari yaxshilangan kalava iplarini olish texnologik jarayonlarini optimallashtirishdan iborat.

Abstract: *The issues of improving the technology of producing polycomponent yarns from a mixture of wool, cotton, natural silk waste and polyester fibers are considered. The main goal of the research is to optimize the technological processes for obtaining yarns with high strength, uniformity and improved operational properties using a combination of fibers of different compositions.*

Аннотация: *Рассматриваются вопросы совершенствования технологии производства многокомпонентной пряжи из смеси шерсти, хлопка, отходов натурального шелка и полиэфирных волокон. Главная цель исследования – оптимизация технологических процессов получения пряжи с высокой прочностью, однородностью и улучшенными эксплуатационными свойствами при использовании комбинации волокон различного состава.*

Jahonda yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali tabiiy ipak chiqindilaridan samarali foydalanish va ularni boshqa to‘qimachilik tolalari bilan aralashtirish xamdatayyor maxsulot ishlab chiqarishda, ularni sifatini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xozirgi kunda dunyo bo‘yicha milliondan ortiq nomlanishdagi to‘qimachilik maxsulotlari ishlab chiqariladi. Ular ichida aralash tolalardan ishlab chiqarilgan maxsulotlar aloxida o‘rinda turadi. Aralash tolali matolar ishlab chiqarish amaliyotida dunyoning AQSH, Angliya, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Xindiston, Rossiya va boshqa mamlakatlarida tabiiy jun tolasini kimoviy tolalar, tabiiy ipakka o‘xshab ketadigan tolalar aralashmasidan gazlamalar ishlab chiqarish borasida yetarlicha tajriba to‘plangan. Bizning respublikamizda xam bunga e’tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bu esa bugungi kunda yangi tarkibdagi to‘qimachilik iplarini ishlab chiqish, tashqi ko‘rinishi ipak effektli va g‘ijim bo‘lmaydigan, ipak, jun va boshqa tolalar aralashmasidan gazlamalar yaratish, ichki va tashqi bozor talablariga javob beruvchi sifatli maxsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini ishlab chiqish, ipak, jun va aralash tolalardan maxsulotlarning yangi tur va assortimentlarini yaratishni taqozo etadi.

Polikomponent ip kalava olish texnologiyasini ishlab chiqishda jun, paxta, poliefir va tabiiy ipak momig‘i tolalarining xususiyatlari chuqur o‘rganib chiqildi, ularning bir-biriga mos keladigan turlari va uzunliklari tanlab olindi. Ishlab chiqilgan texnologiyadagi asosiy yangilik aralashma tarkibida tabiiy ipak tolalarining aralashmada qo‘llanishi, aralashmaning to‘rt komponentdan iboratligi va aralashma tayyorlashning o‘ziga xosligi. Bunda aralashma tarkibiga kiruvchi komponentlar aralashma tayyorlashdan oldin o‘zaro har bir komponent o‘z ichida aralashtirib olinadi va har bir tolaning bir tekis joylashishini ta’minlagan holda aralashma tayyorlanadi. Tayyorlab olingan bir turdagi tolalardan iborat har bir aralashmani belgilangan ulushiy miqdorlarda (50 % jun tolasi, 25 % poliefir tolasi, 20 % paxta tolasi, 5 % tabiiy ipak momig‘i tolasi)

ketma-ketlik asosida taxtlash orqali aralash to‘shama tayyorlanadi. Shundan so‘ng paxta yigirishning taroqli tizimi qoidalari asosida ularni aralashtiriladi. Buning natijasida aralashmada ko‘zda tutilgan ulushiy miqdorlarda aralashma bo‘yicha tolalarning bir xil joylashuviga erishiladi.

YANGI TAJRIBA UCHUN NAMUNALAR

1. JUN 50%, IPAK 5%, PAXTA 25%, POLIEFIR 20%

2. JUN 45%, IPAK 10%, PAXTA 25%, POLIEFIR 20%



3. JUN 50%, IPAK 5%, PAXTA 20%, POLIEFIR 25%



Tajriba asosida tanlab olingan tolalar “OSBORN” MCHJ korxonasi “TRUTZSCHLER” stanogida aralashririlib kalava ip olindi. Olingan kalava ipi Namangan davlar texnika universiteti lobaratoriya xonasida mexanik xususiyati aniqlandi. (1-rasm)

1-rasm. Kalava ip mexanik xususiyatini aniqlash.



1-namuna 2,94, 2-namuna 1,95, 3-namuna 1,99

Polikomponent kalava iplari ishlab chiqarish uchun jun, paxta, tabiiy ipak va poliefir tolalarining turlari o‘rganilib tajriba uchun ma’qul tolalar tanlab olindi.

Har bir tolalar xususiyatlari o‘rganilib chiqildi. Jun tolasidan uchun kamvol navini, paxta tolasidan 1-navini, chiziqli zichligi 0,17-4,4 teks bo‘lgan va shtapel uzunligi 32-102 mm uzunlikdagi qirqilgan poliefir tolasi va ipak tolasidan ipak chiqindisi tanlab olindi.

Tajriba asosida tanlab olingan tolalar “OSBORN” MCHJ korxonasi “TRUTZSCHLER” stanogida aralashririlib kalava ip olindi. Olingan kalava ipi Namangan davlar texnika universiteti lobaratoriya xonasida mexanik xususiyati aniqlandi.

Foydalingan adabiyotlar.

1. Axunbabayev O.A. va boshq. To‘quvchilik uchun tabiiy ipakdan eshilgan iplar ishlab chiqarishning tartibga solingan texnologik rejimi/O.A.Axunbabayev, Sh.Dadajonov, J.A.Axmedov, U.A.Axunbabayev, J.Sh.Sharipov// Farg‘ona, “Classic”, nashryoti, 2022, 130 s
2. https: // www.yridge.com/intelligences/silkworm-cocons/ production
3. Ниязалиева М.М. ва бошқ. –Такрорий боқувдан олинган тирик пиллаларни миқдори ва чувиш жараёнини такомиллаштириш /М.М.Ниязалиева, М.Мирзахонов, У.О.Ахунбабаев//Фарғона, ФерПИ Илмий-техника журнали, 2021, 25-том, № 6, 259-263 с.
4. NiazalievaM.M., Mirzakhonov M., Axunbabaev U.O. – Improvement of the recyclihgprocess cocoons receivedfrom the repeat feeding. Journal of Hunan Uhiversity (Natural Sciences).Vol. 48.No. 12.Dekember 2021.1530-1536

LINTERDA ARRA TISHIDAN MOMIQ AJRATISH TEXNOLOGIYASI TAXLILI

Professor Salimov Alisher Mashrabovich,
Talabalar: Urazmatova Manzura , Boltaboyev Ismoil
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada linterda arra tishidan momiq ajratish texnologiyasini taxlili bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация об анализе технологии отделения ворса от зубьев пилы в линтоловом станке.*

Abstract. *This article presents information on the analysis of the technology for separating lint from saw teeth in a linter.*

Linterlarda momiq ajratish texnologiyasi - arralarning aylanib turgan chigit valigiga mexanik usulda ta’sir etib, chigit yuzasidan momiqni qirib

olishga, so‘ngra esa arra tishidan havo yordamida itarib ajratilishga va kondensorgacha olib borilib, u yerda havodan ajratib olinishga asoslangan [1].

Linterning chigitdan ajratgan momiq miqdori va chigit bo‘yicha ish unumdorligi muhim texnologik ko‘rsatkichlar hisoblanadi. Ma’lumki, arrali jinlarda tolani arra tishidan ajratib olinishda va linterlarda momiqni arra tishidan ajratib olinishda ham, bir xil havo oqimiga asoslangan moslamadan (1-rasm) foydalaniladi. Bu moslama havo kamerasi yo‘naltiruvchi truba rostlanuvchi qirg‘oq momiq quvuridan iborat.



1-rasm. Linterda arra tishidan momiq ajratish moslamasini chizmasi
1-havo kamerasi, 2-saplo, 3-tirqish, 4-arrali silindr, 5-momiq kanali.

Bu moslamada VS ventilyatori yordamida hosil qilingan havo bosim bilan havo kamerasiga yo‘naltiriladi va havo yo‘naltiruvchi hamda tirqish orqali harakatlanadi.

Bunda havoning chiziqli tezligi arrali silindr chiziqli tezligidan yuqoriligi hisobidan arra tishidagi momiq ajratiladi va quvurga yo‘naltirilib kondensorgacha yetkaziladi.

Hozirgi kunda paxta tozalash korxonalarida momiqni arra tishidan ajratuvchi moslamada havo bosimini hosil qilish uchun uchun har batareya linterga VS-8 rusumli ventilyator o‘rnatiladi [2].

Linterlar batareyasining pnevmotransport tizimi (2-rasm) quyidagi qismlardan iborat: markazdan qochma ventilyator 1, linter kameralarida kerakli havo bosimini caqlab turadigan havo xaydash quvuri 2, linterlar 3, o‘zgaruvchan kesimli momiq quvuri 4, kondenser 5, havoni kondenserdan tortib oladigan ventilyator 6 va chang tutuvchi siklonlar 7.

Tolani chigitdan ajratishda ikkita DP-130 rusumli jin majmuasida, arra tishidan tolani havoli ajratish moslamasi kamerasida P=3150 Pa bosimni va Q=2,5-3 m^3/s, chigitdan momiqni ajratish majmuasi oltita linter uskunasi havo kamerasida 2600 Pa bosimni va Q=2,5-3 m^3/s havoni hosil qilish uchun ham VS-8 ventilyatori ishlatiladi [3].



2-rasm Linter batareyasining pnevmotransport tizimi.

Agar mahsulot bo‘yicha hisoblasak, ikkita jindan iborat majmuaning ish unumdorligi bir soatga 3120 kilogramm tolani, oltita linterdan iborat majmuaning ish unumdorligi esa 330 kilogramm momiqni tashkil etadi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, linter uskunasidan iborat majmuaning momiq bo‘yicha ish unumdorligi jin uskunasidan iborat majmuaga qaraganda 9 barobarga kam bo‘lib, havo sarfi esa teng - bu albatta linter uskunasidan iborat majmuaning mahsulot miqdoriga nisbatan elektr energiyasi sarfi ko‘pligini va uning samarasi pastligini ko‘rsatmoqda

Xulosa. Ushbu holatni hisobga olib jinlash va linterlash uskunalarida bir xil havoli ajratish moslamasidan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Shu sababli, Linterda arra tishidan momiq ajratish moslamasini takomilashtirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salimov A., Wang Hua, Tuychiyev T. «Technology and equipment for primari cotton processing» China, Shanhay, 2019 - 174 p.
2. Sabirov I.Q, Salimov A.M., Ochilov M.M. Paxta chigitidan momiq ajratish jarayonini takomillashtirish. Toshkent. ZEBO-PRINT. 2022y.94 b.
3. Ochilov M.M., Xakimov Sh.Sh. Modernized linter machine// International Journal of Advenced Research in Science, Engineering and Technology. 2019. 11. 11665-11671 b.

ИССЛЕДОВАНИЕ ДЕФОРМАЦИОННЫХ СВОЙСТВ И ПРОЧНОСТИ КОНСТРУКЦИОННЫХ ТЕХНИЧЕСКИХ ТКАНЕЙ ПРИ РАСТЯЖЕНИИ

А. Абдусаттаров[1], Ю.О. Матназаров [2]

Ташкентский государственный транспортный университет[1],
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности[2]

Аннотация. *В работе рассмотрены результаты экспериментального исследования деформационных свойств и прочностных характеристик базальтовых нитей и конструкционных тканей Т-13 при растяжении. Экспериментальные исследования выполнены с использованием стандартных разрывных установок «STATIMAT» и «WDW-5E», что позволило получить диаграммы растяжения, зависимости силы от относительной деформации и времени, а также определить разрывную нагрузку и удлинение при разрыве. Показано, что процесс деформирования нитей и тканей носит выраженно нелинейный вязкопластический характер, обусловленный структурными преобразованиями и взаимным смещением волокон при нагружении.*

Abstract. *The work examines the results of experimental research on the deformation properties and strength characteristics of basalt threads and T-13 structural fabrics during tension. Experimental studies were conducted using standard "STATIMAT" and "WDW-5E" breaking devices, which allowed for the creation of tension diagrams, the dependence of force on relative deformation and time, as well as the determination of breaking load and elongation during breakage. It has been shown that the deformation process of threads and fabrics is of a pronounced nonlinear viscoplastic nature, due to structural transformations and mutual displacement of fibers during loading.*

Введение. В работах [1, 2] показана исключительная важность анализа причин обрыва и разрушения нитей в процессе их переработки в ткани. Развивающийся во времени феноменологический процесс разрушения рассматривается как некоторый процесс накопления повреждений и различных дефектов. Развивается теория деформирования нитей, основанная на наследственной теории вязкоупругости. Приведен обширный экспериментальный материал по ползучести и релаксации различных текстильных материалов.

В работе [3] изложены результаты теоретических и экспериментальных исследований по оптимизации физико–механических свойств тканых композиционных материалов и проектированию изделий из тканей с учетом заданных свойств. Описаны методы и результаты

испытаний по оценке механических свойств армированных композиционных тканей. По определению, полимер – волокнистая композиционная среда, находящаяся в неотвержденном состоянии, называется препрегов. Препреги настолько податливы, что позволяют проводить всевозможную переработку. В результате, уже сформированное изделие может приобрести новые формы с изменением геометрии [4].

В [5] разработаны основы проектирования текстильных нитей и полотен, позволяющие прогнозировать их структуру и свойства путем направленного воздействия на технологический процесс, проанализированы топологические характеристики различных переходов текстиля. Экспериментально исследован характер изменения исходных свойств нитей и пряжи в технологическом процессе. Приведены критерии оценки структуры тканых конструкций с использованием арсенала теории узлов.

В работах [6-11] рассмотерено моделирование процессов деформирования и длительной прочности текстильных композитных материалов – нитей и тканей с учетом наследственных свойств и повреждаемости. Приведены модели уравнения состояния текстильных нитей на основе дифференциальных соотношений между напряжениями и деформациями. При этом считается, что коэффициенты уравнения являются функциями деформации или повреждений. Для определения деформационных свойств хлопковой и базальтовой пряжи [10], проведены эксперименты на разрывной установке. Работа [11] посвящена к созданию огнеупорных тканей из местных базальтовых нитей с учетом структуры и физико-механических свойств тканей-покрытий. На основе экспериментальных результатов определены законы изменения натяжения нитей основы и утка в процессе формирования однослойной огнеупорной ткани на ткацком станке.

Из обзора вытекает, при исследование процессов переработки нитей и конструкционных тканей очень важно определение уравнений состояний и деформационных и прочностных свойств текстильных материалов на основе экспериментальных данных.

На основе анализа механических моделей вязкоупругих тел для описания уравнения состояния хлопковой пряжи при растяжении до обрыва в работе[1] предложена обобщенный модель:

$$\frac{d\sigma}{E_D(\varepsilon)dt}+\mu(\varepsilon)\frac{\sigma}{E_S(\varepsilon)}=\frac{d\varepsilon}{dt}+\mu(\varepsilon)\varepsilon \qquad (1)$$

где E_S (ε) и E_D (ε) – соответственно переменные модули статического и динамического деформирования материала; μ(ε) - переменный параметр объемной вязкости материала. При конкретных значениях ε функции $E_S(\varepsilon)$, $E_D(\varepsilon)$, μ(ε) считаются известными из эксперимента, а также предполагается, что dε/dt=const. Для этого случая решение уравнения (1) представлено в виде:

$$\sigma = E_S(\varepsilon)(\frac{d\varepsilon}{dt} + \mu(\varepsilon)\varepsilon)\frac{1-e^{-\mu(\varepsilon)\gamma t}}{\mu(\varepsilon)} \qquad (2)$$

Предполагаем теперь, что коэффициенты уравнения (1) являются функциями накопленных повреждений,т.е. коэффициенты E_s, E_D, μ или η являются функциями степень поврежденности материала. Перепишем для этого случая уравнение (1):

$$\frac{d\sigma}{E_D(\omega)dt} + \mu(\omega)\frac{\sigma}{E_S(\omega)} = \frac{d\varepsilon}{dt} + \mu(\omega)\varepsilon \qquad (3)$$

Считаем, что параметры E_D (ω), E_s(ω) и μ(ω) также известны из эксперимента. Решения уравнение (3) можно представить в виде (2). Функция повреждаемости ω определяется из следующего соотношения [12]:

$$\omega(x_\alpha, t) = \frac{1+m}{B^{m+1}}\int_0^t (t-\tau)^m \varepsilon^{\alpha(1+m)}(\tau)d\tau \qquad (4)$$

В частности, при $\varepsilon = \varepsilon_0 = const$ из (4) получим следующее выражение для функции повреждаемости :

$$\omega(t) = \frac{t^{m+1}\varepsilon_0^{(1+m)\alpha}}{B^{1+m}} \qquad (5)$$

а при постоянной скорости деформации $\varepsilon = \dot{\varepsilon}\cdot t$,

$$\omega(t) = \frac{1+m}{B^{1+m}} t^{m+1}\dot{\varepsilon}^{\alpha(1+m)}\frac{\Gamma(1+m)\Gamma(1+\beta)}{\Gamma(2+m+\beta)} \qquad (6)$$

где α, B и *m*- параметры повреждаемости, определяются из эксперимента.

В таблицах 1-3 приведены физико – механические характеристики для различных материалов – конструкционных нитей и тканей Т-10, 11, 13 и базальтовых нитей 132, 150 из эксперимента (ГОСТ 19170-2001).

Таблица 1

Физико – механические показатели стеклонитей и тканей Т-10, 11, 13

Марка ткани	Тип переплетения	Количество нитей на 10 см, шт		Масса на единицу площади, г/м^2	Толщина, мм	Разрывная нагрузка, Н(кгс), не менее	
		основа	уток			основа	уток
Т-10	сатин 8/3	360+10	200±10	290±5%	0,23±15%	2940(300)	1568(160)
Т-11	сатин 8/3 или сатин 5/3	220+10	130±10	385±5%	0,30±15%	2744(280)	1568(160)
Т-13	полотняное	160+10	100±10	285±5%	0,27±15%	1764(180)	1176(120)

Таблица 2

Механические характеристики базальтовой нити БЗ-132, 150

Наименование	Линейная плотность (текс)	Диаметр элементарной нити (микрон)	Предел прочности на разрыв (МПа)	Разрывная нагрузка (Н)	Удлинение при разрыве (%)	Плотность материала г/см^3
Базальт-132	132	10-13	2800-3200	260-300	2,6-3,0	2,65
Базальт-150	132	9-13	2800-3200	300-350	2,5-3,5	2,65

Для определения деформационных свойств конструкционной текстильной пряжи (стеклонить Т–13) и сравнительную анализу проведены опыты на стандартной разрывной установке «STATIMAT». Данная установка работает с помощью специальной компьютерной программы. Результаты испытаний выдаются в виде таблиц и графиков зависимостей растягивающей силы F, от относительной деформации растяжения ε и время t.

В таблице 3 представлены экспериментальные результаты определения максимальных значений параметров F, ε, A и t для конструкционной ткани Т-13 с линейной плотностью пряжи 73,1 текс при скорости натяжения $V_н$ = 500 мм/мин, а также при различных скоростях (таблице 4) что позволило на основе проведённого эксперимента оценить её физико-механические, прочностные и деформационные свойства в заданных условиях эксплуатации.

Таблица 3

Результаты экспериментальных исследований конструкционной стеклонить Т-13

Количество испытаний	F (сН)	N cN/tex	ε (%)	A (сН*см)	t (с)
1	4125,44	56,44	11,55	12601,24	7,14
2	4261,42	58,29	12,37	14022,24	7,58
3	4307,72	58,92	12,47	14344,27	7,64
4	4311,85	58,98	12,51	14466,53	7,69
5	4256,07	58,22	12,12	13578,08	7,47
6	4378,04	59,89	12,62	14690,57	7,75
7	4471,20	61,16	13,41	16453,21	8,19
8	4344,06	59,42	12,74	14991,02	7,86
9	4499,24	61,54	13,66	16927,04	8,41
10	4422,44	60,49	13	15672,58	8,02

Таблица 4

Влияние скорости натяжения на расчетных величин (стеклонить Т-13)

№	V (мм/мин)	$F_{мах}$ (сН)	$F_{мин}$ (сН)	$ε_{мах}$ (%)	$ε_{мин}$ (%)	$t_{мах}$ (с)	$t_{мин}$ (с)
1	500	4499,24	4125,44	13,66	11,55	8,41	7,14

2	1000	4574,70	4249,62	13,51	11,65	4,23	3,57
3	1500	4624,65	3594,63	14,01	9,67	2,91	2,03
4	2000	4557,69	4222,37	13,48	11,49	2,14	1,81
5	2500	4624,33	4289,93	14,25	11,92	1,81	1,54
6	3000	4541,57	4282,25	13,59	12,01	1,43	1,26
7	3500	4661,26	4450,35	14,69	12,27	1,37	1,15

Как известно, в отличие от одиночной пряжи, текстильные материалы в виде полотен являются двумерными структурами, характеризующимися протяжённостью как в продольном, так и в поперечном направлениях. В настоящей работе представлены результаты испытаний текстильных полотен из технического материала Т-13. Анализ экспериментальных данных, приведённых на рисунке 1, показывает, что процесс деформирования полотна при растяжении носит нелинейный характер, что обусловлено особенностями его структурного строения и взаимодействием элементов ткани под нагрузкой.



а) б)

Рис.1 Экспериментальные зависимости растягивающей силы от деформации для ткани.
а) по продольному растяжению; б) по поперечному растяжению.

Для определения диаграммы растяжения и деформационных свойств *базальтовой* пряжи (БЗ-132, 150 текс) проведены опыты на современной разрывной установке «WDW-5E». Данная установка находится в лаборатории кафедры «Материаловедения» ТИТЛП и работает с помощью специальной компьютерной программы (рис.2). По определению разрывная нагрузка нити — это наибольшая сила, которую может выдержать нить при растяжении перед разрывом. Для сравнения разрывной нагрузки нитей различной линейной плотности используют показатель разрывной нагрузки в единицах линейной плотности, выражающий относительную разрывную нагрузку, то есть N/текс.

Удлинение при разрыве (абсолютное) - увеличение длины натянутой нити в момент разрыва, измеряется в мм.

Результаты испытаний выдаются в виде таблиц и графиков зависимостей растягивающей силы F, от относительной деформации растяжения ε и время t. В качестве иллюстрации приведены 5 зависимостей растягивающей силы от деформации F(ε), полученные для базальтовой пряжи с линейной плотностью T=132 текс. (рис.3). Нелинейность зависимостей F(ε) (рис. 3 (а, б)) очевидно связана с изменением структуры базальтовой пряжи при растяжении. В процессе растяжения природной базальтовой пряжи происходит сложное структурное преобразование, обусловленное взаимными относительными смещениями волокон.

Рис. 2. Прибор WDW-5E для определения относительной разрывной нагрузки нитей и тканей

Именно этот процесс в первую очередь определяет характер изменения зависимости F(ε), то есть закономерности деформации базальтовой пряжи.



а) б)

Рис. 3 (а, б).

Экспериментальные зависимости растягивающей силы от деформации для базальтовой пряжи с линейной плотностью T=132 текс

Таблица 5

Значения растягивающей силы, относительной деформации и напряжения нитей

Материал БЗ-132 Текс					
№	F (N)	ΔL (mm)	T (s)	σ MPa	E MPa
1	161,9	17,22	1,4	3311	38462
2	203,6	15,88	1,4	4164	52450
3	149,9	16,9	1,2	3066	36285
4	158,6	19,24	1,4	3244	33722
5	149,5	16,8	1,4	3057	36404
6	164,9	14,73	1,4	3372	45797
7	91,8	12,05	1,2	1877	31165
8	144,1	17,25	0,4	2947	34173
9	118	17,25	1,4	2413	27984
10	128	17,40	0,2	2618	30094

Материал БЗ-150 Текс					
№	F (N)	ΔL (mm)	T (s)	σ MPa	E MPa
1	163,9	13,23	0,2	2950	44598
2	221,2	17,59	0,4	3981	45271
3	197,8	17,25	0,2	3560	41280
4	180,2	16,74	0,2	3243	38752
5	201,6	14,56	1,2	3628	49846
6	162,6	17,23	0,2	2926	33973
7	151,8	15,08	1	2732	36238
8	183,4	17,57	4,2	3301	37577
9	183,4	17,57	0,8	3301	37577
10	163,6	17,58	0,6	2944	33501

Таким образом, на основе проведенных комплексных экспериментальных исследований были определены основные параметры, описывающие процессы деформирования и прочностные свойства нитей и тканей. В ходе экспериментов изучены закономерности изменения физико-механических характеристик материалов под действием силы натяжения, а также определены значения разрывной нагрузки и относительного удлинения при разрыве. Полученные результаты позволяет понять механизмы формирования прочности и деформационного поведения нитей и тканей для дальнейшего моделирования и прогнозирования эксплуатационных свойств текстильных материалов.

Литература

1 Щербаков В.П., Скурланова Н.С. Основы теории деформирования и прочности текстильных материалов. М.: МГТУ имени А.Н. Косыгина, 2008, 332 с.

2 Султанов К.С., Исмаилова С.И. Структурная прочность текстильных нитей. Ташкент, ФАН, 2017, 256 с.

3 Василевич Ю.В. и др. Механика препрегов – расчет изделий из армированных композиционных материалов: Ч. 1 Минск: БНТУ, 2016. – 295 с.

4 Абдусаттаров А., Василевич Ю.В., Мурадов А., Матназаров Ю.О. Анализ деформационных свойств текстильных композитных материалов – препрегов // Журнал ‘‘Композиционные материалы’’, 2024. №4.–С.281-285.

5 Даминов А.Д. Основы прогнозирования структуры и проектирования текстильных полотен. Автореферат докт. тех. наук. Ташкент, 2006, 42с.

6 Абдусаттаров А., Боймуротов Б., Мурадов А. К определению повреждаемости и длителной прочности нитей и тканей с учетом вязкоупругих свойств //Узбекский текстилний журнал. 2022. №3. – С.40 – 48.

7 Даминов А.Д., Абдусаттаров А., Матназаров Ю.О., Мурадов А.А. Структурный анализ конструкционных тканей и исследование наследственных свойств нитей с учетом повреждаемости //Узбекский текстильный журнал.2024.№4.–С.92-100.

8 Абдусаттаров А., Даминов А.Д., Матназаров Ю.О. К моделированию деформационных свойств и длительной прочности текстильных материалов с учетом накопленных повреждений // Узбекский текстильный журнал. 2025. №3.–С.70-79.

9 Абдусаттаров А., Матназаров Ю. О. Анализ деформационных свойств базальтовых текстильных нитей на основе экспериментальных результатов // Материалы XIV Междунар. науч.-практ. конф.– Гомель : БелГУТ,2025.– с.59-60

10 Узоков У. Т. Создание огнеупорных тканей из базальтовых нитей и их выработка на безчелночном ткацком станке. Автореферат

диссертации докт. философии (PhD) по тех. наук. Ташкент, 2025, 49с

11 Матназаров Ю.О. Определение деформационных характеристик хлопковой пряжи на основе экспериментальных результатов // “Ishlab chiqarish va qayta ishlashning innovatsion texnologiyalarini rivojlanishi sharoitida ilm-fan va soha korxonalarining integratsiyasi” respublika miqyosidagi ilmiy – amaliy anjumani to‘plami 22-23 oktabr 1-qism, Toshkent-2025 –C.283-285.

12 Москвитин В. В. Сопротивление вязкоупругих материалов. – М.: URSS. –2019. –328 с. (переизд).

TRIKOTAJ TO‘QIMALARINING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARI

Tayanch doktorant S. Saparova,
dots.M.Musayeva, PhD. M. Mirsadikov, prof. M.Mukimov

Annotatsiya:*Ilmiy ishda yangi tuzilishdagi aralash trikotaj to‘qimalarining fizik-mexanik xususiyatlari ustida tadqiqot ishlari olib borilgan.*

Аннотация:*В научной работе проведены исследования физико-механических свойств комбинированных трикотажных полотен новой структуры.*

Abstract:*The scientific study investigates the physical and mechanical properties of combined knitted fabrics with a new structure.*

Respublikada keng turdagi sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliylashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadirlar amalga oshirilmoqda[1].

Trikotaj to‘qimalarining tahlili nafaqat yaratilgan to‘qima turlarini o‘rganib chiqish, balki yangi tuzilishga ega bo‘lgan turli trikotaj to‘qimalarini yaratish trikotaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish imkonini beradi.

Trikotaj to‘qima turlarini, mahsulot assortimentlarini kengaytirish, turli xomashyolardan to‘qimlarni texnologik ko‘rsatkichlarini, fizik-mexanik xususiyatlarini va sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, xaridorbop, raqobatbardosh to‘qimalarni yaratish hozirgi kundagi dolzarb masalarlardan biri. Zamonaviy trikotaj mashinalarini imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ko‘pgina ilmiy ishlar amalga oshirilgan[2-3].

Aralash trikotaj to‘qimalarining 8ta variant namunalarinin fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganish maqsadida “O‘zbek-Turk Test Markazi” sertifikatlashtirish laboratoriyasida o‘rnatilgan zamonaviy uskunalarda eksperimental usulda aniqlandi va tahlil natijalari 1-jadvalda keltirildi.

jadval 1

Ko‘rsatkichlar		I	II	III	IV	V	VI	VII	VIII	Standart bo‘yicha
Havo o‘tkazuvchanlik, $sm^3/sm^2 *sek$.		183,4	177,7	92,1	155,2	130,5	203,0	174,5	148,7	GOST 1228-2014 100 ($dm^3/m^2 \cdot sek$) kam emas
Ishqalanishga chidamlilik, I (ming aylana)		25	25	25	25	25	25	25	25	GOST 16486-93 15-30 oddiy 30-100 mo‘st. 100 dan yuq.juda mus
Issiqlik saqlash %		57	44	28	39	43	28	37	37	
Uzilish kuchi R, N	bo‘yiga	228,8	246,5	233,9	213,1	215,8	270,4	260,9	291,5	GOST 28554-90 80 N dan kam emas
	eniga	266,4	313,5	535,9	515,1	488,6	192,6	237,8	227,4	
Uzilishdagi uzayish L, %	bo‘yiga	259,8	184,5	289	240,6	264,1	127	375,6	393,4	
	eniga	213,3	199,5	133,4	156,3	140,2	273,1	160,6	192,6	
Qaytar deformatsiya $E_{q.t}$ (%)	bo‘yiga	82	86	84	80	82	80	84	80	
	eniga	80	82	82	80	82	84	82	84	
Qaytmas deformatsiya $E_{q.s}$ (%)	bo‘yiga	18	14	16	20	18	20	16	20	GOST 28882-90 5-20% ko‘p emas
	eniga	20	18	18	20	18	16	18	16	
Kirishuvchanlik U, (%)	bo‘yiga	4	2	2	3	5	55	2	2	
	eniga	6	3	4	2	3	2	2	2	GOST 26667-85 6-8% ko‘p emas 8-10% ko‘p emas

Aralash trikotaj I-variant namunasining qaytmas deformatsiyasi II-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 18%ga yuqori, III-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 12%ga yuqori, IV-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 11%ga kam, V-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha ko‘rsatkichlari teng, VI-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 11%ga kam, VII-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 12%ga yuqori, VIII-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 11%ga yuqoriligi aniqlandi 1-rasm.

Aralash trikotaj I-variant namunasining qaytar deformatsiyasi II-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 04%ga kam, III-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 02%ga kam, IV-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 02%ga yuqori, V-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha ko‘rsatkichlar teng, VI-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 02%ga yuqori, VII-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 02%ga kam, VIII-variant namunasiga nisbatan bo‘yi bo‘yicha 02%ga yuqoriligi aniqlandi 2-rasm.



1-rasm. Aralash trikotaj to‘qimalarining qaytmas deformatsiya miqdoring o‘zgarishi.



2-rasm. Aralashtri kotaj to‘qimalarining qaytar deformatsiyasi miqdorini o‘zgarishi

Xulosa

1. Taklif etilayotgan aralash trikotaj to‘qimalarining qaytar deformatsiyasi I, IV, VI va VIII-varianlardagi xususiyatlari bu namunalarning shakl saqlash xususiyatining yuqoriligi aniqlandi.
2. Aralash trikotaj to‘qimalarini ustki trikotaj maxsulotlari uchun tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘grisida” gi Prezident Farmonigi (PF-71-son, 01.05.2024 y.) https://kknews.uz
2. Shalov I.I. Kombinirovannыe trikotajnыe perepl-ya. M.: MTI 1971,46s.
3. Torkunova Z.A. Ispытaniya trikotaja. M.: Legkaya indo‘striya, 1975g. –s. 111-115.

YANGI TUZILISHLI ARALASH TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI OLISH USULLARI

Tayanch doktorant S. Saparova,
dots.M. Musayeva, Phd. M.Mirsadikov, prof. M.Mukimov

Annotatsiya: *Maqolada yangi tuzilishli aralash trikotaj to‘qimalarini olish usullarini ishlab chiqarish texnologiyasi yoritilgan.*

Аннотация*: В статье освещена технология производства методов получения комбинированных трикотажных полотен новой структуры.*

Abstract: *The article presents the production technology for methods of obtaining combined knitted fabrics with a new structure.*

Jahon tajribasida xomashyo sarfini kamaytirish, trikotaj to‘qimalari turlarini kengaytirish, trikotaj ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etib bormoqda[1]. Bu borada: trikotaj to‘quv mashinalarining texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, mashinaning ish unumdorligini oshirish, naqsh hosil qilish imkoniyatlarini kengaytirish, trikotaj mashina-mexanizmlari va ishchi a’zolarining konstruksiyasiga o‘zgartirish kiritish va takomillashtirish, trikotaj tuzilishiga qo‘shimcha elementlar kiritib, xususiyatlari va sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilash kabi yo‘nalishlarda maqsadli ilmiy izlanishlarni amalga oshirish mazkur sohani rivojlantirishda muhim axamiyatga ega.

Bir qator tadqiqod ishlarida PAN va paxta iplaridan foydalanib texnologik ko‘rsatkichlar, fizik-mexanik xususiyatlari yaxshilangan aralash trikotaj to‘qimalarni yangi tuzilishi va olish usullarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan[2-8].

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “To‘qimachilik texnologiyasi”kafedra laboratoriyasida yangi tuzilishli aralash trikotaj to‘qima namunasi yassi ignadonli “LONG-XING” LXA-252 rusumli mashinasida, PAN 31x2teks ipidan ishlab chiqarildi.

To‘qima grafik yozuvi 1-rasm a da, tuzilishi 1-rasm b da va 2-rasmda trikotaj mashina ignadonlarida to‘qima namunasining olish usuli ko‘rsatildi.

Rasm 1, a, da keltirilgan aralash trikotaj to‘qima namunasining grafik yozuvida I- qatori oldi va orqa ignadonlarda ikki igna oralab lastik, II-qator oldi ignadonda ikki igna oralab to‘liqmas glad va III- qator orqa ignadonda ikki igna oralab to‘liqmas glad qatorlaridan tashkil topganligini ko‘rsatilgan.

Rasm 1, b da, trikotaj to‘qima namuna tuzilishining birinchi qatori ikki igna oralab lastik 1, ikkinchi qator ikki igna oralab glad 2 oldi qatori va uchinchi qator ikki igna oralab glad 3 orqa katorilaridan iborat aralash to‘qima namunasi hosil etilgan.



a B

1-rasm. Aralash trikotaj to‘qimasining grafik yozuvi va to‘qima tuzilishi

Aralash trikotaj to‘qima namunasi yassi ignadonli “LONG-XING” LXA-252 rusumli mashinasida quyidagicha hosil qilinadi.

Yassi ignadonli trikotaj mashinasi shunday programmalashtirilganki, halqa hosil qilish tizimi chapdan o‘ng tomonga xarakatlanishi natijasida oldi va orqa ignadon ignalari ikki igna oralab to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tarilib to‘liqmas lastik 1 qatori to‘qib olinadi.Birinchi tizim oldi va orqa to‘liqmas lastik qatorini tashkil etadi. Mashinaning ikkinchi halqa hosil qilish tizimida oldi ignadonning ikki igna oralab to‘liqmas glad 2 oldi halqa qatori va halqa hosil qilish tizimining o‘ngdan chapga xarakati davomida orqa ignadon ikki igna oralab to‘liqmas glad 3 qatori to‘qib olinadi. Bir qator to‘liqmas lastik, bir qator to‘liqmas oldi glad va bir qator to‘liqmas orqa glad qatorlaridan shu tarzda aralash trikotaj to‘qima namunasi yassi ignadonli trikotaj mashinasida hosil etiladi 2-rasm.



2-rasm. Aralash trikotaj namunasining mashina ignadonlarida halqa qatorlarini hosil qilish jarayoni.

`Xulosa. Yassi ignadonli mashinalarda aralash trikotaj to‘qima namunasini ishlab chiqarish trikotaj assortimentlarini kengaytirish, sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, xomashyo sarfini kamaytirish, fizik – mexanik xususiyatlarini yaxshilash va iste’molchi talabini qondirilishiga erishiladi.

Taklif etilgan yangi tuzilishli aralash trikotaj to‘qimaqini ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

4. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-71-son, 01.05.2024 y.) https://kknews.uz
5. Kudryavin L.A. Kombinirovanniye perepleteniya, M., MTI, 1971g.
6. Texnologiya trikotaja.I.I.Shalov, A.S.Dalidovich, Kudryavin.-M: Legprombitizdat, 1986.-376 s.
7. Mirsadikov M.M, Muqimov M, Xoliqov Q. v.b. Technology of obtaining combined interlock jersey. In Volume 4, Issue 3 of the “European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS)”, March, 2023.
8. Mirsadikov M.M, Gulyayeva G.X., Mukimov M.M. Hosilali lastik asosida olingan aralash to‘qimasi. № FAP 01252.03.11.2015.

ARALASH TRIKOTAJ TO‘QIMALARINI ISHLAB CHIQARISH TEXNOLOGIYASI

Tayanch doktorant S. Saparova,
dots.M. Musayeva,PhD. M.Mirsadikov, prof. M.Mukimov

Annotatsia: *Maqolada yangi tuzilishli aralash trikotaj to‘qimalarini olish usullarini ishlab chiqish texnologiyasi yoritilgan.*

Аннотация*: В статье освещается технология разработки способов получения комбинированных трикотажных полотен новой структуры.*

Abstract*: This article examines the technology for developing methods for producing new-structure combined knitted fabrics.*

Respublikada keng turdagi sifatli to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uning ishlab chiqarilishini mahalliylashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadirlar amalga oshirilmoqda[1].

Respublikamizda va chet elda xomashyo sarfini tejab yangi to‘qima turlarini yaratish ustida bir qator olimlar ilmiy ishlar olib bormoqdalar[2-6].

Ilmiy tadqiqot ishida, trikotaj to‘qimalari assotimentini kengaytirish,

iste’molchi talablarini qondirish maqsadida yangi tuzilishli aralash trikotaj namunasi yassi ignadonli “LONG-XING” LXA-252 rusumli mashinasida, PAN 31x2teks ipidan ishlab chiqarildi va taklif etildi.

Aralash trikotaj namunasining grafik yozuvi, to‘qima tuzilishi rasm 1, a,b da va trikotaj mashinasida halqa qatorlarini hosil qilish jarayoni rasm 2da keltirildi.



a b

rasm 1. Aralash trikotaj namunasining grafik yozuvi va tuzilishi

Rasm 1,a da grafik yozuvning birinchi qatori oldi ignadondagi 1, 6chi ignalar to‘liq halqalardan, orqa ignadon 3^1, 8^1 chi ignalari halqalardan I iborat bo‘lib, bir qator to‘liqmas lastik to‘qimasini, ikkinchi qator oldi ignadon 2, 3, 4, 5 chi ignalarida igna oralab to‘liqmas glad II to‘qimasini va uchinchi qator orqa ignadon 1^1,2^1,4^1,5^1,6^1,7^1,9^1 chi ignalari to‘liqmas glad III to‘qimasidan II-variant aralash trikotaj to‘qima namunasini shaklantirgan.

Yangi tuzilishli aralash trikotaj to‘qimasining tuzilishi rasm 1,b da keltirilgan. To‘liqmas lastik 1 to‘qimasi, to‘liqmas glad 2 to‘qimasi va to‘liqmas glad 3 to‘qimalaridan tashkil topgan II-variant aralash trikotaj namuna tuzilishi hosil qilindi.

Yassi ignadonli trikotaj mashinasida, yangi tuzilishli aralash trikotaj namunasini ishlab chiqarish jarayoni ko‘rsatilgan 2-rasmda, halqa qatorlarini hosil qilish jarayoni mashinada shunday programmalashtirilganki, unda halqa qatorlarini hosil qilishi uchun mashina tizimi chapdan o‘ng tomonga harakatlanishi natijasida, oldi ignadon 3,8,13,18chi ignalari to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tarilishi va orqa ignadon 6^1, 11^1, 16^1, 21^1 ignalari to‘liq tugallash jarayoniga ko‘tarilib, to‘liqmas lastik qatorini to‘qish imkoniyatiga ega. Mashinaning ikkinchi tizimida oldi ignadonning 19, 20, 21, 22 chi ignalari to‘liqmas glad va mashina tizimining o‘ngdan chapga harakatlanishi davomida orqa ignadon ignalari to‘liqmas glad qatorini to‘qish imkoniyatini beradi.

Shu tariqa 3 qatorli raportga ega bo‘lgan yangi tuzilishli aralash trikotaj to‘qimasining II-varianti namunasi to‘qib olinadi.

Ikkinchi variant namunasini yassi ignadonli trikotaj mashinasining imkoniyatlaridan keng foydalangan holda ishlab chiqarilishi, trikotaj to‘qimalari assotimentini kengaytirishga va iste’molchi talablarini qondirishga xizmat qiladi.



2-rasm. Aralash trikotaj namunasining mashina ignadonlarida halqa qatorlarini hosil qilish jarayoni

Xulosa

Yassi ignadonli mashinalarda aralash trikotaj to‘qima namunasini ishlab chiqarish, trikotaj assortimentlarini kengaytirish, sifat ko‘rsatkichlarini oshirish, xomashyo sarfini kamaytirish, fizik – mexanik xususiyatlarini yaxshilash va iste’molchi talabini qondirilishiga erishiladi.

Taklif etilgan yangi tuzilishli aralash trikotaj to‘qimasini ustki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarishga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni (PF-71-son, 01.05.2024 y.) https://kknews.uz

3. Kudryavin L.A. Kombinirovanniye perepleteniya, M., MTI, 1971g.

4. Texnologiya trikotaja.I.I.Shalov, A.S.Dalidovich, Kudryavin.-M: Legprombitizdat, 1986.-376 s.

5. Patent № 2163649 (Rossiya), MPK^{7}D 04 B 1/00. Dvuxsloyniy trikotaj. Zinovyeva V.A., Lichak T.V. Zayavl. 04.05.2000. Opubl. 27.02.2001.

6. Patent RU №2228978. MKI D04V 1/00 Trikotaj kombinirovannogo perepleteniya na baze proizvodnogo lastika. Zinovyeva V.A, Popova M.A. Opubl. 20.05.2004, Byul. №3.

7. Mirsadiqov M.M., Gulyayeva G.X., Mukimov M.M. Texnologiya virabotki novogo kombinirovannogo trikotaja. “Sovremennaya pedagogika i obrazovaniye: problemi, vozmojnosti i perspektivi razvitiya”: Sbornik materialov Mejdunarodnogo nauchno-prakticheskogo konferensii, Taraz, 13-14 maya 2016.

ISHLAB CHIQARISHDA ERGONOMIK TALABLARNI JORIY ETISH ORQALI MEHNAT XAVFSIZLIGINI OSHIRISH VA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI TA'MINLASH

t.f.f.d.(PhD), katta o'qituvchi N.B.Muqimov,
talaba S.Mengishova
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ishlab chiqarish korxonalarida ergonomik talablarni joriy etish mehnat xavfsizligini ta'minlash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Ushbu maqolada to'qimachilik sanoati korxonalari misolida ergonomik baholash usullari qo'llanilgan holda ishchi joylaridagi noqulayliklar tahlil etilgan va ergonomik talablarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy samarasi ko'rsatilgan.*

Аннотация. *Внедрение эргономических требований на производственных предприятиях является важным фактором обеспечения безопасности труда и повышения производительности. В данной статье на примере предприятий текстильной промышленности проведён анализ неудобств на рабочих местах с применением методов эргономической оценки и показан социально-экономический эффект от внедрения эргономических требований.*

Abstract. *The introduction of ergonomic requirements at manufacturing enterprises is an important factor in ensuring occupational safety and increasing production efficiency. This article analyzes workplace discomforts using ergonomic assessment methods on the example of textile industry enterprises and demonstrates the socio-economic effect of implementing ergonomic requirements.*

Zamonaviy ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash va ishchi salomatligi mas'alasi faqat qonuniy majburiyat emas, balki korxona raqobatbardoshligining muhim shartidir. Jahon mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yiliga 374 milliondan ortiq ish o'rni jarohati ro'yxatga olinadi va ularning katta qismi profilaktika choralari o'z vaqtida ko'rilmaganlik sababli yuzaga keladi[6]. Ergonomika — insonning mehnat muhitiga yoki mehnat muhitining insonga moslashtirilishi ilmi — bu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynaydi.[5]

To'qimachilik sanoati O'zbekiston iqtisodiyotida strategik ahamiyat kasb etadi: sohada 400 mingdan ziyod kishi band bo'lib, yillik eksport hajmi 1,7 milliard dollardan oshadi[10]. Biroq tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari — uzoq muddatli statik turish holati, monoton harakatlar, shovqin va vibratsiya — ishchilarni mushak-skelet kasalliklari va boshqa kasb kasalliklariga moyil qiladi. O'tkazilgan so'rovnoma natijalari bo'yicha to'quv sexlari ishchilarining 58 foizi bel og'rig'idan, 47 foizi yelka-bo'yin mintaqasi og'rig'idan shikoyat qilishi bu muammoning dolzarbligini tasdiqlaydi[9].

Ergonomik xatarlarni ilmiy asosda aniqlash uchun ishchi joyida maxsus ergonomik baholash usullari qo'llaniladi. Ushbu usullar ishchining ish vaqtidagi tana holati, qo'l va yelka yuklanishi hamda ko'tariladigan og'irlik darajasini kuzatish va o'lchash orqali baholaydi.Natijalar 1 dan 15 gacha bo'lgan ball tizimida ifodalanib, ball qanchalik yuqori bo'lsa, xatar shunchalik katta hisoblanadi va muhandislik-texnik aralashuv zarurligi belgilanadi. To'quv sexlarida o'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ishchilarning 67-73 foizi ish vaqtida yuqori darajali xatar zonasida ishlaydi[5].

Ishchi joylarining tana o'lchovlariga (antropometrik ma'lumotlarga) mosligini tahlil qilish ham juda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston aholisining o'rtacha bo'yi erkaklar uchun 172 sm, ayollar uchun 160 sm ni tashkil etsa-da, ko'pgina korxonalarda to'quv dastgohlarining ish yuzasi balandligi me'yoriy chegaradan farq qiladi[10].SanPiN 0323-11 talablariga muvofiq ish yuzasi balandligi turgan holda ishlashda ishchi bo'yining 95-110 foizi oralig'ida bo'lishi lozim[4].Ushbu talabga rioya etilmasa, yelka va bilak mushaklariga ortiqcha yuklanish yuzaga kelib, kasb kasalliklari rivojlanishi tezlashadi.

Ergonomik baholash usullari yordamida muammolar aniqlanganidan so'ng ularni bartaraf etishda uch bosqichli kompleks yondashuv samarali hisoblanadi[5].Birinchi bosqich — muhandislik-texnik yechimlar: to'g'rilanadigan ish yuzalarini o'rnatish, anti-fatigue gilamlar qo'llash, yoritgichlarni SanPiN me'yorlariga (300-500 lux) muvofiqlashtirish[4] va shovqin izolyatsiyasini ta'minlash. Ikkinchi bosqich — tashkiliy-boshqaruv tadbirlari: ishchilar rotatsiyasi, ergonomik me'yorlarga asoslangan dam olish jadvallari va doimiy monitoring tizimi. Uchinchi bosqich — ta'lim va malaka oshirish: ergonomik xatarlarni o'z vaqtida aniqlash va to'g'ri mehnat holatlarini shakllantirish bo'yicha muntazam treninglar o'tkazish.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ergonomik modernizatsiyaga sarflangan har 1 yevroning qaytimi 2,2-4,8 yevro oralig'ida bo'ladi. O'zbekiston sharoitidagi hisob-kitoblar bir to'quv sexini ergonomik rekonstruksiya qilish uchun zarur bo'lgan 150-200 million so'm investitsiyaning 2-3 yil ichida to'lib ketishini va ishlab chiqarish unumdorligining 15-25 foizga oshishini ko'rsatmoqda.[10] Bundan tashqari, kasallik va jarohatlanish sababli yo'qolgan ish vaqtining 30-40 foizga kamayishi korxona iqtisodiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ISO 45001:2018 xalqaro standarti[2] (O'zbekistonda O'z DSt ISO 45001:2020 sifatida qabul qilingan[3]) mehnatni muhofaza qilish tizimini "Rejalashtir — Bajar — Tekshir — Takomillashdir" tsikli asosida qurishni talab etadi. Ushbu standart doirasida korxonalar xatarlarni oldindan boshqarish, doimiy takomillashtirish va ishchilar ishtirokini ta'minlash orqali mehnat xavfsizligi ko'rsatkichlarini tizimli yaxshilay oladi. Amaldagi me'yoriy bazaga — "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi Qonun (2022), SanPiN 0323-11[4]va tegishli

standartlarga — to'liq rioya etish bilan birga ISO 45001 talablarini joriy etish o'zbekistonlik to'qimachilik korxonalari uchun raqobatbardoshlikni oshirishning strategik yo'nalishi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ergonomik talablarni tizimli joriy etish to'qimachilik sanoatida mehnat xavfsizligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning ilmiy asoslangan yo'lidir[8]. Ishchi joylarida ergonomik baholash usullarini muntazam qo'llash, muhandislik-texnik va tashkiliy tadbirlarni kompleks amalga oshirish hamda xalqaro standartlar talablariga muvofiq boshqaruv tizimini shakllantirish — bu uch yo'nalishni birgalikda qo'llash ishchi salomatligi va korxona iqtisodiy samaradorligini bir vaqtda ta'minlaydi[2]. Davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish va ergonomika sertifikatsiyasiga rag'batlantirish choralari ushbu jarayonni yanada tezlashtirishi mumkin[1].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2022.
2. ISO 45001:2018. Occupational health and safety management systems — Requirements with guidance for use. — Geneva: ISO, 2018.
3. O'z DSt ISO 45001:2020. Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik menejmenti tizimlari. — Toshkent: O'zstandart, 2020.
4. SanPiN 0323-11. Ishlab chiqarish ob'ektlarini loyihalash, qurish va rekonstruksiya qilishning sanitariya normalari va qoidalari. — Toshkent, 2011.
5. Ergonomik baholash usullari bo'yicha uslubiy qo'llanma. — Toshkent: Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, 2020.
6. Jahon mehnat tashkiloti. Mehnat xavfsizligi va sog'liqni saqlash: barqaror oldini olish yo'nalishi. — Jeneva: JMT, 2021.
7. Bundesministerium fur Arbeit und Soziales. Sicherheit und Gesundheit bei der Arbeit. — Berlin: BMAS, 2022.
8. Karimov S.H., Toshmatov B.A. Ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi va ergonomika asoslari. — Toshkent: Fan, 2019.
9. Kuorinka I. va boshq. Mushak-skelet alomatlarini tahlil qilishning standartlashtirilgan so'rovnomalari // Applied Ergonomics. — 1987. — Vol. 18, No. 3. — B. 233-237.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. To'qimachilik va to'quv sanoati bo'yicha yillik hisobot. — Toshkent, 2023.

ISHLAB CHIQARISHDA SHOVQIN VA VIBRATSIYANING ISHCHI SALOMATLIGIGA TA'SIRI VA ULARDAN HIMOYA CHORALARI

t.f.f.d.(PhD), katta o'qituvchi N.B.Muqimov,
talaba S.Mengishova
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ishlab chiqarish korxonalarida, xususan, to'qimachilik sanoatida shovqin va vibratsiyaning ishchilar salomatligiga zararli ta'siri ilmiy asosda tahlil etilgan. Amaldagi me'yoriy talablar, fiziologik oqibatlar va himoya choralarining samaradorligi ko'rib chiqilgan. Shovqin va vibratsiya darajasini kamaytirish bo'yicha muhandislik-texnik hamda tashkiliy yechimlar tavsiya etilgan.*

Аннотация. *В данной статье научно обоснован анализ вредного воздействия шума и вибрации на здоровье работников на производственных предприятиях, в частности в текстильной промышленности. Рассмотрены действующие нормативные требования, физиологические последствия и эффективность защитных мер. Предложены инженерно-технические и организационные решения по снижению уровня шума и вибрации.*

Abstract. *This article scientifically analyzes the harmful effects of noise and vibration on workers' health in manufacturing enterprises, particularly in the textile industry. Current regulatory requirements, physiological consequences, and the effectiveness of protective measures are examined. Engineering, technical, and organizational solutions for reducing noise and vibration levels are recommended.*

Ishlab chiqarish korxonalarida zararli jismoniy omillar orasida shovqin va vibratsiya alohida o'rin tutadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha 1,1 milliarddan ortiq kishi ish o'rnidagi haddan tashqari shovqin ta'siridan eshitish qobiliyatini yo'qotish xavfi ostida turibdi.[7] To'qimachilik sanoatida esa bu muammo ayniqsa keskin: to'quv dastgohlari, ip yigirish mashinalari va gazlama bo'yash uskunalari birgalikda 80-110 dB darajasida shovqin hosil qiladi, bu esa me'yoriy chegaradan (80 dB) sezilarli darajada yuqori.[4]

Shovqinning inson organizmiga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, faqat eshitish a'zolari bilan cheklanmaydi. Uzoq muddatli shovqin ta'sirida ishchilar eshitish qobiliyatining asta-sekin pasayishi (professional karlik), bosh og'rig'i, arterial bosimning ko'tarilishi, uyqu buzilishi va asab tizimining holdan toyishi kabi muammolarga duch keladi.[6] O'tkazilgan tibbiy tekshiruvlar natijalari to'qimachilik sexlarida 10 yildan ortiq ishlagan ishchilarning 34-42 foizida

eshitish qobiliyati me'yordan past ekanligini ko'rsatgan.[9] Bundan tashqari, ortiqcha shovqin muhitida ishlovchilarning mehnat unumdorligi o'rtacha 15-20 foizga, diqqat-e'tibor darajasi esa 30 foizga pasayishi ilmiy jihatdan isbotlangan.[6]

Vibratsiya — ishlab chiqarishdagi ikkinchi muhim zararli jismoniy omil bo'lib, u tana orqali tarqaladigan mexanik tebranishlardan iborat. Umumiy vibratsiya (butun tanaga ta'sir etuvchi) va mahalliy vibratsiya (qo'l-panjaga ta'sir etuvchi) deb ikki turga bo'linadi.[5] To'qimachilik sanoatida asosan to'quv dastgohlari yuzasidan tarqaladigan umumiy vibratsiya kuzatiladi. Uzoq muddatli vibratsiya ta'sirida qo'l-panja qon aylanishining buzilishi (Raynaud sindromi), umurtqa pog'onasi kasalliklari (osteoxondroz, grij) va bo'g'im kasalliklari rivojlanishi kuzatiladi.[5]

O'zbekiston Respublikasida shovqin va vibratsiya darajasiga qo'yiladigan me'yoriy talablar SanPiN 0323-11 hamda tegishli GOST standartlari bilan belgilangan. Ushbu me'yorlarga ko'ra, ishlab chiqarish binolarida ruxsat etilgan shovqin darajasi 80 dB (A) dan oshmasligi, mahalliy vibratsiya uchun esa 126 dB dan oshmasligi lozim.[4] ISO 9612:2009 standarti ish o'rnidagi shovqinni o'lchash va baholashning xalqaro metodologiyasini belgilab, korxonalarga aniq o'lchov usullarini taqdim etadi.[3] Ammo ko'pgina o'zbekistonlik to'qimachilik korxonalarida o'lchov uskunalari eskirgan yoki umuman yo'q, bu esa me'yorlar bajarilishini nazorat qilishni qiyinlashtiradi.[10]

Shovqin va vibratsiyadan himoya qilishda muhandislik-texnik choralar eng samarali yo'nalish hisoblanadi, chunki ular zararli omilni manbaida kamaytiradi. Birinchi navbatda, eskirgan to'quv dastgohlarini zamonaviy, past shovqinli analoglar bilan almashtirish yoki mavjud uskunalarga vibroizolyatsiya tagliklarini o'rnatish tavsiya etiladi.[8] Ikkinchi chora — sex binolariga akustik qoplamalar (tovushni yutuvchi panellar, maxsus shiplar) o'rnatish orqali shovqinni 10-15 dB ga kamaytirish mumkin.[8] Uchinchi muhim chora — uskunalarni texnik xizmat ko'rsatish jadvalini qat'iy bajarish: yog'lanmagan yoki eskirgan qismlar shovqin darajasini 5-8 dB ga oshirib yuborishi aniqlangan.[6]

Muhandislik choralariga qo'shimcha ravishda shaxsiy himoya vositalari (SHV) va tashkiliy tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shovqin darajasi 85 dB dan oshganda ishchilar maxsus quloq himoyachilari (antifon yoki quloqqa tiqiladigan tiqinlar) ishlatishi shart.[1] Tashkiliy choralar orasida eng samarali usul — ishchilarni rotatsiya qilish, ya'ni yuqori shovqinli zonada ishlash vaqtini cheklash hisoblanadi. Tibbiy me'yorlarga ko'ra, 95-100 dB li muhitda ishchi ketma-ket 2 soatdan ko'p ishlamasligi kerak.[4] Bundan tashqari, yangi ishga qabul qilingan xodimlar uchun majburiy audiometrik tekshiruv va har yili davriy tibbiy ko'rik o'tkazish zarur.[1]

Shovqin va vibratsiyadan himoya qilish bo'yicha tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblash shuni ko'rsatadiki, himoya choralariga yo'naltirilgan

investitsiyalar qisqa muddatda o'zini qoplaydi. Germaniya sug'urta kompaniyalari tadqiqotiga ko'ra, kasb kasalliklari (xususan, professional karlik) bilan bog'liq davolash va nogironlik nafaqalari xarajatlari himoya choralarini joriy etishdan 4-7 marta qimmatga tushadi.[7] O'zbekistonda to'quv sexi uchun akustik himoya va vibroizolyatsiya tizimlarini o'rnatish o'rtacha 80-120 million so'mga tushib, 1,5-2 yil ichida ishdan qolish va davolash xarajatlarini kamaytirish hisobiga to'liq qoplanadi.[10]

Xulosa qilib aytganda, ishlab chiqarish korxonalarida, xususan, to'qimachilik sanoatida shovqin va vibratsiya ishchilar salomatligiga jiddiy zarar yetkazuvchi omillar sifatida alohida e'tiborni talab etadi.[6] Muhandislik-texnik yechimlar, shaxsiy himoya vositalari va tashkiliy tadbirlarni kompleks qo'llash, shuningdek, SanPiN 0323-11 va ISO 9612 talablarini qat'iy bajarish[3][4] orqali shovqin va vibratsiya darajasini me'yoriy chegaraga tushirish va ishchilar salomatligini himoya qilish mumkin. Davlat nazorati kuchaytirilishi va korxonalarga rag'batlantirish choralari ko'rilishi bu jarayonni yanada tezlashtiradi.[1]

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Mehnat muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2022.
2. O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni. — Toshkent, 2015.
3. ISO 9612:2009. Acoustics — Determination of occupational noise exposure — Engineering method. — Geneva: ISO, 2009.
4. SanPiN 0323-11. Ishlab chiqarish ob'ektlarini loyihalash, qurish va rekonstruksiya qilishning sanitariya normalari va qoidalari. — Toshkent, 2011.
5. GOST 31192.1-2004. Vibratsiyanin o'lchash va baholash. Ishchi joylarida vibratsiya ta'sirini baholash. — Moskva: Standartinform, 2004.
6. Berglund B., Lindvall T., Schwela D.H. Shovqin bo'yicha yo'riqnomalar. — Jeneva: JSST, 1999.
7. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti. Ish o'rnidagi shovqin va eshitish yo'qotilishi. — Jeneva: JSST, 2021.
8. Karimov S.H., Toshmatov B.A. Ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi va ergonomika asoslari. — Toshkent: Fan, 2019.
9. Azimov R.A. To'qimachilik korxonalarida kasb kasalliklarining oldini olish. — Toshkent: Tibbiyot, 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sanoat tarmoqlari bo'yicha mehnat sharoitlari hisoboti. — Toshkent, 2023.

BOSUVCHI VALIKLARNING REZINA QOPLAMASI EYILISHINI KAMAYTIRISH VA ISHLASH MUDDATINI UZAYTIRISH USULLARI

magistr. M.Xaydarova
t.f.n. E.A.Narmatov**,**
assistant. M.A.Allamov,

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda piliklash mashinalari chizuvchi asbobining bosuvchi valiklarida rezina qoplamaning eyilish muammosi o'rganilgan. An'anaviy mexanik qirg'ich usullarining rezina yuzasiga salbiy ta'siri kontakt mexanikasi va tola yopishish dinamikasi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.*

Аннотация. *В данном исследовании изучается проблема износа резинового покрытия на прижимных валиках чертёжного инструмента ровингомотальных машин. Негативное воздействие традиционных механических скребковых методов на резиновую поверхность проанализировано с точки зрения контактной механики и динамики адгезии волокна.*

Abstract. *This study examines the problem of rubber coating wear on the pressure rollers of the drawing instrument in roving machines. The negative effects of conventional mechanical scraper methods on the rubber surface are analyzed from the perspective of contact mechanics and fiber adhesion dynamics.*

Yigiruv ishlab chiqarishida piliklash jarayoni mahsulot sifatini belgilovchi hal qiluvchi texnologik bo'g'in hisoblanadi. Chizuvchi asbobning bosuvchi valiklari elastik rezina qoplama bilan ta'minlangan bo'lib, ular tola oqimini ishonchli ushlab turish va cho'zish funksiyasini bajaradi. Biroq, ish jarayonida valik yuzasiga mayda tola bo'laklari (lint) va chang yopishishi natijasida ishqalanish koeffitsienti o'zgaradi, bu esa ipning notekisligiga olib keladi [1].

Mavjud mexanik qirg'ichlar nafaqat tolalarni, balki rezina qatlamini ham abraziv tarzda yeb yuboradi. Bu hol valiklarning tez-tez almashtirilishiga (har 8-10 oyda bir), ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga va pilik sifatining pasayishiga olib keladi. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida yumshoq va selektiv tozalovchi vosita sifatida «lipuchka» materiali asosidagi tizim taklif etilgan [2].

Bosuvchi valikning metall silindrga qisilish zonasi Hertz kontakt nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Elastik qoplamaning kontakt yarim kengligi a quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$a = \sqrt{\frac{4PR'}{\pi E^* L}} \qquad (1)$$

Bu yerda: P – yuklama (N); R' – keltirilgan radius (m); E* – keltirilgan elastiklik moduli (Pa); L – valik uzunligi (m). Kontakt zonasidagi yuqori bosim

va qirg'ichning mexanik ta'siri birgalikda rezina yuzasining jadal abraziv eyilishini keltirib chiqaradi.
Keltirilgan elastiklik moduli quyidagicha aniqlanadi:

$$E^* = \left(\frac{1-\nu_1^2}{E_1} + \frac{1-\nu_2^2}{E_2}\right)^{-1} \quad (2)$$

Bu yerda E_1, E_2 – mos ravishda rezina va metall uchun elastiklik modullari; ν_1, ν_2 – Puasson koeffitsientlari.

Tola bo'laklarining rezina yuzasiga yopishishi uchta asosiy mexanizm: Van-der-Vaals tortishish kuchlari, elektrostatik zaryadlar va mikrog'adir-budurliklardagi mexanik ilmoqlanish orqali sodir bo'ladi [3]. Valik yuzasidagi ifloslanish massasining (M) vaqt bo'yicha o'zgarishi quyidagi differensial tenglama ko'rinishida ifodalanadi:

$$dM/dt = k^1 \cdot v \cdot c - k^2 \cdot F(t) \cdot M \quad (3)$$

Bu yerda: k_1 – yopishish koeffitsienti; v – valik chiziqli tezligi; c – havoda tola kontsentratsiyasi; k_2 – tozalash intensivligi; F(t) – tozalovchi moslamaning samaradorlik funksiyasi. Lipuchka uchun F(t) ≈ 0,976 = const bo'ladi.

Eyilishni kamaytirish maqsadida an'anaviy qattiq metall qirg'ichlar o'rniga Nylon materialidan tayyorlangan, ilmoq zichligi 300–350 dona/sm² bo'lgan «lipuchka» tasmasi qo'llaniladi. Moslamaning asosiy elementlari:

• Lipuchka tasmasi: valik yuzasiga 0,10–0,18 N/mm kontakt kuchi bilan tegib turadi va tolalarni mexanik abraziyasiz olib tashlaydi.

• Karetaj mexanizmi: tasmani valik o'qi bo'ylab parallel holda ushlab turadi va tekis tozalanishni ta'minlaydi.

• Bosim sozlagichi: kontakt kuchini optimal darajada (minimal eyilishni ta'minlash uchun 0,12–0,15 N/mm) ushlab turadi.

Taklif etilayotgan tizimning asosiy afzalligi shundaki, lipuchka ilmoqlari rezina yuzasidagi tolalarni o'ziga "tortib" oladi, lekin rezinaga abraziv ta'sir ko'rsatmaydi. Bu an'anaviy mexanik qirg'ichlardan tubdan farq qiladi.

Mexanik qirg'ich usulida rezina qoplamasining oylik eyilishi o'rtacha 0,18 mm ni tashkil etgan. Lipuchka usulida bu ko'rsatkich 0,04 mm gacha kamaydi – ya'ni 4,5 marta past. Ushbu o'zgarish valikning ishlash muddatini 8–10 oydan 36–40 oygacha uzaytirish imkonini berdi.

Tozalash samaradorligi 71,3% dan 97,6% ga ko'tarildi. Natijada pilik sifati ko'rsatkichlari ham sezilarli yaxshilandi: CV% notekisligi 4,21 dan 2,87 gacha tushdi, ip uzilishlari soni 3,7 marta kamaydi.

1-jadval.

Qiyosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	Mexanik qirg'ich	Lipuchka usuli	O'zgarish
Oylik eyilish, mm	0,18	0,04	4,5 marta
CV% notekisligi	4,21	2,87	1,47 marta
Neps (+200%), dona/km	68,4	29,1	2,35 marta
Tozalash samaradorligi, %	71,3	97,6	+26,3%
Ip uzilishlari (8 soat)	12,4	3,4	3,7 marta

Xulosa. Bosuvchi valiklarning an'anaviy mexanik tozalash usullari rezina qoplamaning jadal eyilishiga va mahsulot sifatining pasayishiga sabab bo'ladi – oylik eyilish 0,18 mm ni tashkil etadi. Lipuchka (velcro) materialidan tayyorlangan passiv tozalash tizimi abraziv ta'sirni keskin kamaytirib, rezina qoplamaning eyilishini 0,04 mm/oy darajasida ushlab turadi. Tozalash samaradorligining 97,6% ga etishi pilik CV% ko'rsatkichini va neps miqdorini standart talablariga muvofiq darajaga tushiradi, bu esa tayyor mahsulot raqobatbardoshligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirzayev A.A. To'qimachilik mashinalari va uskunalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 312 b.
2. Qodirov S.R., Tursunov X.N. Valik yuzasidagi tola iflosliklarining dinamik modeli. // To'qimachilik va yengil sanoat. – 2023. – №1. – B. 34–41.
3. Lawrence C.A. Fundamentals of Spun Yarn Technology. – CRC Press, 2003. – 540 p.

ПРИМЕНЕНИЕ УЛЬТРАЗВУКА ДЛЯ НАТЯЖЕНИЯ НИТИ В ПРОЦЕССЕ ШИТЬЯ

Доцент, к.т.н., Бутовский П.М.
Докторант Палнавазирова Н.А.
Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tikuv jarayonida ip tarangligini nazorat qilish uchun ultratovush texnologiyasini qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan. Ultratovush tebranishlarining tikish sifatiga va ip chidamliligiga ta'siri tahlil qilingan. Taklif etilayotgan qurilma ip tarangligini barqarorlashtirish imkonini beradi.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются вопросы применения ультразвуковых технологий для управления натяжением нити*

в процессе шитья. Проведён анализ влияния ультразвуковых колебаний на качество строчки и износостойкость нити. Предлагаемое устройство обеспечивает стабилизацию натяжения нити в широком диапазоне режимов.

Abstract. *This article examines the application of ultrasonic technologies for thread tension control in the sewing process. The influence of ultrasonic vibrations on stitch quality and thread durability is analyzed. The proposed device ensures stable thread tension across a wide range of operating conditions.*

Введение. Натяжение нити является одним из ключевых параметров, определяющих качество швейной строчки. Нестабильное натяжение приводит к обрыву нитей, пропуску стежков, деформации шва и ухудшению внешнего вида готового изделия [1]. Традиционные механические натяжители нити обладают существенными недостатками: высоким износом контактных поверхностей, зависимостью характеристик от вида нити и ткани, сложностью тонкой регулировки в условиях высокоскоростного шитья.

В последние годы активно исследуются альтернативные методы управления натяжением нити, среди которых особый интерес представляет применение ультразвука. Ультразвуковые колебания позволяют значительно снизить коэффициент трения нити о рабочие органы машины, обеспечивая стабильное и плавно регулируемое натяжение без механического износа [2].

Ультразвук — это механические колебания с частотой свыше 20 кГц. При воздействии ультразвуковых колебаний на нить в контактной зоне возникает явление акустической смазки: микровибрации поверхности снижают реальную площадь контакта между нитью и направляющими элементами. Это приводит к снижению коэффициента трения μ на 30–60% в зависимости от материала нити и режима ультразвуковой обработки [3].

Физическая модель взаимодействия нити с ультразвуковым излучателем описывается уравнением Эйлера для гибкой нити на цилиндрической направляющей:

$$T_2 = T_1 \cdot e^{(\mu \cdot \alpha)}$$

где T_1 и T_2 — натяжение нити на входе и выходе контактной зоны, Н; μ — коэффициент трения; α — угол охвата нитью направляющего элемента, рад. При ультразвуковом воздействии эффективное значение μ снижается, что позволяет поддерживать отношение T_2/T_1 вблизи единицы, обеспечивая равномерное натяжение по всей длине нитеводящего тракта.

Предлагаемая система управления натяжением нити включает пьезоэлектрический преобразователь, работающий на частоте 40 кГц, акустический концентратор-волновод и микроконтроллерный блок управления на базе ESP32. Пьезопреобразователь возбуждает продольные

механические колебания волновода, рабочая поверхность которого одновременно служит направляющей для нити.

Основные технические характеристики системы: рабочая частота — 40 кГц; амплитуда колебаний рабочей поверхности — 5–15 мкм; потребляемая мощность — не более 15 Вт; диапазон регулирования натяжения нити — 0,5–50 сН. Блок управления осуществляет непрерывный мониторинг натяжения нити посредством тензодатчика и корректирует амплитуду ультразвуковых колебаний по алгоритму ПИД-регулирования [4].

Пьезоэлектрический преобразователь изготовлен из пьезокерамики ЦТС-19, что обеспечивает высокую механическую добротность и стабильность характеристик в условиях вибрационных нагрузок швейного производства. Волновод выполнен из алюминиевого сплава Д16Т с нитридтитановым покрытием рабочей поверхности для повышения износостойкости.

Экспериментальные исследования проводились на швейной машине 1022М класса с использованием нитей трёх видов: хлопчатобумажных (Ne 40), полиэфирных (167 дтекс) и армированных (35ЛЛ). Скорость шитья варьировалась в диапазоне 1500–4500 мин$^{-1}$. Измерялись: коэффициент вариации натяжения нити CV (%), число обрывов нити на 100 000 стежков, относительное удлинение нити в строчке.

Результаты экспериментов показали, что применение ультразвукового натяжителя снижает коэффициент вариации натяжения с 18–22% (при механическом натяжителе) до 4–8%, что соответствует требованиям высококачественного шитья согласно стандарту ISO 4915. Число обрывов нити сократилось в 2,5–3 раза при всех исследованных видах нитей. При этом установлено, что оптимальная амплитуда колебаний для хлопчатобумажной нити составляет 8–10 мкм, для синтетических нитей — 5–7 мкм [5].

Дополнительно зафиксировано снижение температуры нагрева нити в зоне иглы на 12–18%, что связано с уменьшением сил трения в нитеводящем тракте. Данный эффект благоприятно сказывается на прочности синтетических нитей, склонных к термодеструкции при высоких скоростях шитья.

Заключение. Применение ультразвука для управления натяжением нити в процессе шитья является перспективным направлением технического совершенствования швейного оборудования. Разработанная система обеспечивает стабильное натяжение в широком диапазоне скоростей и видов нитей, снижает обрывность и температурный нагрев нити. Дальнейшие исследования целесообразно направить на оптимизацию геометрии волновода и разработку адаптивных алгоритмов управления с

применением методов машинного обучения для автоматической настройки параметров под конкретный вид нити и ткани.

Список использованной литературы:

[1] Midha V.K., Mukhopadhyay A. Thread tension in sewing // International Journal of Clothing Science and Technology. — 2005. — Vol. 17, No. 2. — P. 130–141.

[2] Astashev V.K., Babitsky V.I. Ultrasonic Processes and Machines. — Springer, 2007. — 425 p.

[3] Siegert K., Ulmer J. Superimposing ultrasonic waves on the dies in tube and wire drawing // Journal of Engineering Materials and Technology. — 2001. — Vol. 123. — P. 517–523.

[4] Pugi L. et al. Design and testing of an adaptive tension control system for sewing machines // Mechatronics. — 2014. — Vol. 24, No. 8. — P. 1135–1146.

[5] Tangsirinaruenart O., Stylios G. A review of yarn tension sensing technologies for textile manufacturing // Sensors. — 2019. — Vol. 19, No. 16. — P. 3604.

ATMOSFERA HAVOSIGA CHIQARILADIGAN ZARARLI TASHLANMALAR VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI

Dotsent Tuxtabayev S.T., talaba Orazov E.N.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu tezisda paxta sanoati korxonalarida texnologik jarayonlar natijasida atmosfera havosiga chiqariladigan zararli tashlanmalar (chang, gazsimon birikmalar)ning hosil bo‘lish manbalari, ularning fizik-kimyoviy xususiyatlari hamda atrof-muhit va inson salomatligiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

Аннотация: *В данной диссертации проводится научный анализ источников вредных выбросов (пыли, газообразных соединений), попадающих в атмосферу в результате технологических процессов на предприятиях хлопчатобумажной промышленности, их физико-химических свойств, а также их воздействия на окружающую среду и здоровье человека.*

Annotation: *This dissertation provides a scientific analysis of the sources of harmful emissions (dust, gaseous compounds) released into the atmosphere as*

a result of technological processes in cotton industry enterprises, their physical and chemical properties, as well as their impact on the environment and human health.

Paxta sanoatida dastlabki ishlov berish jarayonlari — paxtani quritish, tozalash, tola va chigitga ajratish va transport operatsiyalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular davomida atmosfera havosiga turli xil zararli tashlanmalar ajralib chiqadi. Ushbu tashlanmalar tarkibida asosan dispers chang zarrachalari va gazsimon birikmalar mavjud bo‘lib, ular ishlab chiqarish muhitining sanitariya-gigiyena holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Chang zarrachalari aerodinamik xususiyatlariga ko‘ra turli fraksiyalarga bo‘linadi va ayniqsa 10 mkm dan kichik dispers zarrachalar nafas olish tizimiga chuqur kirib borib, o‘pkaga o‘rnashib qolib kasbiy kasalliklar rivojlanishiga sabab bo‘ladi.

Paxta tozalash va quritish jarayonlarida hosil bo‘ladigan changlarning yuqori konsentratsiyasi ishlab chiqarish hududida hamda tashqi muhitda ekologik yuklamani oshiradi.

Paxtani quritish agregatlarida esa yoqilg‘i yonishi natijasida hosil bo‘ladigan gazsimon mahsulotlar (CO, CO_2, NOx va boshqa birikmalar) atmosfera havosiga chiqariladi. Ushbu jarayonlar ekologik tizimlarga salbiy ta’sir ko‘rsatib, havoning ifloslanish darajasini oshiradi.

Zararli tashlanmalarni kamaytirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida gaz-chang aralashmalarini tozalashning mexanik va fizik usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, siklon qurilmalari, ko‘p pog‘onali filtrlar, aspiratsiya tizimlari va chang tutgich uskunalar keng qo‘llaniladi. Bundan tashqari, texnologik jarayonlarni optimallashtirish, yopiq tizimlardan foydalanish va energiya samarador uskunalarni joriy etish orqali emissiya miqdorini sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

Ishlab chiqarishda ekologik monitoring tizimini joriy etish, ruxsat etilgan maksimal konsentratsiya meyorlariga rioya qilish hamda mehnat muhofazasi talablarini kuchaytirish muhim hisoblanadi. Bu esa atmosfera havosini muhofaza qilish va ishlab chiqarish xavfsizligini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ganiyev T.A. “To’qimachilik sanoatida mehnat muhofazasi”, Darslik, TTESI, Toshkent, 2013 yil.

2. Quliyev T.M., Maksudov E.T., Usmanov S.U. “ Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha qo‘llanma”. “Paxtasanoat ilmiy markazi”, Toshkent, 2019 yil.
3. SanPin №006-93 «O’zbekiston Respublikasi atmosfera havosini muhofaza qilish bo’richa sanitariya meyor va qoidalari».

KO'P DAVRLI CHOZILISH DEFOMATSIYASINI ANIQLASH UCHUN QURILMA (PULSATOR)

D.X. Ubaydullayeva[1], Z.Yunusova[2], J.To’xtamurodova[3]

Annotatsiya. *Maqolada to’qimachilik matolarning ko‘p davrli cho’zilish deformatsiyasini aniqlash asbobining muhim xususiyati - qurilmaning asosini o'lchamlari, sinov ko‘rsatkichlarini avtomatik qayd qilish tizimining mavjudligi, qisqich moslamalarining konstruksiyasi esa namunaning qat’iy vertikal holatini va kuchning uning kengligi bo‘ylab bir xil taqsimlanishining isonchliligi haqidagi ma’lumotlar berilgan.*

Аннотация. *В статье представлена информация о важных особенностях прибора для определения многоцикловой деформации растяжения текстильных тканей: габаритах основания прибора, наличии системы автоматической регистрации параметров испытаний и конструкции зажимных устройств, обеспечивающих строго вертикальное положение образца и равномерное распределение силы по его ширине.*

Abstract: *The article presents information on the important features of a device for determining the multi-cycle tensile strain of textile fabrics: the dimensions of the device base, the presence of a system for automatically recording test parameters, and the design of clamping devices that ensure a strictly vertical position of the sample and uniform distribution of force across its width.*

Ko‘p davrli cho’zilish deformatsiyasi to’qimachilik matolarining charchoq xususiyatlari ya’ni qoldiq deformatsiya miqdori bilan tavsiflanadi, bu esa trikotaj matolarining shakl saqlash xususiyatini tahlil qilish zaruriyatini beradi.

To'qimachilik matolarining deformatsiyon xususyiatlarini o'rganish uchun maxsus pulsator asboblaridan foydalaniladi bularning konstruksiyasi va ishlash uslubi turlicha va olinadigan natijalarning tahlili ham turlichadir.

To'qimachilik matolarining ko’p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlash uchun tavsiya etilayotgan qurilmaning (pulsator) mexanik qismlarning ishonchliligini, o'lchash tizimlarining aniqligini va foydalanish qulayligini bilan ahamiyatga ega.

Qurilmaning asosini o'lchamlari 500 × 300 × 20 mm bo'lgan St45 po'latdan yasalgan massiv plastinka tashkil etadi. Plastinka qattiqlashtiruvchi qovurg'alar bilan jihozlangan, bu butun strukturaning yuqori barqarorligini ta'minlaydi va ish paytida tebranishlarni kamaytiradi. Plita, teshikli o‘yiq tizimiga asoslangan qurilma komponentlari uchun o'rnatish joylarini ta'minlaydi. Ushbu tayanch tizimi qismlarning nisbiy joylashuvining aniqligini kafolatlaydi va qismlarni o'rnatishda qulaylik beradi. Qurilma 0,25 kVt quvvatga ega doimiy elektr dvigatel tomonidan boshqariladi, u aylanish harakatini remenli uzatgich orqali uzatadi. Bu uzatma boshqaruvchi shkivdan, tasma va boshqariladigan shkivdan iborat. Remenli uzatgich dinamik kuchlarni silliq harakatini va samarali namlaydi, bu esa namunalarga davriy kuch berishda juda muhim. Krivoship-shatun mexanizimi tarkibiga kiruvchi krivoship holatini sozlash uchun diskga shkivdan aylanma harakat uzatiladi. Bu mexanizm aylanma harakatni ilgarilanma-qaytma harakat qiluvchi qisqichga o‘rnatilgan namunani davriy cho‘zishini ta’minlaydi. Qattiq po'latdan yasalgan va tayanchlarga o'rnatilgan harakatlanuvchi qismlar harakatining aniqligi yo'riqnomalar tizimi bilan ta'minlanadi. Ishqalanishni minimallashtirish va silliq ishlashni ta'minlash uchun P5 aniqlik sinfidagi chiziqli podshipniklar qo'llaniladi. Harakatlanuvchi konstruksiyalarning to‘g’ri chiziqli harakatida 100 mm uchun 0,02 mm dan ko'p bo'lmagan og'ish bilan harakatning to'g'riligini kafolatlaydi, bu ishonchli sinov natijalarini olish uchun muhim parameter hisoblanadi. Qurilmani loyihalashda tajriba namunalarni o'rnatish tizimiga alohida e'tibor beriladi. U optimal ishqalanish koeffitsientiga ega bo'lgan maxsus materialdan yasalgan. Qisqichlar harakatlanuvchi va mahkam o‘rnatilgan qisqichlarga o'rnatiladi, bu namunani aniq joylashtirish imkonini beradi. Qisqichlarning konstruksiyasii har xil qalinlikdagi (0,5 dan 5 mm gacha) namunalarni shikastlamasdan ishonchli ushlab turishni ta'minlaydi. Sozlash gaykalari va kuch sensori yordamida namunaga dastlabki taranglikni ±0,1 N aniqlik bilan kuchni boshqaradigan rezbali vinti orqali beriladi. Bu tizim dastlabki kuchni 0 dan 50 N oraliqda silliq o‘zgartirish imkonini beradi. Tajriba ko‘rsatkichlarini nazorat qilish o'lchash moslamalari to'plami, jumladan, davriy kuchni, isoblash uchun Hall sensorli datchik, deformatsiya o'lchagich va chiziqli enkoderlar asosidagi siljish sensorlari tomonidan nazorat qilinadi. Barcha ma'lumotlar avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimiga birlashtirilgan ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash tizimi tomonidan qayd etiladi. AT mega 2560 mikroprotsessorida qurilgan ushbu tizim davriy kuch chastotasini ±0,1% aniqlik bilan barqarorlashtirish, harakat amplitudasini nazorat qilish va real vaqt rejimida sinov ko‘rsatkichlarini qayd etishni ta'minlaydi.

Qurilmaning texnik xususiyatlari uning yuqori unumdorligi va ishonchliligini tasdiqlaydi. Maksimal yuk 100 N, harakatlanish amplitudasi diapazoni 0 dan 50 mm gacha. Davriy kuch chastotasi 0,1 dan 5 Gts gacha o'zgarishi mumkin, bu esa qurilmani turli sinov rejimlariga moslashtirish imkonini beradi. Kuchni o'lchash aniqligi mos ravishda ± 0,1 N va uzayish ± 0,01

mm. Qurilma 10^7 davriy bajarishga qodir, bu esa uni uzoq muddatli tadqiqotlar uchun qulay qiladi.

Qurilmaning muhim xususiyati - sinov ko‘rsatkichlarini avtomatik qayd qilish tizimining mavjudligi. Barcha sensorlardan signallar mikroprotsessorni boshqarish blokiga yuboriladi, bunda esa birinchi navbatda qayta ishlanadi va doimiy xotirada saqlanadi. Bu nafaqat real vaqt rejimida sinov jarayonini kuzatish, balki olingan natijalarni keyingi batafsil tahlil qilish imkonini beradi. Sinov jarayoni namunani qisqichlarga o'rnatish bilan boshlanadi, qisqich moslamalarining konstruksiyasi esa namunaning qat’iy vertikal holatini va kuchning uning kengligi bo‘ylab bir xil taqsimlanishini ta'minlaydi. Dastlabki kuchni yaratgandan so‘ng, uning qiymati sinovdan o'tkazilayotgan mato turiga qarab tanlanadi, privod yoqiladi va namunaga boshlang‘ich kuch qo‘yiladi. Kuch berish chastotasi va amplitudasi nazorat qilish tizimi tomonidan yuqori aniqlik bilan ta'minlanadi, bu esa sinov natijalarining takrorlanishini ta'minlaydi.

Sinovlar keng ko‘lamli ko‘rsatkichlarda o'tkazilishi mumkin: kuch berish chastotasi 0,1 dan 5 Gts gacha, deformatsiyaning amplitudasi - 1 dan 50 mm gacha va boshlang’ich kuch berish - 0 dan 50 N gacha. Bunday keng ko‘rsatkichlar diapazoni trikotaj matolarning har xil turlarini o'rganish va ulardan foydalanishning real vaqtinin bilish imkonini beradi. Shu bilan birga, nazorat qilish tizimi sinov jarayonida ko‘rsatkichlarning bir tekisda o'zgarishini ta'minlaydi, bu matolarning charchoq xususiyatlarini (qoldiq deformatsiyasini) o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism plastinadan 1 iborat bo'lib, uning ustiga elektrdvigatel 2 o'rnatilgan bo'lib, aylanma harakatini klinli tasma uzatmaga beradi, shu jumladan 3 va 5 shkivlar, shuningdek klinli-tasma 4dan iborat. Shkiv 5 aylanma harakatni krivoship 6 ni sozlash uchun diskka uzatadi, aylanma harakatni qisqich 12ni ilgarilanma-qaytma harakatga keltiradi. Qisqichlar (harakatlanuvchi 12 va qo'zg'almas 13) chiziqli podshipniklar 14 va 9 tayanchlari yordamida yo'riqnomalar 10 ga o'rnatiladi, bu esa yuqori harakat aniqligini ta'minlaydi va ishqalanishni kamaytiradi (1-rasm).

Mato namunasi 22 ni mahkamlash uchun materialning ishonchli mahkamlanishini ta'minlaydigan va sinov paytida uning sirpanishini oldini oladigan mahkamlagichlar 20 bo'lgan klinli qisqichlari 19 ishlatiladi. Namunaning boshlang’ich kuch 16 va 17 gaykalari bilan vint 18 yordamida amalga oshiriladi. Boshlang’ich kuch miqdori datchik 21 tomonidan nazorat qilinadi, bu esa dastlabki sinov shartlarini aniq belgilash imkonini beradi.

Yuklash davrlarining soni slayder bilan jihozlangan Hall datchigi11 tomonidan nazorat qilinadi, uning holati kerakli chastota amplitudasiga qarab sozlanishi mumkin. Datchikning ushbu konstruksiyasi turli sinov rejimlariga moslashtirish imkoniyatini beradi, bu yaratilgan asbobning muhim afzalligi hisoblanadi.

Yaratilgan tajriba asbobida trikotaj matolarni ko'p davrli cho’zilish deformatsiyasini aniqlash uchun usul yaratildi. Asbobning konstruksiyasi barcha kerakli sinov rejimlarini va ularning parametrlarini nazorat qilishni ta'minlaydi.



1-rasm. a) asbobning chizma sxemasi; b) asbobning tashqi ko’rinishi

Asbobning konstruksiyasi barcha tartibga sozlanadigan elementlariga xizmat ko’rsatish imkoniyatini va eskiradigan detallarni tez almashtirish imkoniyati mavjud. Davriy xizmat ko’rsatish remenning tortilishini tekshirish va tartibga solishni, yo’naltiruvchi va podshipniklarni moylash, o’lchash tizimlarini kalibrlash va joylashtirishning aniqligini tekshirishni o’z ichiga oladi. Sinov natijalarining ishonchliligini ta’minlash uchun asbobning aniqligini nazorat qilish tizimi ishlab chiqildi. U geometrik parametrlarni tekshirishni (harakatlanishning to‘g‘riligi, yo‘naltiruvchilarning parallelligi, uzellarning o’zaro bog’liqligi), kuch parametrlarini nazorat qilishni (tortish sensorini kalibrlash, yuklashning bir tekisligini tekshirish) va dinamik tavsiflarni tahlil qilishni (yuklash chastotasi, tebranish, silliq yurish) o’z ichiga oladi. Ushbu barcha ko’rsatmalar foydalanish jarayonida asbob xususiyatlarining barqarorligini kafolatlaydi.

To‘qimachilik matolarni ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlash uchun takomillashtirilgan pulsator - bu yuqori o'lchov aniqligini (kuchni o'lchash xatosi ±0,1 N, siljish ±0,01 mm) ta’minlaydi, foydalanish qulayligi va natijalar ishonchliligi bilan birga zamonaviy texnologik qurilma bo‘lib, uning konstruksiyasida natijalarning yuqori aniqligi (kuch chastotasini ± 3% ushlab turishdavomiyligi) bilan barcha kerakli sinov rejimlarini amalga oshirishni ta'minlaydi.

Qurilmaning ixcham o‘lchamlari (800×400×350 mm) va og‘irligi 45 kg bo‘lishi uni standart laboratoriya stoliga qo‘yish imkonini beradi, 220 V tarmoqdan quvvat manbai esa turli sharoitlarda foydalanish imkonini beradi. Boshqarish va ma'lumotlarni yig'ish tizimining modulli arxitekturasi qurilmani

materiallarning mexanik xususiyatlarini o'rganishning turli vazifalariga moslash va qo'shimcha sensorlar va o'lchash qurilmalarni ulash orqali uning funksionalligini kengaytirish imkoniyatini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shustov Yu.S. Fundamentals of textile materials science. –M.: OOO “Sovyaj Bevo” 2007.

2. Physical and mechanical properties of new fur knitwear// D.H.Ubaydullaeva, Sh.P.Shumkarova, M.M.Abdurakhimova, I.A.Begmanova Journal Problems of mechanics/1 Tashkent-2022 104-109 pp.

3. Khankhajayeva N.R. Methodology for assessing the elasticity of knitted fabrics // Scientific newsletter of Samarkand State University. – 2019. – No. 4. – P. 60-65.

4. Isabayev A.Ye. New methodological solutions for multi-cycle tensile tests // Innovations in textile and light industry. – 2020. – No. 1. – P. 30-35.

5. D. Kh. Ubaidullayeva, R. A. Begmanov, I. V. Abdurasulov, Z. Djalilova, D. T. Nazarova // Comprehensive Quality Assessment and Forecasting the Properties of Press Weaving Knitting// International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology 2022/1

D. Ubaydullayeva, Sh. Shumkarova, A. Gafurova, R. Begmanov, M. Akhmedova, M. Abdurakimova // Study of the physical properties of footer knitting// ISSN:1624-1940. DOI 10.6084/m9.figshare.2632574. cahiers magellanes-ns. Volume 06 Issue 2024 http://magellanes.com/

7. D.H.Ubaydullayeva., E.T.Laysheva., M.F.Ahmedova., F.A.Makhammadova Evaluation of the strength index of two-layer knitted fabrics by their dispersion. Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture Vol.3,No.12,2024.ISSN:2181-384.
https://jemma.innovascience.uz/index.php/jemma/article/view/688/569

PAXTA G‘ARAMIDA SHAMOLLATISH TUNNELINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

A.A.Raxmonov,
t.f.f.d., prof. M.E.Ruzmetov,
t.f.f.d., dotsent T.O.Tuychiyev.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada paxta buntida shamollatish tunnelini shakllantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Amaldagi texnologiya muammolari tahlil qilinib, paxta buntida shamollatish tunnelini shakllantirish uchun yangi qurilma ishlab chiqilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается вопрос формирования вентиляционного канала в бунте хлопка. Анализируются существующие технологические проблемы и разрабатывается новое устройство для формирования вентиляционного канала в бунте хлопка.*

Annotation. *This article examines the formation of a ventilation channel in a cotton bale. Existing technological challenges are analyzed and a new device for forming a ventilation channel in a cotton bale is developed.*

Hozirgi kunda tunnel hosil qiluvchi uskunalarning yetarli miqdorda ishlab chiqilmaganligi hamda mavjud mexanizmlarning ishlab chiqarish talablariga javob bermaganligi sababli aksariyat paxta tozalash korxonalarida og‘ir qo‘l mexnati orqali tunnel qaziladi. Bunda energiya va resurs ko‘p talab qilishi va butlovchi qismlar bilan ta’minlash masalalaridagi kamchiliklar sababli paxtani g‘aram maydonlariga tekis yoyish, zichlash, taqsimlash va tunnel ochish jarayonlari asosan qo‘lda bajariladi. Shuning uchun qo‘l mehnatini kamaytirish va g‘aramlash jarayonidagi tunnel hosil qilish jarayonini takomillashtirish dolzarb masalalardan biridir[1-2].

Olib birilgan tadqiqotlar asosida paxta g‘aramida havo tunnelini shakllantirish qurilmasi ishlab chiqildi. Ushbu qurilma qolip shaklida bo‘lib, g‘aram maydoniga belgilangan joyga o‘rnatilib, paxta mexanizatsiya vositalari yordamida g‘aramga uzatiladi va yuza bo‘yicha tekis yoyilib zichlanadi. G‘aram to‘la barpo qilingandan keyin, qolipning gabarit o‘lchamlari uzatgich yordamida kichiklashtirilib, uni g‘aramning ichidan traktor yordamida chiqarib olinadi.

Ushbu qolipning harakat uzatuvchi mexanizmlari sodda bo‘lib, ishlash vaqtida buzilib qolish ehtimoli kam va uni amalda qo‘llashda qulayliklar mavjud.

Пневмотранспорт тизимлари ҳам толали чиқиндиларни йиғишда муҳим аҳамиятга эга. Бу тизимларда ҳаво босими ёрдамида чиқиндилар қувурлар орқали ҳаракатлантирилади. Пневмотранспорт тизимлари юқори самарадорликка эга бўлиб, чиқиндиларни қисқа вақт ичида марказлашган йиғиш нуқтасига етказиб бериш имконини беради. Бундай тизимлар ишлаб чиқариш жараёнларининг узлуксизлигини таъминлашда муҳим роль ўйнайди [1].

Толали чиқиндиларни ҳаводан ажратишда циклон қурилмалари кенг қўлланилади. Циклон қурилмаси марказдан қочма куч таъсири асосида ишлайди. Чанг ва толали заррачалар билан аралашган ҳаво циклон ичига тангенциал йўналишда киритилади. Айланма ҳаракат таъсирида оғир заррачалар девор томон ҳаракатланади ва пастки қисмда жойлашган бункерга тушади. Тозаланган ҳаво эса юқори қисми орқали чиқиб кетади. Циклон қурилмаларининг асосий афзалликлари конструкциясининг

соддалиги, ишончлилиги ва хизмат кўрсатиш харажатларининг нисбатан камлиги ҳисобланади. Бироқ, циклон қурилмалари майда дисперсли чанг заррачаларини тўлиқ ушлаб қола олмайди. Шу сабабли ҳавони юқори даражада тозалаш мақсадида қўшимча фильтрлаш тизимларидан фойдаланилади [2]. Пахта саноатида асосан енгли ва матоли фильтрлар қўлланилади. Бунда ҳаво махсус фильтр материаллари орқали ўтказилади ва чанг заррачалари фильтр сиртида ушлаб қолинади. Тозаланган ҳаво эса атмосферага чиқарилади. Замонавий фильтр қурилмаларининг самарадорлиги 95–99 фоизгача етади [5]. Фильтр қурилмаларининг иш самарадорлиги кўп жиҳатдан фильтр материалининг хусусиятларига боғлиқ. Сўнгги йилларда синтетик ва композицион материаллардан тайёрланган фильтрлар кенг қўлланилмоқда. Бундай материаллар юқори мустаҳкамликка, намликка чидамлиликка ва узоқ хизмат қилиш хусусиятига эга. Бу эса фильтр қурилмаларининг эксплуатация харажатларини камайтириш имконини беради.

Толали чиқиндиларни ҳаводан йиғиш технологияларини такомиллаштиришда энергия тежамкор ускуналардан фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Вентиляторлар аспирация тизимининг асосий элементи ҳисобланади ва электр энергиясининг асосий қисми ушбу қурилмалар томонидан сарфланади. Шу сабабли юқори самарали вентиляторлардан фойдаланиш, ҳаво қувурларининг аэродинамик қаршилигини камайтириш ва автоматлаштирилган бошқарув тизимларини жорий этиш орқали энергия сарфини сезиларли даражада қисқартириш мумкин [6].

Ҳозирги вақтда саноат корхоналарида автоматлаштирилган бошқарув тизимларидан кенг фойдаланилмоқда. Бу тизимлар ҳаво босими, ҳаво сарфи ва чанг концентрациясини доимий назорат қилиб туради. Датчиклар ёрдамида олинган маълумотлар асосида тизимнинг ишлаш режими автоматик тарзда бошқарилади. Масалан, чанг миқдори ортиши билан вентилятор қуввати автоматик равишда оширилади. Бу эса ҳавони тозалаш самарадорлигини ошириш билан бирга энергия тежалишини ҳам таъминлайди.Толали чиқиндиларни қайта ишлаш ҳам иқтисодий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга. Йиғиб олинган чиқиндилардан турли техник маҳсулотлар ишлаб чиқариш мумкин. Масалан, толали чиқиндилардан иссиқлик изоляция материаллари, техник матолар, мебель саноати учун тўлдиргич материаллар ва қурилиш маҳсулотлари тайёрланади. Бу эса чиқиндисиз технологияларни жорий этиш ва ишлаб чиқариш самарадорлигини ошириш имконини беради.

Экологик нуқтаи назардан қараганда, толали чиқиндиларни ҳаводан самарали йиғиш атмосфера ҳавосининг ифлосланишини камайтиради [4,7]. Атмосферага чиқариладиган чанг миқдорининг қисқариши аҳоли саломатлигини муҳофаза қилишда муҳим аҳамият касб этади. Шу билан бирга, ишлаб чиқариш биноларида ҳаво муҳитининг яхшиланиши меҳнат

шароитларини қулайлаштиради ва ишчиларнинг меҳнат унумдорлигини оширади. Ривожланган давлатларда ҳавони тозалашнинг кўп босқичли тизимлари кенг қўлланилмоқда [5,7]. Бундай тизимларда циклон, енгли фильтр ва электростатик чанг ушлагичлар биргаликда ишлатилади. Кўп босқичли тозалаш тизими ҳаводаги зарарли заррачаларни деярли тўлиқ ушлаб қолиш имконини беради. Шунингдек, интеллектуал бошқарув тизимлари орқали қурилмаларнинг ишлаш жараёни масофадан туриб назорат қилинади.Пахта саноатида толали чиқиндиларни ҳаводан йиғиш технологияларини янада такомиллаштириш учун илмий тадқиқот ишларини ривожлантириш талаб этилади [1,6]. Янги турдаги фильтр материалларини яратиш, энергия тежамкор вентиляторлар ишлаб чиқиш ва автоматлаштирилган бошқарув тизимларини такомиллаштириш бу соҳадаги асосий йўналишлардан бири ҳисобланади [2,7]. Шу билан бирга, экологик тоза ва чиқиндисиз технологияларни жорий этиш келгусида пахта саноатининг барқарор ривожланишини таъминлайди. Пахта хомашёсини дастлабки қайта ишлаш жараёни мураккаб технологик босқичлардан иборат бўлиб, ушбу жараёнда катта миқдорда чанг ажралиб чиқади. Технологик ва ташиш машиналаридан тарқалаётган чанг ишлаб чиқариш бинолари ҳамда завод ҳудудини ифлослантириб, инсон саломатлиги ва ускуналар ишига салбий таъсир кўрсатади. Шу сабабли пахта тозалаш саноатида чангсизлантириш, ҳавони тозалаш ва санитария-гигиена талабларига риоя қилиш муҳим аҳамиятга эга ҳисобланади. Пахта хомашёсидан ажралиб чиқадиган чанг органик ва минерал фракциялардан ташкил топади. Органик фракцияга пахта бўлаклари, кўсак қобиғининг майдаланган қисмлари ва қисқа толалар кирса, минерал фракция тупроқ, қум ва ташқи аралашмалардан иборат бўлади. Бу аралашмалар пахта йиғим-терими, ташиш ва сақлаш жараёнларида ҳосил бўлади. Технологик жараённинг дастлабки босқичларида, айниқса пахта хомашёсини ташиш ва тозалаш вақтида минерал чанг кўпроқ ажралади, жараённинг охирги босқичларида эса, хусусан линтерлаш ва пресслашда органик чанг миқдори ортиб боради. Пневматик ташиш тизимидан ўтаётган ҳавода 10–20% органик ва 80–90% минерал заррачалар мавжуд бўлса, линтерлардан чиқадиган ишлатилган ҳавода органик чанг миқдори 80–90% гача етади. Пахта тозалаш заводларида технологик ускуналардан ажралиб чиқадиган ҳавонинг чангланиш даражаси пахтанинг нави, намлиги ва ифлосланганлик даражасига боғлиқ бўлади. Паст навли ва ифлос пахтани қайта ишлашда чанг ажралиши энг юқори даражада кузатилади. Тозалаш ускуналарининг аспирация тизимларида ҳаво сарфи 4–6 м³/с бўлиб, ҳавонинг чангланиши 1000–3000 мг/м³ ни ташкил этади. Пахта хомашёсини пневматик ташиш тизимида эса ҳаво сарфи 6 м³/с бўлиб, чангланиш даражаси 3000–6000 мг/м³, айрим ҳолларда эса 12000 мг/м³ гача етади. Толани ва линтани пневматик ташиш тизимларида ҳавонинг чангланиш даражаси 1700–2500 мг/м³

атрофида бўлади. Санитария меъёрларига мувофиқ ишлаб чиқариш хоналари ҳавосидаги чанг миқдори 2–4 мг/м³ дан ошмаслиги лозим. Шу сабабли технологик ускуналарни чангсизлантириш ва ишлатилган ҳавони атмосферага чиқаришдан олдин тозалаш ишлари амалга оширилади. Пахта тозалаш саноатида ҳавони чангдан тозалаш учун асосан марказдан қочма циклонлар, уюрмали чанг тутгичлар ва икки босқичли ҳаво тозалаш қурилмалари қўлланилади. Марказдан қочма чанг тутгичлар — циклонлар қуруқ инерцион типдаги қурилмалар бўлиб, уларда чанг ҳаво оқимининг айланма ҳаракати натижасида ҳосил бўладиган марказдан қочма куч таъсирида ажратилади. Чангли ҳаво циклонга тангенциал йўналишда 14–18 м/с тезлик билан киради ва айланма ҳаракат ҳосил қилади. Марказдан қочма куч таъсирида чанг заррачалари деворларга урилиб пастга тушади, ҳаво оқими эса юқори қисм орқали ташқарига чиқади. Циклонларда ҳаво оқимининг тезлиги пастки қисмида 2,5–3 м/с гача камаяди. Циклонларнинг чанг тутиш самарадорлиги 85–90% ни ташкил этади. Пахта тозалаш саноатида ВЗП туридаги уюрмали чанг тутгичлар ҳам кенг қўлланилади. Бу қурилмалар қарама-қарши уюрмали ҳаво оқимлари асосида ишлайди ва юқори самарадорликка эга. ВЗП-800 ва ВЗП-1200 қурилмаларининг ҳаво бўйича унумдорлиги мос равишда 10800 м³/соат ва 21600 м³/соатни ташкил этади. Уларнинг чанг тутиш самарадорлиги 93–98% гача етади. Қурилмаларда чанг марказдан қочма куч таъсирида деворларга ажралиб, бункерга тушади ва шлюзли затвор орқали чиқариб турилади. ВЗП-М3 модификацияланган чанг тутгичида ҳаво оқимининг спиральсимон ҳаракати такомиллаштирилган бўлиб, бу қурилманинг самарадорлигини янада оширади. Хом пахта пневмотранспорт тизимининг ишлатилган ҳавосини тозалаш учун икки босқичли циклонли қурилмалар ҳам ишлатилади. Бундай қурилмаларда биринчи босқичда циклон, иккинчи босқичда эса ВЗП-М3 чанг тутгич қўлланилади. Ушбу тизимларда ҳаво бўйича унумдорлик 6 м³/с ни ташкил этиб, чанг тутиш самарадорлиги 96–98% гача етади. Шунингдек, икки босқичли “циклон–чанг камераси” қурилмалари ҳам қўлланилади. Бу тизимда биринчи босқич вазифасини циклон бажаради, иккинчи босқичда эса сув пуркаладиган чанг камераси ишлатилади. Чанг камерасида ҳаво ҳаракати тезлиги 0,8 м/с дан ошмаслиги керак. Камерада сув пуркаш натижасида ҳаводаги майда чанг заррачалари оғирлашиб пастга чўкади. Бундай қурилмаларнинг умумий самарадорлиги 94% ни ташкил этади.

Пахта тозалаш заводларида технологик ускуналарни чангсизлантириш учун маҳаллий аспирация тизимлари қўлланилади. Барча чанг ажратувчи машиналар санитария талабларига мувофиқ ҳаво сўриб олиш тизимлари билан таъминланиши шарт. Пневмотранспорт тизимларида ҳаво ҳаракати тезлиги тозалаш цехларида 20 м/с дан, бошқа цехларда эса 18 м/с дан кам бўлмаслиги лозим. Қуритгичлар, жинлар, линтерлар,

элеваторлар ва конвейерларда маҳаллий аспирация тизимлари қўлланилади. Масалан, СБТ ва 2СБ-10 қуритгичларида ишлатилган қуритиш агентини 6 м³/с миқдорида аспирация қилиш орқали чангсизлантириш амалга оширилади. Винтли тозалагичларда ҳаво сарфи 1,0 м³/с ни ташкил этади. ДВ ва ДВ-1М жинларида эса машина бошига 0,2 м³/с аспирацион ҳаво сарфи талаб этилади.Технологик ускуналарни герметизация қилиш ҳам чанг тарқалишини камайтиришда муҳим аҳамиятга эга. Қуритгич барабанларини иссиққа чидамли резина билан зичлаш, конвейерларни қопқоқ билан жиҳозлаш, жин ва линтер камераларини герметизация қилиш каби чора-тадбирлар ишчи зонага чанг тарқалишини камайтиради. Бундан ташқари, ишлаб чиқариш хоналарида вентиляция ва ҳавони намлаш тизимлари қўлланилади. ВУУ-40М ва ВУУ-60М вентиляция-намлаш қурилмалари қишда ҳавони иситиш, ёзда эса кондиционер вазифасини бажаради. Ушбу қурилмалар ишлаб чиқариш хоналаридаги ҳарорат, намлик ва ҳаво ҳаракати тезлигини санитария-гигиена меъёрлари даражасида ушлаб туриш имконини беради.

Шундай қилиб, пахта тозалаш заводларида чанг ҳосил бўлиши технологик жараённинг ажралмас қисми ҳисобланади. Чангнинг инсон саломатлиги, технологик ускуналар ва атроф-муҳитга салбий таъсирини камайтириш учун юқори самарали циклонлар, уюрмали чанг тутгичлар, икки босқичли ҳаво тозалаш қурилмалари, аспирация тизимлари ва вентиляция-намлаш қурилмаларидан комплекс фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга.Толали чиқиндиларни ҳаводан йиғиш технологиясини такомиллаштириш экологик ва иқтисодий жиҳатдан муҳим аҳамиятга эга. Замонавий аспирация тизимлари, циклон ва фильтр қурилмаларини қўллаш орқали ҳавони юқори самарадорлик билан тозалаш мумкин. Бу эса ишлаб чиқариш биноларида санитария-гигиена ҳолатини яхшилайди, меҳнат шароитларини қулайлаштиради ва атроф-муҳит муҳофазасини таъминлайди. Келгусида инновацион ва автоматлаштирилган технологияларни янада ривожлантириш орқали пахта саноати корхоналарида экологик хавфсизлик ва иқтисодий самарадорликни янада ошириш мумкин бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Турсунов Ш.Т., Юлдашев А.С. “Пневмотранспорт тизимларининг назарий асослари”. – Тошкент: ТДТУ нашриёти, 2019. – 184 б.
2. Алиев Р.А. “Циклон ва фильтр қурилмаларининг самарадорлигини ошириш усуллари” // “Инновацион технологиялар” журнали. – 2022. – №3. – Б. 45–52.
3. Смирнов Е.И. “Пылеулавливающие устройства и системы аспирации”. – Санкт-Петербург: Химия, 2019. – 198 с.

4. Иванов В.П. “Очистка воздуха на промышленных предприятиях”. – Москва: Машиностроение, 2018. – 240 с.
5. Gupta R., Sharma P. “Air Filtration Technologies in Textile Industry”. – New Delhi: Springer, 2020. – 275 p.
6. Ахмедов С.А. “Энергия тежамкор вентиляция тизимлари”. – Тошкент: Фан ва технология, 2023. – 167 б.
7. Wang L. “Industrial Dust Collection and Air Pollution Control”. – London: Elsevier, 2021. – 310 p.

ОПРЕДЕЛЕНИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ОСТАТОЧНЫХ НАПРЯЖЕНИЙ ПО СТРУКТУРНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ПРИ АЛМАЗНОМ ВЫГЛАЖИВАНИИ ЦАПФ ВАЛОВ ПИЛЬНОГО ЦИЛИНДРА

Ходжаева Маргарита Юрьевна, старший преподаватель
Шин Илларион Георгиевич, д.т.н, профессор

***Annotatsiya**. The article examines the use of reserved deformation energy as a parameter for evaluating the residual stress state of the surface layer of parts. Dependencies were obtained to determine the specific energy during the contact interaction of the tool with the part. A calculation of the intensity of residual stresses during diamond smoothing was performed. An increase in fatigue strength is demonstrated by reducing the concentration of stresses.*

***Аннотация**. В статье рассматривается использование запасённой энергии деформации как параметра оценки остаточного напряжённого состояния поверхностного слоя деталей. Получены зависимости для определения удельной энергии при контактном взаимодействии инструмента с деталью. Выполнен расчёт интенсивности остаточных напряжений при алмазном выглаживании. Показано повышение усталостной прочности за счёт снижения концентрации напряжений.*

***Abstract.** The article examines the use of reserved deformation energy as a parameter for evaluating the residual stress state of the surface layer of parts. Dependencies were obtained to determine the specific energy during the contact interaction of the tool with the part. A calculation of the intensity of residual stresses during diamond smoothing was performed. An increase in fatigue strength is demonstrated by reducing the concentration of stresses*

Уровень скрытой (запасенной) энергии деформации U_S,представляющей энергию искажений кристалличекой решетки металла, является живым информационным и интегральным параметром для оценки остаточного напряженного состояния в поверхностном слое деталей машин [1,2].

На базе структурно-энергетической модели [3,4] получены соотношения, позволяющие определить удельную запасенную энергию $\Delta U_g^C = U_S$из анализа термодинамики контактного взаимодействия инструмента с деталью, элементов теории дислокаций и диаграммы деформирования обрабатываемого материала.

При расчете ΔU_g^C были использованы зависимости для удельной энергии (работы) деформации, определяемой с помощью компонент тензора напряжений в функции от координат рассматриваемых слоёв деформируемого металла.

Результирующим параметром аналитического исследования напряженного состояния при отделочно-упрочняющей обработке обкатыванием шариком и выглаживанием ответственных деталей рабочих органов технологических машин механизмов является интенсивность нормальных напряжений σ_i. Она рассчитана для вида нагружения, соответствующего распределённой нагрузке по «полушару», пропорциональная ординатам сферической поверхности и приложенная по площади круга на границе полубесконечного тела с наибольшим давлением

$$P_0 = \frac{3}{2} \cdot \frac{P}{\pi a^2}\ , \text{Н/мм}^2$$

где P_0 – давление в центре круговой площадки;

P –сила сосредоточения;

а - радиус полусферы

Вследствие осевой симметрии напряженного состояния в случае круговой площадки контакта имеем $\sigma_x = \sigma_y$, которые представляют собой главные напряжения $\sigma_x = \sigma_y = \sigma_2 = \sigma_3$, а $\sigma_1 = \sigma_Z$.

Расчет интенсивности остаточных напряжений выполнен по модифицированной формуле Фриделя

$$\sigma_{i\text{ост}} = \frac{1}{1+\mu}\sqrt{\frac{E}{2}} \cdot \sqrt{U_S}\ , \text{Н/мм}^2$$

где μ – коэффециент Пуассона;

Е – модуль упругости обрабатываемого материала;

Материал вала пильного цилиндра волокноочистительной машины - низкоуглеродистая сталь (Ст.20) в нормализованном состоянии со следующими характеристиками: предел прочности $\sigma_B = 380 - 460$ МПа, предел текучести $\sigma_{0,2} = 230 - 280$ МПа, твердость НВ 113-135.

Выглаживание проводим индентором из синтетического алмаза типа АСПК (алмаз синтетический поликристаллический типа карбонадо) с

радиусом сферы $R_1 = 1{,}5 - 3$мм, усилие P=50-250 Н, подача S=0,05 мм/об. Обработку осуществляли при числе рабочих ходов $n_{\text{р.х}} = 1$ с применением в качестве СОЖ индустриального масла *И*-20А. Диаметр цапфы вала 55 мм. Окружная скорость детали V= 50-100 м/мин

При уровне удельной запасенной энергии $U_S = 0{,}00527D$ж/мм^3 интенсивность остаточных напряжений

$$\sigma_{i\text{ост}} = \frac{1}{1+\mu}\sqrt{\frac{E}{2}}\cdot\sqrt{U_S} = \frac{1}{1+0{,}25}\cdot\sqrt{\frac{2\cdot 10^5}{2}}\cdot\sqrt{5{,}27} = 581\text{Н/мм}^2$$

Таким образом, алмазное выглаживание опорных участков вала диаметром 55 мм пильного цилиндра создает интенсивность остаточных напряжений $\sigma_{ijcn} = 581$ Н/мм^2, находящихся в диапазоне $|\sigma_{1\text{ост}}| < 581 < |\sigma_{2\text{ост}}|$.

Сжимающие остаточные напряжения особенно полезны для участков вала с концентраторами напряжений. В данном случае это переходный участок с резьбовой части вала (М100 с шагом 3 мм) на посадочное место шарикоподшипника диаметром 55 мм. Упрочняющая технология в виде алмазного выглаживания опорных участков вала, снижая концентрацию напряжений, увеличиваеи усталостную прочность за счет формирования в поверхностном слое благоприятных сжимающих остаточных напряжений.

Литература

1. Старков В.К. Дислокационные представления о резании металлов.-М: Машиностроение,1979.-160 с.
2. Седов Л.И. Механика сплошной среды. В 2-х т.-М.: Наука, 1983-536 с.
3. Шин И.Г., Максудов Р.Х., Муминов М.Р.,Шодмонкулов З.А. Дислокационная модель формирования технологических остаточных напряжений в деталях машин и оценка их интенсивности // Вестник машиностроения.-Москва, 2014, № 9.-с.30-35.
4. I.G. Shin and R.Kh. Maksudov. Depth of the Shot-Hardened Surface Layer on Machine Parts// Russian Engineering Research.-USA,2011,vol.31, №0.4,p.p 338-341
5. Ходжаева М.Ю., Шин И.Г. Поверхностно-пластическое деформирование опорных участков вала технологических машин -Т: ТИТЛП, 2025год, с.208-210.
6. Ходжаева М.Ю., Шин И.Г. Анализ силовых соотношений при алмазном выглаживании деталей машин-Т : ТИТЛП, 2025г.,с.399-401.

TABIIY IPAK TANDA IPLARINING ISHQALANISH XUSUSIYATLARINI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TADQIQ ETISH VA EKOLOGIK JIHATLARI

YSM kafedrasi dotsenti Oripov Jasurbek Ikromjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti
YSM kafedrasi proffesori Valiyev Gulam Nabijonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tabiiy ipak tanda iplarining ishqalanish jarayonidagi mexanik xususiyatlari, ularning strukturaviy o‘zgarishlari hamda turli buram va qatlam konfiguratsiyalarining chidamlilikka ta’siri o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida iplarning parchalanish, tugun hosil bo‘lishi va uzilish jarayonlari tahlil qilinib, innovatsion buram texnologiyalarining samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, tabiiy ipak materiallarining ekologik afzalliklari yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье изучаются механические свойства нитей основы из натурального шелка при трении, их структурные изменения, а также влияние различных конфигураций кручения и слоев на прочность. На основе результатов исследования анализируются процессы обрыва нити, образования узлов и разрыва, а также обосновывается эффективность инновационных технологий основы. Подчеркиваются также экологические преимущества материалов из натурального шелка.*

Abstract: *This article studies the mechanical properties of natural silk warp yarns during friction, their structural changes, and the effect of different twist and layer configurations on durability. Based on the research results, the processes of yarn breakage, knot formation, and breakage are analyzed, and the effectiveness of innovative warp technologies is substantiated. The environmental advantages of natural silk materials are also highlighted.*

To‘qimachilik sanoatida tanda iplar ishlab chiqarish va foydalanish jarayonida ko‘p martalik ishqalanishga uchraydi. Bu jarayon iplarning fizik-mexanik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va ularning tuzilishida murakkab o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi [1], [6].

Laboratoriya sharoitida olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, ishqalanish jarayonida iplar dastlab elementar tolalarga ajraladi, keyinchalik ular uziladi, tugun hosil qiladi va yakunda ip to‘liq uziladi [2], [7]. Bu jarayon ipning ichki tuzilishi va buram darajasiga bog‘liq holda turlicha kechadi.

3.1-jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, oddiy bir qavat tabiiy ipak iplar 457 siklda uzilgan bo‘lsa, to‘rt qavatli buramsiz iplar 805 siklgacha bardosh bergan [3]. Bu esa ip qatlamlari sonining ortishi bilan ishqalanishga chidamlilik oshishini ko‘rsatadi [8].

Oddiy buram berilgan ikki qavatli iplarda uzilish 510–628 sikl oralig‘ida kuzatilgan bo‘lsa, to‘rt qavatli buramli iplarda bu ko‘rsatkich 836–1011 siklgacha yetgan [3], [9]. Eng yuqori natijalar murakkab buramli iplarda aniqlanib, ular 1105 siklgacha ishqalanishga bardosh bergan [4].

Parchalanishga chidamlilik ko‘rsatkichlari ham ip strukturasiga bog‘liq. Ikki qavatli iplarda o‘rtacha 306 sikl, to‘rt qavatli iplarda 366 sikl, murakkab buramli iplarda esa 593 sikl kuzatilgan [3]. Bu natijalar ipning ichki strukturasi qanchalik murakkab bo‘lsa, uning mexanik mustahkamligi shunchalik yuqori bo‘lishini tasdiqlaydi [10].

Tugun hosil bo‘lish jarayonlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, oddiy iplarda tugunlar 366–626 sikllarda hosil bo‘ladi. Biroq murakkab buramli iplarda tugun hosil bo‘lishi kuzatilmagan, bu esa ipning yaxlitligi uzoq vaqt saqlanishini ko‘rsatadi [5], [11].

Innovatsion texnologiya sifatida ikki bosqichli murakkab buram berish usuli iplarning ichki bog‘lanishini mustahkamlab, ishqalanish jarayonida tolalarning ajralishini kamaytiradi. Bu esa iplarning uzoq muddat xizmat qilishini ta’minlaydi [4], [12].

Ekologik nuqtai nazardan, tabiiy ipak iplarining asosiy afzalligi ularning tabiiy kelib chiqishi va biologik parchalanish xususiyatiga ega ekanligidadir. Shuningdek, yuqori chidamlilikka ega iplar ishlab chiqarishda resurs tejamkorligini ta’minlaydi va chiqindilarni kamaytiradi [6], [13].

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkinki, tabiiy ipak tanda iplarining ishqalanishga chidamliligi ularning strukturasi, buram darajasi va qatlamlar soniga bevosita bog‘liq. Eng samarali natijalar murakkab buramli ko‘p qavatli iplar uchun aniqlangan.

Bunday iplar yuqori mexanik mustahkamlikka ega bo‘lib, tugun hosil qilmasligi va uzoq muddat xizmat qilishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, ular ekologik jihatdan ham afzal bo‘lib, barqaror to‘qimachilik ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Textile Materials and Their Properties. Woodhead Publishing, 2010.
2. Hearle J.W.S. Fibre Structure and Behaviour. Woodhead Publishing, 2001.
3. Morton W.E., Hearle J.W.S. Physical Properties of Textile Fibres. 2008.
4. Saville B.P. Physical Testing of Textiles. 1999.
5. Gong R.H. Specialist Yarn and Fabric Structures. 2011.
6. Goswami B.C. Textile Yarns: Technology, Structure and Applications. 2014.
7. Lawrence C.A. Fundamentals of Spun Yarn Technology. 2003.
8. Blackburn R.S. Sustainable Textiles. Woodhead Publishing, 2009.

TABIIY IPAK TANDA IPLARINING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARINI TADQIQI

YSM kafedrasi dotsenti Oripov Jasurbek Ikromjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat texnika universiteti
YSM kafedrasi proffesori Valiyev Gulam Nabijonovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tabiiy ipak tanda iplarining fizik-mexanik xususiyatlari innovatsion texnologiyalar asosida tahlil qilinadi. Ip tuzilishi va qayta ishlash jarayonlarining sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri o‘rganiladi.*

Аннотация: *В данной статье анализируются физико-механические свойства нитей основы из натурального шелка, полученных с использованием инновационных технологий. Изучается влияние структуры нити и технологических процессов на показатели качества.*

Abstract: *This article analyzes the physical and mechanical properties of natural silk warp yarns based on innovative technologies. The influence of yarn structure and processing processes on quality indicators is studied.*

Tabiiy ipak tanda iplarining fizik-mexanik xususiyatlarini tadqiq etish to‘qimachilik sanoatida yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ipak iplarining qayta o‘rash, juftlash va pishitish jarayonlari ularning mustahkamligi va deformatsiyaga chidamliligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [1].

Krepp gazlamalar ishlab chiqarishda xom ipak, oddiy buramli va kam buramli iplar keng qo‘llaniladi. So‘nggi yillarda innovatsion texnologiyalar asosida kam buramli iplarni qo‘llash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishilmoqda [2].

Laboratoriya tadqiqotlari Statimat-S jihozida olib borilib, 2,33 tex × 2 va 2,33 tex × 4 iplar hamda turli buram darajasidagi namunalar sinovdan o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra, buram ortishi ipning uzilish kuchini sezilarli oshiradi.

Uzilish kuchi ko‘rsatkichlari

1-jadval.

№	Вариантлар (Намуналар)	Узилиш кучи, сН	Ўртача квадратик оғиш, сН	Оғиш коэффициенти, %	Ишонарли хатолик	
					Абсолют, сН	Нисбий, %
Хом ипак						
1	2,33	77,17	8,13	10,53	2,30	2,98
Пишитилмаган иплар						
1	2,33x2	121,32	14,22	11,72	4,02	3,31
2	2,33x4	256,32	33,45	13,05	9,46	3,69

Икки қават оддий пишитилган иплар						
1	(2,33x2)Z100	124,36	17,78	14,30	5,03	4,04
2	(2,33x2)Z200	126,03	21,16	16,79	5,98	4,74
3	(2,33x2)Z300	141,98	10,18	7,17	2,88	2,03
4	(2,33x2)Z400	146,43	14,43	9,85	4,08	2,79
5	(2,33x2)Z500	126,87	13,39	10,56	3,79	2,99
6	(2,33x2)Z600	113,50	11,38	10,02	3,22	2,84
Тўрт қават оддий пишитилган иплар						
1	(2,33x4)Z100	295,14	13,13	4,45	3,71	1,26
2	(2,33x4)Z200	286,46	14,79	5,16	4,18	1,46
3	(2,33x4)Z300	305,70	15,81	5,17	4,47	1,46
4	(2,33x4)Z400	293,06	15,05	5,14	4,26	1,45
5	(2,33x4)Z500	289,84	11,81	4,08	3,34	1,15
6	(2,33x4)Z600	281,11	12,10	4,30	3,42	1,22

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, to‘rt qavatli iplarning mustahkamligi eng yuqori bo‘lib, xom ipakka nisbatan bir necha baravar yuqoridir [3].





Diagrammalar tahlili

Tajriba natijalariga ko‘ra:

- Uzilish kuchi buram ortishi bilan oshadi
- Cho‘zilish ko‘rsatkichlari esa barqarorlashadi
- Og‘ish koeffitsienti kamayadi

Bu bog‘liqliklar 2.3–2.6-rasmlarda ifodalangan bo‘lib, ular ip tuzilishining mexanik barqarorlikka ta’sirini yaqqol ko‘rsatadi [4].

Cho‘zilish natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, buram berish jarayoni iplarning deformatsiyaga chidamliligini yaxshilaydi [2].

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqotlar innovatsion texnologiyalar asosida qayta ishlangan ipak iplarining fizik-mexanik xususiyatlari sezilarli darajada yaxshilanishini tasdiqlaydi. Bu esa to‘qimachilik sanoatida sifat va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Xulosa

Tabiiy ipak tanda iplarining fizik-mexanik xususiyatlari ularni qayta ishlash texnologiyasiga bevosita bog‘liq. Buram berish va qavatlash jarayonlari iplarning mustahkamligini oshiradi, cho‘zilishini barqarorlashtiradi hamda umumiy sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. ТТЕСИ “CENTEXUZ” laboratoriya ma’lumotlari.
2. To‘qimachilik iplarini qayta ishlash texnologiyalari bo‘yicha ilmiy ishlar.
3. Ipak iplarining fizik-mexanik xususiyatlari tadqiqotlari.
4. To‘qimachilik sanoatida innovatsion texnologiyalar qo‘llanilishi.

PAXTANING QUVURDA XARAKATI DAVOMIDA XOLATI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI KUCHLAR

Xakimov Sherqul Sherg‘oziyevich, t.f.d.,professor
Shoraxmedova Mamura Damirovna, PhD dotsent
Qodiraliyeva Madina, M1-25 magistratura talabasi

Annotatsiya*. Paxta xom ashyosining pnevmatik tashish jarayonida quvur ichida harakatlanishi, uning holati hamda unga ta’sir etuvchi asosiy kuchlar tahlil qilingan. Paxta zarrachalarining havodagi harakati aerodinamika qonunlari asosida o‘rganilib, laminar va turbulent rejimlarning xususiyatlari yoritilgan. Paxtaning fizik-mexanik xossalari, jumladan zichligi, shakli va namligining harakat jarayoniga ta’siri ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, pnevmatik tashish tizimida qo‘llaniladigan ventilyatorlar, quvur tizimlari va separatorlarning ishlash prinsipi bayon etilgan. Aerodinamik qarshilik kuchining paxta zarrachalari harakatidagi roli asoslab berilgan.*

Аннотация. *Проанализировано движение хлопкового сырья в трубопроводе при пневматической транспортировке, а также его*

состояние и основные силы, воздействующие на него. Движение частиц хлопка в воздушной среде рассмотрено на основе законов аэродинамики, описаны особенности ламинарного и турбулентного режимов. Рассмотрено влияние физико-механических свойств хлопка, таких как плотность, форма и влажность, на процесс его перемещения. Также изложены принципы работы вентиляторов, трубопроводных систем и сепараторов, применяемых при пневматической транспортировке.

Annotation. *The movement of raw cotton inside a pipeline during pneumatic conveying, as well as its condition and the main forces acting on it, are analyzed. The motion of cotton particles in air is studied based on aerodynamic principles, and the characteristics of laminar and turbulent flow regimes are described. The influence of physical and mechanical properties of cotton, such as density, shape, and moisture content, on its movement is considered.*
In addition, the operating principles of fans, pipeline systems, and separators used in pneumatic conveying are presented. The role of aerodynamic drag force in the movement of cotton particles is substantiated.

Paxta xomashyosining havodagi harakati pnevmatik tashish jarayonining asosiy qismlaridan biri bo‘lib, u havo oqimi yordamida tolali materialni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon aerodinamika qonunlariga asoslanadi va unda paxta zarralariga havo tomonidan ta’sir etuvchi kuchlar muhim rol o‘ynaydi. Havo oqimi paxta bo‘laklarini harakatga keltiradi, natijada ular quvurlar orqali gorizontal yoki vertikal yo‘nalishda siljiydi. Paxtaning o‘rtacha zichligi 50–120 kg/m³ atrofida bo‘lib, uning yengil va tolali tuzilishi havoda oson harakatlanishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, paxta zarrachalari notekis shaklga ega bo‘lgani sababli aerodinamik qarshilik koeffitsienti yuqori bo‘ladi. Bu esa ularning havo oqimida muallaq holda ushlanib turishiga yordam beradi.

Paxtaning havodagi harakati turbulent va laminar rejimlarda sodir bo‘ladi. Turbulent rejimida paxta katlamlari kuvur kesimida o‘z joylarini almashtirib turadi va xaotik xarakatiga yakun bo’ladi. Laminar rejimda esa paxta qatlami quvur yo’nalishiga paralel ravishda bo’ladi .Ikkala holatda ham paxta zarrachalari havo oqimida muallaq holatda harakatlanadi. Sirpanish rejimida esa zarrachalar quvur devori bo‘ylab harakatlanadi, bu odatda past tezliklarda kuzatiladi. Turbulent va laminar rejimida esa yuqori tezlik ta’sirida paxta zarrachalari quvur devorlariga uriladi, bu esa tola va chigitning shikastlanishiga olib kelishi mumkin.Jarayonni nazariy jihatdan tahlil qilishda Stoks qonuni va boshqa aerodinamik tenglamalardan foydalaniladi. Paxtaning havoda ko‘tarilishi uchun havo oqimi tomonidan hosil qilinadigan qarshilik kuchi uning og‘irlik kuchidan

katta yoki teng bo‘lishi kerak. Shu asosda minimal havo tezligi aniqlanadi. Amaliyotda paxtani pnevmatik tashish maxsus qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Bular qatoriga ventilyatorlar, quvur tizimlari va separator kiradi.

Paxta xom ashyosining havoda harakatiga ta’sir etuvchi qo‘shimcha omillar ham mavjud. Jumladan, paxtaning namligi (odatda 8–12% optimal hisoblanadi), zarracha o‘lchami, quvur diametri (100–400 mm oralig‘ida) hamda havo bosimi va sarfi jarayon samaradorligini belgilaydi. Namlik ortishi paxtaning og‘irligini oshiradi va uni harakatlantirish uchun yuqoriroq tezlik talab etiladi.

Umuman olganda, paxta xom ashyosining havoda harakati murakkab aerodinamik jarayon bo‘lib, uning samaradorligi to‘g‘ri tanlangan texnologik parametrlarga bog‘liq. Optimal sharoitlarni ta’minlash orqali paxtani samarali, tez va kam yo‘qotishlar bilan tashish mumkin.

Paxta xom ashyosining havo quvurida harakatlanishi bir nechta fizik kuchlar o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Bu jarayon aerodinamika va zarracha dinamikasi qonunlariga asoslanadi. Quyida asosiy ta’sir etuvchi kuchlar aniq va tizimli tarzda keltiriladi:

1. Aerodinamik qarshilik kuchi (drag force).

Bu paxtani harakatga keltiruvchi asosiy kuchdir. Havo oqimi paxta zarrachasiga bosim berib, uni quvur bo‘ylab siljitadi.

- Yo‘nalishi: havo oqimi yo‘nalishida
- Formulasi:

$$F_d = \frac{1}{2} C_d \rho v^2 A$$

Bu yerda:

C_d— qarshilik koeffitsienti

ρ— havo zichligi

v— havo tezligi

A— zarracha yuzasi

2. Og‘irlik kuchi (gravitatsiya).

Paxta zarrachasini pastga tortuvchi kuch bo‘lib, havo oqimiga qarshi yo‘nalgan.

- Formulasi:

$$F_g = mg$$

Agar F_d≥F_gbo‘lsa, paxta havoda ko‘tariladi.

3. Ko‘taruvchi kuch.

Ba’zi hollarda paxta tolalari notekis shakli sababli havo oqimida qo‘shimcha ko‘taruvchi kuch hosil qiladi.

- Ayniqsa turbulent oqimda sezilarli

4. Ishqalanish kuchi

Paxta quvur devori bilan tegishganda yuzaga keladi.

- Past tezliklarda muhim
- Harakatni sekinlashtiradi
- Sirpanish rejimini yuzaga keltiradi

5. Inersiya kuchi

Paxta zarrachasining o‘z massasi tufayli tezlik o‘zgarishiga qarshilik ko‘rsatishi.

- Burilishlarda va tezlik o‘zgarishida muhim
- Og‘ir zarrachalarda ko‘proq seziladi

6. Markazdan qochma kuch

Quvur egilgan yoki siklon qurilmalarda paydo bo‘ladi.

- markazdan qochma kuch asosida ishlaydi
- Paxtani devorga siqadi
- Ajratish jarayonida muhim

7. Bosim farqi kuchi

Ventilyator hosil qilgan bosim farqi paxtani quvur bo‘ylab harakatlantiradi.

- Past bosim → yuqori tezlik
- Tizimning umumiy harakatlantiruvchi omili

Xulosa

Paxta xom ashyosining havo quvurida harakati asosan aerodinamik qarshilik kuchi va og‘irlik kuchi o‘rtasidagi muvozanatga bog‘liq. Shu bilan birga ishqalanish, inersiya va markazdan qochma kuchlar jarayonning barqarorligi va samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ratsional sharoit yaratish uchun barcha kuchlar o‘zaro muvozanatda bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xakimov Sh.Sh. Paxtani dastlabki ishlash texnologik uskunalarini loyihalash. – T.: “FAST SUPPORT AND RESULT”, 2025.
2. Salimov A.M. Paxta tozalash mashinalari va jihozlari. – Toshkent, 2016.
3. Tixomirov G.A. Технология переработки хлопка-сырца. – Москва, 2005.
4. Sorokin N.B. Основы пневмотранспорта волокнистых материалов. – Москва, 2004.
5. White F.M. Fluid Mechanics. – New York, 2011.

2-sho‘ba: Dizayn asosida yengil sanoat va matbaa mahsulotlari yangi assortiment turlarini kengaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish.

MO‘YNA BUYUMLARINI BICHISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TAHLILI

Kamilova X.H., Xonkeldiyeva N.A.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tabiiy mo‘ynalarni ishlab chiqarish sanoatida kiyimlarning bichish metodlari va qoldiqsiz bichish texnologiyasining afzalliklari o‘rganildi. Mo‘ynalarning tuzilishiga qarab bichish usullarini ko‘rib chiqildi, bir qancha bichish texnologiyalarining innovatsion usullar tahlil qilindi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются методы раскроя одежды в индустрии производства натурального меха, а также преимущества технологии безотходного раскроя. Рассмотрены методы раскроя в зависимости от структуры мехов, проанализированы инновационные методы нескольких технологий раскроя.*

Abstract: *This article examines clothing cutting methods in the natural fur industry, as well as the advantages of waste-free cutting technology. Cutting methods depending on the structure of the furs were considered, and innovative methods for several cutting technologies were analyzed.*

Dunyoda tabiiy mo‘ynadan tayyorlangan kiyimlar Markaziy Osiyo bozorida doim talabga ega bo‘lib kelgan, ular sovuqdan himoya qilish funksiyasini bajarib kelmoqda. Moda rivojlanishi bilan bir qatorda mo‘ynali kiyim ishlab chiqaradigan korxonalarning strategiyasi xam o‘zgardi. Mo‘ynali byumlarni bichish terilarni saralashdan boshlanadi. Buyumning estetik ko‘rinishi va sifati tanlangan bichish metodi va bichiq detallarida terilarning joylashuviga bog‘liq bo‘ladi. Bichish metodi mo‘yna turi, uning sifati, tuzilishi va terilarning chiziqli o‘lchamlari, tuk qatlamining o‘ziga xos jihatlari, teri to‘qimasining qalinligi va yarim tayyor mahsulotning boshqa fizik-mexanik xususiyatlariga qarab tanlanadi [1]. E.Toktorbaevaning ishida adabiyotlar tahlili asosida mavjud bichish metodlarining klassifikatsiyasi ishlab chiqilgan. Unda bichish metodlarining 2 xil usuli ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ulardan oddiy bichish usullari va murakkab bichish usullaridir.

Oddiy bichish usullari: bir yoki bir nechta buyumlarni olish maqsadida terini detallar andozalari bo‘yicha bichish, yaxlit yoki yarimta terilarni keyingi detallarda to‘shash uchun shablon bo‘yicha bichish va shablonsiz yaxlit terilarni bichish usullari kiradi.

Har xil tur uchun gajakli guruhdagi mo‘ynani bichish metodlarini buyumlarni tayyorlashga mo‘ljallangan va dizayner g‘oyasiga mos tarzda tuk qatlamining naqshi, gajak shakli, terilar komplektining bir xilligini hisobga olib tanlanadi [2].

Bitta terini bo‘laklarga bo‘lib bichish undan bitta yoki bir nechta buyumlarni olish, masalan, yoqalar, bezaklar, manjet va hokazolarni olish maqsadida amalga oshiriladi. Yaxlit yoki yarimta terilarni faqatgina dizayner tomonidan uning g‘oyasiga binoan saralanadi. Ayrim hollarda ko‘proq effektga ega bo‘lish uchun terilar orasiga tikilgan materialdan tasmalar qo‘yilishi ham mumkin.

Murakkab bichish usullari: bo‘laklarga bo‘lish, o‘zaro birlashtirib payvandlash, rospusk va bezak berib tikishni qo‘llash tavsiya etiladi.

Bo‘laklarga bo‘lish teri o‘lchamlarini tekislash va tuk qatlamining bir xildagi balandligi, rangi va tusiga erishishda qo‘llaniladi. Ko‘ndalang, bo‘ylama va ko‘ndalang-bo‘ylama bo‘lib bichish mavjud.

Terilarni o‘zaro birlashtirib payvandlash kerakli kattalikkacha uzaytirish maqsadida ikki va undan ortiq terilar bitta teriga birlashitriladi. Bunda terilar yoki ularning qismlarini birlashtirish ko‘pincha turli xil tuzilishga ega ko‘ndalang arralar bilan amalga oshiriladi.

Bezak berib tikish – bu mo‘yna tasmalarini tikilgan materialar tasmalari bilan o‘zaro o‘yg‘unlashtirgan holda dekorativ yuzani yaratishdan iborat. Amaliyotda qo‘yidagi turdagi bezak berib tikish qo‘llaniladi: bo‘ylama, ko‘ndalang va ponasimon. Bezak berib tikish materiali sifatida charm, velyur, zamsh, tasma va boshqa tuk qatlamining rangiga mos tanlangan materiallar qo‘llanilishi mumkin.

Rospusk eng murakkab bichish metodlaridan biri hisoblanadi, terilarida kamdan kam hollarda ishlatiladi. Lekin mo‘yna aniq naqshiga ega bo‘lsagina uni qo‘llash mumkin bo‘ladi. Ko‘pincha, bu usul tabiiy rangga ega bo‘lgan qorako‘l terilarda qo‘llaniladi. Rospusk topografik uchastkalarni saqlab qolgan holda ponasimon kesilgan teri qismlarini siljitish hisobiga kerakli kattalikka terini uzaytirish imkonini beradi. Rospuskning asosiy xarakteristikalaridan biri bu terining ikkita kesilgan chiziqlari orasidagi burchagidir. Rospuska burchagining kattaligi terining tuk qatlamini bir xilligiga ta’sir qiladi. Qanchalik mazkur burchak katta bo‘lsa, ponalarni siljitishda shunchalik umurtqa chizig‘idagi naqsh buziladi va terining "ryabyu" deb nomlashga qabul qilingan nuqson kelib chiqadi [4].

Yevropa dizaynerlarining faoliyatini o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, bunda ularning faoliyati mo‘ynali kiyimni loyihalashda kompleks yondashuvga asoslanganligi va mo‘yna yarim tayyor mahsulotini dizaynini amalga oshirishda yangi metodlarni qo‘llashni anglatadi. Mazkur sohada Yevropada yetakchilik qiladigan mamlakatlarda qo‘llaniladigan (Italiya, Fransiya, Gretsiya vaboshqalar) mo‘ynadan kiyim modellari shaklini hosil qilish bo‘yicha innovatsion dizaynerlik faoliyatini tadbiq etish bo‘yicha tajribasi qiziqish o‘yg‘otadi.

Mo‘ynali mahsulotni ishlab chiqaradigan ixtisoslashtirilgan horijiy korxonalarning amaliy ish tajribasi va nazariy tadqiqotlar ushbu sohada «Matti»,

«Djuliana Tesso», «Fendi» - Italiya, «Revilon» - Fransiya, «Yerton», «SagaFurs» - Daniya kompaniyalarining ahamiyati sezilarli ekanligini ko‘rsatdi. «Kristian Dior», «Iv Sen Loran», «Shanel» va boshqa mashhur moda o‘ylari mo‘ynadan buyumlarni ishlab chiqarish bo‘yicha ish olib bormoqdalar. Ushbu kompaniyalarning amaliy tajribasini chuqur o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy dizaynerlarning faoliyati mo‘ynali buyumlarni loyihalashning innovatsion metolarini ishlab chiqish va mo‘ynali yarim tayyor mahsulotni tayyorlashning yangi metodlarini yaratishga yo‘naltirilgan.

Oxirgi o‘n yil ichida ishlab chiqilgan terilarni bichishning yangi usullari ko‘rsatilgan: “terilarni cho‘zish”, “to‘lqinli chiziq”, “mo‘ynali pufakchalar”, “mo‘yna-mato”, “shaxmat mozaikasi”, “terilarni metamatik modellashtirilishi”, “lazerli ishlov berish texnologiyasi”, “raqamli egizak”, “nanotexnologiyalar”, “perforatsiya” va boshqalar kabi yangi texnologiyalar ishlab chiqilgan [5].

Shulardan mo‘yna buyumlarini Zero Waste konsepsiyasi asosida bichish — ham iqtisodiy tejamkorlik, ham ekologik barqarorlik nuqtayi nazaridan eng yuqori texnologiya hisoblanadi. Tabiiy mo‘yna qimmatbaho xomashyo bo‘lgani uchun, ushbu usul chiqindi miqdorini deyarli 0% ga tushirishni maqsad qiladi. Quyida mo‘yna sanoatida Zero Waste bosqichlari va usullarining keltirilgan:

- Tetris-modellashtirish – bu usulda andozalar geometriyasi mo‘yna terisining shakliga moslashtiriladi. CAD tizimi terining konturlarini skanerlaydi. Xuddi "Tetris" o‘yini kabi bir-biriga tirqish qoldirmay jipslashtiradi. Agar andozalar o‘rtasida bo‘sh joy qolsa, dastur u yerga kichik detallarni (yoqa ichki qismi, manjetlar, bezak elementlari) avtomatik joylashtiradi.

- Mozaika va “Patchwork” usuli – bichishdan qolgan eng kichik mo‘yna qirqimlari ham tashlanmaydi. Ushbu qirqimlar lazer yordamida aniq geometrik shakllarga (romb, kvadrat, oltiburchak) keltiriladi va badiiy mozaika sifatida qayta birlashtirilib, yangi "innovatsion mato" hosil qilinadi. Bu usul dizaynga o‘ziga xos eksklyuzivligini beradi.

- “Rospusk” texnologiyasi – bu usul mo‘ynaning uzunligini oshirib, uning kengligini kamaytirish yoki aksincha, xomashyodan maksimal foydalanish imkonini beradi. Mo‘yna terisi diagonal bo‘yicha millimetrli chiziqlarga tilinadi va surilib, qayta tikiladi. Bunda terining har bir millimetri ishlatiladi. Terining tabiiy shaklidan qat’i nazar, undan kerakli to‘rtburchak yoki trapetsiya shaklidagi mato hosil qilinadi, ortiqcha qirqib tashlanadiganlar qolmaydi.- Тўқима мўйна технологияси – бу усулда мўйна териси ингичка (2-5 мм) тасмаларга кесилади ва махсус эластик тўр асосида тикиб чиқилади. Хомашёнинг 100% қисми ишлатилади. Бу усулда нафақат асосий тери, балки бичимдан қолган бўлакларни ҳам тасма қилиб ишлатиб юбориш мумкин.

- Transformer – bu usul nafaqat bichishda, balki loyihalashda ham qo‘llaniladi. Kiyim shunday loyihalanadiki, uning yenglari, yoqasi yoki pastki qismi yechiladigan bo‘ladi. Bitta buyum bir nechta model (palto, nimcha, kalta kurtka) vazifasini o‘taydi. Bu iste’mol madaniyatini barqarorlashtiradi va mato

isrofini kamaytiradi. Bu usullarni amaliyotga joriy etish uchun avtomatlashtirilgan lazer kesish dastgohlarini eng muhimi hisoblanadi.

Bu usullarni joriy etish ishlab chiqarishning dastlabki bosqichida vaqt talab qiladi, keyingi bosqichlarda (bichish va yig‘ish) xatoliklarni kamaytiradi va xomashyo sotib olish xarajatlarini optimallashtiradi. Mo‘yna sanoatida Zero Waste metodikasi — bu kelajak texnologiyasi bo‘lib, u an’anaviy mehnatni yuqori aniqlikdagi raqamli yechimlar bilan birlashtiradi. Bu yondashuv raqobat kuchaygan global bozorda korxonalar uchun eng asosiy strategik ustunlikdir.

Qorako‘lchadan buyumlarni loyihalashda innovatsion metodlar qo‘llanilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, shakl barqarorligini ta’minlaydi hamda mahsulot raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Bu nafaqat tannarxni pasaytirish, balki ekologik barqarorlik talablariga javob beradigan mahsulotlar yaratish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Камилова Х.Х., Хонкельдиева Н.А. “Анализ истории каракуля в Узбекистане” International Conference of Actual Problems in Science and Education Hosted From London, Great Britain November 30th 2024.
2. Токторбаева Э.И. Разработка метода проектирования женской одежды из меха завитковой группы: Дис. канд. Техн. Наук: МГУДТ. –М.: 2002. - 193 с.
3. Терская Л.А. Технология раскроя и пошива меховой одежды: учеб. Пособие для студ. Высш. Учеб. Заведений [Текст] / Л.А. Терская. – 2-е изд., стер. – М.: Академия, 2005. – 272 с;
4. Kamilova Kh.Kh., Khonkeldiyeva N.A. “Analysis of karakul types used in fur coating”. World science publishing London, September 2025.
5. Kamilova X.H. Xonkeldiyeva N.A. “Types of sewing machines used in the processing of fur products”. Advanced journal of university science and creative innovations AJOU SCI, aprel, 2025.
6. Токторбаева Э.И., Лопасова Л.В. Особенности изготовления скроев изделий из пушно-мехового полуфабриката: учебное пособие. - М.: 2001 г.

MAXSUS KIYIMLAR UCHUN TANLANGAN ARALASH VA SINTETIK MATOLARNING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARI

TTYSI magistranti
Nusratilloyeva Kamola Ulug’bek qizi

Annotatsiya: *Maxsus kiyim uchun mato tanlashda faqat bir xususiyatga emas, balki ish muhitidan kelib chiqib, fizik (qulaylik) va mexanik (mustahkamlik) xususiyatlarning o‘zaro nisbatiga e’tibor qaratish lozim. Aralash matolar bugungi kunda sanoat xavfsizligi va ishchi salomatligi uchun eng mukammal yechim.*

Maxsus kiyimlar (spesodejda) ishlab chiqarishda ishlatiladigan aralash va sintetik matolar yuqori chidamlilik hamda himoya xususiyatlariga ega bo‘lishi lozim. Bunday materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari ularning tarkibidagi tolalar va to‘qilish usuliga bog‘liq.

Fizik xususiyatlar (Gigiyenik va himoya) Fizik xususiyatlar inson salomatligi va qulayligini ta'minlaydi. Havo o‘tkazuvchanlik aralash matolar (paxta + poliester) sintetik matolarga qaraganda havo o‘tkazishda yaxshiroq, bu esa tana terlashini kamaytiradi. To'g'ri, bu maxsus kiyimlar uchun juda muhim jihat. Mana bu xususiyatning bir nechta muhim tafsilotlari. Paxtaning roli aralashma tarkibidagi paxta tolalari "nafas oladi", ya’ni havoni aylantirib, tana haroratini mo'tadillashtiradi. Poliester esa matoning shaklini ushlab turadi, u namlikni (terni) o'ziga shimib olib, mato yuzasiga chiqaradi va tez qurishiga yordam beradi. Ish samaradorligi agar kiyim 100% sintetik bo'lsa, "termos effekti" hosil bo'lib, ishchi tez charchab qoladi. Aralash mato esa uzoq vaqt (8-12 soatlik smena) davomida qulaylikni saqlaydi.

Gidroskopiklik (Namlikni yutish): Sintetik tolalar namlikni yomon yutadi, biroq tez quriydi. Paxta qo‘shilgan aralash matolar esa namlikni yaxshi yutib, kiyim osti mikroiqlimini yaxshilaydi. Bu xususiyat maxsus kiyim kiyuvchining o‘zini qanday his qilishini belgilovchi asosiy omildir. Mana uning amaliy ahamiyati: Paxta tolalari tanadan chiqqan bug‘ni va namlikni o‘ziga tortib oladi. Bu tana terisining doimo quruq turishiga va "dimiqish" hissi paydo bo‘lmasligiga yordam beradi. Sintetika namlikni o‘ziga shimib olmasa-da, uni mato yuzasiga chiqarib yuboradi (kapillyar effekt). Bu esa kiyimning namlanib, og‘irlashib ketmasligini va yuvilgandan keyin juda tez qurishini ta'minlaydi.100% paxta mato namlikni yutadi, lekin sekin quriydi va tanaga yopishib qoladi. Aralash mato (masalan, "Tvill" yoki "Gretta") esa ham namlikni yutadi, ham tez bug‘latib yuboradi.

Qisqacha aytganda, gidroskopiklik kiyim ichidagi **namlik va harorat muvozanatini** saqlash uchun zarur. Sanoatda bu xususiyat ishchining ish qobiliyatini pasaytirib qo‘ymaslik uchun standartlar bilan qat'iy nazorat qilinadi.

Suv o‘tkazmaslik sintetik matolar (masalan, neylon) suv qaytarish va tashqi muhit ta'siridan himoya qilishda ustundir. Bu xususiyat tashqi muhitda, yomg‘ir ostida yoki namlik yuqori bo‘lgan sharoitlarda ishlovchilar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Neylon va poliester tolalari suvni o‘ziga shimib olmaydi. Suv tomchilari mato yuzasida qolib, pastga yumalab tushib ketadi. Maxsus qoplamalar (Impregnatsiya) suv o‘tkazmaslikni yanada oshirish uchun sintetik matolarga ko'pincha PU (poliuretan) yoki PVX (polivinilxlorid) qatlamlari beriladi. Bu matoni nafaqat suvdan, balki shamoldan ham to‘liq himoya qiladi. Mustahkamlikda neylon (masalan, "Oksford" matosi) suvga chidamlilik bilan birga, yirtilishga ham juda bardoshli. Bu uni qidiruv-qutqaruv, qurilish va ovchilik kiyimlari uchun ideal qiladi. To‘liq suv o‘tkazmaydigan matolar havoni ham yomon o‘tkazadi. Shu sababli, bunday kiyimlarda qo‘shimcha ventilyatsiya

teshiklari yoki maxsus membrana texnologiyalaridan foydalaniladi (suvni o‘tkazmaydi, lekin bug‘ni chiqaradi).

Elektrizatsiyalanish: Sintetik tolalar ko‘proq statik elektr to‘playdi, shuning uchun maxsus kiyimlar uchun antistatik ishlov berilgan matolar tanlanadi. Bu xususiyat xavfsizlik texnikasida juda jiddiy hisoblanadi, chunki oddiy uchqun ham portlash yoki yong'inga sabab bo'lishi mumkin. Xavfli sohalar yani yoqilg‘i quyish shoxobchalari, neft-gaz sanoati va elektronika zavodlarida statik elektr to‘planishi qat'iyan man etiladi. Antistatik tolalar shunchaki ishlov berish (antistatik spreylar) vaqtinchalik samara beradi. Shuning uchun mato to‘qilish jarayonida uning tarkibiga uglerod yoki metall iplar qo‘shiladi (ularni mato yuzasidagi mayda katakchalardan tanib olish mumkin).

Zaryadni tarqatish maxsus tolalar hosil bo‘lgan elektr zaryadini kiyim yuzasi bo‘ylab tarqatib yuboradi va uchqun chiqishining oldini oladi. Paxta miqdori yuqori bo‘lgan matolar o‘z-o‘zidan kamroq elektrizatsiyalanadi, chunki ular tarkibida doimo oz miqdorda namlik saqlaydi. Xulosa qilib aytganda, antistatik mato — bu nafaqat kiyimning tanaga yopishib qolmasligi, balki yuqori texnologik va portlash xavfi bor joylarda hayot xavfsizligi demakdir.

Maxsus kiyimlar uchun qo’llaniladigan mato tarkibidagi tolalrning xususiyatlari:

Aralash matolar (paxta + poliester) sintetik matolarga qaraganda havo o‘tkazishda yaxshiroq, bu esa tana terlashini kamaytiradi. **Tabiiy "teshiklar":** Paxta tolalari g'ovakli tuzilishga ega bo'lib, ular havo molekulalarini erkin o'tkazadi. Bu tananing tabiiy sovishini ta'minlaydi. Poliester matoning g'ijimlanishini oldini oladi. Agar mato g'ijimlanib, zichlashib qolsa, havo aylanishi qiyinlashadi. Poliester esa mato tuzilishini "ochiq" holda saqlashga yordam beradi. Havo yaxshi aylangan joyda bakteriyalar ko'payishi va yoqimsiz hidlar hosil bo'lishi kamayadi.

Gidroskopiklik (Namlikni yutish) sintetik tolalar namlikni yomon yutadi, biroq tez quriydi. Paxta qo‘shilgan aralash matolar esa namlikni yaxshi yutib, kiyim osti mikroiqlimini yaxshilaydi. aralash matolarning eng katta afzalligini ochib beradi. Amaliyotda bu jarayon quyidagicha ishlaydi. Paxta tolalari suyuqlikni o‘z og‘irligining 20%igacha shimib olishi mumkin, bu esa terning tana yuzasida qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi. Namlik shimib olingach, kiyim ostida

havo qatlami saqlanib qoladi. Bu issiqda tana qizib ketishidan, sovuqda esa ter hisobiga tananing tez sovib ketishidan himoya qiladi. Agar ishchi jismoniy faol bo‘lsa, gidroskopik mato uning terisida namlik tufayli yuzaga keladigan turli toshmalar va noqulayliklarning oldini oladi.

Suv o‘tkazmaslik: Sintetik matolar (masalan, neylon) suv qaytarish va tashqi muhit ta'siridan himoya qilishda ustundir. Maxsus kiyimlarning himoya funksiyasini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkichdir. Sintetik matolarning (neylon, poliester) suvga chidamliligi quyidagi omillarga tayanadi. Molekulyar tuzilishda sintetik tolalar suvni o'ziga shimib olmaydigan zich polimerlardan iborat. Bu matoning nam holatda ham og'irlashib ketmasligini ta'minlaydi. Maxsus kiyimlar uchun mo'ljallangan sintetik matolar (masalan, *Oxford* yoki *Taffeta*) shunday zich to'qiladiki, suv tomchilari tolalar orasidan o'ta olmaydi. Ko'pincha bu matolarning ichki tomoniga PU (poliuretan) yoki PVC (PVX) qoplamasi beriladi. Bu kiyimni nafaqat suvdan, balki kuchli shamoldan ham 100% himoya qiladigan to'siq hosil qiladi. Kimyoviy chidamlilik bo’yicha Sintetik matolar suvdan tashqari, turli suyuq kimyoviy moddalar, yog'lar va yoqilg'i mahsulotlarining ham tana terisiga o'tib ketishidan himoya qiladi.

Elektrizatsiyalanish: Sintetik tolalar ko‘proq statik elektr to‘playdi, shuning uchun maxsus kiyimlar uchun antistatik ishlov berilgan matolar tanlanadi. Yuqori texnologiyali va xavfli ish muhitlarida yong‘in va portlash xavfsizligini ta’minlash uchun juda muhim. Sintetik tolalar (poliester, neylon) dielektrik xususiyatga ega. Ish jarayonidagi ishqalanish natijasida ularda musbat yoki manfiy zaryadlar to‘planadi, bu esa kutilmagan uchqun chiqishiga sabab bo‘lishi mumkin. Zamonaviy maxsus kiyimlarda mato tarkibiga ma’lum masofada (odatda katak shaklida) uglerodli yoki metallashtirilgan iplar qo‘shiladi. Ular elektr zaryadini to‘planishiga yo‘l qo‘ymay, uni butun yuza bo‘ylab tarqatib yuboradi. Matoga ishlab chiqarish bosqichida maxsus kimyoviy moddalar (antistatiklar) bilan ishlov beriladi. Bu moddalar havodagi namlikni o‘ziga tortib, mato yuzasida elektr o‘tkazuvchan yupqa qatlam hosil qiladi. Bu xususiyat ayniqsa neft-gaz sanoati, elektronika yig‘ish sexlari, laboratoriyalar va un tegirmonlari kabi chang yoki gaz portlashi xavfi bor joylarda hayotiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toffler A. The Third Wave. New York: Bantam Books, 1980.
2. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. Blackwell Publishing, 1996.
3. United Nations. World Youth Report. Nyu-York, 2023.
4. O‘zbekiston Respublikasi hukumat hujjatlari — raqamli rivojlanish va ekologiya bo‘yicha normativ manbalar.

THE SIGNIFICANCE OF DECORATION AS AN AESTHETIC SYMBOL OF ELEMENTS OF KAZAKH COSTUME

Senior Lecturer, Master Kudassova G.Zh.
ARU named after K.Zhubanov Kazakhstan, Aktobe

***Abstract**. This article examines the process of refining elements of traditional Kazakh national costume using modern 3D modeling systems. The relevance of this research stems from the need to preserve and promote Kazakhstan's cultural heritage. This article also discusses elements of modern Kazakh costume. The national costume contains ornamental elements that have been preserved by ancestors since time immemorial. Computer programs are used to enhance traditional Kazakh ornamentation and the use of traditional materials native to the western region of Kazakhstan (wool, leather, and fur). The article discusses clothing compositional solutions, improvements in the design of modern clothing based on traditional materials, and the design of modern garments with traditional decorative elements.*

***Аннотация.** В статье рассматривается процесс совершенствования элементов традиционного казахского национального костюма с использованием современных систем трёхмерного моделирования. Актуальность исследования обусловлена необходимостью сохранения и популяризации культурного наследия Казахстана. Также в этой статье говорится об элементах казахского современного костюма. Национальный костюм содержит элементы орнамента, которые были сохранены предками с незапамятных времен. Усовершенствование исконных казахских орнаментов с помощью компьютерных программ и использование традиционных материалов присущих Западному региону Казахстана (шерсть, кожа, мех). В статье говорится о композиционных решениях одежды, усовершенствование конструкции современной одежды на основе традиционных материалов, а также конструкции современного изделия с национальными декоративными элементами.*

Clothing, in addition to its main purpose, protecting a person from the influence of the external environment, has many other functions. Clothing has a pronounced symbolic character, being a sign of sexual - age, social, ethnic, professional and other characteristics of a person. A costume is a figuratively solved ensemble that combines clothes, shoes, hairstyles, makeup, accessories and performs a certain aesthetic function.

A stage costume cannot be attributed to simple clothes. This is one of the most important components of the design of stage clothes, meeting both the requirements of a specific ideological content and the features of a particular type of stage art in general.

The traditions of national costume are preserved in modern costumes of both rural and urban residents. They still wear the upper rocking clothes, white felt hats with fringes, round hats decorated with velvet, framed by fur. Recently, the National headdress-tymak has also become fashionable. According to the national tradition, wedding costumes have become popular.

Stage costumes are developed and sewn without taking into account the information properties of the original source and the main functions of the elements of the traditional Kazakh costume, there is a combination of elements of costumes of different peoples, cultures in the style of "eclecticism".

Today, many ateliers have won tenders and offer costumes that can be called "pseudo-National", which gives a misconception about the true culture of the Kazakh people. We want to create an attractive image of Kazakhstan, look worthy among competing ethnic groups and civilizations. The expression" meets with clothes " is well known, and it always happens, because clothes are part of folk culture. [1]

The basis for choosing the topic of the study"national costume as a means of preserving and developing national traditions" was the problems of the relationship of the Kazakh stage costume with ethnic authenticity. The object of the study is a suit in the broad sense of the word, that is, in a complex that, in addition to the clothes themselves, includes a headdress, shoes, jewelry and accessories.

Until the nineteenth century, men wore a twist-off shirt called a shirt. Later, they switched to unbuttoned tunic-like dresses. The latter had a folding collar. Kazakh men wore light trousers on the Bush. Warm trousers made of fabric, sheepskin, suede or dense cotton fabric were worn over them. Rich Kazakhs wore velvet or suede trousers embroidered with ornaments. Over the dress, men, like women, wore camisoles without sleeves. They usually had a closed area and a steep bank. The main type of outerwear was a bathrobe.[2]

Kazakhs often gave each other robes. This is due to the richness of their ornaments and ornaments, which often served as a tribute. Social differences in men's clothing were manifested in the same way as in women's clothing. They can be considered by the quality of the material and the finish. In the cold season, Kazakh men wore sheepskin coats made of sheep or camel wool, closed fur coats or sheepskin coats. They also sometimes wore cloth robes.

The Kazakh national costume would be incomplete without a belt made of fabric or leather. Wealthy people wore silk or velvet belts. The Kazakh national costume for a boy practically did not differ from the male one.

The art of ornaments of the Kazakh people is the most ancient and widespread of the indigenous national art. This is a chronicle of the cultural development of our nation, an art that gives pleasure to the human soul and has a great aesthetic value. There are many types and names of Kazakh ornaments. In

total, to date, researchers have given scientific definitions of more than two hundred types of Kazakh ornaments. [3]

Picture 1. Foam

Picture 2. Cape

Picture 3. Tone

Figure 4 - Men's waist

The ornaments reflect the nomadic worldview, aesthetic taste, and the secret of the colors of paint in nature. In it, space is animal, space is cosmogonic, and the unity of space and time is plant, geometric ornaments also acquire a materialized appearance.

In the decorative and applied art of the kazakh people, ornaments had a special place. All created crafts were decorated with ornaments, connecting them with nature. Felt, fabric carpets, wood and jewelry show a wide variety of patterns. In addition, colors also play an important role in the use of patterns. Bright colors meant a joyful mood, health, and pale colors meant disappointment and confusion.[4]

Jewelry in traditional Kazakh dress served not only a decorative function but also served as an important carrier of cultural, social, and spiritual information. Each element of jewelry was imbued with symbolic meaning and reflected the people's worldview, aesthetic ideals, and concept of harmony.

First and foremost, jewelry served as an indicator of a person's social status and age. For example, the quantity and quality of silver jewelry could be used to

determine a family's financial situation, as well as a woman's marital status. Maiden jewelry was distinguished by its elegance and lightness, while married women's jewelry became more discreet and functional.

The symbolism of ornamentation was particularly significant. Ornamental motifs used in jewelry are closely linked to nature and the nomadic way of life. Elements such as the "koshqar muyz" (ram's horn) symbolized wealth, strength, and well-being. Floral patterns reflected the idea of growth and renewal, while geometric shapes represented stability and order. Materials also had symbolic significance. Silver was considered a sacred metal with protective properties. Silver jewelry was believed to ward off evil spirits and illness. This is why it was widely used in women's and children's clothing. Stones embedded in jewelry could act as amulets and enhance the protective function.

Jewelry played an important role in rituals and traditions. It was used in wedding ceremonies, puberty ceremonies, and other significant events. For example, chest ornaments and pendants could serve as amulets for the bride, symbolizing protection and well-being in her new family.

Aesthetically, jewelry added completeness and expressiveness to a costume. It created rhythm and dynamism, enhancing its visual perception through movement, sparkle, and sound. The jingling elements of jewelry added not only a visual but also an acoustic effect, making the image more vibrant and multifaceted.

In the modern context, traditional Kazakh jewelry continues to retain its significance, transforming into elements of contemporary fashion and design. It serves as a source of inspiration for designers, contributing to the preservation of cultural heritage and its integration into the global cultural space.[5]

Thus, the embellishments of Kazakh dress are an integral part of national culture, combining aesthetic, symbolic, and social functions. Studying them allows for a deeper understanding of the traditions and spiritual values of the Kazakh people.

Today, the Kazakh national costume is one of the inexhaustible sources, in which material, shape, decor, technique and methods of execution are a creative idea of creating completely new artistic, design and technological solutions of modern household and stage clothing models. This is probably why the costume remains so attractive for the modern generation of clothing designers. This interest has intensified in recent decades, significantly complementing our ideas about the culture of the Kazakh people. Currently, specialized enterprises for the production of national clothing have been created, such as the Republican fashion centers" Makpal"," Erke-Nur", the Academy of fashion" Symbat " and others.

Adornments in Kazakh costume served not only aesthetic and social functions but also played a significant role in shaping national identity. Traditions, values, and experiences of previous generations were transmitted through

elements of decorative and applied art. Thus, jewelry can be seen as a means of cultural communication, linking the past and the present.

One of the key characteristics of Kazakh jewelry is its close connection with nature. Ornaments, shapes, and even manufacturing methods reflect human observations of the surrounding world. This is evident in the use of zoomorphic, plant, and geometric motifs. Such elements carried not only decorative but also symbolic meaning, reflecting ideas about the harmony of the world and man's place in it.

It should be noted that jewelry was often handmade by master jewelers, making each piece unique. Traditional techniques were passed down from generation to generation, preserving the distinctive features of the national style. In this context, jewelry can be seen as a synthesis of artistic creativity and practical skills, making it an important object of study within the field of decorative and applied arts.

Furthermore, jewelry played a significant role in the development of aesthetic taste. From an early age, people were exposed to traditional forms of beauty through the objects around them, including clothing and jewelry. This contributed to the formation of concepts of harmony, proportion, and composition.

Interestingly, many jewelry pieces served not only a visual but also a functional purpose. For example, pendants could be used to attach clothing or headdresses. Thus, practicality was combined with decorativeness, a characteristic feature of traditional costume.

Particular attention should be paid to the gender aspect. Women's jewelry was distinguished by a variety of forms and rich design, while men's jewelry was more subdued. This is due to differences in social roles and notions of beauty. Women served as the guardians of the home and traditions, so their image was more decoratively rich.

Regional diversity in jewelry is also important. Different regions of Kazakhstan had their own distinctive patterns in ornamentation, form, and manufacturing techniques. This is due to natural conditions, the availability of materials, and local traditions. Despite this diversity, a common stylistic integrity characteristic of Kazakh culture was preserved.

In modern society, interest in traditional jewelry is growing. It is used not only in national costumes but also in everyday wear, as well as in stage and design projects. This demonstrates that traditional elements continue to thrive and adapt to new conditions.

Modern researchers view jewelry as an important source of information about a people's culture. Through its study, one can trace changes in society, the development of artistic tastes, and the influence of external factors. In this sense, jewelry is not only an object of art but also a historical document.[6]

In summary, it can be noted that the adornments in Kazakh national costume are a complex and multifaceted phenomenon. They reflect not only the aesthetic preferences of the people, but also their worldview, social structure, and spiritual values.

Combining beauty and profound meaning, adornments act as a kind of cultural code. Their preservation and study are of great importance for understanding national identity and passing on traditions to future generations.

In today's world, integrating traditional elements into contemporary culture has become especially important. This not only preserves heritage but also makes it part of a contemporary cultural landscape.

LITERATURE

1. National Encyclopedia/Editor-In-Chief A. Nysanbayev-Almaty “Kazakh encyclopedia” General editorial office, 1998 ISBN 5-89800-123-9.
2. Encyclopedic reference book. Almaty: "Aruna Ltd."LLP, 2010 ISBN 9965-26-322-1.
3. National costumes of the Kazakh people. National dress of the Kazakh people. National dothes of Kazakh people. / Comp. B. Hinayat., A. Suzhikova. - Almaty: Almatykitap publishing house, 2011. – 384 pages, illustrated.
4. Asanova S., Ptitsina A. history of Kazakh national costumes and crafts. The Central State Museum of Kazakhstan contains samples of Kazakh national costumes. Textbook-Astana: Folio, 2008.
5. Argynbaev Kh. Kazakh khalkynyn koloneri. – Almaty: Oner, 1987.
6. Margulan A.Kh. Kazakh folk applied art. – Almaty, 1986.

O’RTA YOSHDAGI AYOLLARNING TANA TUZILISHLARINING XUSUSIYATLARINI, ANTROPOMETRIK O’RGANISH VA FIZIOLOGIK O’ZGARISHLAR

Mustaqil tadqiqotchi. Ass. M.B.Pardayeva
Toshkent to’qimachilk va yengil sanoat instituti
s.f.d professor F.Z.Ataxanova
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘rta yoshli ayollarning tana tuzilishidagi o‘zgarishlarining xususiyatlarini, psixologik ehtiyojlariga mos, qulay, estetik jihatdan mukammal kiyimlar, qomatga moslab kyimlar tanlash yoritilgan. Tadqiqot davomida ayollarning organizmidagi antropometrik va fiziologik transformatsiyalarni tahlil qilish o’rganildi va kapsulali kolleksiya o’rta yoshli ayollar siluetiga moslab kiyimlar garderobini yaratish haqida ham muhim tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *В данной статье освещаются особенности изменений в строении тела женщин среднего возраста, выбор удобной, эстетически совершенной одежды, соответствующей их психологическим потребностям, а также одежды, адаптированной к фигуре. В ходе исследования был изучен анализ антропометрических и физиологических трансформаций в женском организме, а также даны важные рекомендации по созданию гардероба одежды, адаптированного к силуэту женщин среднего возраста.*

Abstract. *This article highlights the characteristics of changes in the body structure of middle-aged women, the choice of comfortable, aesthetically perfect clothing that meets their psychological needs, and clothing tailored to their physique. During the study, the analysis of anthropometric and physiological transformations in the female body was studied, and important recommendations were provided for creating a wardrobe adapted to the silhouette of middle-aged women in the capsule collection.*

Mamlakatimiz iqtisodiyotida tub o’zgarishlar amalga oshirilishi, respublika iqtisodiyoti, asosan, xom-ashyo yo’nalishidan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish yo’liga izchil o’tayotganligi, mamlakat eksport salohiyati kengayayotganligi ishlab chiqarishning xar bir sohasi oldiga yangi vazifalarni qo’ydi. Jumladan, tikuvchilik sanoatini rivojlantirish, xalqimizni yuqori sifatli, chiroyli kiyimlar bilan ta’minlash yengil sanoat xodimlari oldida turgan muhim vazifalardandir. So’ngi yillarda taklif qilinayotgan uch o’lchovli va raqamli texnologiyalar asosida tayyorlangan ergonomik kiyimlarni hamda “inson-kiyim” tizimini antropometrik o’rganish imkonini yaratadi. Dunyo bo’ylab ko’plab olimlar antropometrik xususiyatlarni o’rganish bilan shug'ullanadi [1]. Kiyim inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat tanani tashqi muhit ta’siridan himoya qiladi, balki insonning ijtimoiy mavqeini, estetik didini va psixologik holatini ham ifodalaydi . Zamonaviy modaning asosiy yo‘nalishlaridan biri – insonning fiziologik va psixologik ehtiyojlariga mos, qulay, estetik jihatdan mukammal kiyim yaratishdir. Ayniqsa, katta yoshdagi va o’rta yoshli ayollar uchun mo‘ljallangan kiyimlarni ishlab chiqishda ularning psixofiziologik holati, ya’ni yoshga bog‘liq jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarni inobatga olish alohida ahamiyatga ega [2, 3]. O‘rta yosh ayol organizmi uchun o‘tish davri hisoblanadi. Antropometrik ko‘rsatkichlar tana massasi, hajmi va tarkibining nisbatini belgilaydi. Ushbu omillar nafaqat salomatlik, balki kiyim tanlashda qulaylik, funksionallik va estetik uyg‘unlikni ta’minlashga ham ta’sir ko‘rsatadi. Kiyim tanlash jarayonida inson fiziologiyasi, psixologiyasi, ergonomika va dizayn o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rib chiqilishi zarur. To‘g‘ri tanlangan fason, mato turi, rang va bezak elementlari nafaqat tashqi ko‘rinishni yaxshilaydi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy modada o’rta yoshli va yoshi katta ayollar uchun psixofiziologik moslik tamoyiliga asoslangan kiyim dizaynini ishlab chiqish – nafaqat amaliy, balki ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ega masala hisoblanadi. 1-rasm.

1 -rasm. Ayollarning tana tuzilishiga qarab libos siluetini tanlash.

Tadqiqotlar davomida misol tariqasida pal’toning tana qismi hamda konstruksiyasining bir va ko’p modulli kompozitsiyalar aniqlangan. Ko’p modulli kompozitsiyasi shakli va o’lchamlari jihatidan turli tuman siluetda ayollar qomatiga moslanganini ko’rishingiz mumkin. O’rta yoshli ayollar uchun kapsulali kolleksiyani modulli loyihalashni hisobga olganda ayollar pa’ltosining modellari seriyasini yaratishda kombinator shakl hosil qilish tamoyillariga asoslanadi. Kapsulali to‘plamlar sekin moda kontseptsiyasining bir qismi bo‘lib, uzoq vaqt davomida kiyish mumkin bo‘lgan uyg‘un narsalarni taklif qilish orqali ortiqcha iste’molni kamaytirishga yordam beradi. (2-rasm)



2-rasm. O’rta yoshli ayollar uchun kapsulali kolleksiya.

Dizaynerlar psixofiziologik holatga mos dizayn ishlab chiqishi zarur. Bunday ayollar uchun mo‘ljallangan kiyimlarda quyidagi jihatlar alohida ahamiyatga ega:

1. Matoning tabiiyligi va gigienikligi. Paxta, viskoza, jun, ipak va aralash tolali matolar tananing nafas olishini ta’minlaydi, issiqlik va namlik almashinuvini muvozanatda ushlab turadi. Sun’iy va sintetik matolar esa faqat dekorativ element sifatida qo‘llanishi tavsiya etiladi.
2. Erkin fason va ergonomik konstruksiya. Kiyim tananing o‘zgaruvchan tuzilishiga mos bo‘lishi, harakatni cheklamasligi, tananing muvozanatini saqlab turishi zarur.

Transformatsion fasonlar, sozlanadigan bel qismi, qaytarma yenglar kabi elementlar harakatchanlikni oshiradi.
3. Rang psixologiyasi. Sokin pastel ohanglar (bej, lavanda, kulrang, zaytun, jigarrang) inson ruhiyatiga tinchlik bag‘ishlaydi, ijobiy emotsiyalarni kuchaytiradi. Rang terapiyasi asosida tanlangan kiyim kayfiyatni barqarorlashtiradi, stressni kamaytiradi va ijtimoiy faollikni rag‘batlantiradi.
4. Funksionallik va texnologik yondashuv. Zamonaviy to‘qimachilik texnologiyalari yordamida yaratilgan havo o‘tkazuvchi, issiqlikni saqlovchi, antibakterial va himoyali matolar o’rta yoshdagi ayollar uchun eng maqbul hisoblanadi.
5. Ruhiy qoniqish va estetik uyg‘unlik. Kiyim inson ruhiy holatini yengillashtiruvchi, ishonch bag‘ishlovchi vosita sifatida qaraladi. To‘g‘ri tanlangan libos ayolda osoyishtalik, ishonch va o‘zini hurmat qilish hissini kuchaytiradi.

Yuqoridagi mezonlarni inobatga olgan holda ishlab chiqilgan kiyimlar katta yoshdagi ayollar uchun nafaqat estetik jihatdan chiroyli, balki fiziologik va psixologik qulay bo‘ladi. Kiyim tanlashda milliy qadriyatlar va zamonaviy moda elementlarini uyg‘unlashtirish dizaynerlar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Milliy bezaklar, an’anaviy naqshlar va tabiiy rang uyg‘unligi orqali yaratilgan liboslar ayollarda o‘z milliylik tuyg‘usini mustahkamlaydi, ruhiy muvozanatni saqlaydi. Shu sababli, katta yoshdagi ayollar uchun kiyim yaratish masalasi faqat moda sohasi emas, balki psixologiya, fiziologiya, ergonomika va madaniyatshunoslik fanlari bilan uzviy bog‘liq tarmoqlararo tadqiqot yo‘nalishi sifatida qaralishi lozim [8, 9]. Natijada, ilmiy asoslangan dizayn yechimlari orqali inson salomatligi, ruhiy farovonlik va estetik qadriyatlar uyg‘unligi ta’minlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Samiyeva S., Asadova S., Musayeva L. Uch o’lchovli va raqamli texnologiyalardan foydalangan zamonaviy kiyim dizaynini tahlil qilish //Integration of science, education and practice. Scientific-methodical journal. -2020.
2. Назарова, Д.Ш., & Исмоилова, З.А. Кийим дизайнида функционаллик ва эстетика уйғунлиги. -Тошкент: “Fan va texnologiya”, 2020. -112 б. (Бетлар 56 71).
3. Ganieva, M. Kattalar kiyimlarida ergonomik yondashuvlar. // O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali, №4, 2022, — B. 45–49.
4. Mahmudova, L.B. Kiyimda foydalaniladigan tabiiy matolarning fiziologik xususiyatlari. // “To‘qimachilik va yengil sanoat” ilmiy jurnali, №1, 2023. -B. 21–26.
5. Joana Cunha et al. (2022). Ergonomic Design of Women’s Clothing for Middle Age: Physical and Emotional Perception. In: Proceedings of CIMODE 2022. https://link.springer.com/chapter/10.1007/978-3-031-16773-7_61

АНАЛИЗ ГРАФИЧЕСКОЙ ЧЁТКОСТИ ОТПЕЧАТКОВ, ПОЛУЧЕННЫХ МЕТОДОМ СТРУЙНОЙ ПЕЧАТИ

Магистрант Д.Э.Тожимурадова, PhD З.К.Галимова
Ташкентский институт текстильной и легкой промышленности

Аннотация. *В данном тезисе исследована графическая чёткость отпечатков, полученных методом струйной (inkjet) печати. Для объективной оценки степени отображения микроэлементов и микроструктур на отпечатанных образцах был применён метод оптической микроскопии.*

Annotatsiya. *Ushbu tezisda purkashli (inkjet) bosma usulida chop etilgan nusxalardagi grafik aniqlik tadqiq etilgan. Mikroelementlar va mikrotuzilmalarning tasvirlanish darajasini ob’ektiv baholash uchun optik mikroskopiya qo‘llanildi.*

Abstract. *This thesis examines the graphic clarity of inkjet prints. To objectively assess the degree of display of microelements and microstructures on printed samples, the method of optical microscopy was used.*

Цифровая печать продолжает оставаться единственной технологией, позволяющей в массовых масштабах осуществлять печать переменных данных. Она представляет собой технологию, обеспечивающую перенос изображения непосредственно из цифрового файла на печатный материал без многоэтапной допечатной подготовки, характерной для традиционных печатных процессов. Это позволяет существенно сократить время производства, снизить материальные затраты и обеспечить экономическую эффективность при выпуске малотиражной продукции. Качество готовой продукции цифровых печатных устройств постоянно улучшается на протяжении последних десяти лет, хотя оно в ряде случаев пока не превышает качества, присущего традиционным способам печати [1]. При изучении отпечатков важно учитывать следующие параметры: вид бумаги, чернила и разрешение.

Большую долю рынка оперативной полиграфии занимает печать многокрасочной продукции малыми тиражами при помощи струйных принтеров. Статистика мирового рынка цифровой печати демонстрирует среднегодовой темп роста (CAGR) от 7% до 18%, в 2025 году мировой рынок струйных принтеров и сольвентных чернил закрепили лидерство на рынке цифровой печати и по прогнозам в 2030 году среднегодовой роста (CAGR) составит около 6–7%. Основными факторами развития отрасли станут переход от производства «по требованию» (On-Demand) к модели «точно в срок» (Just-in-Time), а также повсеместное внедрение искусственного интеллекта. Ежегодно на рынке появляются большое

количество современных моделей струйных принтеров, требующих оценки качества цветовоспроизведения изображений в системе «струйный принтер-бумага» [2].

Использование некачественной бумаги приводит к ряду дефектов:

- чрезмерная абсорбция, т.е. глубокое проникновение чернил в структуру волокна вызывает «пробивание» изображения на оборотную сторону и снижение оптической плотности;

- растекание капли, связана с низкой гидрофобностью поверхности и способствует неконтролируемому увеличению диаметра капли, что ведет к потере четкости и нарушению цветопередачи;

- деформация носителя связана с высокой гигроскопичностью бумаги, при значительном наполнении чернилами вызывает коробление и риск контакта листа с печатающей головкой [3].

Цель исследования — рассмотрение качества отпечатков и цветовоспроизведения изображений в системе «струйный принтер-бумага».

Для объективной оценки пригодности бумаги к струйной печати в научно-исследовательской практике применяется комплекс стандартизированных методов испытаний. Лабораторный анализ направлен на верификацию физико-механических и оптических параметров в соответствии с международными (ISO), национальными (O’zDSt) и межгосударственными (ГОСТ) стандартами.

Материалы и методы исследования. В качестве объекта исследования выбраны три вида бумаги с различной плотностью: 115, 130 и 160 г/м² с отпечатанной тест-шкалой на струйном принтере EPSON STYLUS PHOTO 1410 (рис. 1). Разработанная тест-шкала включает объекты основных цветов модели CMYK и микроструктурные элементы для определения цветовой градации, шкалу серых тонов, микроэлементы и микроструктуры для оценки графической чёткости, а также текстовые элементы гарнитурой *Times New Roman* и кеглем от 8 до 28 пунктов.

Рис. 1. Разработанная тест-шкала

На качество цветопередачи влияют такие факторы как, бумага, чернила, параметры и настройки принтера, цветовые схемы. Основная задача, которую решают полиграфические технологии, – это

высококачественная печать цветных изображений, максимально приближенных по воспроизведению цвета к оригиналу [4].

Для объективной оценки качества цветовоспроизведения применён метод денситометрии, позволяет количественно оценить оптическую плотность (насыщенность) цвета, яркость, а также характер градационных переходов.

Для анализа цветовой градации в тест-шкале предусмотрена специальный объект с поэтапным изменением значений от 0 до 100 %. Измерения оптической плотности основных цветов (CMYK) (рис. 2) выполнялись с использованием денситометра ET-120 HD. Применение данного прибора позволяет определить толщину красочного слоя, степень растискивания растровых элементов, а также оценить цветовой баланс отпечатков.



Рис. 2. Градационные кривые для CMYK цветов

Наибольшая графическая чёткость наблюдается на мелованной бумаге плотностью 160 г/м². Это свидетельствует о том, что плотность бумаги и гладкость её поверхности являются одними из ключевых факторов, определяющих качество печати. Результаты исследования подтверждают, что оптимальный выбор бумаги при струйной цифровой печати способствует значительному повышению качества печатной продукции.

Список использованной литературы

1. Пасова С.Я., Кузовлева О.В., Бороди С.А. Исследование качества отпечатков, полученных методами струйной и электрофотографической печати // Известия ТулГУ. Технические науки. 2015. Вып. 7. Ч. 2 С. 276-280
2. **Rajat Zope.** Inkjet Printers Market Size, Share, and Growth Forecast, 2025 – 2032, Source:https://www.mordorintelligence.com/ru/industry-reports/digital-printing-market
3. Степанова С. Ю. Материаловедение в полиграфическом производстве: учебник / С. Ю. Степанова. — М.: МГУП, 2010. *(Подробный анализ влияния целлюлозного волокна на впитывающую способность)*.
4. Зильберглейт М. А., Марченко И. В. Влияние структуры бумаги на цветопередачу струйной печати // Труды БГТУ, 2024, серия 4, №1, с. 13-18

FUNKSIONAL IMKONIYATI KENGAYTIRILGAN BOLALAR KIYIMI VA ULARGA QO’YILADIGAN TALABLAR.

katta o’qituvchi (Phd) Aripjanova Maxfuza Akmalovna
talaba Isroilova Shahnoz Sholatif qizi
Toshkent to`qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar uchun funksional imkoniyatlari oshirilgan kiyim turlari, ularga qo’yiladigan talablar va ularni loyihalashning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье анализируются виды детской одежды с расширенными функциональными возможностями, предъявляемые к ним требования и современные подходы к их проектированию.*

Abstract. *This article analyzes the types of children's clothing with enhanced functional capabilities, the requirements imposed on them, and modern approaches to their design.*

Bugungi kunda bolalar kiyimiga bo‘lgan talablar keskin o‘zgarib bormoqda. Zamonaviy ota-onalar nafaqat chiroyli, balki qulay, xavfsiz va ko‘p funksiyali kiyimlarni tanlashga intilmoqda. Shu sababli bolalar kiyimini loyihalash jarayonida funksional imkoniyatlarni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalar faol harakatda bo‘lishi, tez o‘sishi va turli sharoitlarda bo‘lishi hisobga olinib, kiyim konstruktsiyasi va material tanlashga alohida e’tibor qaratiladi.

Funksional imkoniyatlari kengaytirilgan bolalar kiyimlarini loyihalash — bu shunchaki dizayn emas, balki bolaning o‘sish fiziologiyasi, harakat dinamikasi va xavfsizligini hisobga oluvchi muhandislik yechimidir. Bugungi kunda funksional imkoniyati kengaytirilgan bolalar kiyim turlari turlicha bo’lib, ularga bo’lgan talab ortib bormoqda.

Funksional imkoniyatlarni oshirish maqsadida bolalar kiyimlari zamonaviy dizayn va texnologik yechimlar asosida quyidagi yo‘nalishlarda loyihalanadi. Bu yondashuvlar kiyimning qulayligi, uzoq muddat foydalanish imkoniyati va bolaning harakat erkinligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Transformatsiyalanuvchi kiyimlar – bunday kiyimlar bolaning tez o‘sib boruvchi tana o‘lchamlariga moslashish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, uzaytiriladigan yeng va shim qismlari kiyimning foydalanish muddatini sezilarli darajada uzaytiradi. Olinadigan detallar (kapyushon, yeng, ichki astar yoki bezak elementlari) kiyimni turli ob-havo sharoitiga moslashtirish imkonini beradi. Shuningdek, ikki tomonlama kiyiladigan modellar bir mahsulotda ikki xil dizaynni taqdim etib, amaliy va estetik jihatdan qulaylik yaratadi. Bunday yechimlar iqtisodiy tejamkorlikni ham oshiradi.

Ko‘p funksiyali elementlarni loyihalash – kiyimda funksional detallarni to‘g‘ri joylashtirish uning amaliy qiymatini oshiradi. Masalan, ko‘p cho‘ntakli dizayn bolalarga kichik buyumlarini (o‘yinchoq, ruchka, salfetka va boshqalar) olib yurishda qulaylik yaratadi. Yashirin kiyimning estetik ko‘rinishini saqlagan holda xavfsizlikni ta’minlaydi. Moslashuvchan bel va manjetlar esa kiyimning turli tana o‘lchamlariga moslashishiga yordam beradi hamda harakat erkinligini oshiradi. Bunday elementlar ayniqsa faol harakat qiluvchi bolalar uchun juda muhim hisoblanadi (1-rasm).

Innovatsion materiallardan foydalanish – zamonaviy bolalar kiyimida yangi avlod gazlamalaridan foydalanish katta ahamiyatga ega. Antibakterial matolar gigiyenik xavfsizlikni ta’minlab, teri kasalliklari va allergik reaksiyalarning oldini olishga yordam beradi. Suv o‘tkazmaydigan gazlamalar esa yomg‘irli va nam ob-havo sharoitida bolani himoya qiladi. Elastik va cho‘ziluvchan matolar kiyimning qulayligini oshirib, harakat paytida siqilish yoki noqulaylikni kamaytiradi. Bundan tashqari, nafas oluvchi materiallardan foydalanish tana haroratini me’yorda ushlab turishga xizmat qiladi.

Bunday kiyimlarni loyihalashda kiyimning ergonomik ko’rsatkichlariga ahamiyat berish, ya’ni harakatga halaqit bermaydigan bichim va qomatga mos konstruktsiya tanlash, kiyimni ishlov berishda maxsus texnologiyalardan foydalanish tavsiya qilinadi [2]. Shuningdek, bolalar kiyimida rang va dizayn ham funksionallikka ta’sir qiladi.

1-rasm. Funksional bolalar kiyimi loyihalashning asosiy yo’nalishlari

Bugungi kunda bolalar uchun funksional kiyimlarni loyihalashda zamonaviy tendensiyalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ekologik toza materiallardan foydalanish, aqlli (smart) kiyimlar ishlab chiqish, hamda ko‘p funksiyali va moslashuvchan konstruktsiyalarni yaratish ustuvor yo‘nalishlar sifatida namoyon bo‘lmoqda [3]. Ekologik yondashuv doirasida tabiiy tolalar, qayta ishlanadigan xomashyo va ‘zero-waste’ texnologiyalarni qo‘llash orqali atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirish maqsad qilinadi. Shu bilan birga, aqlli tekstil materiallari asosida ishlab chiqilayotgan kiyimlar bolaning sog‘lig‘ini nazorat qilish, haroratni boshqarish va tashqi muhitga moslashish kabi funksiyalarni bajaradi. Bunday materiallar sensorlar va innovatsion tolalar yordamida tashqi ta’sirlarga javob qaytarish xususiyatiga ega.

Zamonaviy loyihalash jarayonida, shuningdek, ergonomik va adaptiv dizayn yechimlari, ya’ni bolaning harakat faolligi va tez o‘sishini hisobga oluvchi elastik, transformatsiyalanuvchi va modular konstruksiyalarni qo‘llash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijada funksional bolalar kiyimi nafaqat estetik, balki sog‘liqni saqlash, qulaylik va uzoq muddat foydalanish talablariga ham javob beradigan kompleks mahsulot sifatida shakllanmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, funksional imkoniyatlari oshirilgan bolalar kiyimini loyihalash zamonaviy tikuvchilik sanoatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bunday kiyimlar bolalarning sog‘lom rivojlanishi, qulayligi va xavfsizligini ta’minlaydi. Loyihalash jarayonida ergonomika, material tanlash va innovatsion yechimlarga e’tibor qaratish yuqori sifatli mahsulot yaratishga yordam beradi. Shuningdek, bunday kiyimlar nafaqat iqtisodiy jihatdan foydali, balki bolaning hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, bolalar kiyimlarini ishlab chiqishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, raqamli modellashtirish va avtomatlashtirilgan tikuv jarayonlaridan foydalanish

mahsulotning aniqligi va sifatini oshiradi. Dizayn jarayonida esa bolalarning yosh xususiyatlari, harakat faolligi va psixologik qabul qilish omillari ham inobatga olinishi lozim. Shu bilan birga, ekologik toza materiallardan foydalanish bolalar salomatligini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi. Umuman olganda, funksional bolalar kiyimini loyihalash nafaqat texnik va estetik talablarni, balki ijtimoiy va ekologik mas’uliyatni ham o‘z ichiga olgan kompleks jarayon hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Lan Hu, Siti Rohaya Yahaya. Multi-Functional Modular Children's Clothing Design Innovation. https://socialspacejournal.eu/menu-script/index.php/ssj/article/view/305/148
2. SH.G.Madjidova, M.A.Aripjanova, D.A.Bahriddinova. “Bolalar kiyimini konstruksiyalash va modellashtirish” o‘quv qo‘llanma // Toshkent: “TURON NASHRIYOT”, 2021-144 b.
3. Diana Santiago, Isabel Cabral, Joana Cunha. Children’s Functional Clothing: Design Challenges and Opportunities. May 202414(11):4472. DOI:10.3390/app14114472. https://www.researchgate.net/publication/380874582_Children's_Functional_Clothing_Design_Challenges_and_Opportunities

POLIMER KOMPOZITSIYASI KONSENTRATSIYASINING GAZLAMALAR FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARIGA TA’SIRINI TADQIQ QILISH

PhD, N.M.Artikbayeva,
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti
t.f.d.prof.M.K.Rasulova,
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti
magistr. O.A.Normo’minova
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Maqolada polimer kompozitsiyasini to’qimachilik gazlamarining fizik-mexanik xususiyatlariga ta’siri tadqiqi tahlil qilingan. Gazlamalarning yuza zichligi va qalinligining o’garishlari bo’yicha tajriba natijalari keltirilgan.*

Аннотация: *В статье анализируется исследование влияния состава полимеров на физико-механические свойства текстильных тканей. Представлены экспериментальные результаты изменений поверхностной плотности и толщины тканей.*

Abstract: *This article analyzes the influence of polymer composition on the physical and mechanical properties of textile fabrics. Experimental results on changes in the surface density and thickness of fabrics are presented.*

Gazlamalar assortimentining tez sur’atlarda o‘zgarishi tikuvchilik tarmog’i va tikuv buyumlari iste’molchilarida katta qiziqish uyg’otadi. Gazlamalarning asosiy xususiyatlaridan biri, bu uning tolaviy tarkibi bo‘lib, gazlamaning vazifasini va qo‘llanish sohasini belgilaydi, shu bilan birga tikuv buyumlarining konstruktiv o‘ziga xosligini, hamda kiyimga ishlov berish rejimlarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Kiyim uchun eng ahamiyatli jihati gazlamaning vazifasi (paltobop, kostyumlik, ko‘ylak-kostyumlik, ko‘ylak-sorochkabop, astarbop) hisoblanadi [1].

Maqolada tadqiqot ob’ekti sifatida hozirda iste’molchilar tomonidan talabda bo‘lgan zamonaviy to‘qimachilik gazlamalarining 6 turdagi namunalari tanlab olindi.Ularning strukturaviy tavsifi 1-jadvalda keltirildi. Ushbu gazlamalar kostyumlik va ko’ylaklik gazlamalar bo‘lib, ayollar kiyimlarini tikish uchun mo‘ljallangan. Bu gazlamalarning tolaviy tarkibi ipak, poliefir va viskozadan iborat. Ushbu gazlamalardan kiyim tayyorlash jarayonida buyum turidan kelib chiqib astar bilan ishlov berish tavsiya etiladi [1-2].

Tikuv buyum detallarida oraliq qavat materiallar bilan termoyelimli ishlov berish orqali tikuv buyumlari detallariga shakl saqlovchanlikni berishning an’anaviy usuli bir nechta kamchiliklarga ega bo‘lib, xususan, bu buyumning vaznini oshishi, ekspluatatsiya jarayonida yelimli qotirma bilan ishlov berilgan detallar vaqt o‘tishi bilan dastlab berilgan hajmdor shaklini yo‘qotib, asta-sekin yassi holatga kelishni boshlaydi.

1-jadval

Turli gazlamalar haqida ma’lumot

t/r	Namunalar	Gazlama qalinligi, mm	Yuza zichligi, gr/m^2	Tolaviy tarkibi, %	Gazlama tashqi ko’rinishi
ko‘ylak-kostyumlik					
1	Namuna-1	0,35	165,4	60% poliefir, 40% viskozadan	
2	Namuna-2	0,25	136,4	60% poliefir, 40% viskozadan	
3	Namuna-3	0,35	152,5	60% poliefir, 40% viskozadan	
ko‘ylaklik					
4	Namuna-4	0,35	124,6	100% poliestr	

5	Namuna-5	0,2	88,3	100% ipak	
6	Namuna-6	0,2	70,8	100% ipak	

Bu kamchiliklar ishlov berishning kimyoviy texnologiyasi yordamida muvaffaqiyatli tarzda bartaraf etilishi mumkin [3].

Ma’lumki [3], zamonaviy gazlama assortimenti ayollar kiyimida keng qo‘llanilmoqda. Shu bois ilmiy tadqiqot ishida qotirma materiallarining zamonaviy kostyum va ko’ylaklik gazlama turlariga ta’siri tahlil qilingan. Kostyum va ko’ylaklik gazlamalarning fizik-mexanik xossalaridan to‘qimachilik gazlamalarining qalinligi, gazlamalarning yuza zichlikiga polimer kompozitsiyasining ta’siri taxlili ko’rib chiqildi.

Ilmiy tadqiqot ishida to‘qimachilik gazlamalari hamda gazlama+polimer kompozitsiyasining gazlamaning qalinligiga ta’siri tahlili o‘tkazildi. To‘qimachilik gazlamalarning qalinligini sinash uchun 6 turdagi to‘qimachilik gazlama namunalari tayyorlanadi. Har bir gazlama namunasi 25,0-70,0 gr/l konsentratsiyali polimer kompozitsiya eritmasi bilan hamda dublerin bilan ishlov berildi [4-5].

Gazlama+polimer kompozitsiya bilan ishlov berilgan namunalar hamda gazlama+dublerin namunalar qalinligi laboratoriya sharoitida aniqlandi [6]. Bunda gazlama namunalarining dastlabki holatdagi va polimer kompozitsiya eritmalari hamda dublerin bilan ishlov berilgandan keyingi qalinligi o‘lchandi [7] (2-jadval).

2-jadval

Gazlama+polimer kompozitsiyasining gazlama qalinligiga ta’siri

Konsentrasiya miqdori, gr/l	N-1	N-2	N-3	N-4	N-5	N-6
25,0	0,35	0,35	0,35	0,35	0,2	0,2
40,0	0,35	0,35	0,35	0,35	0,2	0,2
60,0	0,35	0,35	0,35	0,35	0,2	0,2
70,0	0,35	0,35	0,35	0,35	0,2	0,2
Ishlov berilmagan namuna	0,35	0,35	0,35	0,35	0,2	0,2
Kostyumlik gazlama+dublerin	**0,5**	**0,5**	**0,5**	**0,5**	**0,35**	**0,35**
Farqi	**0,15**	**0,15**	**0,15**	**0,15**	**0,15**	**0,15**

Tadqiqot natijalaridan shunday xulosa qilish mumkinki, gazlamalar qalinligi gazlama+polimer kompozitsiya bilan ishlov berilgandan keyin qalinlik

ko‘rsatkichi o‘zgarmadi. Gazlama+dublerin namunalari o‘rtacha 0,15 mm ga qalinlashgani ma’lum bo‘ldi. To‘qimachilik gazlamalariga gazlama+polimer kompozitsiya bilan ishlov berilganda gazlama namunalarining barchasida gazlama qalinligi o‘zgarmadi. Gazlama+dublerin bilan ishlov berilgan gazlama namunalarining qalinligi o‘rtacha 42,2 % ga oshganini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar asosida keyingi tadqiqot ishlarida yuqoridagi 6 turdagi gazlama namunalaridan foydalanib, gazlama+polimer kompozitsiya hamda gazlama+dublerin paketlarining shakl barqarorligini tadqiq qilish va tavsiya ishlab chiqish vazifasi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Artikbayeva N.M. Kiyim detallari shaklbarqarorligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish: t.f.f.d. PhD: -TTYSI.Toshkent, 2024.-187 b.
2.Артикбаева Н.М., Расулова М.К., Шин И.Г. Влияние складкообразования на формоустойчивость тканевой оболочки, пропитанной полимерной композицией // УЗМУ хабарлари, 2024 йил, Б 348-352.
3.Н.М.Артикбаева, И.Г. Шин, С.Ш. Ташпулатов, И.В. Черунова, Н. Бралина Оценка напряженного состояния при формообразовании объемных участков деталей одежды потоком сжатого воздуха //Иванова2019 г. № 5 (383) 2019.-С181-186.
4.Комарова А.А., Веселов В.В. Использование современных химических препаратов для формоустойчивой обработки швейных изделий // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности.-Москва, 2009.-№1(313).- С.89-9.
5.Корнилова Н.Л., Горелова А.Е. К вопросу учета формовочных свойств материалов при проектировании одежды // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности.-Москва, 2007.-№ 6с (304).-С.86-88.
6. Жерницын Ю.Л., Гуламов А.Э.. Методическое указание по выполнению научно-исследовательских и лабораторных работ по испытанию продукции текстильного назначения. Ташкент 2007 г.
7. Artikbayeva N.M., Axmedov B.B., Rasulova M.K., Musurmonova N.A, Polimer kompozisiyalar bilan ishlov berishni kostyumbop gazlamalar shakl saqlovchanligi va shaklbarqarorligiga ta’sirini tadqiq qilish // Development of science, fevral 2025/3, 111-115 b.

KIYIM DETALLARIGA DASTLABKI ISHLOV BERISH JARAYONIDA INNOVATSION USULLARNI QO‘LLASH MUAMMOLARI

YSM kafedrasi katta o‘qituvchi X.SH.Tursunova
Farg‘ona davlat texnika unversiteti

Annotatsiya: *Maqolada kiyim detallariga dastlabki ishlov berishda innovatsion texnologiyalar, muammolar va ularning yechimlari hamda ishlab chiqarishni optimallashtirish masalalari yoritiladi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются инновационные технологии, проблемы и их решения в области предварительной обработки деталей одежды, а также вопросы оптимизации производства.*

Abstract: *The article discusses innovative technologies, problems and their solutions in the preliminary processing of clothing details, as well as issues of production optimization.*

particulier. Ils veillent à ce que la palette de couleurs et les tendances du look correspondent à l'entreprise ou à la marque. Ces concepteurs exigeants sur le plan commercial doivent s'assurer que, même si la direction est «correcte», elle est à la fois portable et rentable.

Les haut-parleurs trouvent, sélectionnent et adaptent des idées et des tendances à un segment de marché spécifique. Ce n'est peut-être pas un rôle très créatif, mais il faut des compétences techniques pour mettre en évidence les tendances des podiums qui réussiront à atteindre la rue principale. Les grandes chaînes de distribution telles que H&M, Zara, Gap et Forever 21 utilisent des haut-parleurs.

Conclusion

L'étude de la typologie de Rieple & Gander démontre que le succès dans le business de la mode ne dépend pas uniquement de la créativité pure, mais de l'équilibre entre l'innovation artistique et la réactivité face au marché. Les Individualistes et les Dirigeants façonnent l'esthétique future, tandis que les Interprètes et les Reproducteurs assurent la viabilité commerciale en adaptant ces visions à la consommation de masse. En 2026, cette classification reste fondamentale pour comprendre comment les marques de "fast-fashion" et les maisons de haute couture coexistent dans un écosystème numérique où la vitesse de communication redéfinit constamment les cycles de production.

Bibliographie

1. **Rieple, A. & Gander, J. (2009).** *Design as a strategic resource: A management perspective*. Management Decision, Vol. 47, No. 2.
2. **Godart, F. (2010).** *Sociologie de la mode*. Paris: Réseaux (Puf).
3. **Gale, C. & Kaur, J. (2004).** *The Fashion Design Process*. London: Bloomsbury Academic.
4. **Bandinelli, R. & Gaeta, L. (2020).** *La gestion du business de la mode : Stratégies et processus*. Paris: Dunod.
5. **Erner, G. (2004).** *Victimes de la mode ? Comment on nous crée des besoins*. Paris: La Découverte.

DIZAYN ASOSIDA YENGIL SANOAT MAHSULOTLARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

YSM kafedrasi katta o‘qituvchi Mirboboyeva Gulxayo Abdusattorovna
Farg‘ona davlat texnika universiteti
94-24 YSM guruh talabasi Qosimova Zeboxon Avazbek qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda dizaynning o‘rni tahlil qilingan. Zamonaviy*

texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida mahsulot sifatini yaxshilash yo‘llari ko‘rib chiqilgan. Bozor talablariga moslashish, estetik va funksional dizayn yaratish hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan.

Аннотация: *В данной статье анализируется роль дизайна в повышении конкурентоспособности продукции лёгкой промышленности. Рассматриваются пути улучшения качества продукции на основе современных технологий и инновационных подходов. Освещаются вопросы адаптации к рыночному спросу, создания эстетичного и функционального дизайна, а также повышения эффективности производства.*

Annotation: *This article analyzes the role of design in increasing the competitiveness of light industry products. It examines ways to improve product quality based on modern technologies and innovative approaches. The study highlights adaptation to market demand, creation of aesthetic and functional design, and improvement of production efficiency in the industry.*

Yengil sanoat bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha aholi ehtiyojlarini qondirish bilan birga eksport salohiyatini oshirishda ham muhim o‘rin tutadi. So‘nggi yillarda global bozor sharoitida raqobat keskinlashib, mahsulot sifatiga, dizayniga va innovatsion yechimlarga talab ortib bormoqda. Dizayn mahsulotning tashqi ko‘rinishi bilan birga uning funksional xususiyatlarini ham belgilovchi muhim omilga aylandi. Yengil sanoat korxonalarida zamonaviy dizayn yondashuvlarini qo‘llash mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, iste’molchilarning didi va talablarining o‘zgarishi ishlab chiqaruvchilardan doimiy innovatsiyalarni talab etadi. Shu sababli, dizayn asosida yangi mahsulot turlarini yaratish va assortimentni kengaytirish dolzarb masalaga aylangan.

Yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda dizayn asosiy strategik omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda faqat sifatli mahsulot ishlab chiqarish yetarli emas, balki uning tashqi ko‘rinishi, qulayligi va iste’molchi talablariga mosligi ham muhimdir. Dizayn jarayoni mahsulotni loyihalashdan boshlab uning ishlab chiqarilishi va bozorga chiqishigacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi. Shu sababli dizaynerlar va muhandislar hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Yengil sanoatda innovatsion texnologiyalar, xususan, kompyuter grafikasi, 3D modellashtirish va raqamli dizayn vositalari mahsulot sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va xatoliklarni kamaytiradi. Bozor tahlili natijalari shuni ko‘rsatadiki, iste’molchilar ko‘proq estetik jihatdan chiroyli, qulay va ekologik toza mahsulotlarga e’tibor qaratmoqda. Shu sababli dizayn jarayonida ekologik omillar ham hisobga olinishi kerak.[1].

Yengil sanoatda assortimentni kengaytirish ham raqobatbardoshlikni oshirishning muhim yo‘lidir. Turli xil dizayndagi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali korxonalar turli iste’molchilar segmentini qamrab olishi mumkin.

Dizayn omillarining raqobatbardoshlikka ta’siri

1-jadval.

Dizayn omili	Ta’sir yo‘nalishi	Natija
Estetik ko‘rinish	Iste’molchini jalb qilish	Sotuv hajmi oshadi
Ergonomika	Qulaylikni oshirish	Iste’molchi qoniqishi ortadi
Innovatsiya	Yangi mahsulot yaratish	Bozor ulushi kengayadi
Ekologik dizayn	Atrof-muhitga moslik	Barqaror rivojlanish

Dizayn asosida ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish ham muhimdir. Raqamli texnologiyalar yordamida xomashyo sarfini kamaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Shuningdek, marketing va dizayn o‘rtasidagi integratsiya mahsulot muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. Reklama va brending jarayonida dizaynning ahamiyati juda katta. Yengil sanoatda xalqaro tajribalarni o‘rganish ham muhim. Rivojlangan davlatlarda dizayn markazlari ishlab chiqarishning asosiy qismi sifatida qaraladi.[2].

Mahsulot raqobatbardoshligini oshirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim hisoblanadi: innovatsion dizayn, sifat nazorati, iste’molchi tahlili va texnologik yangilanishlar.[3]. Yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy dizayn yondashuvlarining integratsiyalashuvi eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda faqat estetik ko‘rinish emas, balki mahsulotning intellektual dizayn konsepsiyasi ham katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa “aqlli dizayn” tushunchasini shakllantirib, mahsulotning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Masalan, foydalanuvchi ehtiyojlarini avtomatik tahlil qiluvchi raqamli tizimlar asosida yaratilgan dizaynlar iste’molchi bilan bevosita moslashuvni ta’minlaydi.

Xulosa

Yengil sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirishda dizayn muhim strategik ahamiyatga ega. Zamonaviy dizayn yondashuvlari mahsulotning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning funksionalligi, sifati va iste’molchi talablariga mosligini ham yaxshilaydi. Innovatsion texnologiyalar va raqamli dizayn vositalaridan foydalanish ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi va

samaradorlikni oshiradi. Shuningdek, assortimentni kengaytirish va bozor talablarini chuqur tahlil qilish korxonalar muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Yengil sanoatda dizayn va texnologiyaning uyg‘unligi raqobatbardosh mahsulotlar yaratishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi hamda xalqaro bozorda o‘rin egallash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov A. A. Yengil sanoat texnologiyalari va ishlab chiqarish asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2017. [1]
2. Mirzayev Sh. M. Sanoat dizayni asoslari. Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2015.[2]
3. Tursunov B. T. Ishlab chiqarish texnologiyasi va yengil sanoat. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. [3]
4. Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti. O‘quv qo‘llanma: Yengil sanoat mahsulotlari dizayni. Toshkent, 2020.

KIYIM BEZAKLARINING INSON PSIXOLOGIYASI VA MADANIYATIDAGI AHAMIYATI

YSM kafedrasikatta o‘qituvchi (PhD), I.N. Obidova
Farg‘ona davlat texnika universiteti
M43-25 guruh magistranti M.Abdumitalova
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya:*Ushbu maqolada kiyimdagi bezaklarning inson psixologiyasiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilingan. Bezaklarning psixologik jihatlari inson kayfiyati, o‘zini ifoda etish, o‘ziga ishonch hissini kuchaytirishdagi o‘rni hamda madaniy jihatlari-milliy qadriyatlarni saqlash, tarixiy xotirani uzatish va marosimlardagi ramziy ma’nolari yoritilgan.*

Аннотация: *В данной статье анализируется влияние украшений на одежде на психологию человека. Особое внимание уделяется психологическим аспектам украшений, включая их роль в формировании настроения, самовыражении и уверенности в себе, а также их культурным аспектам – сохранению национальных ценностей, передаче исторической памяти и символическому значению в церемониях.*

Annotation: *This article analyzes the impact of clothing decorations on human psychology. The psychological aspects of decorations are highlighted, including their role in human mood, self-expression, and self-confidence, as well as their cultural aspects - preserving national values, transmitting historical memory, and symbolic meanings in ceremonies.*

Libos dizayni, faqat estetik shakl yaratish emas, balki inson organizmi (fiziologiya) va ruhiyati (psixologiya) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni hisobga olgan holda funksional va emotsional jihatdan mos mahsulot ishlab chiqish jarayonidir. Kiyimdagi bezaklar (kashta, naqsh, panjal, metall bezak, ruchka, ramzli elementlar) faqat estetik element emas; ular insonning shaxsiyati, ijtimoiy maqomi, guruhga mansubligi, tarixiy xotirasi va siyosiy yoki diniy e’tiqodlarini ifoda etuvchi vizual matn hisoblanadi. Ushbu vizual tilni tadqiq etish semiotika, etnografiya va psixologiyaning kesishgan joyidadir.

Psixologik ahamiyati**.** Kiyim va uning bezaklari insonga “men kimgaman” degan xabarni tashiydi -milliy, diniy, jinsiy yoki professional identifikator sifatida. Bu o‘zini-o‘zi tasdiqlash (self-verification) va o‘zini ifoda etish vositasidir.

Tadqiqotlar kiyim tanlovi va tashqi ko‘rinishning kayfiyat, ishonch va hattoki xulq-atvorga ta’sir qilishini ko‘rsatadi -“dress-for-success” yoki “enclothed cognition” kabi hodisalar orqali. Kiyinish orqali odam o‘zini qulayroq, rasmiyroq yoki jozibadorroq his qilishi mumkin.[1]

Qimmat mato, murakkab kashta yoki zargarlik -qadimdan ijtimoiy maqom va boylik belgisi bo‘lib kelgan. Bezaklarning qiyofasi boshqalar tomonidan tezda o‘qiladigan “signal” hisoblanadi. Madaniy va historik ahamiyati. Ko‘plab jamiyatlarda kashta va ornamentlar tarixiy voqealarni, miflarni, qishloq-hayotini yoki klan/urug‘ belgilarini saqlovchi vizual xotira rolini bajaradi. Masalan, an’anaviy bluz yoki kashtalar jamiyatning madaniy o‘zligini mustahkamlaydi; UNESCO ham bir qancha kashta va mato texnikalarini madaniy meros deb e’tirof etgan.

Tug‘ilish, nikoh, dafn kabi marosimlarda bezaklar maxsus ma’noga ega: ba’zan himoya, ba’zan baraka, ba’zan ijtimoiy statusni ko‘rsatadi. Ushbu tizimlar odatda avloddan-avlodga o‘tiladi va ayollar, ustalar orqali o‘rganiladi.

Bezaklar orqali guruhlar o‘z qarashlarini ifoda etishi, resistensiya ko‘rsatishi yoki diasporada madaniy izqitishni davom ettirishi mumkin. Markaziy Osiyo (O‘zbek kashtalari)**:** naqshlar ko‘pincha tabiat (gul, yulduz), himoya ramzlari (kross, chiziqlar) va hududiy belgilardan tashkil topgan; ularning har biri oilaviy, hududiy yoki statusni anglatishi mumkin. [2]

- Global misollar: tatreez (Palestine), phulkari, kantha (Hind, Subkontinent), Zmijanje va boshqa Evropa kashtalari - barchasi jamiyat xotirasi, iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash va identifikatsiyaga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodlari va dalillar

- Antropologik etnografiya: kiyim odamlardan intervyu, marosim kuzatuvlari orqali tahlil qilinadi.
- Psixologik eksperimentlar**:** “enclothed cognition” va uslub orqali sub’ektlarning kayfiyati ishlash samarasi o‘rganiladi.

- Madaniy meros tashkilotlari (UNESCO**)**: an’anaviy tikuv va kashta texnikalarining roli hamda saqlash zarurati haqida hujjatlar.

Xulosa

Kiyimdagi bezaklar inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat estetik go‘zallik yaratadi, balki shaxs va jamiyat o‘rtasidagi ruhiy hamda madaniy aloqani mustahkamlaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bezaklar orqali inson o‘z his-tuyg‘ularini, ichki dunyosini va ijtimoiy mavqeini ifoda etadi. Ular shaxsning o‘ziga ishonchini oshirish, kayfiyatini yaxshilash va jamiyatda o‘z o‘rnini belgilashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bezaklar milliy identitet, tarixiy xotira va madaniy merosni avloddan avlodga uzatishda vositachi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Moda va psixologiya asoslari: Karen Pine. Mind What You Wear: The Psychology of Fashion. – London: 2012.
2. O‘zbekiston milliy kashtachiligi bo‘yicha: O‘zbek xalq amaliy san’ati (kashtachilik). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2010.
3. Traditional Crafts and Intangible Cultural Heritage Documentation. – Paris, 2017.

SANOATDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI (IT) TA'LIMINI TRANSFORMATSIYA QILISH: METODIK YONDASHUVLAR, RAQAMLI INSTRUMENTLAR VA EKOTIZIMLAR

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institute
Moda va dizayn kafedrasi
Sindarova Shoxista Maxammatovna

Annotatsiya: *Hozirgi zamon fan metodologiyasi ilmiy faoliyatning ma’nosini, uning ijod, amaliyot, ijtimoiy borliqning ma’naviyat sohasi, kengroq aytganda, butun madaniyat bilan aloqasini aniqlaydi. Ilmiy hamda innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari hamda texnoparklarni tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilgan.*

Kirish: Sanoatda axborot texnologiyalari eng ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Innovatsiyalarni sanoatda joriy etish iqtisodiy tomonlama va bozorning raqobatbardoshligini ta’minlash tomonlama osishda muhim omilga aylanmoqda. Bu esa o‘z navbatida, barcha jabhalarda innovatsiyalar sohasidagi ilg‘or ilmiy ishlanmalar va texnik yutuqlardan samarali foydalanish hamda raqobatbardoshligini mustahkamlashni talab etmoqda. Bu borada ko’pgina davlatlar tomonidan ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni takomillashtirishga

katta miqdorda investitsiyalar yo‘naltirilmoqda.

Jahon iqtisodiyotida korxonalar uchun ajratilayotgan mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshirish masalasi birinchi o‘rin egallaydi. Faoliyat ko‘rsatuvchilar muhitini tahlil qilish uchun texnik samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqilgan. O’tkazilgan taxlil natijalari asosida barcha davlatlarni 4 guruhga birlashtirilgan va nomlangan.

1. Innovatsion ideal davlatlar.
2. innovatsion izdoshlar.
3. mo‘’tadil innovator bo‘lgan mamlakatlar.
4. orqada qolgan davlatlar. Manashu ko’rib chiqilgan usul asosida rivojlanish ko’rsatkichlari tahlil qilib boriladi.

Ushbu usul yordamida quyidagi ko‘rsatkichlar amalga oshiriladi:



AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya va Germaniya kabi rivojlangan davlatlarda
innovatsion faoliyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xarajatlar samarali foydalaniladi. Shu bilan bir vaqtda iqtisodiyotning o‘tish davridagi davlatlar esa ushbu mablag‘lardan samarasiz foydalanilmoqda.

Umuman olganda hozirgi davrda innovatsion iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini belgilaydigan hal qiluvchi omil ilmiy tadqiqot va prinsip jihatidan yangi mahsulot turlarini yaratish uchun ishlanmalar natijalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan mamlakatning innovatsion muhitini shakllantirish va rivojlantirish, mahsulotlarni ishlab chiqarishning yangi texnologiyalarini yaratish va ishlatish hamda keyinchalik bozorda joriy etish va realitsiya qilishdir.

Bugungi kunda mamlakatning innovatsion faoliyatini baholovchi yana bir muhim ko‘rsatkichlardan biri bo‘lgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga qilingan xarajatlar O‘zbekiston Respublikasida yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,2 %ni tashkil etmoqda.

Ma’lumotlariga ko‘ra 2013-yilda Koreya Respublikasida ilmiy tadqiqot va

innovatsion faoliyatni rivojlantirishga sarflangan mablag‘lar yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4,2 %ni tashkil etadi, Yaponiyada bu ko‘rsatkich YaIMga nisbatan 3,5 %ni, Germaniyada 2,9 %ni, AQShda 2,8 %ni, Fransiyada 2,2 %ni, Xitoyda 2,1 %ni, Buyuk Britaniya va Kanadada 1,6%ni, Rossiya Federatsiyasida esa 1,1 %ni tashkil etmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatda bu yo‘nalishga sezilarli darajada kam mablag‘lar ajratiladi.

Bir million aholiga to‘g‘ri keladigan tadqiqotchilar soni bo‘yicha ham rivojlangan davlatlar rivojlanayotgan davlatlardan ancha ilgarilab ketganligini ko‘rishimiz mumkin. Metodologiya fanda foydalaniladigan bilish vositalari, usullarining majmuyi, shuningdek, fanning ijodiy bilish va amaliy-o‘zgartirish faoliyatini tashkil etish vositalari, shart-sharoitlari va prinsiplarini o‘rganuvchi ilmiy-falsafiy bilim sohasidir. Ilmiy bilish obyektiv voqelik olamini mexanika, fizika, astronomiya, kimyo, biologiya, ijtimoiy bilish qonunlari ko‘rinishida ijodiy yaratadi.

YALPI ICHKI MAXSULOT %

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga qilingan xarajatlar



Fan metodologiyasi va mantig‘i yangi bilim olish shartlari va usullarini o‘rganadi. Fan metodologiyasi (epistemologiyasi) yangi bilim tuzish prinsiplari va bunday bilimni olish usullarining falsafiy tahlili, ilmiy bilishning umumiy va

maxsus metodlari tizimidir. Fan metodologiyasi ilmiy ijod uchun, yangi haqqoniy bilimni ongli ravishda va izchil olish uchun zarur bo‘lgan ilmiy bilish apparati, mexanizmining asoslarini ishlab chiqishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Fan metodologiyasi va epistemologiyasi u yoki bu jamiyatdagi dunyoqarash, fanning gnoseologik, etik va hatto estetik qoidalari va an’analari asosiga quriladi.

Hozirgi zamon fan metodologiyasi va epistemologiyasi ilmiy bilishning tabiatini, uning genezisini, tarixini va hozirgi holatini, ilmiy bilishning haqqoniyligi asoslari va mezonlarini o‘rganadi. Uchinchi to‘lqin sivilizatsiyasi hozirgi zamon postmodernistik falsafasining har bir yo‘nalishi o‘z epistemologiyasiga ega, ammo hozirgi zamon stentistik yo‘nalishlari (neopozitivizm, germenevtika, tanqidiy ratsionalizm, neorealizm, fan falsafasi)da epistemologik tadqiqotlarning ahamiyati antistentistik yo‘nalishlar (ekzistensializm, falsafiy antropologiya va boshqalar)dagidan ancha kattadir.

Fan metodologiyasi va epistemologiyasi ilmiy bilish va ilmiy ijodni, ya’ni ilmiy-tadqiqot faoliyatini o‘rganadi. Har qanday ilmiy yutuq yoki kashfiyot nafaqat muayyan predmet mazmuniga, balki metodologik jihatga ham egadir, zero, u fanda ilgari olingan axborotni tanqidiy qayta ko‘rish, fanning tushunchalar apparati va tadqiqot negizini muttasil yangilash (yangi metodlar, usullar va yondashuvlar yangi apparatura, yangi institutlar va laboratoriyalar) bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, fanning o‘ziga nisbatan metodologiya va epistemologiya fanning o‘zini o‘zi bilish va o‘zini o‘zi anglash shakllaridan biridir. Ilmiy ijod metodologiyasi olim shaxsining yangi bilim olish va uni amalda qo‘llash sohasidagi ijodiy salohiyatini ochib beradi va tahlildan o‘tkazadi.

Subyektning obyektga faol munosabati sifatidagi bilishning eng umumiy jihatlarini tahlildan o‘tkazuvchi gnoseologiyadan farqli o‘laroq, metodologiya bilishning bu jihatlari va tomonlari bilish bilan bog‘liq muayyan vaziyatlarda va bilishning sohalarida, ma’lum ijtimoiy-iqtisodiy, texnikaviy-texnologik va tarixiy sharoitlarda qanday o‘z ifodasini topishiga e’tiborni qaratadi. Shundan so‘ng metodologiya ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirish, ratsionalizatsiya qilish, maqbullashtirish va samaradorligini oshirish muammolarini o‘rganadi.

Tizimli yondashuvning muhim vazifalari quyidagilardan iborat:

— bilish obyektini yaxlit, murakkab uyushgan tizim sifatida ko‘rib chiqish;

— tizimning umumlashtirilgan modelini, uning alohida qismlari va jihatlarining modellarini tuzish (kompyuterlashtirilgan).

— tizimlar nazariyalari hamda har xil tizim nazariyalari va ishlovlarining tuzilishini va samaradorligini o‘rganish .

XX asrning ikkinchi yarmida epistemologiyada tizimlar umumiy nazariyasi

vujudga keldi. U tizimli yondashuv g‘oyalari va prinsiplarining bilishda muayyanlashtirilgan mantiqiy-metodologik ifodasi bo‘ldi. Tizimlar umumiy nazariyasi muayyan tabiiy, texnikaviy, ijtimoiy fanlarning o‘rnini bosmay, har qanday tizimli tadqiqotning umumiy metodologik prinsiplarini ta’riflab beradi.

Bugungi kunda Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkiloti (IHTT) hamda Evrostat “innovatsiya” terminiga o‘zlarining talqinlarini taklif etmoqda. Unga ko‘ra, innovatsiya qandaydir yangi yoki sezilarli yaxshilangan mahsulot (tovar yoki xizmat) yoki jarayonni, marketingning yangi usullari yoki amaliyotga yangi tashkiliy usulni iste’mol uchun kiritish, ish o‘rinlari yoki tashqi aloqalarni tashkil etishni namoyon qiladi. Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, innovatsiyani yoki g‘oyani haqiqatda amalga oshirishga olib keladigan barcha ilmiy, texnologik, tashkiliy, moliyaviy va tijorat faoliyati innovatsion faoliyat hisoblanadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasini 30-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirishdir. Shu bilan birga, respublika viloyatlarida bo‘lib o‘tayotgan xalq bilan bevosita muloqot paytida mamlakatimiz Prezidenti tomonidan barcha hududda ilm-fan salohiyatini tiklash, hududlarning kompleks rivojlanishini ta’minlashda mavjud intellektual salohiyatdan samarali foydalanish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga keng jalb qilish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab berilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda ilmiy izlanishlarni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning real muammolariga yo‘naltirish, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy integratsiyani ta’minlash, o‘z navbatida, ishlab chiqarish korxonalari tomonidan olimlarning ilmiy-texnologik ishlanmalarini amaliyotga joriy qilish samaradorligini oshirish mexanizmlarini yaratish masalalari o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

AKT mahsulotlari eksportini ko‘paytirish, shuningdek, mahalliy va xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag‘batlantirish maqsadida Axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy qilishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha “Mirzo Ulugbek Innovation Center” innovatsiya markazi tashkil etildi.

Shu bilan birga, ilg‘or xorijiy tajriba, jahon fanining zamonaviy yutuqlari, innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalar asosida iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va ijtimoiy sohani jadal innovatsion rivojlantirishni ta’minlash maqsadida mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish belgilandi. Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g‘oyalari va ishlanmalarini har

tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, shuningdek, ushbu faoliyatda iqtidorli yoshlar faol ishtirok etishi uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Innovatsiya faoliyati sohasida ilg‘or xorijiy (xalqaro) tashkilotlar bilan, shu jumladan, ularni nou-xau, nanotexnologiyalar va yuqori texnologik tovar (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishning mahalliy bozoriga jalb qilish orqali hamkorlikni kengaytirish va boshqalar.

Umuman olganda, siz bilan bizning asosiy maqsadimiz mamlakatimizning innovatsiyalarni yaratuvchi lider davlatlar qatoridan joy egallashi uchun qulay zamin yaratishni ta’minlash bo‘lmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sindarova, S. M., Rikhsibaev, U. T., & Khalilova, H. E. (2022). THE NEED TO RESEARCH AND USE ADVANCED PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS'CREATIVE RESEARCH. *Academic research in modern science*, *1*(12), 34-40.
2. Mirzaliev, Z., Sindarova, S., & Eraliyeva, S. (2019). Organization of Independent Work of Students on Drawing for Implementation of the Practice-Oriented Approach in Training. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, *17*(1), 297-298.
3. Sindarova, Shoxista Maxammatovna (2021). O‘YINLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH ORQALI O‘QUVCHILARNING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI SHAKLLANTIRISH (CHIZMACHILIK FANI MISOLIDA). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1 (11), 686-691.
4. Maxammatovna, S. S. (2022). Methods of Solving Some Problems of Teaching Engineering Graphics. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, *7*, 97-102.
5. Рихсибоев, У. Т., Халилова, Х. Э., & Синдарова, Ш. М. (2022). AutoCAD дастуридан фойдаланиб деталлардаги ўтиш чизиқларини қуришни автоматлаштириш. *Science and Education*, *3*(4), 534-541.
6. Bobomurotov, T. G., & Rikhsiboev, U. T. (2022). Fundamentals Of Designing Triangles Into Sections Equal 5, 7, 9, 11, 13, 15, 17 And 19. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, *3*(2), 96-101.
7. Makhammatovna, S. S. (2023). Pedagogical and Psychological Aspects of Improving the Methods of Developing Students' Creative Research. *Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education*, *2*(3), 37-41.
8. Abdurahimova, F. A., Ibrohimova, D. N. Q., Sindarova, S. M., & Pardayev, M. S. O. G. L. (2022). Trikotaj mahsulotlar ishlab chiqarish uchun paxta va ipak ipini tayyorlash va foydalanish texnologiyasi. *Science and Education*, *3*(4), 448-452.

9. Sindarova, S. (2023). TALABALARDA IJODIY IZLANUVCHANLIKKA XOS SIFATLARNI SHAKILLANTIRISH USULLARI. *Академические исследования в современной науке*, *2*(11), 23-29.
10. Sindarova Shoxista Maxammatovna, & Maxmudov Abdunabi Abdug‘afforovich (2022). MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI O‘QITISHDA IJODIY IZLANISH TALAB QILINADIGAN MASALALAR. Ta’lim fidoyilari, 24 (17), 2-275-284.

XORAZM VA FARG’ONA AYOLLAR MILLIY KIYIMLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

YSM kafedrasi v.v.bdots. Xomidov
Voxidjon Obidovich
Farg’ona davlat texnika universiteti
Talaba Jumanazarova Charosxon
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Anotatsiya:*Ushbu tezisda Farg‘ona va Xorazm hududlariga xos bo‘lgan ayollar milliy kiyimlari o‘rganilib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida har ikki hudud ayollar kiyimlarining shakli, mato turlari, ranglari, bezak elementlari va tikilish uslublari haqida ma’lumotlar berilgan.*

Аннотация: *В данной диссертации изучается национальная женская одежда, типичная для Ферганской и Хорезмской областей, и анализируются её уникальные особенности. В ходе исследования была получена информация о форме, типах тканей, цветах, декоративных элементах и стилях пошива женской одежды в обоих регионах.*

Abstract: *This thesis studies the national women's clothing typical of the Fergana and Khorezm regions and analyzes their unique features. During the study, information was provided about the shape, types of fabrics, colors, decorative elements and sewing styles of women's clothing in both regions.*

O‘zbekiston milliy kiyimlari xalqning madaniyati, urf-odatlari va tarixini o‘zida aks ettiradi. Har bir hududning milliy kiyimlari o‘ziga xos shakl, rang va bezaklarga ega. Ayniqsa ayollar kiyimlari milliy qadriyatlarning muhim qismi hisoblanadi. Farg‘ona va Xorazm hududlari ayollar kiyimlari ham o‘zining betakrorligi bilan ajralib turadi. Ushbu mavzuda bu ikki hudud ayollar milliy kiyimlari o‘rganilib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilinadi.[1]

Farg‘ona vodiysi qadimdan to‘qimachilik va ipakchilik rivojlangan hududlardan biri hisoblanadi. Shu sababli bu yerda ayollar kiyimlari atlas, adras va shoyi matolaridan tikilgan. Farg‘ona ayollari uzun va keng ko‘ylak, lozim va

ustidan kamzul yoki chopon kiyishgan.Ko‘ylaklar rang-barang atlas matosidan tikilib, juda chiroyli ko‘rinishga ega bo‘lgan. Kiyimlarda turli naqshlar va ranglarning uyg‘unligi milliy uslubni ifodalaydi. Bosh kiyim sifatida ro‘mol yoki do‘ppi taqilgan. Bundan tashqari, ayollar turli zargarlik buyumlari – sirg‘a, bilaguzuk va marjonlar bilan bezanishgan.[2]

1-rasm. Farg’ona va Xorazm ayollar milliy kiyimlari

Xorazm hududi ayollar kiyimlari o‘zining boy bezaklari va kashtachiligi bilan ajralib turadi. Bu hudud ayollari uzun va keng ko‘ylaklar kiyishgan. Ko‘ylaklar ustidan kamzul yoki chopon kiyish odat bo‘lgan. Xorazm kiyimlarida kashta va zar iplar bilan bezash keng tarqalgan. Ayniqsa kiyimlarning yoqa, ko‘krak va yeng qismlarida milliy kashtalar uchraydi. Bosh kiyim sifatida ro‘mol va turli bezakli bosh kiyimlar ishlatilgan. Shuningdek, kumush taqinchoqlar ham ayollar kiyimining muhim qismi hisoblangan.[3]

Xorazm va Farg’ona viloyatlaridagi ayollar milliy kiyimlari bir-biridan bichimi,materiali va bezaklari bilan farq qiladi. Xorazm kiyimlari asosan qadimiy salobatli, jiddiylikni ifodalovchi uslubda bo’lsa, Farg’ona milliy kiyimi nafis yorqin va estetik jihatdan boy libosdir. Har ikkala viloyat kiyimlari o’ziga xos madaniy meros bo’lib , o’z hududining tabiati, turmush tarzi va tarixini aks ettiradi. Bugungi kunda Xorazm va Farg’ona milliy kiyimlari zamonaviy modada o’z o’rnini topgan. Xorazmcha naqshlar va rangli dizaynerlar tomonidan etnostill kiyimlarda qo’llaniladi.Farg’ona atlaslari esa milliy liboslar, sahna kostyumlarida va to’y liboslarida keng ishlatiladi.

O‘zbekiston qadimiy madaniyat va boy milliy an’analarga ega mamlakat hisoblanadi. Har bir hududning o‘ziga xos urf-odatlari, san’ati va milliy kiyimlari mavjud. Ayniqsa ayollar milliy kiyimlari xalqning estetik didi, turmush tarzi, iqlim sharoiti va tarixiy taraqqiyotini aks ettiradi. Farg‘ona va Xorazm hududlari ayollar kiyimlari ham o‘zining bezagi, shakli, matolari va tikilish uslubi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli bu hududlarning milliy kiyimlarini o‘rganish va tahlil qilish milliy madaniyatni chuqur anglashda muhim ahamiyatga ega.[4]

Farg‘ona vodiysi ayollar milliy kiyimlari nafisligi, yengilligi va nozik bezaklari bilan ajralib turadi. Bu hududda ayollar ko‘ylaklari odatda atlas, adras,

shoyi kabi yengil va yorqin matolardan tikilgan. Ko‘ylaklar keng va uzun bo‘lib, harakat uchun qulaylik yaratadi. Farg‘ona ayollar liboslarida rang-baranglik muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa atlas matosining turli ranglari kiyimlarga jozibadorlik bag‘ishlaydi. Farg‘ona hududida ayollar ko‘ylaklari ko‘pincha sodda, ammo did bilan bezatiladi. Yoqalarida mayda kashtalar, yeng qismida esa yengil bezak elementlari qo‘llanadi. Shuningdek, Farg‘ona ayollari kiyimida ro‘mol va yengil bosh kiyimlar ham muhim o‘rin tutadi.

Xorazm ayollar kiyimlarining muhim jihatlaridan biri – bezaklarning ko‘pligidir. Kiyimlar ko‘pincha kashta, zar iplar yoki milliy naqshlar bilan bezatilgan. Ayniqsa ko‘krak qismi va yenglarida kashtachilik elementlari ko‘p uchraydi. Xorazm ayollari bosh kiyimiga ham katta e’tibor berishgan. Ular ro‘mol bilan birga turli bezakli bosh kiyimlar ham taqishgan. Ko‘ylak ustidan ayollar kamzul yoki nimcha ham kiyishgan. Bu kiyimlar ko‘pincha baxmal yoki qalin matodan tikilib, turli xil kashtalar va bezak elementlari bilan boyitilgan. Kamzul ayol qomatini yanada chiroyli ko‘rsatib, kiyimga tantanavor ko‘rinish beradi.

Farg‘ona va Xorazm ayollar milliy kiyimlarini solishtirganda bir qancha o‘xshashlik va farqlarni ko‘rish mumkin. O‘xshash jihati shundaki, har ikkala hudud kiyimlarida ham milliy naqshlar, kashtachilik va rang-barang matolar ishlatiladi. Bundan tashqari, kiyimlar uzun va keng bo‘lib, ayollarning milliy an’analariga mos tarzda tikilgan.[5]

Farqli jihatlar esa mato tanlashda, ranglarda va bezak uslublarida ko‘rinadi. Farg‘ona kiyimlari ko‘proq yorqin rangli atlas va adras matolari bilan ajralib tursa, Xorazm kiyimlarida kashta va bezaklar ko‘proq uchraydi. Shuningdek, Xorazm kiyimlari ko‘pincha ko‘p qatlamli bo‘lib, tantanavor ko‘rinishga ega.[6]

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona va Xorazm ayollar milliy kiyimlari o‘zbek xalqining boy madaniy merosini aks ettiradi. Bu kiyimlar nafaqat kundalik hayot uchun xizmat qilgan, balki xalqning estetik didi, urf-odatlari va tarixiy an’analarini ham ifodalagan. Hozirgi kunda ham milliy kiyimlar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan bo‘lib, bayramlar, marosimlar va madaniy tadbirlarda keng foydalanilmoqda. Milliy kiyimlarni o‘rganish va saqlash esa kelajak avlodlarga boy madaniy merosni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.[7]

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2.Rasulova M. O‘zbek milliy kiyimlari tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.

3.Abdullayeva D. O‘zbek xalqining milliy liboslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015.

4. .Rahmonov B. O‘zbek xalq amaliy san’ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012.

5.Qodirova M. Milliy kiyim va zamonaviy moda. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

6.O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti, 2005.

NEFTCHILAR UCHUN MAXSUS ISH KIYIMINI LOYIHALASH

YSM kafedrasi dotsent v.v.b V.O.Xomidov
Farg’ona davlat texnika universiteti
Talaba Sh.I.Mamarazoqova
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Ushbu maqoladada neft sanoatida faoliyat yurituvchi ishchilar uchun maxsus ish kiyimlarini loyihalashning ahamiyati, ularning himoya xususiyatlari hamda qulaylik talablariga javob beruvchi konstruktiv yechimlar yoritib beriladi.*

Аннотация: *В данной статье подчеркивается важность разработки специальной рабочей одежды для работников нефтяной промышленности, ее защитных свойств и конструктивных решений, отвечающих требованиям комфорта.*

Abstract: *This article highlights the importance of designing special workwear for workers in the oil industry, their protective properties, and constructive solutions that meet comfort requirements.*

Bugungi kunda neft va gaz sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Bu sohada ishlovchi mutaxassislar ko‘pincha og‘ir va xavfli mehnat sharoitida faoliyat olib boradilar. Ish jarayonida ular yuqori harorat, yonuvchan moddalar, kimyoviy reagentlar va mexanik ta’sirlarga duch kelishlari mumkin. Shu sababli neftchilar uchun maxsus ish kiyimlarini ishlab chiqish va loyihalash muhim ahamiyatga ega. Bunday kiyimlar ishchilarni tashqi omillardan himoya qilish bilan birga, ularning harakat erkinligini ta’minlashi va uzoq vaqt ishlash jarayonida qulaylik yaratishi kerak. Maxsus kiyimlar nafaqat himoya vositasi, balki ishlab chiqarish samaradorligini oshiruvchi muhim omil hamhisoblanadi.

Dolzarbligi: Bugungi kunda maxsus kiyimlarga bo’lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Maxsus kiyimlar o’zining qulayligi bilan bir qatorda uzoq vaqt davomida o’zining xususiyatini yo’qotmasdan saqlab qolishligi muhim omil hisoblanadi.

Ushbu ishning maqsadi neftchilar uchun masus ish kiyimini loyihasini ishlab chiqarish va uni takomillashtirishdan iborat. Bunda eng avvalo ish kiyimi uchun qo’yiladigan talablar muhim hisoblanadi. Talablardan so’ng albatta shu talablarga mos gazlama ham tanlanishi lozim. Talablar va gazlamalar tanlangan

so’ng uning konstruksiyasi ishlab chiqiladi. Konstruksiyasi ham albatta, ishchilar uchun qulay va ko’p funksiyali bo’lishi lozim. Bizga ma’lumki, maxsus ish kiyimida ko’p buyumlar olib yuriladi[1]. Konstruktor albatta bularni chetda qoldirmasligi lozim.

Neftchilar uchun maxsus ish kiyimiga qo’yiladigan talablar quyidagicha:

Himoya xususiyati. Kiyim ishchini olov, yuqori harorat, kimyoviy moddalar va mexanik shikastlanishlardan himoya qilishi kerak.

Mustahkamlik. Mato tez yirtilmaydigan va uzoq muddat foydalanishga chidamli bo‘lishi lozim.

Gigeynik xususiyatlar. Kiyim havo o‘tkazuvchan bo‘lishi, terini nafas olishini ta’minlashi kerak.

Qulaylik. Ish jarayonida harakatni cheklamasligi va ergonomik jihatdan qulay bo‘lishi muhim.

Maxsus kiyim uchun material tanlash.

Maxsus kiyimlarda qo‘llaniladigan gazlamalar hamma talablarga javob beradigani mavjud emas, mexanik ta’sirlarga chidamlilari suyuqlik yutishi, o‘tkazishi yoki o‘zida tutib turishi mumkin[2]. Olovga chidamli materiallar egilish, siqilish deformatsiyalari ta’sirida o‘z butunligini yo‘qatadi. Kimyoviy moddalarga chidamlilari esa turli mexanik ta’sirlarga bardoshi past bo’ladi.

Neftchilar uchun ish kiyimini ishlab chiqarishda asosan yuqori sifatli va mustahkam matolar qo‘llaniladi. Masalan: paxta tolasi asosidagi matolar; -aralash tolali (paxta va sintetik tolalar) matolar; -olovga chidamli maxsus matolar; Masalan: Oleon-pro mbo+to - yangi avlod maxsus kiyimlari uchun mo‘ljallangan gazlama. Neft-gaz, metallurgiya tarmoqlarining talablariga binoan kompleks himoya qiluvchi: ochiq alanga ta’siridan, yuqori xaroratdan, elektromagnit maydon ta’sirlaridan himoyalaydi hamda suv bug‘larini shimmaydi, neft maxsulotlarini o‘tkazmaydigan gazlama. Material oqmaydi, ochiq olov ta’siriga chidamli, qisqa muddatli yong‘inda va yuqori xaroratda o‘zgarmaydi, alanga ta’sirida ham oldingi xolatini saqlab qoladi.

Bunday materiallar nafaqat mustahkam, balki namlikni yaxshi shimadi va terini himoya qiladi. Ayrim hollarda kiyimga maxsus qoplama berilib, u kimyoviy moddalar va neft mahsulotlariga chidamli bo‘ladi. Maxsus ish kiyimlarini uzoq muddatga chidashi va o‘z shaklini yaxshi saqlash, bu kiyimlar insonni turli zararli ta’sirlardan himoya qilishi, ularni tayyorlashda ishlatilgan materialarning mexanik va fizik xossalari muhim ahamiyatga ega[3]. Shuningdek maxsus kiyimlardagi choklarning pishiqligi –250 N dan kam bo‘lmagan uzilish kuchiga ega bo‘lishi talab qilinadi.

Kiyim konstruktsiyasi va dizayni.

Maxsus ish kiyimini loyihalashda uning konstruktsiyasiga alohida e’tibor beriladi. Kiyim quyidagi elementlarga ega bo‘lishi mumkin: -ko‘p sonli funksional cho‘ntaklar; -mustahkam tikuvlar; -reflektor (yorug‘lik

qaytaruvchi) tasmalari; -shamollatish uchun maxsus teshik yoki panellar;

Bunday elementlar ishchining xavfsizligini oshiradi va ish jarayonida qulaylik yaratadi. Dizayn ham muhim bo‘lib, u ishlab chiqarish sharoitiga mos ranglar va shakllardan iborat bo‘ladi.



1-rasm. Buyum eskizi.

Ilmiy yangilik sifatida ushbu maqolada neftchilar uchun maxsus ish kiyimini loyihalashda ekpulatatsion va gigeynik talablari tahlil qilingan holda ilmiy asoslanib chiqildi[4]. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yengil sanoat sohasida maxsus kiyimlarni loyihalash jarayonida foydalanish mumkin. Bu dizaynerlar va konstruktorlar uchun amaliy tavsiyalar beradi hamda mahsulotlarni bozorda raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Xulosa: Neftchilar uchun maxsus ish kiyimini loyihalash mehnat xavfsizligini ta’minlashda muhim o‘rin tutadi. Kiyimni yaratishda material sifati, himoya xususiyatlari, ergonomik qulaylik va dizayn omillari hisobga olinishi zarur. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ishlab chiqilgan maxsus kiyimlar ishchilarning xavfsizligini oshirish bilan birga, ularning mehnat samaradorligini ham ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mansurova M.Tosheva Sh.A. Norqobilova M. Neftchilarning maxsus kiymini loyihalash masalalar Zamonaviy ilm -fan va ta’lim istiqbollari 2024-yil.

2.Rahimov R. Kiyim dizayni asoslari. – Toshkent, 2018.

3.M.Sh.Jabborov. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. – Toshkent,1994.

4.V.O. Xomidov. Insonning erganomik harakatlarini inobatga olgan holda avtomobil ta’mirlovchi ishchilarga maxsus kiyim ishlab chiqarish tadqiqi. Monografiya. – Farg’ona 2025.

JINSI MATOSIDAN ERKAKLAR ZAMONAVIY KO‘YLAGINI YANGI MODELINI TAYYORLASH

YSM kafedrasi v.v.b. dots. Xomidov Vohidon Obidovich
Farg‘ona davlat texnika universiteti
Talaba Mustakimova Madinaxon Muhiddin qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada jinsi matosidan erkaklar uchun mo’ljallangan zamonaviy ko‘ylakning yangi modelini yaratish jarayoni o‘rganiladi. Tadqiqot davomida jinsi matoning fizik-mexanik xususiyatlari, uning qulayligi va chidamliligi tahlil qilinadi.

Annotation: This article studies the process of creating a new model of a modern shirt for men from denim. During the research, the physical and mechanical properties of denim, its comfort and durability are analyzed.

Аннотация: : В данной статье исследуется процесс создания новой модели современной мужской рубашки из денима. В ходе исследования анализируются физико-механические свойства денима, его комфорт и износостойкость.

Jinsi (denim) matosidan erkaklar uchun zamonaviy ko‘ylak modelini yaratish mavzusi to‘qimachilik texnologiyasi, kiyim dizayni va moda sanoati bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda bir qator olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, Harold Carr to‘qimachilik materiallari va mato xususiyatlarini o‘rganish bilan mashhur bo‘lsa, Barbara Latham kiyim dizayni va konstruksiyasi sohasida ilmiy ishlar olib borgan. Helen Joseph-Armstrong kiyim andozalarini yaratish bo‘yicha yetakchi mutaxassislardan biri hisoblanadi. Winifred Aldrich esa kiyim konstruksiyasi va texnologiyasi bo‘yicha muhim ilmiy ishlari bilan tanilgan. Gerry Cooklin kiyim ishlab chiqarish texnologiyasi va dizayn jarayonlarini chuqur o‘rgangan olimlardan biridir. Mazkur mavzu bo‘yicha bir qator ilmiy va o‘quv adabiyotlari ham mavjud. Xususan, Helen Joseph-Armstrong tomonidan yozilgan “Patternmaking for Fashion Design” kitobi kiyim andozalarini yaratish va zamonaviy modellash asoslarini yoritadi. Winifred Aldrichning “Metric Pattern Cutting for Menswear” asari erkaklar kiyimini konstruksiyalash jarayonini batafsil tushuntirib beradi. Gerry Cooklinning “Garment Technology for Fashion Designers” kitobida kiyim ishlab chiqarish texnologiyasi va materiallar bilan ishlash jarayonlari bayon etilgan. Rose Sinclairning “Textiles and Fashion” kitobi turli matolar, jumladan denimning xususiyatlarini o‘rganishga yordam beradi. Shuningdek, Roshan Paulning “Denim: Manufacture, Finishing and Applications” asarida jinsi matosining ishlab chiqarilishi, unga ishlov berish va qo‘llanilishi haqida keng ma’lumot berilgan. James Sullivan tomonidan yozilgan “Jeans: A Cultural

History of an American Icon” kitobi esa denim kiyimlarning tarixiy rivojlanishini yoritadi. Umuman olganda, ushbu manbalar jinsi matosidan erkaklar zamonaviy ko‘ylagini yaratish jarayonini ilmiy asosda o‘rganish, dizayn va texnologik yechimlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jinsi (denim) matosi bugungi moda sanoatida eng ommabop materiallardan biri hisoblanadi[3]. U o‘zining mustahkamligi, uzoq muddat xizmat qilishi, qulayligi va estetik ko‘rinishi bilan ajralib turadi. Shu sababli, jinsi matosidan tayyorlangan erkaklar ko‘ylaklari kundalik va yarim rasmiy uslublarda keng qo‘llanilmoqda[2]. Erkaklar ko’ylagida yangi model ishlab chiqishda nafaqat dizayn, balki konstruktiv va texnologik yechimlarga ham alohida e’tibor qaratish zarur[1].

Zamonaviy moda sanoati doimiy o‘zgarish va rivojlanish jarayonida bo‘lib, iste’molchilarning talab va didi ham tobora murakkablashmoqda[4]. Erkaklar kiyimlarida qulaylik, funksionallik va estetik ko‘rinish muhim hisoblanadi. Shu jihatdan jinsi (denim) matosi nafaqat mustahkamligi, balki dizayn imkoniyatlari va universal qo‘llanilishi bilan o‘zining yetakchi o‘rnini egallaydi[2].

1-rasmda erkaklar uchun mo’ljallangan oddiy siluetli zamonaviy ko’ylaklar tasvirlangan. Ular o’zlarining oddiy va qulayligi bilan erkaklar kiyimi orasida ajralib turadi.

1-rasm

Jinsi matosi dastlab ish kiyimlari va harbiy kiyimlar uchun ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda u kundalik kiyimlar, sport uslubidagi kiyimlar va hattoki yarim rasmiy kiyimlar uchun ham asosiy material sifatida ishlatiladi. Denim matosining keng qo‘llanilishi uning mustahkamligi, uzoq muddat xizmat qilishi, rangni saqlash xususiyati, shuningdek, har xil bo‘yash va yuvish texnologiyalariga moslashuvchanligidan kelib chiqadi[3].

Erkaklar ko‘ylaklarini yaratishda denim matosining fizik-mexanik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarur. Masalan, matoning zichligi uning shaklni ushlab turish qobiliyatini, elastikligi esa kiyimning harakatlanishga

moslashuvchanligini belgilaydi. Shuningdek, rang berish, yuvish va ishlov berish texnologiyalari yordamida ko‘ylakka turli vizual effektlar berish mumkin “washed”, “stone washed”, “vintage” yoki “fade” effektlari mahsulotga zamonaviy ko‘rinish beradi va bozor talabini qondiradi[3].

Modelni loyihalashdan so‘ng, ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy texnologiyalar qo‘llaniladi:

- CAD tizimlari konstruktsiya va dizaynni aniq loyihalash, turli o‘lchamlar va variantlarni sinash imkonini beradi.
- Avtomatlashtirilgan kesish tizimlari - materialni isrof qilmasdan kesish, tikuv sifatini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlaydi.
- Sanoat tikuv mashinalari va sifat nazorati - tikuvning mustahkamligi va vizual sifatini kafolatlaydi.
- Rang berish va yuvish texnologiyalari - ko‘ylakka turli effektlar berish va matoning chidamliligini saqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, ekologik jihatlar ham hisobga olinadi - zamonaviy ishlab chiqarishda suv va kimyoviy moddalarni tejash, barqaror rang berish texnologiyalarini qo‘llash muhim hisoblanadi.

Xulosa Jinsi matosidan erkaklar zamonaviy ko‘ylagining yangi modelini yaratish bugungi kunda moda sanoati va sanoat ishlab chiqarish uchun dolzarb masaladir. Jinsi matosidan tayyorlangan erkaklar ko‘ylagi nafaqat amaliy, balki estetik va tijoriy jihatdan ham yuqori qiymatga ega bo‘ladi. Taklif etilgan model bozor ehtiyojlarini qondirish, yangi moda tendensiyalariga moslashish va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahimov R. — Kiyim konstruksiyasi asoslari. Toshkent, 2020.
2. Brown P. — Men’s Fashion Design. New York, 2018.
3. Smith J. — Denim: Manufacture, Finishing and Applications. UK, 2019.
4. Xudoyberdiyev A. — Moda dizayn asoslari. Toshkent, 2021.

ISHCHI XODIMLARI UCHUN MAXSUS KIYIM ISHLAB CHIQARISH TADQIQI

Nabidjanova Nargiza Nasimjanovna
Namangan davlat texnika universiteti professori
Mamatqulova Saida Raxmatovna
Farg‘ona davlat texnologiya universiteti,
Yengil sanoat muhandisligi kafedrasi, Katta o‘qituvchi (PhD)
Qozoqbayeva Shahnozaxon Baxodir qizi
Namangan davlat texnika universiteti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya: *Korxonalarda ish jarayonlari, mehnat ob’yektlarining shakli yoki holatini o‘zgartirishga qaratilgan turli operatsiyalarni bajarishda texnologik jihozlar va uskuna vositalaridan foydalaniladi. Tikuvchilik sanoatida bunday jihozlar orqali jarayonlarni mexanizatsiyalash nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki ishchilarning psixologik holati, mahsulot sifati va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta’minlashga xizmat qiladi.*

Аннотация: *В промышленных предприятиях технологические операции, направленные на изменение формы или состояния объектов труда, выполняются с использованием технологического оборудования и машин. В швейной промышленности механизация процессов с помощью такого оборудования способствует не только повышению производительности труда, но и улучшению психологического состояния работников, повышению качества продукции и созданию безопасных условий труда.*

Tajriba davomida to‘qimachilik gazlamalarining mustahkamligini aniqlash maqsadida to‘qimachilik gazlamalarining cho‘zilishdagi uzilish kuchi taqiqoti o‘tkazildi. Tajribalar AUTOGRAPH AG-I qurilmasida sinov davomida o‘tkazildi. Tajribaviy tadqiqotlarda mavjud to‘qimachilik gazlama namunalari va tavsiya etilayotgan to‘qimachilik gazlama+polimer kompozitsiya bilan ishlov berilgan namunalarning uzish kuchi aniqlandi [7].

Olingan natija qiymatlari 1-jadvalga kiritildi.

1-jadval

To‘qimachilik gazlama, gazlama+polimer kompozitsiya uzilish kuchi va uzilishdagi uzayish bo‘yicha tadqiqot natijalari ma’lumoti

№	Gazlama turi	Gazlama				Gazlama+ polimer kompozitsiya			
		Uzilish kuchi, N		Uzilishdagi uzayish, %		Uzilish kuchi, N		Uzilishdagi uzayish, %	
		Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq	Tanda	Arqoq
1	Namuna-1	468	294	14	24	526	281	13	18
2	Namuna-2	836	841	10	10	1001	-	24	-
3	Namuna-3	388	294	14	18	401	306	11	17
4	Namuna-4	710	712	12	13	991	727	14	15
5	Namuna-5	286	285	11	12	305	399	13	14
6	Namuna-6	382	290	13	16	397	301	11	15
7	Namuna-7	277	287	11	12	299	382	13	14
8	Namuna-8	701	699	12	13	971	712	14	14
9	Namuna-9	282	190	13	14	291	256	11	13
10	Namuna-10	434	388	12	13	412	389	11	12
11	Namuna-11	742	733	14	15	997	735	15	16

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, to‘qimachilik gazlama namunalarida uzilish kuchi tanda bo‘yicha 282-836 N gacha, arqoq bo‘yicha esa 190-841 N gacha, uzilish kuchi 6.2% dan 16.4% oshgani ma’lum bo‘ldi. To‘qimachilik

gazlama+PVA kompozitsiya bilan ishlov berilgan namunalarda esa tanda bo‘yicha 291-1001 N gacha, arqoq bo‘yicha esa 281-735 N gacha o‘zgarib 4.4% dan 13.5% oshganini ko‘rish mumkin [1,8].

Uzilishdagi uzayish ko‘rsatkichlari to‘qimachilik gazlamalarda tanda bo‘yicha 11-15 % gacha, arqoq bo‘yicha esa 10-24% gacha ekani ko‘rsatdi, uzilish kuchi 6.2% dan 16.4% ekani ma’lum bo‘ldi. To‘qimachilik gazlama+ PVA kompozitsiya bilan ishlov berilgan namunalarda esa tanda bo‘yicha 11-24% gacha, arqoq bo‘yicha esa 12-18% gacha o‘zgarib 28.5% dan 30% oshganini ko‘rsatdi
(1-jadval).

Jadvaldagi 2-namuna arqoq bo‘yicha uzilmagani, gazlama+polimer kompozitsiya bilan ishlov berilganda ham namuna uzilmagani ma’lum bo‘ldi.

Kiyim detallarining mustahkamligi ortsa kiyim detallarida shakl hosil bo‘lish va shaklbarqarorlik xususiyati ortadi. Maqolada kiyim detallari shaklbarqarorligiga erishish maqsadida mavjud ishlov berish texnologiyasi o‘rni yangi ishlov berish kiyim detallarida polimer kompozitsiyani qo‘llash texnologiyasi taklif qilindi. Tajribaviy tadqiqotlar natijalari gazlama+polimer kompozitsiyani tikuv buyumlarida qo‘llash namunaning mustahkamigi ortishini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Artikbayeva N.M. Kiyim detallari shaklbarqarorligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish: t.f.f.d. PhD: -TTYSI.Toshkent, 2024.-187 b.
2.Артикбаева Н.М., Расулова М.К., Шин И.Г. Влияние складкообразования на формоустойчивость тканевой оболочки, пропитанной полимерной композицией // УЗМУ хабарлари, 2024 йил, Б 348-352.
3.Н.М.Артикбаева, И.Г. Шин, С.Ш. Ташпулатов, И.В. Черунова, Н. Бралина Оценка напряженного состояния при формообразовании объемных участков деталей одежды потоком сжатого воздуха //Иванова2019 г. № 5 (383) 2019.-С181-186.
4.Комарова А.А., Веселов В.В. Использование современных химических препаратов для формоустойчивой обработки швейных изделий // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности.-Москва, 2009.-№1(313).- С.89-9.
5.Корнилова Н.Л., Горелова А.Е. К вопросу учета формовочных свойств материалов при проектировании одежды // Изв. вузов. Технология текстильной промышленности.-Москва, 2007.-№ 6с (304).-С.86-88.
6.Жерницын Ю.Л., Гуламов А.Э.. Методическое указание по выполнению научно-исследовательских и лабораторных работ по испытанию продукции текстильного назначения. Ташкент 2007 г.
7.Artikbayeva N.M., Axmedov B.B., Rasulova M.K., Musurmonova N.A, Polimer kompozisiyalar bilan ishlov berishni kostyumbop gazlamalar shakl

saqlovchanligi va shaklbarqarorligiga ta’sirini tadqiq qilish // Development of science, fevral 2025/3, 111-115 b.
8.Ташпулатов С.Ш., Артикбаева Н.М., Шин И.Г., Джураев А.Д., Черунова И.В., Плеханов А.Ф. Устройство для объемного формования деталей одежды. Патент RU №2720837 C1 13.05.2020.

QURILISH-PARDOZLASH ISHLARI USTALARI MAXSUS KIYIMLARI KONSTRUKSIYASINI ERGONOMIK TALABLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Magistr K.Vasiyeva, PhD, dotsent D.X.Isayeva,
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Maqolada qurilish-pardozlash ishlari ustalari uchun zamonaviy ish kiyimlarini loyihalash masalalari ergonomikaga alohida urg‘u bergan holda ko‘rib chiqiladi. Unda mehnat sharoitlari va ish jarayonlari biomexanikasi tahlil qilingan. Shuningdek, qulaylikni oshirish, charchoqni kamaytirish hamda kasbiy xavflardan himoya qilishga qaratilgan konstruktiv yechimlar taklif etilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida mehnat unumdorligining yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы проектирования современной одежды для мастеров строительно-отделочных работ с упором на эргономику. Проведен анализ условий труда и биомеханики механизмов труда. Предложены конструктивные решения, направленные на повышение комфорта, снижение утомляемости и защиту от профессиональных рисков, что обеспечит высокий уровень производительности труда.*

Abstract. *This article examines the design of modern workwear for construction and finishing trade workers, with a focus on ergonomics. It includes an analysis of working conditions and the biomechanics of work-related movements. The article proposes design solutions aimed at increasing comfort, reducing fatigue, and protecting against occupational hazards, which will ensure a high level of productivity.*

Zamonaviy qurilish sohasida ish samaradorligi bevosita ustaning mehnat sharoitlariga bog‘liq. Maxsus kiyim — qulaylik va xavfsizlikni ta’minlovchi omillardan biridir. Maxsus kiyimlarni loyihalashga doir tizimli yondashuvga ko‘ra, u “inson – ishlab chiqarish muhiti” tizimi bilan o‘zaro ta’sirlashuvchi himoya qobig‘i sifatida qaralishi kerak [1]. Quruvchilar uchun an’anaviy ish kiyimlari ko‘pincha soha ichidagi mutaxassisning o‘ziga xos jihatlarini chuqur hisobga olmay, o‘rtacha andazalar asosida loyihalanadi. Bu esa harakatlar cheklanishiga va tana harorati almashinuvining buzilishiga olib keladi. Shu bilan

birga, mehnatni muhofaza qilishning me’yoriy talablariga ko‘ra, kiyim nafaqat umumiy ishlab chiqarish ifloslanishlaridan himoyalangan bo‘lishi, balki qat’iy ergonomik ko‘rsatkichlarga ham javob berishi lozim [2]. Shu sababli pardozchi ustalar (suvoqchi, bo‘yoqchi, kafelchi) uchun maxsus kiyim konstruksiyalarini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Ergonomik kiyimlarni loyihalash antropometrik ma’lumotlarga va foydalanuvchi harakatlarining biokinematik sxemasi tahliliga asoslanadi [3]. Pardozchi usta mehnati o‘ziga xos xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

Yuqori dinamik va statik yuklamalar: Ish ko‘pincha majburiy holatlarda (cho‘kkalab, tizzalab, qo‘llarni yuqoriga ko‘targan holda) bajariladi. Qo‘llar 90 darajadan yuqoriga ko‘tarilganda, odatiy kiyim konstruksiyasi siljiydi (kurtka yuqoriga tortiladi), bu esa bel qismini ochib qo‘yadi.

Noqulay omillarning ta’siri: mayda dispersli chang, qurilish aralashmalari va harorat o‘zgarishlarining mavjudligi kiyim ostidagi bo‘shliqda normal mikroiqlimni ta’minlash uchun materiallar to‘plamini tanlashga alohida e’tibor talab qiladi [4].

Asboblarni olib yurish zaruriyati: Ishchi mayda qo‘l asboblari va o‘lchash anjomlaridan doimiy foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishi kerak, ularning og‘irligini esa tana yuzasi bo‘ylab taqsimlash lozim.

Pardozlash ishlarida foydalaniladigan kiyimlarga bir qator ergonomik talablar qo‘yiladi. Tahlil shartlaridan kelib chiqib, pardozlovchining maxsus kiyimiga quyidagi ergonomik talablar qo‘yiladi:

Antropometrik muvofiqlik: Kiyim konstruksiyasi harakatdagi tana o‘lchamlarining o‘zgarishiga mos kelishi kerak (dinamikada erkin turishi uchun qo‘shimchalar). Masalan, o‘tirgan holatda yoy uzunligi va qadam choki uzunligi sezilarli darajada oshadi [3].

Gigiyeniklik: Yuqori jismoniy faollik vaqtida tananing qizib ketishidan himoya qilish uchun havo o‘tkazuvchanligini va namlikni chiqarib yuborishni ta’minlashi kerak.

Harakat erkinligi: Bo‘g‘im bukiladigan joylarda qon tomirlari va nerv tugunlariga bosim bo‘lmasligi lozim.

Chiroyli tashqi ko‘rinish bilan uyg‘unlik

Yuqorida keltirilgan talablarga rioya qilish uchun och rangli maxsus kiyimlarga (kostyumlar va yarim kombinezonlarga) quyidagi yechimlarni joriy etish zarur: 1. Artikulyatsiyali bichim va elastik qo‘shimchalar. Harakat erkinligini ta’minlash uchun 3D-loyihalashdan foydalanib, qattiq va yassi andazalardan voz kechish kerak.

Tizza va tirsak zonalari: Bo‘g‘imlarning yarim bukilgan holatini takrorlaydigan anatomik vitochkalarni joriy qilish lozim.

Cho‘ziluvchan panellar: Bel, qadam choki va qo‘ltiq osti sohalarida elastik materiallardan (masalan, spandeks qo‘shilgan aralash matolardan) foydalanish. Bu keskin harakatlar va cho‘kkalash paytida matoning tortilishini ta’minlaydi.

Zaif zonalarni (tizza bo‘g‘imlarini) himoyalash. Kafel teruvchilar va suvoqchilar ish vaqtining sezilarli qismini tizzalariga tayanib o‘tkazganliklari sababli, shimlar amortizatsiya qiluvchi qo‘shimchalar uchun cho‘ntaklar bilan jihozlanishi kerak. Ushbu qismlarning konstruksiyasi tizzalab ishlaganda tizza bo‘g‘imlarini himoya qilish bo‘yicha tavsiyalarga mos bo‘lishi lozim [5]. Cho‘ntaklarni yuqori mustahkamlikka ega poliamid matolardan (masalan, Cordura turidan) tayyorlash tavsiya etiladi.

Saqlash tizimini optimallashtirish.

Osma cho‘ntaklar: An’anaviy qoplama cho‘ntaklar o‘rniga ko‘p bo‘lmali g‘ilof-cho‘ntaklardan foydalanish maqsadga muvofiq. O‘tirganda ular vertikal holatini saqlab qoladi, bu esa mahkamlagichlarning tushib ketishiga yo‘l qo‘ymaydi va asbobni sonning yumshoq to‘qimalariga bosib turadi.

Cho‘ntaklarning joylashuvi qo‘l harakati maydonining yetish zonasini hisobga olgan holda loyihalashtirilishi kerak.

Mikroiqlimni tartibga solish va belni himoya qilish.

Shamollatish klapanlari: Faol ter ajraladigan zonalarda (orqa koketka, qo‘ltiq osti) havo almashinuvini kuchaytirish uchun trikotaj to‘rli klapanlar nazarda tutilishi lozim [4].

Kurtkaning uzaytirilgan ort bo‘lagi: egilganda gavda uzunligining o‘zgarishini qoplaydi, belni qurilish maydonchasidagi haddan tashqari sovqotishdan va yelvizaklardan himoya qiladi.

Qurilish-pardozlash ishlari ustalari uchun sifatli kiyimlarni ergonomik talablar asosida takomillashtirish xodimlarning salomatligi va ish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ilmiy asoslangan jarayondir. Artikulli bichim, elastik qo‘shimchalardan foydalanish, bo‘g‘imlarni himoya qilish tizimlari va ergonomik cho‘ntaklarni integratsiyalash kabi o‘zgartirishlarni joriy etish yangi avlod maxsus kiyimlarini yaratishga imkon beradi. Bunday yondashuv nafaqat tayanch-harakat apparati kasbiy kasalliklari xavfini kamaytiradi, balki toliqishni pasaytirish hisobiga umumiy mehnat unumdorligini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Романов В. Е. Системный подход к проектированию чистой одежды. — М.: Легпромбытиздат, 1991. — 128 с. (Фундаментальный труд по принципам создания спецодежды).

2. ГОСТ 12.4.280-2014. Система стандартов безопасности труда (ССБТ). Одежда, специальная для защиты от производственных

загрязнений и механических воздействий. Общие технические требования. — М.: Стандартинформ, 2015.

3. Коблякова Е. Б., Ивлева Г. С. и др. Конструирование одежды с элементами САПР: Учебник для вузов / Под ред. Е. Б. Кобляковой. — М.: Легпромбытиздат, 1988. — 464 с. (Базовый учебник по антропометрии и динамике движений при проектировании одежды).

4. Сурженко Е. Я. Теоретические основы и методологическое обеспечение эргономического проектирования одежды: дис. ... доктор технических наук. — СПб.: СПГУТД, 2001. — 380 с.

5. ГОСТ EN 14404-2013. Защита коленного сустава в положении стоя на коленях.

TURLI QOMAT TIPIDAGI AYOLLAR UCHUN ERGONOMIK KONSTRUKSIYA YARATISH

“Moda va dizayn” kafedrasi professori, Phd X.M.Yunusxojayeva
“Dizayn” yo‘nalishi 1-bosqich magistranti I.I.Abdug‘aniyeva
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur tadqiqotda turli qomat tipidagi ayollar uchun ergonomik talablar asosida kiyim konstruksiyasini yaratish masalalari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida ayollar qomatining antropometrik xususiyatlari, tana proporsiyalari, harakat erkinligi hamda qulaylik darajasi tahlil qilindi. Turli qomat shakllariga mos konstruktiv yechimlar ishlab chiqilib, konstruksiya jarayonida amaliy modellashtirish usullari qo‘llanildi. Natijalar ergonomik konstruksiya kiyimning funksional sifati, estetik ko‘rinishi va konstruktiv mukammalligini oshirishini ko‘rsatdi.*

Аннотация. *В данном исследовании рассматриваются вопросы создания конструкции одежды для женщин с различными типами фигуры на основе эргономических требований. В ходе исследования были изучены антропометрические особенности женской фигуры, пропорции тела, свобода движений и уровень комфорта. Были разработаны конструктивные решения, адаптированные к различным типам фигуры, с применением практического моделирования. Результаты показали, что эргономичная конструкция повышает функциональность, эстетичность и конструктивное совершенство одежды.*

Annotation. *This study examines the development of clothing construction for women with different body types based on ergonomic requirements. The study analyzed anthropometric characteristics, body proportions, freedom of movement, and comfort levels of women. Constructive solutions adapted to*

various body shapes were developed using practical modeling methods. The results demonstrated that ergonomic construction significantly improves clothing functionality, aesthetic appearance, and structural perfection.

Bugungi kunda kiyim dizayni va konstruksiyasida ergonomik yondashuv muhim ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Zamonaviy moda sanoatida ayollar uchun yaratilayotgan kiyimlar nafaqat estetik talablarni, balki foydalanuvchining individual anatomik va fiziologik xususiyatlarini ham qondirishi zarur. Ayollar orasida qomat shakllarining xilma-xilligi standart konstruksiyalarni har doim ham samarali qilmaydi. Natijada kiyimning tana bilan mosligi, harakat qulayligi va foydalanish sifati pasayadi. Shu sababli turli qomat tiplariga mos ergonomik konstruksiya yaratish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ergonomik konstruksiya tana proporsiyalarini chuqur o‘rganish, individual o‘lchamlarni hisobga olish va funksional qulaylikni ta’minlash orqali kiyim sifatini oshiradi [1].

Tadqiqot davomida turli qomat tipidagi ayollar uchun ergonomik konstruksiya yaratish maqsadida keng qamrovli antropometrik va amaliy izlanishlar olib borildi. Avvalo, ayollar qomatlari vizual va antropometrik tahlil asosida to‘rt asosiy guruhga ajratildi: qumsoat, noksimon, to‘g‘ri va doirasimon shakllar. Har bir qomat turining o‘ziga xos anatomik xususiyatlari o‘rganildi. Masalan, qumsoat qomat tipida ko‘krak va bo‘ksa proporsiyasi muvozanatli bo‘lib, bel qismi aniq ajralib turadi. Bunday qomat uchun konstruksiya yaratishda bel chizig‘ining tabiiy shaklini saqlash, vitachkalarni aniq joylashtirish va siluet muvozanatini ta’minlash muhim hisoblanadi. Noksimon qomat tipida bo‘ksa qismi kengroq bo‘lgani sababli konstruksiyada pastki qismga qo‘shimcha erkinlik berish, yuqori qismni esa vizual balanslashtirish zarur bo‘ladi. To‘g‘ri qomat tipida tana proporsiyalari nisbatan tekis bo‘lib, konstruktiv chiziqlar yordamida bel shaklini vizual hosil qilish asosiy vazifa hisoblanadi. Olmasimon qomat tipida esa qorin va bel zonasidagi hajmni inobatga olib, qo‘shimcha erkinlik, qulaylik va proporsional siluet yaratish talab etiladi [2].

Tadqiqot jarayonida bazaviy konstruksiya ishlab chiqilib, har bir qomat turiga mos ravishda ergonomik modellashtirish amalga oshirildi. Dastlab standart baza andozasi tayyorlandi, so‘ngra qomatning individual xususiyatlariga qarab quyidagi konstruktiv o‘zgarishlar kiritildi: ko‘krak vitachkalari qayta joylashtirildi, bel chizig‘i optimallashtirildi, bo‘ksa va son zonasida proporsional kengaytirish qo‘llanildi, yelka nuqtalari anatomik muvozanat asosida moslashtirildi, qo‘ltiq zonasida esa harakat qulayligi uchun qo‘shimcha erkinlik yaratildi.

Amaliy tajriba sifatida turli konstruktiv variantlar qog‘oz andozalar, texnik eskizlar va maketlash usullari yordamida ishlab chiqildi. Har bir model bosqichma-bosqich tahlil qilinib, standart konstruksiya bilan ergonomik konstruksiya o‘zaro taqqoslandi. Maketlash jarayonida kiyimning silueti, tana

bilan mosligi, konstruktiv balans, vitachka joylashuvi va harakat qulayligi asosiy mezonlar sifatida baholandi.

Tajriba davomida quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratildi:

– Ko‘krak zonasida vitachka va hajm mosligi;
– Bel proporsiyasining individual qomatga mos shakllanishi;
– Bo‘ksa zonasida taranglik yoki ortiqcha kenglikning oldini olish;
– Yelka va qo‘ltiq zonasida anatomik qulaylik yaratish;
– Kiyimning umumiy siluetini estetik muvozanatlashtirish.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, ergonomik modellashtirish asosida ishlab chiqilgan konstruksiyalar standart bazaga nisbatan sezilarli darajada samaraliroq bo‘ldi. Kiyimning tana bilan mosligi yaxshilandi, konstruktiv proporsiyalar individuallashtirildi, harakat qulayligi oshdi va estetik ko‘rinish mukammallashdi. Ayniqsa, bo‘ksa, bel va yelka zonalarida kiritilgan ergonomik o‘zgartirishlar kiyimning funksional sifatini oshirdi[3].

Tadqiqot jarayonida material tanlashning ham muhimligi aniqlandi. O‘rtacha elastiklikka ega matolar ergonomik konstruksiya bilan uyg‘unlashganda yuqori natija berdi. Materialning cho‘ziluvchanligi, zichligi va shaklni saqlash xususiyatlari konstruktiv yechim samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Shu sababli ergonomik konstruksiya yaratishda material va konstruksiya o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim omil sifatida baholandi [4].

Shuningdek, konstruktiv modellashtirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, individual qomat tiplariga mos differensial konstruksiya tizimi ommaviy ishlab chiqarishda ham qo‘llanishi mumkin. Bu esa turli iste’molchilar ehtiyojiga mos, sifatli va qulay mahsulotlar yaratish imkonini kengaytiradi.

Ergonomik konstruksiya yaratish jarayoni nafaqat kiyimning tashqi ko‘rinishini yaxshilaydi, balki foydalanuvchining jismoniy qulayligi, harakat erkinligi va o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham oshiradi. Shu bois zamonaviy kiyim dizaynida ergonomik modellashtirish innovatsion konstruksiyalashning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi [5].

Xulosa. Turli qomat tipidagi ayollar uchun ergonomik konstruksiya yaratish kiyimning qulayligi, funksionalligi, estetik ko‘rinishi va individual mosligini oshiradi. Antropometrik tahlil, konstruktiv modellashtirish va ergonomik yondashuv asosida ishlab chiqilgan konstruksiyalar standart usullarga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. Individual qomat xususiyatlarini hisobga olish zamonaviy kiyim dizaynida sifat ko‘rsatkichlarini oshiradi va foydalanuvchi ehtiyojlarini yanada to‘liq qondiradi. Ergonomik konstruksiyalash yengil sanoatning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida zamonaviy moda sanoatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Коблякова Е.Б. Конструирование одежды с элементами САПР. – Москва: Легпромбытиздат, 1988. – 48–112-betlar.
2. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструирование и технология изготовления женской одежды. – Москва: Легкая индустрия, 1987. – 35–96-betlar.
3. Ермилова Д.Ю. История домов моды. – Москва: Академия, 2003. – 52–88-betlar.
4. Сунаева С.А. Эргономика в дизайне костюма. – Санкт-Петербург: Питер, 2010. – 41–79-betlar.
5. Qosimov S.K. Kiyim konstruksiyasini loyihalash asoslari. – Toshkent: Cho‘lpon, 2018. – 27–84-betlar.

YOSHLAR KIYIMLARINI LOYIHALASHDA MATNLI DIZAYNINING AHAMIYATINI O’RGANISH

Magistratura talabasi Umaraliyeva D.M., dots.Vaxidova U.A.
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotasiya. *Ushbu maqolada yoshlar kiyimini loyihalashda matnli dizayn elementlarining vizual-estetik xususiyatlari tahlil qilingan. Mahalliy moda sanoatida o‘zbek tilidagi kreativ shiorlarni rivojlantirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Аннотация. *В статье изучены визуально-эстетические характеристики элементов текстового дизайна при проектировании молодежной одежды. Разработаны рекомендации по развитию креативных лозунгов на узбекском языке в отечественной индустрии моды.*

Abstract. *This article explores the visual-aesthetic characteristics of text design elements in contemporary youth clothing. It also provides practical recommendations for fostering creative text-based design in the Uzbek language within the domestic fashion industry.*

Zamonaviy dizayn sanoatida kiyim-kechak nafaqat inson tanasini tashqi muhitdan himoya qiluvchi vosita, balki shaxsning o‘zligini namoyon etuvchi kuchli qurolga aylandi. Ayniqsa yoshlar auditoriyasi uchun kiyim bu - jamiyat bilan muloqot qila olish, o‘z dunyoqarashi va hissiyotlarini visual tarzda ifodalash usulidir. Bu jarayonda “Slogan fashion” (shiorli moda) yo‘nalishi kiyimlarda matnli dizayn va tipografik elementlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida yoshlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi tezlashgan

bo‘lib, bu moda industriyasida “tezkor xabar” konsepsiyasini yuzaga keltirdi. Matnli dizayn orqali dizaynerlar kiyimning estetik qiymatini oshirish bilan birga, unga aniq bir ma’no va “ovoz” berishga erishmoqdalar. Biroq, matnning shrifti, joylashuvi va mazmuni yoshlar psixologiyasiga ta’siri hali ham chuqur ilmiy tahlilga muhtoj.

Hozirgi davrda yoshlar kiyimi dizaynida chet el madaniyatini ustun qo‘yish belgilari yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bozor tahlillari shuni ko‘rsatadiki, matnli dizaynning 80-90 foizi ingliz tilida yaratilgan bo‘lib, bu yoshlarning kiyimdagi xabarni anglamasdan qabul qilishiga va milliy matnli dizayn konsepsiyasining oqsashiga sabab bo’lmoqda.

Matnli dizaynning vizual va estetik tahlili shuni ko‘rsatadiki, liboslar dizaynida matn (tipografika) asosiy dekorativ komponent hisoblanadi. U nafaqat axborot tashuvchi, balki mahsulotning umumiy kompozitsion muvozanatini belgilaydi. R.Bartning “Moda tizimi” asarida ta’kidlaganidek, kiyimdagi har bir vizual element o‘ziga xos semantik ma’noga ega bo‘lib, matn bu ma’noni aniqlashtirishga xizmat qiladi [1].

Matnli dizaynning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

1. Tipografik kompozitsiya va kiyim konstruksiyasi.

Matnning kiyim yuzasida tasvirlanishi uning vizual dinamikasini belgilaydi. A.Kulyov tadqiqotlariga ko‘ra, matnli dizayn kiyimning shakl-shamoilini vizual ravishda o‘zgartirish xususiyatiga ega [2].

Bugungi kunda yoshlar kiyimida matnli elementlar asosan quyidagi sxemalarda qo‘llanilmoqda:

- Markaziy focus - matnning yirik shriftlarda ko‘krak qismida joylashuvi.
- Assimetrik dinamika - yozuvlarning cho‘ntak, yeng yoki kapyushon chetida joylashishi.
- Konstruktiv takrorlanish - matnning mato teksturasi sifatida butun yuzaga bosilishi.

2. Shriftlar semantikasi va estetikasi.

Dizayner tanlagan shrift uslubi kiyimning emotsional fonini belgilaydi. S.Heller va G.Anderson ta’kidlaganidek, tipografika shunchaki harflar yig‘indisi emas, balki kiyimning “vizual ovozi”dir. S.Heller har bir shrift turining psixologik ta’sir kuchi borligini isbotlagan. Yoshlar kiyimida asosan Grotessk (minimalizm), Grafiti (isyonkorlik) va Kalligrafik (individuallik) shriftlar qo‘llaniladi.

3. Ranglar kontrasti va texnologik yechimlar.

Matnli dizaynning o‘qilishi va vizual jozibadorligi ranglar nisbatiga hamda chop etish texnologiyasiga bog‘liq. Bugungi kunda nafaqat klassik kontrast ya’ni oq-qora ranglar, balki zamonaviy yoshlarning madaniyatiga xos bo‘lgan reflektiv - nur qaytaruvchi va fotolyuminestsent printlar keng qo‘llanilmoqda. Bu nafaqat

estetik, balki kiber-estetika yo‘nalishidagi vizual kommunikatsiyaning bir qismidir [2].

Matnli dizayn liboslarda psixologik va sotsiologik funksiyalarini bajaradi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kiyimdagi yozuvlar nafaqat atrofdagilarga, balki kiyim egasining o‘ziga ham ta’sir qiladi. Bu jarayon ilmiy tilda “Enclothed Cognition” effekti deb ataladi [3]. Inson kiygan kiyimidagi ramziy ma’nolarni o‘zlashtirishi natijasida uning psixologik holati va xulq-atvori o‘zgaradi. Slogan fashion orqali yoshlar o‘zlarining ijtimoiy guruhga mansubligini deklaratsiya qiladilar, bu esa sotsializatsiya jarayonida o‘ziga xos filtr vazifasini o‘taydi .

O‘zbekiston bozoridagi yoshlar kiyimlarining 85% dan ortig‘ida matnlar ingliz tilida berilgan bo‘lib, bu “lingvistik ksenotsentrizm” fenomenini keltirib chiqarmoqda. Ko‘p hollarda matn mazmuni ikkinchi darajali bo‘lib, shriftning estetikasi birinchi o‘ringa chiqmoqda.

Milliy brendingda ona tilidan foydalanish iste’molchida brendga nisbatan yaqinlik va ishonch hissini uyg’otadi. Milliy matnli dizaynni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar:

- lingvistik va madaniy adaptatsiya. Milliy brendingda ona tilidan foydalanish iste’molchida brendga nisbatan yaqinlik va ishonch hissini uyg‘otadi. “Chegara faqat hayolda”, “O’zingni kashf et” kabi motivatsion shiorlarni o‘zbek tilida ommalashtirish zarur;
- emotsional jalb qilishga e’tibor qaratish. Shiorlar orqali his-tuyg‘ularni uyg‘otishi: quvonch, ishonch, o‘zini ifoda etish istagi. So‘zlar ritmi, qofiya yoki o‘yin orqali esda qolarli qilish;
- vizual dizayn bilan integratsiya. Shior va grafik element bir-birini qo‘llab-quvvatlashi: shrift, rang va shakl so‘z ma’nosini kuchaytirishi. Yoshlar uslubini aks ettiradigan kaligrafiya yoki dekorativ shriftlar bilan tajriba o‘tkazish;
- auditoriyani segmentatsiyalash. Yoshlarning turli yosh guruhlari va subkulturasi uchun turli shiorlar yaratish, har bir guruhning qiziqish va qadriyatlarini hisobga olish. Fokus-guruhlar yoki so‘rovlar orqali yoshlar bilan qaysi iboralar rezonans berishini aniqlash;
- mahalliy identifikatsiya elementlarini joriy etish. Milliy motivlar, ramzlar yoki madaniy allyuziyalarni kiritish, shunday qilib, o‘zbek tilini va madaniyatini moda orqali targ‘ib qilish. Shahar nomlari (masalan, “Buxoro ruhida”) an’anaviy hunarmandchilik yoki xalq ramzlari bilan so‘z o‘yini mumkin.
- texnologik innovatsiyalar. Sloganlarni matoga tushirish texnologiyalarida zamonaviy usuulardan foydalanish. PU (polyurethane) va silikonli bosma usullari matnga hajm berib, mahsulotning bozordagi jozibadorligini 40% gacha oshirishi mumkin [2].

Matnli dizayn - zamonaviy yoshlar modasining ajralmas qismi bo‘lib, u shaxsning ijtimoiy va psixologik o‘zligini namoyon etadi. Mahalliy bozorda xorijiy tillardagi shiorlarning dominantligi 85% dan yuqoriligi “lingvistik ksenotsentrizm” holatini yuzaga keltirmoqda. Biroq so‘rovnamalar natijasi shuni ko’rsatadiki, zamonaviy yoshlar o’zbek tilidagi kreativ matnlarga yuqori qiziqish bildirmoqdalar. Bu esa milliy dizaynerlar uchun o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi turdagi raqobatbardosh mahsulotlar yaratish istiqbollarini ochib beradi. Yoshlar kiyimlarini loyihalashda dizaynerlardan nafaqat estetik mahorat, balki sotsiolingvistik va psixologik bilimlar ham talab etiladi. O‘zbek tilidagi shiorlarni jahon trendlari bilan uyg‘unlashtirish milliy moda sanoatining global bozoridagi o‘ziga xosligini ta’minlovchi strategik yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bart, R. (2003). Moda tizimi (The Fashion System). https://www.google.com/search?q=https://monoskop.org/images/2/25/Barthes_Roland_The_Fashion_System_1990.pdf
2. Kulyov, A. S. (2018). Zamonaviy kiyim dizaynida tipografika va grafik elementlarning o‘rni. https://scholar.google.com/
3. Barnard, M. (2013). Fashion as Communication. https://www.routledge.com/9780415260183
4. Development of Modular Product Architectures 2014; Reactive design methodology 2013.

YEMIRILISH MAXSUS KIYIMNING XAVFSIZ ISHLASHINI TA’MINLOVCHI JARAYON SIFATIDA

PhD, M.X.Isayeva,
Talaba N.B.Mirzayeva
Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Mazkur ishda maxsus dala kiyimlari materiallariga muhitning zararli omillari ta’siri va buning natijasida yuzaga keladigan yemirilish jarayonlari tahlil qilinadi.*

Аннотация: *В настоящей работе анализируется влияние вредных факторов окружающей среды на материалы специальной полевой одежды и, как следствие, возникающие процессы износа.*

Abstract: *This paper analyzes the effect of adverse environmental factors on the materials of special-purpose field clothing and the consequent wear and tear processes.*

Atrof-muhitning zararli omillari maxsus dala kiyim materialiga ta’sir qilib, uning yashirin nuqsonlari xisobiga yemirilib borishini tezlashtiradi. Natijada maxsus kiyim materialining o‘rtacha mustahkamligi pasayadi. Kiyimdan foydalanish davomida vaqt o‘tishi bilan mato mustahkamlik xususiyatlarining pasayishi kuzatiladi - bu yemirilishning mexanik omilidir (1-rasm).

Ifloslanish darajasining oshishi material mustahkamligini pasaytirishi mumkin. Maxsus kiyimdan foydalanish jarayonida turli omillar (mexanik, fizik-kimyoviy va ularning birgalikdagi) ta’siri jarayonini uning himoya xususiyatlarini maqsadli ravishda o‘zgartiruvchi texnologik jarayon sifatida ko‘rib chiqish kerak (2-rasm).

2–rasmda to‘qima mustahkamligining pasayishi turli omillar ta'sirida turlicha tezlikda kechishini ko‘rsatadi. $\mathbf{P_1 \rightarrow P_2 \rightarrow P_3}$ — mustahkamlikning vaqt o‘tishi bilan bosqichma-bosqich kamayish darajalari [1].

Demak, omillar ta'sirini kamaytirish, ya'ni ekspluatatsiya sharoitini yaxshilash orqali to‘qimaning xizmat muddatini uzaytirish mumkin.

Chizmada to‘qimaning mustahkamlik ko‘rsatkichi P vaqt (t) o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini ifodalaydi. 1-chiziq nazorat qilingan yoki mo‘'tadil ishlatish sharoitidagi to‘qimalar uchun xos bo‘lib, mustahkamlikning pasayishi nisbatan sekin kechadi. 2-chiziq esa agressiv tashqi muhit — yuqori harorat, namlik, ultrabinafsha nurlanish, ko‘p martalik yuvish yoki kimyoviy ta’sir sharoitida bo‘lgan to‘qimalarni tavsiflaydi; bunday holda mustahkamlik tezroq kamayadi. Grafikdan ko‘rinib turibdiki, tashqi ta’sirlar intensifikatsiyasi bilan to‘qimaning mexanik barqarorligi tez sur’atda yo‘qotiladi, bu esa uning ekspluatatsion davomiyligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Maxsus kiyim matosining mustahkamlik xususiyatlarini pasayish jarayonini ko‘rib chiqamiz. Agar gazlama namunasiga statik yoki dinamik yuk ta’sir ettirilsa, natijada gazlama tolalari N yuklamaning ortishi bilan uziladi, bu holatni monoton o‘suvchi f (N) funktsiya bilan tasvirlash mumkin [2]. Bog‘liqlik hosilasi

$$F(N) = \frac{df(N)}{dN} \qquad (1.)$$

namunaning ma'lum bir yuklamani ko‘tarish ehtimolligi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin, shunda to‘qimani yemiruvchi F(N) kuch (N1;N2) oraliqda bo‘lish ehtimolini beradi va bu interval f(N2)- f(N1) ga teng. f(N) – monoton o‘suvchi funktsiya deb ko‘rilsa, N2>N1 bo‘lganda f(N2)>f(N1)>0.



1-rasm.To‘qimaning mustahkamligi P ning foydalanish vaqtiga bog‘liqligi

Funktsiya F(N) yuklamalarning biror (Nmin, Nmax) intervalida aniqlangan bo‘lib, boz ustiga Nmin ≥ N, a Nmax ≤ Npr – ko‘rib chiqilayotgan mato namunasi uchun buzuvchi yuklamaning

(razrushayushaya nagruzka) qiymati. F(N) yuklamaning maksimal qiymati eng umumiy holda taqsimot medianasidan Nsr chapda yotadi va u quyidagi shartdan aniqlanadi:

$$\int_{Nmin}^{Ncp} F(N)dN = \int_{Ncp}^{Nmax} F(N)dN \qquad (2)$$

shu munosabat bilan f(N) taqsimoti umuman olganda nosimmetrikdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, har bir buyum Nmin, Nmax, Nsr yuklamalar va F(N) maksimumga yoki egilish nuqtasiga mos keluvchi N qiymat bilan tavsiflanishi mumkin.

Buyum ishlatilgandan so‘ng yemirilish omillari ta'sirida F(N) funktsiyada buyum sifati bilan bog’liq quyidagi o‘zgarishlar sodir bo‘ladi: *nuqta Pmin = Nmin /A.* Bu yerda Pmin – gazlamaning minimal pishiqligi; A– uzilish ishi, bu gazlamaning qalinligi va qayishqoq-plastik xususiyatlariga bog‘liq bo‘lib, ba'zi gazlama namunalarida yuklama qo‘yilgunga qadar uzilish holatlari kuzatiladi. Bunday namunalar uchun Nmin= 0. Yuklama ortganda (to‘qimaga zararli ta'sir qiymatlari) bukilish (uzilish) nuqtasi f(N) siljishi mumkin, bunda Nmax qiymat sezilarli o‘zgarmaydi. Gazlama yuklanganda f(N) o‘zgarishini ko‘rib chiqamiz.



2-rasm. Bir guruh omillar ta’sirida to’qima

Ekspluatatsiya paytida buyum (gazlama, detal, chok) biroz N miqdorga yuklanadi. Bunda buzilish ehtimolini W (N) bilan, saqlanish ehtimolini esa 1- W(N) bilan belgilash mumkin. Unda Puasson taqsimoti quyidagi ko‘rinishga ega:

$$W = \frac{a^k e^{-a}}{\text{k!}} \qquad (3.)$$

Faraz qilaylik, parchalangan mato zarralari ulushi W(Nrazr)ga proportsional bog‘liq bo‘lsin. k parametr qiymati esa yemiruvchi kuchga proportsional bo‘lsin, ya'ni, k ~ Nrazr, bu ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$k = c \cdot N_{\text{разр}} \qquad (4.)$$

Bu yerda c - tajriba yo‘li bilan aniqlanadigan proportsionallik koeffitsiyenti,

Nrazr – yemiruvchi kuch.

Shunday qilib, to‘qimaning shikastlangan qismlari ulushi va Puasson taqsimoti sifatida yozilgan ehtimollik o‘rtasidagi mutanosiblik quyidagicha ifodalanishi mumkin: $\frac{n}{n_0} \sim \frac{a^n Qpe^{-a}}{(Qp)!}$, (5.)

bu yerda Q - maxsus kiyimning buzilish ehtimoli. Bunda proportsionallik koeffitsiyenti c keyinchalik hech qanday ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Taqsimot parametri a, ma'lumki, o‘rtacha yuklama (yemiruvchi yuklama) ning matematik kutilmasi va bir vaqtning o‘zida dispersiyadir. Shunday qilib,

$$\text{a} = ckN_{\text{ср}}, \qquad (6.)$$

Nsr – taqsimot funktsiyasining maksimumiga mos keluvchi yuklama qiymati [3].

Xulosa qilib aytganda, o‘xshashlik nazariyasi va o‘lchamlar tahlilining qo‘llanilishi namunalarning tuzilish parametrlariga bog‘liq holda ko‘p marta yuvilgandan so‘ng ikkilamchi xom ashyosidan ishlab chiqarilgan maxsus maqsadli matolarning uzilish kuchini hisoblash uchun matematik modelni olish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бузов Б.А., Модестова Т.А., Алыменкова Н.Д. Материаловедение швейного производства. -М.: Легпромбытиздат, 1991.-235 с.
2. Кокеткин П.П. Справочник. Одежда. М.: Легкая и пищевая промышленность, 2001.-С.258.
3. Павликова А.В. Повышение защитной эффективности спецодежды для работающих с пестицидами в сельском хозяйстве путем разработки методов контроля ее защитных свойств в процессе эксплуатации: дис. … канд. тех. наук : 05.26.01. / Павликова А.В.. –Орел – 2002

РОЛЬ ЭКОДИЗАЙНА ОДЕЖДЫ В РАЗВИТИИ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ

Магистрант факультета Дизайна и технологий
кафедры «Мода и дизайн»
Содикова С.О.
Научный руководитель доцент Вахидова У.А.
Ташкентский институт текстильной и лёгкой промышленности

Annotatsiya. *Maqolada moda sanoatining atrof-muhitga ta’sirini kamaytirish usullari ko‘rib chiqilgan. Aylanma iqtisodiyot bilan bog‘liq holda ekodizayn tamoyillari, hamda O‘zbekiston to‘qimachilik sanoati uchun ahamiyati ochib berilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются способы снижения экологического воздействия индустрии моды. Раскрываются принципы экодизайна в связи с циркулярной экономикой, а также значение для текстильной отрасли Узбекистана.*

Abstract. *The article examines ways to reduce the environmental impact of the fashion industry. It explores the principles of eco-design in connection with the concept of a circular economy, as well as their significance for the textile industry of Uzbekistan.*

Современная индустрия моды является одним из наиболее ресурсоёмких и загрязняющих секторов экономики. По данным ООН,

текстильная отрасль ежегодно производит около 20% мировых сточных вод и выбрасывает до 10% глобальных углеродных выбросов. Индустрия моды ежегодно производит около 92 млн тонн текстильных отходов, значительная часть которых попадает на свалки или в океаны. В условиях нарастающих вызовов экодизайн одежды становится стратегическим инструментом устойчивого развития, интегрированным в концепцию циркулярной экономики.[1]

Экодизайн предполагает:

- минимизацию отходов на этапе проектирования;
- использование экологичных материалов;
- продление жизненного цикла изделия;
- энергоэффективные технологии производства.[2]

Одной из наиболее актуальных экологических проблем является потребление и загрязнение воды. Текстильная промышленность ежегодно использует примерно 79-93 млрд м³ воды, что делает ее одним из крупнейших промышленных потребителей водных ресурсов. Для производства одной хлопковой футболки требуется около 2700 литров воды, а для производства одного килограмма хлопка — до 20 000 литров. Процессы окрашивания и отделки тканей ответственны примерно за 17-20 % глобального промышленного загрязнения воды, ежегодно выбрасывая миллионы тонн токсичных химикатов в водные системы.

Перепроизводство одежды, характерное для модели «быстрой моды», остается серьезной экологической проблемой. Ежегодно во всем мире образуется около 92 миллионов тонн текстильных отходов, что эквивалентно одному мусоровозу с одеждой каждую секунду. При этом около 85-88% текстиля попадает на свалки или сжигается, а только около 12% материалов подвергается вторичной переработке. Ситуация усугубляется изменениями в поведении потребителей: сегодня люди покупают на 60% больше одежды, чем в начале 2000-х годов, но используют ее примерно в два раза меньше.

Высокий углеродный след также связан с увеличением использования синтетических тканей: около 60% всей одежды изготавливается из материалов на основе ископаемого топлива, в первую очередь из полиэстера. При ношении эти изделия выделяют микропластик, который составляет до 35% загрязнения микропластиком мирового океана. Производство синтетических волокон требует значительных энергетических ресурсов и составляет примерно 10% мирового потребления нефти.

Экологические проблемы особенно актуальны в странах с развитой текстильной промышленностью, в том числе в Узбекистане, где выращивание хлопка требует значительных водных ресурсов и исторически

было связано с деградацией экосистем, в том числе с сокращением площади Аральского моря из-за орошения хлопковых полей. Это усиливает необходимость перехода отрасли к принципам экодизайна, эффективного использования ресурсов и циркулярной экономики. [4]

Циркулярная экономика предполагает замкнутые циклы производства. В моде это выражается через:

- переработку старых вещей в новые ткани;
- системы возврата одежды брендам;
- аренду и перепродажу одежды;
- цифровые платформы для апсайклинга.

Таблица 1. Экологические проблемы и решения экодизайна.

Экологическая проблема	**Влияние на окружающую среду**	**Решение через экодизайн**	**Бренды**
Загрязнение воды красителями	Токсичные стоки в реки и океаны	Натуральные красители, технологии «zero discharge»	Patagonia, Stella McCartney, Pangaia
Перепроизводство fast fashion	Миллионы тонн отходов ежегодно	Дизайн долговечных вещей, программы ремонта	Eileen Fisher, Patagonia (Worn Wear), Nudie Jeans
Высокий углеродный след синтетики	Выбросы парниковых газов	Органический хлопок, переработанные волокна	Adidas x Parley, Allbirds, Veja
Краткий жизненный цикл одежды	Быстрое устаревание и выброс	Модели «slow fashion», аренда и перепродажа	Mud Jeans, Rent the Runway, The North Face (Renewed)
Ограниченные технологии переработки	Низкий процент повторного использования	Инновации: биотекстиль, переработка смешанных волокон	Renewcell (Circulose партнёры: H&M, Levi’s), Evrnu
Локальные вызовы (Узбекистан)	Зависимость от хлопка, водные ресурсы	Развитие органического хлопка, циркулярные практики	UzCotton, Lali Brand, Human House

Кейсы успешных брендов:

- **Patagonia** - программа Worn Wear для ремонта и перепродажи одежды.
- **Stella McCartney** - использование переработанных материалов и сотрудничество с инновационными стартапами.
- **H&M Conscious** - инициатива по сбору старой одежды для переработки.[5][6]

Экологические проблемы индустрии моды в первую очередь связаны с производством и потреблением одежды. Использование химических красителей приводит к загрязнению воды, поскольку токсичные вещества попадают в реки и океаны. Одним из решений является использование натуральных красителей и технологий производства, которые сводят к минимуму количество отходов.

Модель «быстрой моды» приводит к перепроизводству одежды и увеличению количества текстильных отходов, поэтому экодизайн направлен на создание более долговечных изделий и развитие практики ремонта. Использование синтетических материалов, производство которых сопровождается выбросами парниковых газов, также оказывает значительное влияние на окружающую среду. Это влияние можно уменьшить за счет использования органических тканей и переработанных волокон.

Проблема усугубляется коротким сроком службы одежды, что означает, что изделия быстро выбрасываются. Подходы «медленной моды», аренды и перепродажи позволяют продлить жизненный цикл продуктов. Дополнительная проблема заключается в неразвитости технологий переработки текстиля, особенно смешанных тканей, что требует внедрения новых инновационных решений.

В исследовании рассматривается экодизайн через выбор материалов и конструктивных решений, направленных на создание более устойчивого жизненного цикла одежды. Особое внимание уделяется использованию натуральных тканей и переработанного пластика в качестве дополнительных компонентов современного устойчивого дизайна. Натуральные материалы обеспечивают биоразлагаемость и комфорт в использовании, а переработанные синтетические волокна позволяют повторно использовать пластиковые отходы, снижая потребность в первичных сырьевых материалах. Такой подход соответствует принципам циркулярной экономики, при которой материалы сохраняют свою ценность и повторно вводятся в производственный процесс.

Практика международных брендов подтверждает эффективность подобных решений. Patagonia использует переработанный полиэстер и развивает услуги по ремонту, продлевая срок службы одежды. Adidas в сотрудничестве с инициативой Parley for the Oceans производит продукцию из переработанного океанского пластика, демонстрируя возможность интеграции отходов в новые продукты. Stella McCartney делает акцент на экологичных альтернативах традиционным материалам и ответственном подходе к закупкам, а Veja использует органический хлопок и переработанные компоненты, обеспечивая прозрачность производства. Бренд H&M Conscious поддерживает концепцию долговечности через бесплатный ремонт продукции и повторное использование материалов.

Полученные результаты позволяют рассматривать натуральных тканей и переработанных материалов как эффективный инструмент экодизайна, сочетающий в себе экологичность, функциональность и современную эстетику одежды. Основное внимание в дизайне уделяется долговечности изделий, возможности их повторного использования и снижению затрат ресурсов за счет осознанного подбора материалов. Такой подход демонстрирует потенциал дизайна как практического механизма реализации принципов устойчивого развития в индустрии моды.

Список использованной литературы

1. Организация Объединённых Наций. Новости ООН. Экологические и глобальные вопросы устойчивого развития. - URL: news.un.org/ru/story/2025/02/1461021
2. Экологические последствия индустрии моды и текстиля // Greenbox. - URL: greenbox.ru/ekologicheskie-posledstviya-mody-i-tekstilya/
3. Текстильная промышленность и современные экологические вызовы // Ивановский государственный политехнический университет. - URL: ttp.ivgpu.com/wp-content/uploads/2020/03/382_33.pdf
4. Экологические аспекты устойчивого экономического развития // Universum: экономика. - URL: 7universum.com/ru/economy/archive/item/15680
5. Sigma Earth. Платформа экологической устойчивости и устойчивого развития. - URL: sigmaearth.com/ru
6. 8 sustainable clothing brands — устойчивые бренды одежды // Design Mate. - URL: design-mate.ru/read/read/8-sustainable-clothing-brands

BOLALAR KIYIMINI ISHLAB CHIQISHDA KASALLIK TURINING AHAMIYATI

assistent Asadova Xulkar Sharafiddinovna:
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,
t.f.d.prof.Rasulova Mastura Kabilovna:
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalar kiyimini ishlab chiqarishda kasallik turlari bo‘lgan vulgar ixtiozi uchun davolovchi hususiyatga ega bo‘lgan kiyimlar yaratishda O‘zbekiston iqlim sharoitiga mos keladigan 100% tabiiy toladan tayyorlangan kiyim yaratishi tavsiya etiladi.*

Аннотация: *В данной статье рекомендуется при разработке детской одежды, обладающей лечебными свойствами при вульгарном*

заболевании, использовать одежду из 100% натуральных волокон, подходящую для климатических условий Узбекистана.

Abstract: *This article recommends that when developing children's clothing that has therapeutic properties for the disease vulgaris, it is recommended to wear clothing made of 100% natural fiber fabrics that are suitable for the climatic conditions of Uzbekistan.*

Inson salomatligini asrash, gigiyenik xavfsizlikni ta’minlash va qulaylikni oshirish masalalari to‘qimachilik sanoatida muhim o‘rin egallamoqda. Hozirgi kunda dunyo olimlari to‘qimachilik sohasi hamda tibbiyotni birlashtirgan holda inson salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan ilmiy ishlanmalar ustida tadqiqotlar olib bormoqdalar. Yaratilayotgan yangi to‘qima matolari inson tanasi bilan bevosita aloqada bo‘lib, nafaqat himoya vazifasini bajaradi balki davolovchi hususiyatga ega bo‘lishi kerak, ya’ni antibakterial xususiyatga ega bo‘lgan, tabiiy tolali yumshoq va havo o‘tkazuvchan, davolovchi matolardan tayyorlangan kiyimlar tavsiya etiladi [1].

Davlatimiz tomonidan bolalar salomatligiga, ularning sog‘lom ulg‘ayishiga yo‘naltirilgan koplab vazifalar belgilangan bo‘lib, jumladan 2022 yil 25 apreldagi «2022-2026 yillarda onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish to‘g‘risida» gi 216-sonli Prezident Qarorida ham onalar va bolalar o‘limini kamaytirish, tug‘ma va irsiy kasalliklarni erta aniqlash va davolash sifatini oshirish masalalari belgilab olingan.

Olib borilgan tahlillar shuni ko’rsatadiki, yosh bolalar o’rtasida teri kasalliklaridan biri bo’lgan ixtiozning 90% dan ortig‘i tug‘ma va gen bilan bog‘liq bo‘lib, bir qancha turlari mavjud va ularning ichida ko‘p tarqalgan nisbatan yengilroq turi vulgar ixtioz hisoblanadi. Vulgar ixtiozida teri asosan mayda oqish tangachalar xosil qiladi. Bunda ixtioz kasalligiga uchragan bolalar uchun kiyim tanlash shunchaki estetik masala emas, balki tanani kiyim bilan o‘zaro terapevtik muolajaning uzviy bog‘lanishidir. Ixtiozda teri yetarli darajada suyuqlik chiqara olmagani sababli, noto‘g‘ri tanlangan kiyim tananing o‘ta qurishi, qichishishi, achishishi va infeksiya tushishiga sabab bo‘ladi [2-3].

1-rasm.Vulgar ixtioz

Demak, ixtioz bilan kasallangan bolalarga tanlangan kiyimlar ham gigiyenik, ham antibakterial xususiyatli terapevtik davolovchi kyim bo‘lishi kerak. ya’ni antibakterial xususiyatga ega bo‘lgan, tabiiy tolali yumshoq va havo o‘tkazuvchan, davolovchi matolardan tayyorlangan kiyimlar Bunda matoning tola tarkibi birinchi o‘rinda turadi. Ixtioz kasalligiga uchragan bolalarda terilari ortiqcha qizib ketmasligi kerak [4].

Ixtioz bilan kasallangan bolalar uchun gigiyenik va terapevtik davolovchi xususiyatga ega antibakterial matolarni yaratish nafaqat tibbiyot, balki kundalik hayotimiz uchun muhum ahamiyatga ega. Bunday matolardan avvalo bemor uchun qulay, tanasi nafas oladigan, qichishish va achishishlar kuzatilmaydigan kiyimlarni yaratish maqsadga muvofiqdir. Ixtioz kasalliklari uchun ergonomik qulay kiyimlar yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlari olimlar tarafdan yetarli amalga oshirilmoqda.

Shunday ekan, bunday terilarga sintetik, ya’ni poliester va neylon tolali matolardan kiyimlar umuman tavsiya etilmaydi, chunki sintetik tolalar tanani ortiqcha qizdirib terlatadi hamda namlikni shimmaydi, bunday holat tana uchun issiqxonani yaratadi, bu esa terida qichishishni kuchaytiradi. Vulgar ixtiozda nafaqat mato turlari muhim, balki mavsumga xos kiyim tanlash xam muhim ahamiyatga ega [5-6].

Yuqoridagilarni e’tiborga olib, O’zbekiston iqlim sharoiti uchun mos keladigan 100 % tabiiy toladan tayyorlangan yupqa matoli kiyim kiyishi tavsiya etiladi, chunki bu kiyim terini dag‘al tolalardan himoya qilish vazifasini o‘taydi. Bunday bemorlar uchun tabiiy tolali kiyim tanlash bilan birga kiyim rangiga xam e’tibor berish kerak, chunki tanada qurishish, terining mayda qipiqchalar hosil qilishi natijasida to‘q rangli kiyimlarda teri qipiqlari yaqqol ko‘rinib qoladi. Bu xolat esa bolada noqulaylik tug‘diradi va shu bilan birga kiyimning estetik ko’rinishiga salbiy ta’sir ko’rsatadi.

Ixtioz bilan kasallangan bolalar uchun tanlangan kiyim nafaqat himoya funksiyasini bajarishi, balki tanani ikkinchi terisi vazifasini ham bajarishi kerak. Nafaqat to‘g‘ri tanlangan kiyim teri funksiyasini yengillashtiradi, balki bolani psixologik holatini yaxshilab beradi va ijtimoiy moslashuviga yordam beradi.

Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yosh avlodni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish uchun sarflangan sarmoya jamiyatga eng ko‘p foyda keltiradi. Bolalar sog‘lom rivojlanishida kasalliklarni oldini olish va ularni profilaktika qilish, ota-onalarda tibbiy madaniyatni oshirish muhim ahamiyatga ega. Shunday ekan, teri kasalliklaridan biri bo’lgan ixtioz kasalligi bilan davolanayotgan bolalar uchun yengillik yaratish, ya’ni ularning kuchli psixologik xolatini nazorat qilish, jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish, kasallikning kuchayishini oldini olish, terida namlikni ta’minlash maqsadida, yengil sanoat mutaxassislari oldiga teri kasalliklari profilaktikasi uchun tibbiy kiyimlar yaratish ustida ish olib borish vazifasini yuklaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ushbu izlanishim jarayonida tanlangan tabiiy tolali matolarning teridagi trans-epidermal suv yo‘qotishi, ya’ni suvning tana ichkarisidan teri qatlamlari orqali tashqi muhitga bug‘lanib ketishini saqlab qolishga yordam beradigan, davolovchi xususiyatga ega bo‘lgan kiyimlar yaratish maqsadga muvofiqdir. Bunday xususiyatga ega bo‘lgan kiyimlar ixtioz kabi teri kasaliklar bilan og‘rigan bemorlarning hayot sifatini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilshodaxon Eshmuhammadovna Safarova, Gulbahor Mahmudovna Gaybullayeva. O’zbekistonda to‘qimachilik korxonalarini rivojlantirishda davlat dasturidan foydalanish "Science and Education" Scientific Journal June 2021 / Volume 2 Issue 6 677 bet.
2. Александрова А.К. Клинико-морфологические особенности вульгарного ихтиоза // Кубанский научный медицинский вестник. 14.11.2006. №10.
3. Alimardonov S.A. “ Kiyim materialshunisligi ”. Toshkent: 2012.256b.
4. https:// google.com/dermo
5. Shirinova M.X. Tana tayanch yuzasidagi patologik o‘zgarishlarga ega bemorlar uchun buyumlar assortimentini loyihalashning kompleks usulini ishlab chiqish. Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati Toshkent – 2024.
   Rafikov A.S, Abdusamatova D.O, Shirinova M.X., Nigmatova F.U. Membrane material based on acrylic emulsion and terry cloth for medical drapes//POLYMER ENGINEERING AND SCINCE //19 May 2023.
6. www.rmj.ru
7. https:// google.com/dermo

SOVUQ HARORATDA FAOLIYAT OLIB BORUVCHI ISHCHILARNING MEHNAT SHAROITI TAHLILI

doktorant. I.M.Madumarova
t.f.d.prof.Rasulova M.K.
magistr, Sh.S.Sattorova
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti,

Annotatsiya: *Ushbu maqolada sovuq haroratda (kamerada) ishlaydigan ishishchilarning mehnat sharoiti o‘rganilgan va tahlil qilindi. Mahalliy xom ashyoni qo‘llash va innovatsion to‘qimachilik matolaridan foydalanib kiyim osti mikroiqlm ko‘rsatkichlarini me’yorlashtirish hamda isituvchi qatlam paketini shakllantirish vazifasi belgilandi.*

Аннотация. *В данной статье изучаются и анализируются условия труда рабочих, работающих при низких температурах (в камере). Поставлена задача нормализации показателей микроклимата под одеждой и формирования утепляющего слоя с использованием местного сырья и инновационных текстильных тканей.*

Annotation: *This article examines and analyzes the working conditions of workers working in low temperatures (in a chamber). The goal is to normalize the microclimate under clothing and create an insulating layer using locally sourced materials and innovative textiles.*

Sivilizatsiyalashgan jamiyatda ishlab chiqarish jarayoniga jalb qilingan kishilarni kasbiy himoya qilish muammosi e’tibordan chetda qolishi mumkin emas. Shunga ko‘ra, insonni ishlab chiqarish muhitining zararli ta’sirlaridan himoya qilish uchun maxsus kiyimlar tayyorlash zarurati ortib bormoqda [1].

Kiyimning asosiy talabi inson salomatligi va hayoti uchun xavfsizlikni ta'minlashdir. Ishlab chiqariladigan kiyimlar yuqori gigiyenik xususiyatlarga ega bo‘lishi, qulay holatni ta'minlashi, elektrostatik neytral, yengil, kiyish davomida o‘lchamlari barqaror, yetarlicha bardoshli va moda yo‘nalishiga mos, shuningdek, arzon narxlarda bo‘lishi kerak [2].

Bugungi kunda belgilangan xususiyatlarga ega bo‘lgan issiqlik izolyatsiyalarini ishlab chiqib, ularni kiyim-kechak paketini yaratish uchun samarali qo‘llash, eng kam issiqlik yo‘qotilishini ta’minlaydigan issiqlik saqlash xususiyatlari mavjud bo‘lgan kiyimlarni yaratish lozim [3].

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni e’tiborga olib, sovuq haroratda (kamerada) ishlaydigan ishishchilarning mehnat sharoitini o‘rganish maqsad qilib olindi. Maxsus kiyimga qo’yiladigan talab aynan mehnat sharoitiga bog’liq bo’lib, kiyim gigiyenik, ergonomik, estetik, ekspulatatsion talablarga javob berishi kerak.

Tadqiqot ishlari Toshkent shahridagi “F.C SINGAPORE-SAMARKAND” va “VAZIRA BIZNES”, OOO “BAYER” MCHJ korxonalarida olib borildi. Ushbu korxonalar muzqaymoq ishlab chiqarishga ixtisoslashgan bo’lib, mahsulot saqlash xonasining xarorati -30-35C^0, ish vaqti davomiyligi 8 soatni tashkil etadi. Talab bo’yicha ishchi sovuq kamerada 2 soat ishlaydi va 2 soat dam oladi. Maxsus kiyim turi: kurtka va shimdan iborat bo’lib, kiyim paketi quyidagi materiallardan tashkil topgan: ustki qatlam nam o‘tkazmiydigan, tolaviy tarkibi 80 % -poliestr, 20 %-paxta, isituvchi qatlam sintepon, ichki qatlami astarli. Ishchilar ish vaqtida qadoqlangan maxsulot qutilarini javonga joylash, javondan olib aravalarga qo’yish, javondagi mahsulotlarni tartibga solish ishlari bilan shug’ullanadilar. Mavjud maxsus kiyimlarning tahlili shuni ko’rsatadiki, ular ish sharoitida xarakatlanishga noqulay, issiqlik saqlash xususiyati past, ya’ni ishchi tanasining sovuqqa chidamlilik davomiyligi qisqa vaqt. Bundan tashqari ishchi o’zini

sovuqdan himoya qilish uchun yuziga niqob taqib oladi. 1-rasmda korxonada kiyiladigan maxsus kiyim namunalari keltirilgan.

1-rasm. Sovuq sharoitda ishlaydigan ishchilarning maxsus kiyim namunalari

Ma’lumki [1-3], inson tanasining atrof-muhit bilan issiqlik almashinuvi jarayonida harorat -15°S dan -30°S gacha va energiya sarfi 90 dan 590 Vt gacha o‘zgarganda, nafas olish orqali inson tanasining umumiy issiqlik yo‘qotishining 12,0 % dan 18,6% gacha bo‘lgan qismini tashkil qiladi, shuning uchun hozirgi vaqtda me’yorlashtiruvchi va tanani sovuqdan himoyalovchi maxsus kiyim to‘plamini ishlab chiqish maqsad qilib olindi. Buning uchun gigiyenik talabga javob beruvchi mahalliy xom ashyoni qo‘llash va innovatsion to‘qimachilik matolaridan foydalanib kiyim osti mikroiqlm ko‘rsatkichlarini me’yorlashtirish hamda isituvchi qatlam paketini shakllantirish vazifasi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.С.В.Вокова.Особенности проектирования влагозащитной спецодежды для работников автосервиса. Автореф.дис.канд.техн.наук «Южно - Российский государственный университет экономики и сервиса» Шахты – 2005.
2.Я.Е.Владимировна. Проектирование комплектующих изделий утепленной спецодежды на основе прогнозирования их защитной эффективности дис. … канд.техн.наук /РГУ им.А.Н.Косыгина-Санкт-Петербург, 2003.-280с.
3.Д.А.Советников. Разработка и исследование пакета материалов для спецодежды военнослужащих, используемой в арктической зоне. автореф.дис. канд.техн.наук «Российский государственный университет им. А.Н. Косыгина Москва-2017.

POLIMER PLYONKALARGA CHOP ETISHDA TEXNOLOGIK BOSIMNI ANIQLASH

Dots. D.R. Safayeva,
doktorant M. S. Shukrullayeva,
doktorant T. U. Tillayev
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada polimer plyonkalarga chuqur bosma usulida chop etish jarayonida bosma zonada hosil bo‘ladigan texnologik bosimni hisoblash metodikasi va natijalari keltirilgan. Hisoblar ishchi uzunlik bo‘ylab taqsimlangan solishtirma kuch ta’sirida siqilayotgan ikki silindrsimon jismning tekis masalasi yechimiga asoslangan. Shuningdek, bosimning maksimal va o‘rtacha qiymatlari qolip va bosma silindr materiallarining mexanik xossalari (elastiklik moduli, Puasson koeffitsiyenti), ularning geometrik parametrlari hamda yuklama kuchiga bog‘liq holda aniqlangan.*

Аннотация. *В статье приводится методика и результаты расчета технологического давления в печатной зоне при глубоком способе печати на полимерных пленках, основанные на решении плоской задачи при сжатии двух цилиндрических тел удельной силой, распределенной по их рабочей длины. Выполнен расчет максимального и среднего значений давления, возникающего в зависимости от механических(модуля упругости, коэффициента Пуассона) свойств материалов формного и печатного цилиндров, их геометрических параметров и силы нагружения.*

Abstract. *This article presents a methodology and calculation results for process pressure in the printing zone during gravure printing on polymer films. These calculations are based on the solution of a plane problem involving the compression of two cylindrical bodies with a specific force distributed along their working length. The maximum and average pressure values are calculated, depending on the mechanical properties (elastic modulus, Poisson's ratio) of the plate and impression cylinder materials, their geometric parameters, and the loading force.*

Polimer plyonkali materiallar, masalan, polietilen, polipropilen va polietilentereftalat, oziq-ovqat va sanoat mahsulotlarini qadoqlashda keng qo‘llaniladi. Ularning keng tarqalganligi yuqori ekspluatatsion xususiyatlari hamda turli sohalarda qo‘llashnish imkoniyati bilan izohlanadi. Shu bilan birga,bugungi kunda zamonaviy bozor sharoitida qadoqlarga dizayn va tashqi estetik ko‘rinish bo‘yicha yuqori talablar qo‘yiladi. Yuqori darajadagi badiiy bezakni ta’minlash esa faqatgina sifatli, fotorealistik nusxalarni chop etish orqali amalga oshiriladi, bu esa zamonaviy matbaa texnologiyalar, xususan, chuqur bosma usulidan foydalanishni talab etadi [1,2].

Chuqur bosma usuli texnologiyasining asosiy uskunasi ko‘p seksiyali rulonli mashina hisoblanadi [3,4]. Ushbu uskunaning bo‘yoq berish seksiyasidagi bosma apparati o‘zaro tutashgan ikkita silindr (qolip silindri va bosma silindr)dan iborat bo‘lib, ular chop etilayotgan material bilan bosma kontakt zonasini hosil qiladi.

Chuqur bosma usuliga xos bo‘lgan qattiq qolipdan chop etishda uskunaning bosma silindrida 1,5–4 mm qalinlikdagi elastik qoplama — dekel qo‘llaniladi. Chop etish jarayonida bosuvchi elementlar dekel va chop etilayotgan material o‘rtasida zich kontakt hosil qiladi. Bunday kontakt natijasida material va qolip yuzasidagi notekisliklar bartaraf etiladi, shuningdek, qolip va material o‘zaro ta’sirida yuzaga keladigan zarba va tebranishlar yumshaydi. Bundan tashqari, dekelning elastik xossalari hisobiga uning qalinligi, qattiqligi va deformatsiya darajasini o‘zgartirish orqali bosma bosimni tartibga solish mumkin.

Texnologik jihatdan zarur bo‘lgan bosim p_{tz}_, odatda ko‘plab omillar (chop etish usuli, qolip tayyorlash aniqligi va xususiyati, dekel materiali, bo‘yoqning qovushqoqligi va boshqalar)ga bog‘liq bo‘lsa-da, chuqur bosma usulida u asosan chop etiluvchi elementlarning o‘yilish chuqurligiga bog‘liq bo‘ladi [3].

Mazkur ishda chuqur bosma usulida chop etish jarayoning chop etish zonasida kerak bo‘ladigan bosim darajasini aniqlash uchun analitik yondashuv keltirilgan. Kontakt zonasidagi umumiy bosim (kuch) Q solishtirma bosim (o‘rtacha bosim p_m) va kontakt maydoni A orqali aniqlanadi:

$$Q = p_m A \text{ , H}$$

bunda $A=2al$ – kontakt maydon, mm^2;

$2a$, l – ishchi silindr kontakt maydoning eni va uzunligi, mm;

p_m – kontakt maydonida bosimning notekis taqsimlanishini hisobga olgan holdagi o‘rtacha bosim, H/mm^2.

Agar solishtirma siqish kuchi P, keltirilgan elastiklik moduli E_{kl} va egrilik radiusi R qiymatlari ma’lum bo‘lsa, parallel o‘qli ikki silindrning kontaktida maksimal bosimni hisoblash mumkin. Bunda o‘rtacha bosim maksimal bosimdan $4/\pi \approx 1{,}2744$ marta kichik bo‘ladi.

Ko‘p seksiyali chuqur bosma usuli rulonli uskunasiningа chop etish jarayonidagi bosma zonasidagi kontakt maydonida yuzaga keladigan maksimal normal kuchlanishlar yoki maksimal bosim p_0 ni quyidagi boshlang‘ich ma’lumotlar asosida hisoblaymiz:

1. Qolip silindri yuzasi misdan tayyorlangan bo‘lib, elastiklik moduli $E=(0{,}8–1{,}1)\cdot 10^5$ MPa, Puasson koeffitsiyenti $\nu=0{,}31–0{,}34$[6];

2. Dekel materiali — yarim qattiq poliuretan, elastiklik moduli E=50–100E MPa, Puasson koeffitsiyenti $\nu=0{,}4–0{,}48$;

3. Bosma (qolip) silindr diametri: D≈100–400 mm;

4. Yuklama kuchi taxminan ≈3000 N, ga teng bo‘lib, kontakt chizig‘i bo‘yicha bosim P=3000 b, N/mm.

Maksimal kontakt bosimi p_0 ni $p_o = \frac{4}{\pi} p_m = \left(\frac{PE_{\text{пр}}}{\pi R}\right)^{1/2}$, Н/мм^2 formula asosida hisoblash uchun avvalo keltirilgan elastiklik moduli E_{kl} va solishtirma yuklama P (N/mm) aniqlanishi zarur.

Shunday qilib, bosma zonasida hosil qilinadigan texnologik bosim chop etilayotgan material tomonidan bosma apparatning ishchi elementlari — qolip va bosma silindrlar orasidagi yupqa oraliq zanjir sifatida qabul qilinadi. Ushbu bosim kontakt normal kuchlanishiga ekvivalent bo‘lib, chop etilayotgan material — polimer plyonkaning deformatsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo’ladi. Polimer plyonkalar o‘zining tuzilish xususiyatiga ko‘ra shimmaydigan material hisoblanadi.

Bu holat polimer plyonkalarda chuqur bosma jarayonining fizik-mexanik xususiyatlarini belgilab beradi. Xususan, texnologik bosim qiymati an’anaviy shimadigan, g‘ovak material — qog‘ozga nisbatan yuqoriroq bo‘lishi oldindan kutiladigan holatdir. Yuqori bosim bo‘yoq qatlamini yuqori aniqlikda o‘tkazish va uni bosma nusxada mustahkamlash uchun zarurdir.Shu bilan birga, muhim jihat shundaki,chop etish jarayonida asosan elastik deformatsiyalar bo’lishi kerak. Polimer material va rastr elementlarida plastik deformatsiyalarning yuzaga kelishi, ularning deformatsiyaning qaytmas xususiyati sababli, tasvir sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu esa rangning bir tekisligi va aniqligining buzilishi, gradatsion o‘tishlarning yomonlashuvi hamda kontur chegaralarining xiralashishi bilan namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зелке С. Пластиковая упаковка/С.Зелке, Д.Кутлер, Р.Хернандес.-СПб.: Профессия, 2011.-560 с.

2. Safayeva D.R. Qadoqlash materiali (polipropilen)ning bosma-texnik xossalarini chuqur bosma usulida tadqiq etish: texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. — Toshkent: TITLP, 2022. — 48 b.

3. Тюрин А.А. Печатные машины - автоматы.-М.: Книга, 1980.-416 с.

4. Гельмут Киппхан. Энциклопедия по печатным средствам информации. Технология и способы производства. Часть 1. -М. МГУП, 2003. – 1280 с.

OLOVBARDOSH KIYIMLARNI ISHLAB CHIQISH JARAYONLARI

i.d asisstent D.U.Yusupova
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Olovbardosh kiyimlarni ishlab chiqish jarayonlari yoritiladi. Unda bazalt tolasi, aramid va alyuminiy qoplamali matolarning issiqlikka chidamliligi tahlil qilinadi. Ishlab chiqarish bosqichlari hamda himoya xususiyatlari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Natijada metallurgiya sanoati uchun samarali va xavfsiz himoya kiyimlarini yaratish yo‘llari taklif etiladi.*

Аннотация: *В статье рассматривается процесс разработки огнестойкой одежды. Анализируется термостойкость базальтового волокна, арамида и тканей с алюминиевым покрытием. Научные основы исследования охватывают этапы производства и защитные свойства. В результате предлагаются пути создания эффективной и безопасной защитной одежды для металлургической промышленности.*

Abstract: *The process of developing flame-retardant clothing is covered. It analyzes the heat resistance of basalt fiber, aramid, and aluminum-coated fabrics. The production stages and protective properties are considered on a scientific basis. As a result, ways to create effective and safe protective clothing for the metallurgical industry are proposed.*

Metallurgiya sanoati yuqori xavfli ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ishchilar ko‘pincha 1000°C dan yuqori harorat, eritilgan metall sachrashlari va infraqizil nurlanish ta’siriga duch keladi. Shu sababli maxsus himoya kiyimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biridir.

An’anaviy paxta yoki sintetik matolar bunday ekstremal sharoitlarda yetarli himoya bera olmaydi. Shu sababli, yangi avlod olovbardosh materiallar va ko‘p qatlamli tekstil tizimlarini ishlab chiqish talab etiladi[1].

Material tanlash jarayonining maqsadi yuqori haroratga, eritilgan metallga va mexanik ta’sirga chidamli xom-ashyoni aniqlash. Buning uchun quyidagi jarayonlar bajariladi:

- Bazalt tolasi tanlanadi (800–1000°C chidamli)
- Aramid tolalar qo‘shiladi (mustahkamlik uchun)
- Alyuminizatsiyalangan mato tanlanadi (issiqlikni qaytarish uchun)

Natijada bu jarayonlardan so‘ng optimal tolalar kombinatsiyasi shakllantiriladi.

Matoni shakllantirishdan maqsad tolalardan issiqqa chidamli tekstil material hosil qilish. Buning uchun quyidagi jarayonlar bajariladi:

- Aralash tolalar yigiriladi
- Maxsus to‘quv dastgohlarida mato to‘qiladi
- Ko‘p qatlamli struktura yaratiladi[2]

Muhim jihat:

- Zichlik → issiqlikdan himoya
- Elastiklik → qulaylik

Alyuminizatsiya (qoplama berish)dan maqsadi issiqlik nurlanishini qaytaruvchi sirt hosil qilish. Buning uchun quyidagi jarayonlar bajariladi:

- Matoga alyumin folga yoki bug‘ orqali metall qoplama beriladi
- Laminatsiya yoki vakuum qoplash usuli qo‘llanadi

Natija bu jarayonlardan so‘ng 80–90% issiqlik qaytariladi va metall tomchilar yopishishi kamayadi.

Kiyim dizayni va konstruktsiyasidan maqsadi himoya + ergonomika balansini yaratish. Buning uchun quyidagi jarayonlar bajariladi:

- Model tanlanadi (M-1, M-2, M-3, M-4)
- Andoza (pattern) ishlab chiqiladi

Harakatga mos kesim yaratiladi

Muhim elementlar:

- Ventilyatsiya zonalari
- Mustahkamlangan tizza va tirsaklar
- Yashirin yopiladigan qism

Tikish jarayoning maqsadi materialni tayyor himoya kiyimiga aylantirish. Buning uchun quyidagi jarayonlar bajariladi:

- Issiqqa chidamli iplar bilan tikiladi (aramid ip)
- Ikki qavat choklar ishlatiladi
- Metall qismlar minimal darajada qo‘llanadi

1-Rasm. Olovbardosh kiyim namunalari

Texnologik talab:

- Choklar orqali issiqlik o‘tmasligi kerak
- Yorilish va deformatsiya bo‘lmasligi kerak[3].

Laboratoriya sinovlaridan maqsad kiyimning himoya darajasini tekshirish.

Sinov turlari:

- Issiqlik nurlanish testi
- Eritilgan metall tomchilari testi
- Yonuvchanlik testi
- Mexanik mustahkamlik testi

Natijada bu jarayonlardan so‘ng standartlarga mosligi aniqlanadi (ISO 11612)

Tayyor mahsulotni baholashdan maqsad real ishlab chiqarish sharoitida samaradorlikni aniqlash.

Baholash:

- Qulaylik (ergonomika)
- Himoya darajasi
- Xizmat muddati

Natija bu jarayonlardan so‘ng eng optimal model tanlanadi (masalan, M-1 yoki M-3).

Ishlab chiqarishga joriy etishdan maqsad kiyimni sanoat miqyosida ishlab chiqarish. Buning uchun quyidagi jarayonlar bajariladi:

- Texnologik karta tuziladi
- Ommaviy tikish yo‘lga qo‘yiladi
- Sifat nazorati joriy qilinadi

Xulosa qilib aytganda,har bir bosqich bir-biri bilan bog‘liq:

Material → Mato → Qoplama → Dizayn → Tikish → Sinov → Tayyor mahsulot

Agar shu zanjirdan bittasi noto‘g‘ri bo‘lsa, kiyim himoya xususiyatini yo‘qotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Horrocks A.R., Anand S.C. *Handbook of Technical Textiles*.
2. ISO 11612: Protective clothing against heat and flame.
3. Militky J., et al. *Special Textile Fibres*.

METALLURGIYA SANOATI UCHUN OLOVBARDOSH KIYIMLARNI LOYIHALASH VA OPTIMALLASHTIRISH

i.d asisstent D.U.Yusupova
Farg‘ona davlat texnika universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada metallurgiya sanoatida ishlovchi xodimlarni yuqori harorat, eritilgan metall tomchilari va issiqlik nurlanishidan himoya qiluvchi olovbardosh kiyimlarni loyihalash masalalari ko‘rib chiqiladi. Optimal tolalar aralashmasi va qatlam tuzilmasi ishchilarning xavfsizligini sezilarli darajada oshiradi.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается конструкция огнестойкой одежды, защищающей работников металлургической промышленности от высоких температур, брызг расплавленного металла и теплового излучения.*

Abstract: *This article discusses the design of flame-retardant clothing that protects workers in the metallurgical industry from high temperatures, molten metal splashes, and thermal radiation. The optimal fiber mix and layer structure significantly increase worker safety.*

Metallurgiya sanoati yuqori xavfli ishlab chiqarish tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ishchilar ko‘pincha 1000°C dan yuqori harorat, eritilgan metall sachrashlari va infraqizil nurlanish ta’siriga duch keladi. Shu sababli maxsus himoya kiyimlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biridir.

An’anaviy paxta yoki sintetik matolar bunday ekstremal sharoitlarda yetarli himoya bera olmaydi. Shu sababli, yangi avlod olovbardosh materiallar va ko‘p qatlamli tekstil tizimlarini ishlab chiqish talab etiladi[1].

Materiallar tanlashda quyidagi issiqqa chidamli tolalar ishlatildi:

- Bazalt tolasi (yuqori haroratga chidamlilik: ~800–1000°C)
- Aramid tolasi (Nomex, Kevlar)
- Alyuminizatsiyalangan matolar (issiqlik nurlanishini qaytaradi)

Tajriba usullarida materiallar quyidagi testlardan o‘tkazildi:

- Issiqlik qarshiligi testi (ISO 6942)
- Eritilgan metall tomchilari ta’siri testi
- Mexanik mustahkamlik (uzilish, ishqalanish)
- Termal degradatsiya analizi[2]

Kiyim konstruksiyasi uchun ko‘p qatlamli tizim ishlab chiqildi:

1. Tashqi qatlam – alyuminizatsiyalangan bazalt mato
2. O‘rta qatlam – issiqlik izolyatsiyasi (aramid + bazalt aralashmasi)
3. Ichki qatlam – gigiyenik va qulaylikni ta’minlovchi mato
4. Tajriba natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:
5. Issiqlik himoyasi uchun bazalt va aramid tolalar kombinatsiyasi issiqlik o‘tkazuvchanligini 25–35% ga kamaytirdi.

1-rasm. Qatlam tuzilmasi.

Eritilgan metallga chidamlilik

Alyuminizatsiyalangan qatlam:

- Metall tomchilarining yopishishini kamaytirdi
- Sirt haroratini pasaytirdi

Mexanik xususiyatlar

Aramid tolalar qo‘shilishi:

- Matoning uzilish mustahkamligini oshirdi
- Ishqalanishga chidamliligini yaxshiladi

2-rasm. Metallurgiya sanoatida ishlovchi xodimlar uchun tikilgan namunalar

Optimal struktura

Eng samarali kombinatsiya:

- 50% bazalt tolasi
- 30% aramid tolasi
- 20% maxsus sintetik tolalar[3]

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, yagona materialdan foydalanish yetarli emas. Ko‘p qatlamli tizim va turli tolalar kombinatsiyasi maksimal himoyani ta’minlaydi.

Bazalt tolasi yuqori haroratga chidamlilikni ta’minlasa, aramid tolalar mexanik mustahkamlikni oshiradi. Alyuminizatsiya esa issiqlik nurlanishini qaytarishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa qilib aytganda, metallurgiya sanoati uchun olovbardosh kiyimlarni loyihalashda quyidagi omillar muhim:

- Ko‘p qatlamli struktura
- Issiqqa chidamli tolalar kombinatsiyasi
- Alyuminizatsiyalangan tashqi qatlam

Taklif etilgan model ishchilarning xavfsizligini oshirish bilan birga, kiyimning xizmat muddatini ham uzaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Horrocks A.R., Anand S.C. *Handbook of Technical Textiles*.
2. ISO 11612: Protective clothing against heat and flame.
3. Militky J., et al. *Special Textile Fibres*.

INTENSIV USULDA YETISHTIRILGAN PILLARDAN CHUVILGAN XOM IPAKNING IQTISODIY SAMARADORLIK HISOBI

texnika fanlari doktori, professor. A.E.Gulamov
texnika fanlari falsafa doktori, N.B.Esanova,
tadqiqotchi assistent U.B.Umirov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada intensiv usulda yetishtirilgan Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalarini chuvishga tayyorlash va chuvish texnologiyasi takomillashtirildi. Takomillashtirilgan texnologiya pishirish vaqtini 15 % ga, pilla sarfini 4 % ga kamaytirib, dastgoh unumdorligini 16 % ga oshirdi hamda iqtisodiy samaradorlikni ta’minladi.*

Аннотация. *В данной статье В работе усовершенствованы технологии подготовки и размотки коконов гибридов Зарафшон-2 и Зарафшон-3, выращенных интенсивным методом. Предлагаемая технология сократила время варки коконов на 15 %, расход коконов на 4 % и повысила производительность оборудования на 16 %.*

Abstract. *This article study improved the processing and reeling technology of intensively reared Zarafshon-2 and Zarafshon-3 cocoon hybrids. The proposed technology reduced cocoon cooking time by 15%, decreased cocoon consumption by 4%, and increased reeling machine productivity by 16%.*

“O‘zbekipaksanoat” uyushmasi tasarrufidagi korxona Qashqadaryo viloyati Shahrisabz shahridagi “SHAHRISABZ SILK PRODUCTION” mas’uliyati cheklangan jamiyatda Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti olimlari ishtirokida pilla chuvish sexida Intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy duragay Zarafshon-2, Zarafshon-3 pillalarni chuvishga tayyorlash va chuvish texnologiyalarini takomillashtirish orqali, ya’ni muqobil pillalarni bug‘lash rejimlari, chuvish tezliklarini o‘rnatish orqali avtomat pilla chuvish dastgohida sifatli xom ipak chuvib olindi.

Olib borilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijasida tut ipak qurtinining Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragaylarini turli boqish mavjud va intensiv usullarida yetishtirib, ulardan olingan natijalarni bir-biri bilan solishtirib ko‘rilganda, iqtisodiy samaradorlik intensiv usulda yetishtirilgan sifatli pillalardan 3A sinfiga mansub xom ipak ishlab chiqarishda yuqori ekanligi aniqlandi. Ipak qurtini boqishda mavjud usulda 1006,8 kg barg sarflangan bo‘lsa, tajriba usulda 871,1 kg barg sarflangan va ozuqa farqi 135,7 kg tashkil etib, boqish kuni mavjud usulda 27 kun bo‘lib, intensiv usulda esa 24 kun davom etib, intensiv usulda boqish kunlari orasidagi farq 3 kunga qisqarishi, olingan tirik pilla hosilining 6,2 kg ga ko‘p bo‘lishi va olingan xom ipakning sifati 3 A sinfiga oshishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishildi.

2023 yilda O‘zbekistonda 1 kg ho‘l pilla-27 147 so‘m; fermerlar bilan kelishuv orqali 5 000 so‘m qo‘shilib, jami 32 147 so‘m bo‘lgan [1]. 2024 yildan boshlab pilla narxi 25 % ga oshirilgan, shuningdek, 2025 yildan bozor tamoyillari asosida erkin narxlash amalga oshirilib, pilla narxini davlat belgilashi, fermer va kasanachilar o‘zi yetishtirgan pillani faqat klasterlarga sotishi amaliyotidan voz kechildi [2].

1-jadval

100 quti ipak qurti yetishtirishda intensiv usul orqali erishilgan iqtisodiy samaradorlikni hisoblash

№	Ko‘rsatkich	Qiymat
1	Ozuqa farqi (1 quti)	135,7 kg
2	Boqish kunlari farqi	3
3	Qo‘shimcha tirik pilla hosili	620 kg
4	Quruq pilla miqdori	248 kg
5	Pilla narxi	40 000 so‘m/kg
6	Xom ipak chiqishi	85,5 kg xom ipak
7	1 kg xom ipak narxi (3A sinf)	60 $ = 756 000 so‘m ($ kursi=12600)
8	**88,5 kg** (3A sinfiga mos) **xom ipak uchun foyda**	**64 638 000 so‘m**
9	**Korxona 13% foyda olsa**	8 402 940 so‘m

Hozirgi narx 2024–2025 yillarda 25% ga oshirilishi hisobiga (taxminan) 40 000 – 45 000 so‘m/kg ni tashkil qiladi. O‘zbekistonda 1 kg 3A sinfiga mos xom ipakni narxi **60 $/kg (~756 000 so‘m/kg)** oralig‘ida deb hisoblanadi (1-jadval).

1. Ozuqa tejalishi (100 quti ipak qurti urug‘i uchun)

135,7 kg × 100 quti = **13 570 kg = 13,57 tonna**

2. Tirik pilladan qo‘shimcha daromad:

620 kg × 40 000 = **24 800 000 so‘m**

3. Xom ipak daromadi:

A) Xom ipak chiqishi:

620 kg tirik pilladan quruq pilla chiqishi - 248 kg

620/2,5=248 kg;

248 kg quruq pilladan xom ipak chiqishi -85,5 kg;

248/2,9=85,5 kg

Solishtirma sarfi **1 kg xom ipak uchun ≈ 2,9 kg pilla**

B) Xom ipak narxlari bo‘yicha daromad 85,5 kg uchun:

(60 $ = 756 000 so‘m/kg):

85,5 × 756 000 = **64 638 000 so‘m;**

Shundan korxona 13% foyda olsa 8 402 940 so‘m ni tashkil etadi.

Intensiv usulda ipak qurti boqishda 100 quti uchun:
13,57 tonna barg tejaladi
620 kg ortiqcha tirik pilla hosil olinadi
85,5 kg yuqori sifatli xom ipak (3A sinf) olinadi.
100 quti intensiv usulda yetishtirilgan pillalardan kutiladigan sof foyda korxona uchun: 8 402 940 so‘mni tashkil etadi.

Respublikamiz hududlarida tut ipak qurtining intensiv usulda yetishtirilgan tajriba pillalarini parvarishlash va pilla yetishitirish pillakashlik korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Bu esa 3A sinfga to‘g‘ri keladigan xom ipak ishlab chiqarishda keng foydalanish imkonini beradi.

Tavsiya etilgan takomillashtirilgan texnologiya natijasida intensiv usulda yetishtirilgan mahalliy pillalar uchun dastlabki ishlov berish va chuvish texnologiyasini takomillashtirish orqali xalqaro standart talablarining “3A” sinfiga mos yuqori sifatli xom ipak olish imkoniyati yaratilgan bo‘lib, pillalarni chuvishga tayyorlash jarayonidagi pishirish vaqti 15% ga, 1 kg xom ipak ishlab chiqarishga ketadigan pillalarni solishtirma sarfi 4 % ga kamayishiga hamda chuvish dastgohini ish unumdorligi 16 % oshishi hisobiga iqtisodiy samaradorlikka erishilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xom ipak uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat standarti O‘zDSt 3313:2018
2. ttps://xs.uz/uz/post/pilla2023
3. https://kun.uz/529486835. World Bank. Water Pollution from Textile Industry. – Washington, 2021.
4. Gulamov A.E., Esanova N.B., Umirov U.B. Nasirillayev B.U. Sodiqov D.S. “Yuqori namlikda intensiv usulda yetishtirilgan pillalarning xususiyatlari” TTYSIning “O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali” ilmiy-texnika jurnali. 2024-yil №1. 72-81 betlar.
5. Gulamov A.E., Eshmirzayev A.P., Esanova N.B., Umirov U.B. Turli usullarda yetishtirilgan pillalar qobig‘ining texnologik xususiyatlarini tadqiqi. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, Т.27.спец.выпуск №4) . 14-22 betlar.
6. 29. Gulamov A.E. Yangi mahalliy duragay pillalarini chuvish va yuqori sifatli xom ipak olish texnologiyasini takomillashtirish. Diss. DSc. -Toshkent. -2016. –и. 183-186.

INTENSIV USULDA YETISHTIRILGAN PILLALAR UCHUN AVTOMAT PILLA CHUVISH MASHINASINING OPTIMAL TEZLIGINI ANIQLASH

texnika fanlari doktori, professor. A.E.Gulamov
texnika fanlari falsafa doktori, N.B.Esanova,
tadqiqotchi assistent U.B.Umirov
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada avtomat pilla chuvish mashinasida pilla chuvish tezligining xom ipak sifati va ishlab chiqarish unumdorligiga ta’siri o‘rganilgan. Pilla iplarining texnologik ko‘rsatkichlari asosida 2,33 teksli 3A sinf xom ipak ishlab chiqarish uchun muqobil chuvish tezliklari aniqlangan.*

Аннотация. *В данной статье В данной работе исследовано влияние скорости размотки коконов на производительность автоматического кокономотального оборудования и качество шелка-сырца. На основе технологических показателей коконной нити определены оптимальные скорости размотки для получения шелка-сырца линейной плотностью 2,33 текс, соответствующего классу качества 3А.*

Abstract. *This article study investigates the effect of cocoon reeling speed on the productivity of automatic reeling machines and the quality of raw silk. Based on the technological characteristics of cocoon filaments, optimal reeling speeds were determined for producing 2.33 tex raw silk that meets the requirements of the 3A quality grade.*

Pillani chuvishdan maqsad uzunligi bo‘yicha silliq va chiziqiy zichligi bo‘yicha bir tekis bo‘lgan kompleks iplarni shakllantirishdan iborat. Bunday kompleks iplar xom ipak deb yuritilib, bir nechta pilla iplarini chuvish yo‘li bilan hosil qilinadi. Bundagi asosiy vazifa yordamchi materiallar va mehnat sarfini iloji boricha kamaytirishdan iborat. Pilla chuvish jarayonlarini shartli to‘rt guruhga bo‘lish mumkin: Pillalarni chuvishga dastlabki tayyorlash uchun qobiqni qattiqligi, kalibri va tashqi belgilari bo‘yicha saralash; pillalarni chuvishga tayyorlash pilladagi seritsinni yumshatish, pillani suv bilan to‘ldirish, yakka uchini topish va ularni ajratish; pilla chuvish-pilla iplaridan xom ipakni shakllantirish va charxga yig‘ish; nazorat-yig‘uv charxdan tushirilgan xom ipak mollik mahsulot ko‘rinishiga keltirish va tayyor mahsulot omboriga olib tushishdan iborat [1].

Avtomat pilla chuvish mashinasida pillani chuvish tezligi ish unumdorligiga hamda ipak sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Pillalar chuvishda o‘rnatilgan tezlikdan oshib ketsa pilla iplarida uzilishlar soni oshib ketadi hamda xom ipak sifatiga o‘z tasirini ko‘rsatadi. Avtomat pilla chuvish mashinasida pillani chuvish tezligi ish unumdorligiga hamda ipak sifatiga ta’sir ko‘rsatadi. Pillalar chuvishda

o‘rnatilgan tezlikdan oshib ketsa pilla iplarida uzilishlar soni oshib ketadi hamda xom ipak sifatiga o‘z tasirini ko‘rsatadi.

Pilla chuvish avtomatida muqobil chuvish tezligini o‘rnatish.

Chuvish tezligi quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$v = \frac{N \cdot l_{uu} \cdot T_p}{T_{xi} \cdot m} \cdot K \quad (1)$$

bu yerda,

N – 1 minutda 1 ta chuvish tozidagi ilgichlar tagiga tashlanadigan pillalar meyori (1 minutda 1 tozdagi ilgichlarga 2,33 teksli xom ipak ishlab chiqarish uchun) tashlanadigan pillalar soni mos ravishda 22;

l_{uu} - pilla ipining uzluksiz chuvaluvchan uzunligi, m;

$T_{p.i.}$ – pilla ipining chiziqli zichligi, teks;

$T_{x.i.}$ – xom ipakning berilgan chiziqli zichligi, teks;

m – 1 ta chuvish tozidagi ilgichlar soni ta (20);

$$K = K_s \cdot K_t \quad (2)$$

bu yerda,

K_s – sirpanish hisobiga tezlikni yo‘qotish koeffisiyenti (0,95);

K_t – mos keluvchi to‘xtashlarni hisobga olgan holda charx ishlashining koeffisiyenti (0,90).

Pilla chuvishning hisobiy tezligi ishlab chiqarish normasini va ipak mahsulotlari chiqishini o‘rnatishda bir smena davomida oltita tozda pillalarni chuvish orqali tekshirildi [2-3].

Tadqiqotlar natijasida olingan pilla iplarining texnologik ko‘rsatkichlari asosida standartning “3A” sinfi talablariga mos 2,33 teks xom ipak ishlab chiqarish uchun hisoblangan miqobil chuvish tezlik intensiv usulda yetishtirilgan duragayi pillalarni chuvishda 134 m/min bo‘lishi tavsiya etildi. Mavjud usulda yetishtirilgan pillalar uchun hisoblangan muqobil chuvish tezligi esa 112 m/min ni tashkil qildi

Pilla chuvishdan maqsad berilgan chiziqli zichlikdagi sifatli, ya’ni mustahkam, elastik, jips, tozaligi yaxshi bo‘lgan sifatli xom ipak olishdir. Bu jarayon bir nechta pilla iplarini qo‘shib chuvish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Pillalar iplarining uzunligiga bog‘liq ravishda chuviladi va shuning uchun ularni dastada bo‘lish vaqti ham har xil bo‘ladi [4; 102-b.].

Xom ipakning birinchi darajali sifat ko‘rsatkichlariga ipning chiziqli zichligi bo‘yicha notekisligi, chiziqli zichligi bo‘yicha og‘ishi, yirik nuqsonlari bo‘yicha tozalik ko‘rsatkichlari kiradi. Xom ipakning ikkinchi darajali sifat ko‘rsatkichlari esa qayta o‘ralish qobiliyati, iplarning uzilishidagi uzayishi, solishtirma uzish kuchi, mayda nuqsonlar bo‘yicha tozaligi, kalavalarning holati va iplarning jipsligi tashkil qiladi [5; 88-94-b.].

Yuqori namlik sharoitda yetishtirilgan va ratsional rejimlarda quritilgan pillalardan olingan xom ipakning sifat ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Ma’lumki, ipak qurtining zoti, ipning uzilish kuchi va uzilishdagi cho‘zilishi, chiziqli zichligi, diametri va uzunligi, ipni pillaning qaysi qobiq qavatidan olinganligi, namligi pilla ipi xususiyatlariga ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi [6; 50-51-b.].

Yakka tartibda pilla chuvishdan olingan ma’lumotlarga tayanib hamda bug‘lash va yakka uchini topishdagi rejimlar o‘rnatilib, avtomat pilla chuvish dastgohida 2,33 teksli xom ipak ishlab chiqarildi. Chuvish jarayonlari o‘rnatilgan texnologik xarita bo‘yicha olib borildi. Tajriba davomida pishirib uchlari topilgan mahalliy Zarafshon-2 va Zarafshon-3 duragay pillalari FY-2000 NT pilla chuvish avtomatida chuvildi. Chuvib olingan xom ipak esa ZJ-188A markali qayta o‘rash mashinasida standart P=1,5 mlik kalavalarga qayta o‘rab olindi.

Tahlillar natijasiga, ko‘ra intensiv respublikamiz hududlarida tut ipak qurtining intensiv usulda yetishtirilgan tajriba pillalarini parvarishlash va pilla yetishitirish pillakashlik korxonalari iqtisodiy samaradorligini oshiradi. Bu esa 3A sinfga to‘g‘ri keladigan xom ipak ishlab chiqarishda keng foydalanish imkonini beradi. Intensiv usulda yetishtirilgan pillalar uchun muqobil chuvish parametrlari o‘rnatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Esanova N.B. Intensiv usulda yetishtirilgan pillalarga ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish. Diss. PhD. -Toshkent. TTYSI. 2026. 86-bet.
2. Алимова Х.А., Кобулова Н., Гуламов А.Э. Основы производства высококачественного шелка-сырца из живых коконов // «Проблемы текстиля» научно-технический журнал. -Ташкент. -2006.-№2. -С.62-64.
3. Alimova X.A., Gulamov A.E., Aripdjanova D.U., Axmedov J.A. Мировое производство и потребление текстильного сырья // J. Композиционние материали. -2013. -№4. -S. 71-74.
4. Bobatov U.A. Turli ekologik hududlarda yetishtiriladigan pillalarni chuvish texnologiyasini takomillashtirish Diss. PhD. -Toshkent. TTYSI. 2023. – B. 102.
5. Gulamov A.E., Esanova N.B., Umirov U.B. Nasirillayev B.U. Sodiqov D.S. “Yuqori namlikda intensiv usulda yetishtirilgan pillalarning xususiyatlari” TTYSIning “O‘zbekiston to‘qimachilik jurnali” ilmiy-texnika jurnali. 2024-yil №1. 72-81 betlar.
6. Gulamov A.E., Eshmirzayev A.P., Esanova N.B., Umirov U.B. Turli usullarda yetishtirilgan pillalar qobig‘ining texnologik xususiyatlarini tadqiqi. Scientific-technical journal (STJ FerPI, ФарПИ ИТЖ, НТЖ ФерПИ, 2023, T.27.спец.выпуск №4). 14-22 betlar.

PAXTA-AKRILIK ARALASH IPLARNING MEXANIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

O.O. Rajapov, PhD, dotsent, U.O. Nurjonov, doktorant
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya. *Ushbu tadqiqotda 20 tex chiziqli zichlikdagi paxta-akrilik aralash ip (85/15 va 70/30 nisbatdagi namunalar) standart cho‘zish sinovi (TEXTECHNO STATIMAT ME qurilmasi, ISO 2062 metodologiyasi) asosida tahlil qilingan. Olingan natijalar 100% paxta ipining adabiyot ma’lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, akril tolasi ulushining mexanik xususiyatlarga ta’siri statistik baholangan.*

Kirish. To‘qimachilik sanoatida tabiiy va sintetik tolalarni aralashtirish tayyor mahsulotning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradi. Akril tolasi yuqori issiqlik saqlash, yorqin bo‘yalish va kimyoviy barqarorlikka ega bo‘lsa, paxta o‘zining gigroskopikligi va havo o‘tkazuvchanligi bilan ajralib turadi. Mahalliy xomashyo bazasida ishlab chiqarilgan aralash iplarning mexanik ko‘rsatkichlarini tizimli o‘rganish texnologik jarayonlarni optimallashtirish va raqobatdosh mahsulotlar yaratishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu ishning maqsadi paxta/akril (85/15 va 70/30) aralash iplarining mustahkamlik va cho‘zilish ko‘rsatkichlarini eksperimental baholashdan iborat.

Materiallar va usullar. Tadqiqotda quyidagi namunalar o‘rganildi: (I) paxta/akril 85/15 aralash ip (23.05 tex) va (II) paxta/akril 70/30 aralash ip (23.18 tex). Namunalar ISO 139 standarti bo‘yicha konditsiyalandi. Taqqoslash uchun 23 tex chiziqli zichlikdagi 100% paxta ipining adabiyot ma’lumotlari bazaviy qiymat sifatida olindi.

Cho‘zish sinovlari ISO 2062:2009 talablariga muvofiq **TEXTECHNO STATIMAT ME** qurilmasida (Yuk o‘lchagich 100 N, o‘lchov bazasi 500 mm, sinov tezligi 500 mm/min, dastlabki zo‘riqish 0.5 cN/tex) o‘tkazildi. Har bir guruh uchun 10 ta mustaqil o‘lchov bajarildi. Statistik tahlil va guruhlararo farqlar bir tomonlama dispersiya tahlili (ANOVA, $p < 0.05$) orqali baholandi.

Natijalar va ularning tahlili. O‘tkazilgan eksperimentlar natijasida aralashma tarkibidagi akril tolasi ulushining ortishi ipning mustahkamlik ko‘rsatkichlariga ijobiy, cho‘zilish qobiliyatiga esa murakkab ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval. Iplarning asosiy mexanik ko‘rsatkichlari qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	100% Paxta	Paxta/Akril 85/15	Paxta/Akril 70/30	F-test (p<0.05)
Mustahkamlik, cN/tex (O‘rtacha)	8.70	11.36	13.28	Ha
Mustahkamlik, CV%	9.14	5.58	10.65	-
Cho‘zilish (\(F_{max}\)), % (O‘rtacha)	6.48	3.89	4.25	Ha
Cho‘zilish, CV%	11.20	15.55	9.36	-
Maksimal kuch, cN (O‘rtacha)	199.25	261.89	307.86	Ha
Uzilish ishi, cN·cm (O‘rtacha)	212.30	287.83	371.72	Ha

Akril tarkibining ortishi ip mustahkamligini izchil oshiradi: 85/15 nisbatida sof paxtaga nisbatan 30.6% ga, 70/30 nisbatida esa 52.6% ga o‘sish kuzatildi. Bu holat akril tolasining yuqori moduli va mustahkam kovalent bog‘li polimer zanjiri tuzilishi bilan izohlanadi.

Cho‘zilish qobiliyati aralash iplarda sof paxtaga (6.48%) nisbatan kamaygan bo‘lsa-da, 70/30 namunasida (4.25%) 85/15 namunasiga (3.89%) qaraganda biroz yuqori bo‘ldi. Bu tolalararo murakkab geometrik o‘zaro ta’sir va egrish texnologiyasidagi strukturaviy o‘zgarishlar ehtimoli bilan bog‘liq.

Uster standartlariga ko‘ra, halqali egrish iplari uchun CV% < 6% a’lo daraja hisoblanadi. 85/15 namunasining mustahkamlik bo‘yicha variatsiya koeffitsiyenti (CV% = 5.58) yuqori sifat barqarorligini ko‘rsatadi. Biroq uning cho‘zilish bo‘yicha koeffitsiyenti (CV% = 15.55) egrish jarayonida bir xillikni yaxshilash zarurligini bildiradi. Uzilish ishi ko‘rsatkichi ham 70/30 namunasida maksimal qiymatga (371.72 cN·cm) yetdi, bu esa mahsulotning mexanik zo‘riqishlarga chidamliligini oshiradi.

Xulosalar

1. Aralashmada akril ulushining 15% dan 30% gacha oshishi ip mustahkamligini sof paxtaga nisbatan mos ravishda 30.6% va 52.6% ga oshiradi.
2. Ipning cho‘ziluvchanligi akril kiritilishi bilan kamayadi (3.89% va 4.25%), biroq tarkibiy komponentlar nisbati optimal texnologik muvozanatni talab qiladi.
3. 85/15 tarkibli ip mustahkamlik bo‘yicha eng yuqori takrorlanuvchanlik va barqarorlikni (CV% = 5.58) namoyon etdi.
4. Aralash iplarda uzilish ishining sezilarli o‘sishi (75.1% gacha) ushbu iplarni yuqori yuklamali texnik to‘qimachilik va maxsus kiyimlar ishlab chiqarishda qo‘llash samaradorligini isbotlaydi.

INSON–KIYIM–ATROF-MUHIT TIZIMIDA QULAYLIK HOLATINING SHAKLLANISH JARAYONLARI

Ilmiy rahbar t.f.f.n dot.N.X.Mirtolipova
Stajyor tadqiqotchi M.B.Norqobilova

Annotatsiya.. *Kiyimning estetik, ijtimoiy, himoya va hayo funksiyalari , qulaylik holatining shakllanishida fizik, fiziologik, neyrofiziologik va psixologik jarayonlarning o‘zaro ta’siri ,. kiyim qulayligi inson organizmi, kiyim xususiyatlari va atrof-muhit omillarining integratsiyalashgan ta’siri*

Annotatsiya.. *Kiyimning estetik, ijtimoiy, himoya va hayo funksiyalari , qulaylik holatining shakllanishida fizik, fiziologik, neyrofiziologik va psixologik jarayonlarning o‘zaro ta’siri ,. kiyim qulayligi inson organizmi, kiyim xususiyatlari va atrof-muhit omillarining integratsiyalashgan ta’siri*

